

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI**

S.K. XUDOYQULOV

SOLIQ TIZIMI

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

2-nashri

UO'K: 336.22 (075)
KBK 65.261.4
X-87

*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash
tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

O'quv qo'llanma «Soliq tizimi» fanidan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida yozilgan bo'lib, to'rt bo'limdan iborat. Har bir bo'limdan joy olgan mavzular mantiqiy ketma-ketlikda yoritib berilgan. Birinchi bo'limda soliqlarning umumiy nazariyasining elementar asoslari yoritib o'tilgan. Xususan, unda soliq tushunchasi, soliq siyosati, soliq mexanizmi, xorijiy mamlakatlarning soliq tizimi bayon etilgan. Ikkinchi bo'limda yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish masalalari o'rganilgan. Unda yuridik shaxslarni soliqqa tortish tizimidagi mavjud soliqlar va ularni undirish mexanizmining amaldagi holati sodda va tushunarli ravishda yoritib berilgan. Uchinchi bo'limda soliq tizimidagi islohotlarning ustuvor yo'nalishi bo'lgan soliq solishning soddalashtirilgan tartibi mavzulari qamrab olingan. To'rtinchi bo'limda jismoniy shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish tizimiga oid mavzular o'rin olgan.

Taqrizchilar: **R.O. XOLBEKOV** – TDIUning «Buxgalteriya hisobi» kafedrasini mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor; **X.A. QURBONOV** — TDIUning «Davlat moliyasi va soliqlar» kafedrasini dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

KIRISH

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish, uni tarkibiy qayta qurish, islohotlar samarasini oshirish borasida bir qator izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Islohotlar asosiy yo‘nalishlari sifatida soliq tizimini shakllantirish va takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lib, bundan asosiy maqsad — xo‘jalik yurituvchi subyektlar va davlat budjeti o‘rtasida majburiy to‘lovlar bilan iqtisodiy munosabatlarga o‘zaro erishishdan iborat. Bu borada soliq siyosatini erkinlashtirish ushbu sohada erishiladigan yutuqlar garovidir. Shu sababli, mamlakatimiz rivojlanishining muhim ustuvor yo‘nalishi sifatida soliq siyosatini erkinlashtirishning belgilanishi bejiz emas.

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda mustaqil soliq siyosati ishlab chiqilib, uning taktika va strategiyasi aniqlangan holda izchil takomillashtirilib borilmoqda. Yurtboshimiz tomonidan milliy soliq siyosatining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildiki, uning asosiy maqsadi soliq to‘lovchilar va davlat budjeti manfaatlarini o‘rtasida o‘zaro uyg‘unlikni ta‘minlashga qaratilgan. Bunday uyg‘unlikni ta‘minlashning eng muhim vositalaridan biri — soliq yukini optimal belgilash va shu tariqa davlat budjetini kerakli miqdorda moliyaviy resurslar bilan ta‘minlagan holda soliq to‘lovchilar zimmasidagi soliq majburiyatlari ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta‘sir etmasligiga erishishdan iborat.

So‘nggi yillarda tadbirkorlik subyektlarining zimmasidagi soliq yuki kamayib, uning oqibatida iqtisodiy o‘sishga erishilmoqda. Bu borada Prezidentimiz ta‘kidlaganlaridek: «Aytish kerakki, bunday iqtisodiy o‘sish, ko‘p jihatdan, iqtisodiyotda soliq yukini pasaytirishga qaratilgan va izchil amalga oshirilayotgan siyosat bilan bog‘liq».

O‘zbekiston mustaqillikka erishib, iqtisodiy islohotlar yo‘lini tanlaganidan so‘ng, oldimizda mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, boshqa bozor iqtisodiyotiga o‘tishdek murakkab jarayonni boshidan kechirgan rivojlangan va rivoj-

lanayotgan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalaridan kelib chiqqan holda mohiyatan yangi soliq tizimini vujudga keltirish vazifasi turar edi.

O'tgan davr mobaynida soliq organlari tarkibini malakali kadrlar bilan ta'minlashga katta e'tibor berildi. Soliq xizmati xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlashda ularga nazariy jihatdan ko'mak beradigan o'quv qo'llanma va darsliklar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. «Soliq tizimi» fani iqtisodiy yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlari talabalari uchun umumkasbiy-mutaxassislik fan hisoblanib, talabalar ushbu fanni o'qib o'rganish orqali jamiyat hayotining ajralmas qismi sanalgan soliqlar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi roli hamda ahamiyati xususida nazariy bilimlarga ega bo'lib, soliqlarning obyektiv zarurligini anglab yetgan holda mavjud soliqlarni hisoblash va to'lash tartiblari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishadi. Qolaversa, ushbu fan talabalarning o'z tanlagan sohalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Soliq tushunchasi paydo bo'lganidan boshlab, uni joriy qilish va rivojlantirish bilan muntazam shug'ullanib kelingan. Soliqlar bo'yicha klassik iqtisodchi olimlardan A. Smit, D. Rikardo, U. Petti, N. Turgenov, D. Yum, A. Laffer hamda hozirgi zamon iqtisodchi olimlaridan R. Kempbell, K. Makkonel, V. Tverdoxlebov, S. Fisher, A. Voznesenskiy, V. Gluxov, B. Teyt, E. Glazova, D. Cherniklarning asarlarida soliq tushunchasi batafsil yoritilgan. Bundan tashqari, respublikamiz iqtisodchi olimlaridan I. Karimov, Q. Yahyoyev, M. Sharifxo'jayev, S. G'ulomov, T. Malikov, E.E. Gadoyev, O. Olimjonov, M. Alimardonov, A. Jo'rayev, B. Toshmurodova, N. Qo'ziyeva, Sh. Toshmatov asarlarida soliqlar va soliq munosabatlari to'g'risida fikr yuritilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmani yaratish jarayonida yuqorida nomlari zikr etilgan iqtisodchi olimlarning soliqlar bo'yicha olib borgan ilmiy ishlaridan foydalanildi. Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar va Internet tarmog'i ma'lumotlaridan hamda Davlat soliq qo'mitasi hisobot materiallaridan foydalanildi. O'quv qo'llanmaning ayrim paragraflarini tayyorlashda professor A. Mutalov, dotsent O. Azizov, katta o'qituvchilar Q. To'qsonov, O. Yusupovlar ishtirok etishgan.

I bo'lim

**SOLIQLARNING UMUMIY
NAZARIYASI VA UNING
ASOSLARI**

**1-bob. FANNING MAQSADI VA VAZIFALARI.
SOLIQ TUSHUNCHASI. SOLIQLARNING
IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI**

1.1. «Soliq tizimi» fanining maqsadi va vazifalari

Soliq munosabatlari davlatning bajaradigan vazifa va faoliyati amaliy jarayonining ibtidosini tashkil etadi. Chunki har qanday ustqurma muayyan iqtisodiy bazisdan oziqlanadi.

«Soliq tizimi» fani soliqlarning nazariy jihatlarini, xususiyatlarini oʻrganishdagi asosiy fan hisoblanadi. Fanning predmetiga toʻxtalishdan oldin «Soliq» kategoriyasini toʻliq anglab olish lozim. «*Soliq*» kategoriyasi — bu muhim iqtisodiy jarayon boʻlib, uning paydo boʻlishi va amal qilishi kishilik jamiyatining mavjudligi bilan chambarchas bogʻliqdir. Soliqlar har bir davlat faoliyatining moddiy jihatlarini taʼminlaydi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi.

Amaliyotda va umuman, iqtisodiy fanda soliqlarning mohiyatiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. Shu sababli, ushbu kategoriya har bir davlat tomonidan oʻziga xos tarzda foydalaniladi.

Davlat asta-sekin rivojlanib borishi bilan, uning funksiyalari ham muvofiq ravishda kengayib boradi. Bu esa, soliqlarga nisbatan qoʻyiladigan talabning kuchayishiga olib keladi. Shu sababli, soliq tizimi tobora murakkab va koʻp qirrali boʻlib boradi. Kishilik jamiyati rivojlanishi tarixi shuni koʻrsatadiki, davlat maʼmuriy boshqaruv bilan shugʻullangan hollarda, uning ehtiyojlari maʼlum darajada saqlanib qoladi, davlatning iqtisodiyotni boshqarish majburiyati paydo boʻlsa, uning xarajatlari va aholidan olinadigan tushumlari koʻpayadi. Bunday holatda soliqlarning shakllari rang-baranglashib boradi.

Har qanday fan oʻzining predmetiga, yaʼni izlanish obyektiga ega boʻladi. Masalan, «Texnologiya» fanining predmeti boʻlib, kimyoviy moddalarning tarkibini oʻrganish hisoblansa, «Mashinasozlik» fani uchun mashinalar mexanizmi xarakterlidir, «Soliq

tizimi» fanining predmeti esa soliq munosabatlari (harakati)ni oʻrganishdir.

Demak, «Soliq tizimi» fanining predmeti — bu soliq toʻlovchilarning majburiy toʻlovlar boʻyicha davlat budjeti bilan iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonining oʻziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarining nazariy jihatlarini oʻrganishdan iborat. Ushbu keltirilgan taʼrifdan koʻrishimiz mumkinki, fan oʻz predmetini oʻrganishda turli usullar oʻzaro aloqasining nazariy jihatlarini oʻrganar ekan. Jumladan, soliq toʻlovchilar va uni oʻzlashtiruvchi, davlat budjeti, majburiy toʻlovlar, moliyaviy munosabatlar kabi elementlarning oʻzaro iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonlarining nazariy jihatlarini, qirralari keng koʻlamda oʻrganiladi.

Fanning mohiyati shu oʻrtadagi moliyaviy munosabatni, yaʼni soliq toʻlovchi bilan davlat oʻrtasidagi munosabatni chuqur oʻrganish, soliq munosabatlarida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini eʼtiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi. Bu muvozanatni saqlashda, tomonlar adolatlik tamoyiliga amal qilishlari zarur. Tushunarliroq qilib aytilsa, budjetga soliqlarni olishda soliq toʻlovchilar boʻyniga ortiqcha ogʻirlik osmaslik, ularni oʻz ishlab chiqarishdan manfaatdorligini soʻndirib qoʻymaslik, ularning dasturlari va rejalarini tez-tez oʻzgartirishga olib bormaslik va hokazolarga eʼtibor berish koʻzda tutiladi. Bu yerda tomonlarning doʻstona munosabatda boʻlishi, bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlar boʻlishini oʻrgatadi.

«Soliq tizimi» fani, shuningdek, oʻz predmetini oʻrganishda nazariy tahlil va sintez usulidan ham foydalanadi. *Tahlil* — bu oʻrganilayotgan butun obyektini qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan tahlil qilish boʻlsa, sintez esa, oʻrganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb qarab, umumiy xulosa chiqarishdir. Soliqlarga doir murakkab nazariy masalalar mana shu yoʻl bilan oʻrganiladi.

Fan oʻz predmetini oʻrganishda makro va mikroiqtsodiy holda tahlilni qoʻshib olib borishi muhim oʻrin tutadi. Soliqlarning nazariy masalalarini mikroiqtsodiy jihatdan oʻrganishda iqtisodiyotning boshlangʻich boʻgʻini boʻlgan xoʻjalik yurituvchi

subyektlar nuqtayi nazaridan, ular bilan davlat budjeti o'rtasidagi munosabatlar tadqiq etilsa, makroiqtisodiy jihatdan tahlil etishda esa, davlat miqyosida, ya'ni soliqlarning nazariy masalalari makroiqtisodiy darajada o'rganiladi.

Shuningdek, fan o'z predmetini o'rganishda taqqoslash, statistik, grafik usullardan ham foydalanadi. Jumladan, soliqlarni davrlar bo'yicha taqqoslash, ulardan tushumlarni jadvallar orqali ifodalash, o'zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta'sirini grafik usulda tasvirlash va shu kabilardir. Masalan, soliqlar o'zgarishining yalpi talab va taklifga ta'sirini shu usul bilan ifodalash mumkin.

1.2. Soliqlarning umumiy belgilari va boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqi

U yoki bu iqtisodiy kategoriyaning mohiyatini chuqurroq anglash uchun unga xos umumiy belgilarni aniqlash lozim bo'ladi. Masalan, kredit iqtisodiy kategoriya sifatida muddatlilik, qaytarishlik, muayyan miqdorda ustama haq (foiz) to'lash kabi umumiy belgilarga egaki, ushbu belgilar kredit kategoriyasi mohiyatini kengroq yoritish uchun xizmat qiladi. Xuddi shu kabi soliq kategoriyasi ham bir qator o'ziga xos belgilarga egaki, ushbu belgilar soliqlarni boshqa to'lovlardan farqlash uchun xizmat qiladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, soliqlarning belgilari borasida ham iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil fikrlar mavjud. Masalan, professor Q. Yahyoyev soliqlarning umumiy belgilari sifatida quyidagilarni asoslaydi:

1. Soliqlar va yig'imlar majburiy bo'lib, bunda davlat soliq to'lovchining bir qism daromadlarini majburiy badal sifatida budjetga olib qo'yadi. Bu majburiylik Oliy Majlis tasdiqlab bergan Soliq kodeksining qoidalari asosida amalga oshiriladi. Demak, majburiylik belgisi huquqiy jihatdan davlat tomonidan kafolatlanadi.

2. Soliqlar xazinaga, davlat budjetiga tushadi. Ammo boshqa turdagi to'lovlar jamg'armalarga tushishi soliq munosabatlarini aks ettirmaydi.

3. Soliqlar qat'iy belgilangan va doimiy harakatda bo'ladi. Tarixan asrlab o'zgarmay harakatda bo'lgan soliqlar mavjud. Uning ilmiy asosi qancha chuqur bo'lsa, shuncha qat'iy va uzoq yillar o'zgarmasdan harakat qiladi.

4. Davlatga to'langan soliq summasi to'lovchining o'ziga to'liq qaytmaydi, ya'ni u ekvivalentsiz pul to'lovidir¹.

Rus iqtisodchisi A. Medvedev o'zining «Soliqlarni qanday rejalashtirmoq kerak» kitobida soliqlarga xos bo'lgan ikki belgini, ya'ni *majburiylik* va *ekvivalentsizlik* kabi belgilarni qayd etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizningcha, soliqlarning umumiy belgilarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Soliq to'lovchi pulning u yoki bu summasini davlatga to'lar ekan, buning evaziga bevosita biron-bir tovar yoxud xizmat olmaydi. Alohida olingan soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq miqdori bilan u iste'mol qiladigan ijtimoiy ne'matlar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lmaydi. Xuddi ana shu xususiyatiga ko'ra, soliq narxdan (tovar yoki xizmatlarni ixtiyoriy iste'mol qilganligi uchun to'lanadigan haq sifatida), ruxsatnoma (litsenziya)lar va vositachilik yig'implaridan farq qiladi, chunki bular majburiy yoki ixtiyoriy to'lovlar hisoblanada, biroq hamma vaqt hukumat tomonidan ko'rsatilgan xizmatdan muayyan foyda (naf) ko'rilishi bilan bog'liqdir.

Davlatga to'lanadigan soliqlar bilan uning evaziga olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy ne'matlar o'rtasida bevosita, har bir kishining ko'zi ilg'aydigan bog'liqlikning yo'qligi soliq to'lovchilar soliqqa tortishni yuk sifatida baholashlari uchun sabab bo'ladi, vaholanki, ular soliqlar hisobidan qilinadigan davlat xarajatlarning yo'nalishini ma'qullashlari ham mumkin.

2. Soliqlar majburiy to'lovlar hisoblanadi. Soliqlarning to'liq miqdorda va o'z vaqtida to'lanishi uchun javobgarlik soliq to'lovchilar zimmasiga yuklangan bo'lsa-da, ular ixtiyoriy emas, majburiy ravishda to'laydilar, davlat soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlarni qattiq jazolaydi.

3. Davlat foydasiga soliq to'lash orqali daromadning avvaldan belgilab qo'yilgan, eng muhimi, qonuniy tartibda ko'zda tutilgan qismi undirib olinadi. Ko'pgina davlatlarning, shu jumladan,

¹ Q. Yahyoyev. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. T., 2003.

O‘zbekistonning ham qonunlarida soliqlarni belgilash va ularning hajmlarini aniqlashga faqat Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat yoki uning tomonidan vakolat berilgan organlar haqlidirlar, deb mustahkamlab qo‘yilgan.

4. Soliqlarning yana bir belgisi ularning davlat yoki mahalliy budjetga kelib tushishidir, ya’ni soliqlar budjetdan tashqari fondlar yoki turli xil boshqa fondlarga kelib tushmaydi.

5. Soliqlarga xos bo‘lgan umumiy belgilardan biri davlat hamda yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida mulkchilikni qayta taqsimlash jarayonining yuzaga kelishidir. Sodaroq qilib aytganda, korxonalar va aholidan olinadigan soliqlar, aslida ular mulkining ma’lum bir qismi davlat hisobiga o‘tkazilishini bildiradi. Bu bilan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga tegishli bo‘lgan mulk daromad shaklida majburiy to‘lov bo‘lib, davlat mulkiga aylanadi.

Demak, yuqorida qayd etilgan soliqlarga xos bo‘lgan umumiy belgilar ularning iqtisodiy mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Soliq kategoriyasi boshqa iqtisodiy kategoriyalar: moliya, kredit, sug‘urta, investitsiya kabilar bilan umumiy o‘xshashlikka ega, ya’ni ularning barchasi pulli munosabatlarni ifodalaydi. Lekin soliqlarning o‘ziga xos yuqorida qayd etilgan belgilari mavjudki, ushbu belgilar soliqlarni boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqlash uchun xizmat qiladi.

1.3. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati, obyektiv zarurligi va xususiyatlari

Soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya, sinfiy hukmron kuch sifatida yuzaga chiquvchi davlatning paydo bo‘lishi va uning faoliyati davomiyligi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu o‘rinda soliq kategoriyasi davlatning iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqelik sifatida yuzaga chiqishini ta’kidlash lozim. Soliq tushunchasi — tor ma’noda davlat ixtiyoriga boshqalardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi. Ma’lumki, soliqlar bevosita davlatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir, ya’ni davlat o‘zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi.

Soliqlarning amal qilishi, bu — obyektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi individlarning hammasi ham real sektorda faoliyat ko'rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki shug'ullanish iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarning obyektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda, jamiyatning norentabel (mudofaa, tibbiyot, fan, maorif, madaniyat va boshq.) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurligi soliqlarning obyektiv amal qilishini zarur qilib qo'yadi, vaholanki, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari, asosan, davlat tomonidan amalga oshiriladi, natijada ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo'ladi.

Soliqlarning obyektiv zarurligini bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ikki holat bilan ifodalash mumkin: *birinchidan*, davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi, *ikkinchidan*, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari.

Davlatning bajaradigan funksiyalari va vazifalari ko'p, shu bois bozor iqtisodiyoti rivojlana borishi bilan ba'zi ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariga mos kelmaydigan vazifalar yo'qola borsa, yangi vazifalar paydo bo'la boshlaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning yangi vazifalari yuzaga keladi. Qayd etish lozimki, hozirga qadar davlatning funksiyalarini bajarish uchun lozim bo'lgan moliyaviy mablag'lar shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo'llanilgan emas.

Demak, davlat mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar ham amal qiladi. Ma'lumki, jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat. Ana shu murakkablik bevosita soliqlarga ham tegishliki, bu holat soliqlarning iqtisodiy mohiyatini teran anglashni taqozo etadi.

Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Korxonalar va tashkilotlar aholiga xizmat ko'rsatganda, ishlar bajarganda yoki bozorlarda oldi-sotdi qilish jarayonida pul munosabatlarini hosil qiladi. Lekin ular soliq bo'la olmaydi, soliq munosabati bo'lishi uchun davlat mamlakatda

yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash yoʻli bilan davlat budjetiga majburiy tartibda toʻlanishi yoki undirilishi lozim. Davlat uchun budjetning asosiy manbai hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega.

Soliqlar toʻgʻrisidagi qarashlar tarixan obyektiv va subyektiv omillarning taʼsirida shakllangan. Soliqlarga doir turli taʼriflarni tahlil qilish ularning konkret iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotlar jarayonidagi mohiyatini asoslash, soliqlarning iqtisodiy rolini va soliq qonunchiligiga asos boʻlgan soliq tamoyillarini belgilash hamda soliq tizimida, jamiyat taraqqiyotida mavjud boʻlgan soliqlarning tutgan oʻrnini aniqlash zarurdir. Chunki davlat paydo boʻlishi bilan soliqlar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning zaruriy talablaridan biri boʻlib hisoblanib kelingan. Davlat tuzilish shakllarining rivojlanishi bilan bir vaqtda soliq tizimi oʻzgargan va takomillashtirilgan.

Soliq tizimining oʻzgarishi va takomillashtirilishi soliqlarning turlari, miqdorlari va yigʻib olish usullari xilma-xil boʻlganligi bilan asoslanib kelingan. Masalan, sharq mamlakatlari iqtisodiyoti tarixida soliqlar aholidan shaxsiy mol-mulk, yerdan olingan hosil, uy hayvonlari va boshqalar uchun «zakot» sifatida olingan.

Soliqlar, yigʻimlar, bojlar va boshqa toʻlovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslari tashkil topadi. Davlat faoliyatining barcha yoʻnalishlarini mablagʻ bilan taʼminlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish samarali davlat iqtisodiy siyosatini olib borishga, xususan, moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat budjetini shakllantirish, soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga taʼsir etuvchi usuli hisoblanadi. Shunday qilib, davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bogʻliq, chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining bosh manbayidir.

Aholini soliq munosabatlariga kiritishga, insoniyat tarixida yirik davlat arboblari biri, oʻrta asrda buyuk saltanat barpo qilgan Amir Temur katta eʼtibor qaratgan. U davlatni idora qilish tizimini yuzaga keltirishda, asosan, soliqlarga tayangan.

O'sha davrning davlat moliyasi — bu tizimning eng muhim unsurlaridan biri ekanligi, u davlatni boshqarishdagi barcha jihatlariga uzviy bog'langanligi bilan tubdan farq qilib turgani va ayni shu xususiyatga ko'ra, boshqaruvning barcha tarkibiy qismlari orasida markaziy o'rinni egallaganligi bugungi kunga kelib, hamma ayon bo'lmoqda.

Ammo soliq munosabatlari haqida qancha rivoyatlar aytib o'tilgan bo'lmasin, aholi soliq to'loviga nisbatan faqat o'z mohiyatini xazinada topgan. Xazina har qanday tizimda ham davlatni boshqarish vositasi bo'lib xizmat qilgan. Bunday vosita nafaqat davlatni boshqarishda, balki shuning bilan birgalikda aholi manfaatlarini qondirishda namoyon bo'lgan. Natijada xazina taqsimoti taraqqiyot tayanchi bo'lib xizmat qilgan.

Soliqlar qadimgi davrlardan e'tiboran olingan, ammo u vaqtlarda soliqlar ozod va erkin bo'lmagan kishining belgisi bo'lib xizmat qilgan. Shotland faylasufi va iqtisodchisi Adam Smit o'zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» kitobida (1776-yil) ilk bor soliq tamoyillarini asoslab berdi, soliqlarning ahamiyatini yoritib, ularni davlatga to'lash qullik emas, balki erkinlik alomati ekanligini asoslab berdi.

Soliqlar qadimiy moliyaviy institutlar hisoblanib, davlatning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Soliqlar davlat organlarini ta'minlash va ular oldida turgan vazifalarning bajarilishini moddiy ta'minlashning manbasi sifatida xizmat qilgan. Davlatning rivojlanishi bilan uning vazifa va funksiyalari yangicha xususiyatlarga ega bo'ldi. Lekin soliqlarning davlatni va uning organlarini moliyalashtirishda manba sifatidagi roli o'zgarmay qoldi.

«Soliqlar, deb yozadi D. Rikardo, hokimiyat ixtiyoriga kelib tushadigan yer mahsuloti va mamlakat mehnatining bir qismini tashkil etadi va oxir-oqibatda ular kapital hisobidan yoki mamlakat daromadi hisobidan to'lanadi»¹. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, D. Rikardo soliqlar mohiyatini yoritib, o'z navbatida, A. Smit tomonidan yaratilgan soliqlar nazariyasini ma'lum darajada rivojlantirgan.

¹ Д. Рикардо. Сочинения. Т.1. Начало политической экономики и налогового обложения. Пер. с англ. М., «Госполитиздат», 1990, стр. 360.

S. Pepelyayevning ta'rifiga ko'ra, «Soliq — ommaviy hokimiyat subyektlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar mulklarini begonalashtirishning majburiylik, yakka tarzda, xolisona, qaytarmaslik, davlatning majburlashi bilan ta'minlanganlik asoslarida va jazo yoki kontribuyetsiya xarakteriga ega bo'lmagan qonunda belgilangan yagona shaklidir»¹.

Professor D. Chernikning fikricha, «Soliqlar — davlat tomonidan xo'jalik subyektlari va fuqarolardan qonuniy tartibda o'rnatilgan stavkalarda undirib olinadigan majburiy yig'implarni o'zida aks ettiradi»².

Professor B. Boldrev boshchiligida yozilgan «Kapitalizm moliyasi» o'quv qo'llanmasida soliqlarga quyidagicha ta'rif berilgan: «Soliqlar — davlat tomonidan undirib olinadigan, jismoniy va huquqiy shaxslarning majburiy to'lovlari»³.

Tarixan soliqlar, davlatni saqlab turish uchun zarur bo'lgan majburiy to'lovlar sifatida, davlat paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Soliqlar, davlat faoliyat ko'rsatishining moddiy asosini tashkil etadi, ularning iqtisodiy tabiati xuddi shu yerdan kelib chiqadi.

Biz soliqlarning iqtisodiy mohiyatini to'liq tushunishimiz uchun, dastavval, soliq so'zining tarixan mavjud bo'lgan iqtisodiy ma'nosini to'g'ri tushunib, tahlil qilib olishimiz lozim.

Soliq tushunchasi — iqtisodiy munosabatlarda asosiy o'rinni egallaydi. Uning xarakterli tomoni shundaki, u tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan ularga mulkchilik, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruv huquqida tegishli bo'lgan pul mablag'larini davlat va munitsipal tuzilmalarni moliyaviy ta'minlash maqsadida begonalashtirish shaklida undiriladigan majburiy, yakka tartibdagi qaytarib berilmaydigan to'lovlarni aks ettiradi, ya'ni soliq — davlat tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolardan majburiy qonuniy tartibda belgilangan stavkalar bo'yicha, soliq to'lovchining bun-

¹ С.Г. Пепеляев. Основа налогового права. М., 1995, стр. 24

² Д.Г. Черник. Налоги в рыночной экономике. М., «Финанс», 1992, стр. 19.

³ В. Болдрев. Финанс капитализма. М., «Финанс», 1987, стр. 21.

dan biron-bir muayyan manfaat ko‘rishi bilan bevosita bog‘lanmagan tarzda undiriladigan pul yig‘imi.

Hozirgi vaqtda soliqlar vositasida davlat daromadlarining asosiy qismi shakllantiriladi. Bozor munosabatlarining shakllanishi davrida soliqlar korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tartibga solishning bilvosita quroli hisoblanadi.

Yuqoridagi ta‘riflarni tahlil qilgan holda quyidagilarni ifodalash mumkin:

a) soliqlarni belgilash huquqi faqat davlatning qonun chiqaruvchi Oliy organi – Parlamentga beriladi;

b) soliqni fuqaro emas, mulkdor to‘laydi;

d) soliq davlat budjetiga daromad olish uchun belgilanadi;

e) soliq to‘lash majburiy xususiyatga ega.

Demak, *soliqlar* – bu budjetga tushadigan pul va qonunda belgilangan majburiy munosabatlardir. Soliqlarning majburiyligi Oliy Majlis bilan tasdiqlangan huquqiy va me‘yoriy qonunlar bilan ta‘minlanadi. Shunday ekan, soliqlarni to‘lamaslikka, soliq obyektini yashirishga, soliq summasini kamaytirib ko‘rsatishga na huquqiy, na jismoniy shaxslarning haqqi yo‘q.

Soliq to‘lash xo‘jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolar bilan davlat o‘rtasida yangidan yaratilgan qiymatni taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Biron-bir jamiyatni soliq tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki soliqlar budjet daromadlari (pul fondi)ni tashkil etishning asosiy vositasi bo‘libgina qolmay:

- mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga;
- ishlab chiqarishni rag‘batlantirishda investitsiyalarni ko‘paytirishga;
- raqobatbardosh mahsulot hissasini ko‘paytirishga;
- kichik biznesni rivojlantirishga;
- xususiy korxonalar ochish bilan bog‘liq bo‘lgan bozor infrastrukturasi barpo qilishga;
- umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga va boshqalarga xizmat qiladi.

Jamiyat rivojlanishi tarixida hali biror davlat soliqlarsiz mavjud bo‘lgan emas. Bozor iqtisodiyotida ham davlat o‘zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy choratadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larning

asosiy qismini soliqlar orqali to‘playdi. Jumladan, soliqlar respublika va mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy negiz yaratadi, soliq to‘lovchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshqaradi, ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanishga bo‘lgan intilishini rag‘batlantiradi, narx belgilashga ta’sir ko‘rsatadi, aholining turmush darajasini tartibga solib turadi. Imtiyozlar yordamida aholining kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi va h.k. Shuning uchun soliqlar orqali shakllangan mablag‘larning eng kam miqdori davlat vazifasi bajarilishiga taalluqli eng kam xarajat hajmi bilan bog‘liq bo‘ladi va shu hajm bilan chegaralanadi.

Soliqlar rivojlangan tovar ishlab chiqarishning muhim kategoriyasi bo‘lib, albatta, yanada kengroq kategoriya — davlat budjeti bilan chambarchas bog‘langan. Chunki soliqlar budjetning shakllanishida ishtirok etadi¹.

Soliqlar moliyaviy resurslarning davlat ixtiyorida to‘planib borishini ta’minlaydi, bu resurslardan iqtisodiy rivojlanishning umumdavlat, mintaqaviy vazifalarni hal qilish, ishning samaradorligi va sifatini rag‘batlantirish, ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqib daromadlarni tartibga solish uchun foydalaniladi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. «Soliq tizimi» fani nima uchun iqtisodiy fanlar tarkibidan o‘rin olgan?
2. Fanni o‘rganishdagi umumiy usullar haqida tushuncha bering.
3. Soliqlarga ta’rif bering.
4. Soliqlarning iqtisodiy mohiyatini tushuntiring.
5. Soliqlarning obyektiv zarurligi nimalarda ko‘rinadi?
6. Soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqi nimalardan iborat?
7. Soliqlarning xususiyatlari borasida ma’lumot bering.
8. Soliqlarning belgilari mohiyatini tushuntirib bering.
9. Soliqlarning qanday funksiyalari mavjud?
10. Soliqlarning funksiyalari va vazifalarini farqlab bering.

¹ A. Vahobov, Z. Sirojiddinova. O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti. T., TMI, 2002, 36, 115-betlar.

2-bob. SOLIQ SIYOSATI, UNING STRATEGIYASI VA TAKTIKASI. SOLIQ TIZIMI TUZILISHI, TARKIBI, SOLIQLARNING TASNIFI. SOLIQ FUNKSIYALARI

2.1. Soliq siyosatining huquqiy asoslari, strategiyasi va taktikasi

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti, bir tomondan, uning ichki mexanizmiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, boshqaruvning xarakteriga, ijtimoiy-siyosiy holatga, muvozanatga bog‘liq bo‘ladi. Oddiy qilib aytganda ustqurmaga ham bevosita bog‘liqdir. Mazkur jarayonda ijtimoiy siyosat alohida rol o‘ynaydi. Ijtimoiy siyosat, o‘z navbatida, ichki va tashqi madaniy-ma’rifiy, siyosiy, iqtisodiy siyosat kabilarga bo‘linadi. Iqtisodiy siyosat ham, o‘z navbatida, moliya, pul-kredit, budjet, soliq siyosati kabi turlarda amal qilib, ularning yaxlitligi makroiqtisodiy darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining asosiy ajralmas qismiga aylanadi.

Shu o‘rinda soliq siyosatining mazmuniga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, yuqorida qayd etilganidek, *soliq siyosati* — bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to‘lovlarning amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir. Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo‘nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o‘rtasidagi nisbatni ta‘minlash kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi.

Soliq siyosatining huquqiy asoslari sifatida mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 31-avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining «Korxonalar, tashkilotlar, birlashmalardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi

(1991-yil 15-fevral), «O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmaganlarning daromad solig‘i to‘g‘risida»gi (1991-yil 15-fevral), «Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida»gi (1993-yil 7-may) Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari kabi me‘yoriy hujjatlardan iborat bo‘lgan bo‘lsa, 1997-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni yuqoridagi hujjatlarning ayrimlari o‘z kuchini yo‘qotishiga olib kelib, ayrimlarining huquqiy bazasining kengayishiga, kuchayishiga xizmat qilib kelmoqda.

«O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq, shu kundan e‘tiboran O‘zbekiston Respublikasi o‘zining mustaqil soliq siyosatini olib boradi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning burchlariga soliqlarni to‘lash majburiyati ham kiritilgan: «Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar»¹. Shuningdek, respublikamiz hududida yagona soliq tizimi amal qilishi va uni belgilash vakolati haqidagi jumlar keltirilgan: «O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat Oliy Majlis haqlidir»².

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni, hukumatning boshqa soliqqa oid qonun, qarorlari, Prezident Farmonlari va boshqa me‘yoriy hujjatlar bilan izohlanadi.

Hozirgi paytda respublikamiz soliq siyosatining asosi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda o‘z aksini topayotgan iqtisodiy rivojlanishning besh tamoyilidir. Soliq siyosati ana shu tamoyillar asosida tashkil

¹ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., «O‘zbekiston», 1992, 51-modda.

² O‘sha manba, 132-modda.

etilgan bo‘lib, soliq sohasidagi samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Soliq konsepsiyasi — bu soliqlarning yo‘nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g‘oyalari yaxlitligidir. Mamlakatimizda soliq konsepsiyasi Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan chuqur ilmiy asosda ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish konsepsiyasiga asoslanadi. Agar soliq konsepsiyasi qanchalik chuqur ilmiy asosga ega bo‘lsa, soliq siyosatining barqarorligi shunchalik mustahkam ta‘minlanadi. O‘z navbatida, soliq konsepsiyasi esa, soliqlar sohasidagi chuqur ilmiy tadqiqot ishlari hamda soliq amaliyotida orttirilgan boy tajribalarning o‘zaro uyg‘unligiga asoslangan g‘oyalarning samaradorligiga bog‘liq bo‘ladi.

Shuningdek, soliq siyosati barqarorligini ta‘minlashda uning strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilishi lozim. Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar xususiyati va muddatini e‘tiborga olib soliq siyosati: *soliq siyosati strategiyasi* va *soliq siyosati taktikasiga* bo‘linadi.

Soliq siyosati strategiyasida muayyan uzoqroq muddatga mo‘ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarning asosiy yo‘nalishlari va chora-tadbirlari ifodalanadi. Bu esa, o‘z navbatida, ilmiy asoslangan soliq konsepsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir. Masalan, respublikamizda jamiyat taraqqiyotining asosiy strategiyasi qilib erkin, ochiq bozor iqtisodiyotiga, erkin fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik-huquqiy jamiyat qurish belgilangan.

Soliq borasidagi ustuvor strategik vazifa esa davlat budjeti va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarida muayyan uyg‘unlikni ta‘minlovchi soliq tizimini shakllantirish va shunga mos ravishda takomillashtirib borishdan iboratdir yoki boshqacha qilib aytganda, soliq siyosati strategiyasi — soliq siyosatining uzoq muddatli yo‘nalishi bo‘lib, ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergan ulkan masshtabli vazifalarning kelajakda bajarilishini ta‘minlash ko‘zda tutilgan moliyaviy tadbirlar yig‘indisidir.

Soliq siyosati taktikasi esa belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta‘minlovchi, tez-tez o‘zgarib turuvchi sa‘y-harakatlarni bildiradi, ya‘ni qisqa muddatli va kichik masshtabli

moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan yoʻnalishlar majmuasi — soliq siyosati taktikasi sifatida qaraladi.

Soliq siyosati konsepsiyasi soliq siyosati strategiyasiga nisbatan, soliq siyosati strategiyasi esa soliq siyosati taktikasiga nisbatan barqaror, yaʼni kam oʻzgaruvchan boʻlib, ularning barchasi bir-biriga bogʻliq holda bir-birini toʻldirib turadi hamda yaxlit holda soliq siyosatining mohiyatini tashkil qiladi.

Soliq siyosati tarkibiy jihatdan quyidagi yoʻnalishlarda amalga oshiriladi:

- mamlakat miqyosida amal qiluvchi soliqlar va soliqsiz toʻlovlarni qonuniy joriy etish;

- amal qilayotgan soliqlarning samarali ishlashini taʼminlovchi mexanizmni shakllantirish va takomillashtirish, soliqqa oid qonunlar va boshqa meʼyoriy hujjatlarni takomillashtirib borish;

- soliq siyosatini amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlarni tashkil etish va ularning ushbu sohadagi vazifalarini belgilash;

- soliqqa tortish tizimini shakllantirishga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqotni amalga oshirish va ularni joriy etishga erishish.

Yuqorida qayd qilinganidek, soliq siyosati davlat, yaʼni uning vakolatli organlari tomonidan olib boriladi. Agar ushbu vakolatli organlar hokimiyat turi nuqtayi nazaridan olib qaraladigan boʻlsa, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga boʻlinadi. Ayrim hollarda davlatning soliq siyosati Davlat soliq qoʻmitasi tomonidan olib boriladi, degan fikrlar uchraydi. Amalda esa soliq siyosati davlat hokimiyatining barcha boʻgʻinlari: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining ajralmas qismi sifatida kompleks tarzda amalga oshiriladi.

Bu hokimiyatlar tomonidan soliq siyosati quyidagi tartibda ishlab chiqiladi va uning ijrosi taʼminlanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat hisoblangan Oliy Majlis tomonidan soliqqa oid va unga bevosita tegishli boʻlgan qonunlar qabul qilinadi, oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritiladi yoki ayrimlari bekor qilinadi. Demak, soliq siyosatining huquqiy negizlari mazkur hokimiyat faoliyati bilan bogʻliqdir. Ijro hokimiyati boʻlgan Vazirlar Mahkamasi va uning boʻlinmalari, Davlat soliq qoʻmitasi, Moliya vazirligi, Adliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, mahalliy hoki-

miyatlar va boshqa tegishli organlar tomonidan Oliy Majlis tomonidan qonun yo'li bilan joriy etilgan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarning ishlash mexanizmini ta'minlashga xizmat qiluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar orqali ularning ijrosi ta'minlanadi.

Bunda, albatta, ijro hokimiyatining bir bo'g'ini hisoblangan Davlat soliq qo'mitasining soliq siyosati ijrosini ta'minlashdagi alohida o'ringa ega ekanligini qayd etish lozim. Bundan tashqari, har yilning oxirida kelgusi yil uchun amal qiladigan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlar bo'yicha soliq stavkalarini tasdiqlash, o'zgartirishlar kiritish vakolati O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga berilgan. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda qonun chiqaruvchi hamda ijro etuvchi hokimiyatlar bo'g'inlari bilan birga sud hokimiyatining bo'g'inlari ham alohida ahamiyatga ega. Sud hokimiyati tomonidan qonuniy amal qilayotgan soliqlar, soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarning o'z vaqtida budjetga kelib tushishi ustidan nazorat o'rnatilib, soliq qonunchiligi buzilishlarining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar qo'llanadi.

Soliq siyosatini ishlab chiqishda nafaqat alohida olingan muassasalar bevosita qatnashadi, shuningdek, uni ishlab chiqishda soliq xizmati bilan shug'ullanmaydigan subyektlar, aniqrog'i soliq to'lovchilar qatnashishi mumkin, ya'ni bunda soliq to'lovchilarning o'zlarida soliqlarni takomillashtirishga qaratilgan takliflar, soliqlarni hisoblashni oson va samarali tashkil etish kabilar taklif sifatida berilishi mumkin.

Soliq solish sohasidagi davlat boshqaruvining samaradorligi ko'p jihatdan davlat apparatining turli bo'g'inlari faoliyatidagi moslashuvchanlikka bog'liq. Vakolat har bir organning o'ziga xos rolini belgilaydi va bir vaqtning o'zida uning boshqa organlar faoliyati bilan moslashuvini ta'minlaydi. Davlatning asosiy vazifalaridan biri hal etilishi — budjetni to'ldirish, soliq to'lovchilarning iqtisodiy va yuridik xatti-harakatlariga ta'sir etishning u yoki bu dastagiga ega bo'lgan barcha davlat hokimiyati organlar faoliyatining muvofiqlashtiruvissiz mumkin emas. Ko'pgina adabiyotlarda ta'kidlanganidek, konseptual soliq tamoyillaridan biri davlat organlarining soliq siyosatini ishlab chiqishda va amalga oshirishda birgalikdagi ishtiroki hisoblanadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, asosiy iqtisodiy huquqlar va soliq to'lovchilarning erkinligini ta'minlash qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning doimiy nazorati ostida turadi. Prezident tomonidan ularning faoliyatiga nisbatan bildiriladigan asosiy talablar bevosita soliq sohasidagi ishlarning umumiy ahvoli, uni boshqarish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshqalar bilan belgilanadi. Davlat soliq qo'mitasi va boshqa soliqlar bo'yicha bevosita va bilvosita vakolatga ega bo'lgan organlar ishini muvofiqlashtirgan holda hokimiyatning ushbu sohalari soliq solish bilan bog'liq shaxs huquqlarini ta'minlash uchun yuqori darajali javobgarlikni o'z zimmasiga oladi hamda ularning manfaatlari yo'lida muammoli vaziyatlarning oldini olish maqsadida o'zaro hamkorlikning barcha jihatlarini mukammal tartibga soladi.

Qonun chiqaruvchi organ (Oliy Majlis) Konstitutsiyaning 78-moddasi 8-bandi va «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasiga muvofiq, hukumatning taqdimiga asosan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilaydi. Davlat soliq qo'mitasining vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyotini umumlashtirish asosida soliq qonunchiligini takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqish va ularni hukumatga kiritish huquqi uning Oliy Majlis bilan o'zaro munosabatlari hukumatning ishtiroki bilan qurilishiga yaqqol misol bo'la oladi. Ma'lumki, Vazirlar Mahkamasi Davlat soliq qo'mitasiga nisbatan vakolatlari bo'yicha rahbar organ hisoblanadi. Soliq qonunchiligini qo'llash amaliyotini doimiy ravishda umumlashtirishi, davlat hokimiyati va boshqaruvining yuqori organlarini mazkur sohaning xususiyatli jarayonlari haqida muntazam xabardor qilib borishi lozim.

Davlat soliq qo'mitasining boshqa hokimiyat organlari, tashkilotlar bilan turli yo'nalishlarda amalga oshiriladigan o'zaro hamkorligini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu o'zaro hamkorlik o'zining yuridik tabiatiga ko'ra, huquqiy bo'lgani holda munosabatlar predmetining o'ziga xosligi bilan tavsiflanadi. Mahalliy hokimiyat organlari va davlat soliq organlarining o'zaro hamkorligini tartibga soluvchi me'yorlar turli yuridik

kuchga ega bo'lgan qator me'yoriy hujjatlarga tayanadi. Umumiy xususiyatlarga ko'ra, o'zaro hamkorlik Konstitutsiya me'yorlarida, boshqa qonunchilik hujjatlarida aks ettirilgan, o'zaro hamkorlikning yanada aniq yuzaga kelishi, ko'pincha, soliq sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan.

Mazkur davlat tuzilmalarining o'zaro munosabatlari xususiyatiga ta'sir etuvchi obyektiv omil mahalliy vakillik va ijro hokimiyati organlari hududning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishi, mahalliy budjetlarni shakllantirish va ijro etish, mahalliy soliqlarni belgilash, budjetdan tashqari fondlarni shakllantirish masalalarini hal etish uchun konstitutsiyaviy belgilanishi hisoblanadi. Bu bilan davlat hokimiyatini tashkil etishning tegishli darajalarida hal etiladigan boshqaruvning barcha masalalarida, shu jumladan, moliyaviy sohada ham yuridik vakolatlilik mustahkamlanadi.

Soliq organlari va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan o'zaro hamkorlik respublikada yagona soliq siyosatini olib borishda, soliqlar va boshqa soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarning hudud budjetiga kelib tushishini ta'minlash bo'yicha vazifalarning bajarilishi natijalarini tahlil qilishda ishtirok etish orqali namoyon bo'ladi.

2.2. Soliq tizimining tuzilishi, tarkibi va soliqlarning tasniflanishi

Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda ularning tuzilish tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig'indisi soliq tizimini tashkil etadi. Bu ta'rif soliq tizimini keng ma'noda tushunishdir. Soliq qonunchiligida soliq tizimi tor ma'noda talqin qilinib, bir xil mohiyatga ega bo'lgan va markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq, yig'im, boj va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi *soliq tizimi* deb ataladi. Soliq tizimiga nisbatan bunday yondashuvning ayrim adabiyotlarda ham keltirilganligini ta'kidlash o'rinli.

Qayd etilgan ta'rifda soliq va yig'imglar yagona mohiyat, ya'ni «majburiy xarakterga ega bo'lgan munosabat» va ularning bir-biri bilan bog'liqligi va nihoyat, budjetga tushishini ko'rsatadi. Bu O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi mazmuniga mos keladi. Shu yerda bahsli masala ham mavjud, ya'ni davlatning budjetdan tashqari fondlariga (pensiya, ijtimoiy sug'urta, bandlik, yo'l fondlari va boshq.) to'lovlarni ham majburiylik nuqtayi nazaridan soliq tizimiga kiritish muammosi mavjud¹.

Soliqlar bo'yicha izlanishlar olib borgan ayrim mualliflarning soliq tizimiga yondashuvi boshqacha. Soliq tizimiga, xususan, soliqlar yoki ularga tenglashtirilgan to'lovlar tizimi (majmuyi) sifatida qarash mumkin emas. Soliq solishning muhim shart-sharoitlariga quyidagilar kiradi: soliqlarni belgilash va amalga kiritish tartibi, soliqlarning turlari, ularni budjet darajalari o'rtasida taqsimlash tartibi, soliq nazoratini amalga oshirish shakllari va uslublari, soliq to'lovchilarning huquqlari, majburiyatlari, ular manfaatlarini himoya qilish usullari, soliq munosabatlari ishtirokchilarining javobgarligi² va shu bilan birga ushbu elementlar soliq tizimining tarkibiy unsurlari ekanligini ta'kidlaydi hamda soliq tizimi deganda ana shu elementlardan iborat bo'lgan va ular o'rtasidagi munosabatlar majmuasidan kelib chiqib ifodalash mumkin.

Umuman olganda, soliq tizimini tarkiban soliqqa tortish tamoyillari, soliq siyosati, soliqqa tortish tizimi, soliq mexanizmi kabilarga ajratish mumkin. Ushbu elementlar bevosita mamlakatda amal qilayotgan soliqlarning tarkibini belgilab beradi.

Soliq tizimining asosi bo'lgan soliqlar o'ziga xos xususiyatlariga, bir qator belgilariga ko'ra guruhlanadi. Soliqlarning guruhlanishi ularning obyektiga, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy faoliyatiga ta'sir etishiga, undirilish usullari, paydo bo'lishiga (subyektiga), budjetga yo'naltirilishiga va boshqa belgilariga ko'ra, ularning tasniflanishidir.

¹ Q. Yahyoyev. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. T., G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2000, 31-bet.

² L.V. Xvan. Soliq huquqi. T., «Konsaudit inform», 2001, 47-bet.

Soliqlarni bunday tartibda guruhlarga ajratishdan maqsad — ularni taqsimlash tamoyillarini belgilashda, ularning soliq funksiya va vazifalarini qay darajada bajarayotganligini baholashda, umuman olganda, davlat budgetini doimiy ravishda va muntazam daromadlar bilan ta'minlashda, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatini cheklab qo'ymasdan faoliyat ko'rsatishi uchun soliqlarni har tomonlama ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, tahlil qilishdan iborat.

Tarixan soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga qarab yoki, boshqacha qilib aytganda, undirib olish manbayiga qarab, ikki guruhga — *to'g'ri* va *egri soliqlarga* bo'linadi. Soliqlarni belgilaydigan va ulardan tushgan mablag'ni tasarruf etishiga, ya'ni budgetga o'tkazish nuqtayi nazaridan soliqlar umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo'linadi. Shuningdek, soliqlar paydo bo'lish manbayiga ko'ra, yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga bo'linadi. Soliqlarni qayd etilgan guruhlarga ajratib o'rganishni alohida savol sifatida kengroq yoritishga harakat qilamiz.

Shu o'rinda soliqlarni guruhlashning ayrim turlarini ko'rib chiqamiz. Soliqlarni obyekt va iqtisodiy mohiyati bo'yicha guruhlash iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishni o'rganishning ilmiy va amaliy uslubidir.

Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab uch guruhga bo'linadi:

1. *Oborotdan olinadigan soliqlar*. Bunda soliqlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning bevosita oborotidan undiriladi, ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari, yig'imlari va boshqalar kiradi.

2. *Mol-mulk qiymatlaridan olinadigan soliqlar*. Bunday soliqlar soliq to'lovchi subyektlar tasarrufida mavjud bo'lgan mol-mulkdan, yerdan va boshqalarga nisbatan belgilanadigan soliqlardan iborat.

3. *Daromaddan olinadigan soliqlar*. Bunga yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i, infratuzilmani rivojlantirish solig'i, jismoniy shaxslarning daromad solig'i va boshqalar kiradi.

Shu o‘rinda soliqlarni guruhlashning asosi hisoblangan, ularni xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy faoliyatiga ta’sir etishiga qarab, quyidagilarga ajratishimiz mumkin:

1. Tovar (ish, xizmat)lar oborotidan to‘lanadigan soliqlar. Bunday soliqlarga, asosan, egri soliqlar kiradi, ya’ni qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari.

2. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan soliqlar: pensiya fondiga ajratmalar, kasaba uyushmalari federatsiyasiga ajratmalar, bandlik fondiga ajratmalar va boshqalar.

3. Davr xarajatlariga kiritiladigan soliqlar: mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yerosti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq va boshqalar.

4. Korxonalar foydasidan to‘lanadigan soliqlar: daromad (foyda) solig‘i, infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq va boshqalar.

Soliqlarning to‘g‘ri va egri soliqlarga guruhlanishi soliqqa tortish obyektiga, to‘lovchi bilan davlatning o‘zaro munosabatlariga bog‘liq bo‘ladi. To‘g‘ri soliqlar to‘g‘ridan to‘g‘ri daromadga va mol-mulkka qaratiladi (soliqqa tortishning bevosita shakli). Tovarining bahosida to‘lanadigan yoki tarifga kiritiladigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlar egri soliqlarga kiradi. Tovar va xizmatlarning egasi ularni sotishda soliq summalarini olib, ularni davlatga o‘tkazadi.

Daromadlar oladigan (mol-mulkka va shu kabilarga egalik qiladigan) xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘ri soliqlarning pirovard to‘lovchisi hisoblanadi, narxlarga ustamalar orqali soliq yuki yuklab qo‘yiladigan tovarning iste’molchisi esa egri soliqlarning pirovard to‘lovchisi hisoblanadi.

Soliq to‘lovchining daromadi (ish haqi, foyda, foizlar va h.k.) va uning mol-mulking (yer, uylar, qimmatli qog‘ozlar va h.k.) qiymati to‘g‘ri soliqlar obyekt bo‘ladi. Soliqqa tortishning bu shakli egri soliqlarga nisbatan birmuncha progressivdir, chunki u soliq to‘lovchining daromadliligini, oilaviy ahvolini hisobga oladi, soliq daromadni olish bosqichida undiriladi. Bundan tashqari, to‘g‘ri soliqlarga tortishda soliq to‘lovchi o‘z solig‘ining summasini aniq biladi.

Tarixiy jihatdan olganda to'g'ri soliqlar XVIII asrda va XIX asrning birinchi yarmida shakllandi, ular faqat XX asrda keng ommalashdi.

To'g'ri soliqlar real va shaxsiy soliqlarga bo'linadi. Real soliqlar soliq to'lovchi mol-mulkinging ayrim turlaridan (yer, uylardan) kadastr asosida undiriladi, to'lovchining haqiqiy daromadlilikini emas, balki o'rtacha daromadlilikini hisobga oladi. Soliqqa tortish obyektiga qarab, quyidagilar real soliqlarga kiradi: yerga oid, uy-joylarga doir, kasb-hunarga tegishli, qimmatli qog'ozlardan olinadigan soliqlar. Real soliqlar tashqi belgilarga asoslanadi, soliqqa tortish mol-mulkning kadastr bo'yicha aniqlanadigan o'rtacha daromadliliigi asosida amalga oshiriladi. O'z mohiyatiga ko'ra, bunday soliqlar regressiv tusga egadir.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, davlat faoliyatining kengayishi shaxsiy soliqlarga o'tilishini taqozo etdi, chunki real soliqlar fiskal jihatdan ham, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham foydali bo'lmay qoldi. Real soliqqa tortishning ayrim unsurlari, odatda, mahalliy soliqlar tizimida, asosan, sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda saqlanib qolgan.

Shaxsiy soliqlar ravnaq topmoqda, bular daromadlar manbayida yoki deklaratsiya bo'yicha undiriladigan jismoniy va yuridik shaxslarning daromadlari va mol-mulkidan olinadigan soliqlardir. Real soliqdan farqli ravishda shaxsiy soliqqa tortishda obyekt (daromad, mol-mulk) har bir to'lovchi uchun yakka tartibda hisoblab chiqiladi, uning moliyaviy ahvoli (oilasi soni, qarzdorlik va h.k.) e'tiborga olinadi.

Egri soliqlar bahoga yoki tarifga ustama sifatida belgilanadigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlardir. Egri soliqlarga tortishda davlat tovar yoki xizmatlarning sotilishi paytida ushbu qiymatning bir qismiga o'z huquqlarini da'vo qilish bilan aslida yangi qiymat taqsimlanishining ishtirokchisi bo'lib qoladi. Egri soliqlar to'g'ri soliqlardan farqli ravishda to'lovchining daromadi yoki mol-mulki bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi.

Tovarlar, odatda, shaxsiy iste'mol tovarlari, shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasining (sartaroshxonalar, hammomlar, kimyoviy tozalash xizmatlari) pulli aylanmasi, tomosha ko'rsa-

tadigan va transport korxonalarining pattalari hamda shu kabilar soliqqa tortish obyekti bo‘ladi. Egri soliq'larga tortiladigan tovarlar va xizmatlar soni muntazam kengayib bormoqda.

Xaridor-iste'molchi egri soliq'larning to'lovchisi bo'ladi. Tovarning sohibi yoki xizmatlar ko'rsatadigan shaxs aslida soliqni yig'uvchi hisoblanadi. Egri soliq'larning anchagina qismi mulkdor tomonidan tovarning yoki xizmatlarning narxiga qo'shiladi. Davlat korxonalari va monopoliyalar soliqning butun summasiga narxlarni oshirish bo'yicha juda katta imkoniyatlarga egadir. Tarmoq ichidagi raqobat yuksak bo'lganida va talab barqaror bo'lmagan holda soliqning muayyan hissasi tovarning ishlab chiqaruvchisi va sotuvchi tomonidan to'lanadi. Egri soliq'larning asosiy to'lovchisi pirovard oqibatda iste'molchilar bo'lishadi.

Egri soliq'lar daromadlilikni, oilaviy ahvolni hisobga olmaydi. Hamma fuqarolar o'z daromadlarining miqdoridan qat'i nazar, bunday soliq'larni to'laydilar, chunki egri soliq'larga tortiladigan turmush uchun zarur bo'lgan tovarlarni iste'mol qilishadi va xizmatlardan foydalanishadi.

Egri soliq'larning stavkalari qat'iy (tovar o'lchamining birligiga) va foizli (tovarning narxiga muayyan hissada) bo'ladi. Foizli stavkalar davlat uchun ko'proq foydalidir, chunki narxlar oshganida soliq tushumlari ham ko'payadi. Soliq stavkalari oshirilishi tovarlar narxidagi hissasining ortishiga olib keladi.

Egri soliq'lar aksizlarni, davlatning fiskal monopoliyalarini va bojxona bojlarini o'z ichiga oladi. Aksizlar undirilish usuliga qarab yakka tartibdagi (pivoga, shakarga, benzina va h.k.) va universal (qo'shilgan qiymat solig'i va boshq.) turlarga bo'linadi. Ular, asosan, xo'jalik aktlaridan va aylanmalardan, moliyaviy operatsiyalardan kelib chiqadi.

Soliq'larning ayrim turlari nisbati jamiyat rivojlanishiga qarab o'zgardi. XIX asrda va XX asr boshida undirilishining soddaligi bilan ajralib turadigan egri soliq'lar asosiy ahamiyat kasb etgan edi. O'tgan asrning 20-yillaridan boshlab, ko'pgina mamlakatlarda to'g'ri soliq'lar ko'proq ahamiyat kasb eta boshladi. Ikkinchi Jahon urushidan so'ng rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimida to'g'ri soliq'lar alohida ahamiyatga ega bo'lib qoldi,

daromad solig'i va korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliq ular ichida asosiy o'rin tutardi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilganimizda, to'g'ri soliqlarni bevosita soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqning huquqiy va haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs hisoblanadi.

Egri soliqlarning huquqiy to'lovchisi mahsulotni ortuvchilar, ish, xizmatni bajaruvchilar hamda xizmat ko'rsatuvchilar, haqiqiy to'lovchisi esa iste'molchilar hisoblanadi.


Respublikamizda amal qilayotgan soliqlar hozirgi kunda yalpi ichki mahsulotning qariyb uchdan bir qismini taqsimlab, budjetga jalb etadi va u orqali davlatning ijtimoiy zaruriy xarajatlari moliyalashtirishga yo'naltiriladi. So'nggi yillarda to'g'ri soliqlarning salmog'i yalpi ichki mahsulot qiymatida biroz kamayib, egri soliqlar salmog'i oshgan. Bu yerda hozirgi sharoitda to'g'ri tendensiya mavjuddir, chunki egri soliqlar to'g'ridan to'g'ri korxonaning investitsion faoliyatining susayishiga olib kelmaydi. To'g'ri soliqlar salmog'i YIM qiymatida pasayishi korxonalarining moddiy-texnikaviy bazasi kengayishiga, qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishiga imkon yaratadi.

Keyingi yillarda resurs soliqlarining salmog'i ham ancha oshmoqda. Ular yer, suv va boshqa resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat o'zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larning asosiy qismini soliqlar orqali to'playdi. Jumladan, soliqlar respublika va mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy negiz yaratadi, soliq to'lovchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshqaradi, ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanishga bo'lgan intilishini rag'batlantiradi, narx belgilashga ta'sir ko'rsatadi, aholining turmush darajasini tartibga solib turadi, imtiyozlar yordamida esa aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi.

Soliq tizimi mohiyati jihatdan bir xil bo'lgan va markazlashgan pul fondiga tushadigan soliq turlarining yig'indisidir.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan, soliq tizimi quyidagi ko‘rinishga ega:



1-chizma. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksidagi mavjud soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar.

Umuman olganda, iqtisodiyot tarmoqlaridan va aholining mehnatga layoqatli qismidan undiriladigan soliqlarning aksariyat qismi umumiylik xususiyatiga egadir. Lekin ayrim soliqlar va to‘lovlar ham mavjudki, ular maqsadli xarakterga egadir. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda soliqlar, ulardan foydalanish xususiyatiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

1. Umumiy soliqlar — respublika hamda mahalliy budjetlarga tushadi va qayta taqsimlanadi.

2. Maqsadli soliqlar — bevosita biror-bir soha, tarmoq yoki obyektни rivojlantirish uchun sarflanadi va taqsimlanadi.

2.3. Soliqlarning funksiyalari va vazifalari

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan huquqiy va jismoniy shaxslar o'rtasida vujudga keluvchi obyektiv majburiy to'lovlarga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali xarakterlanadi. Bu moliyaviy munosabatlar maxsus ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, milliy daromadning bir qismi bo'lgan pul mablag'larini davlat ixtiyoriga safarbar qilishga xizmat qiladi.

Soliqlarning mohiyati ularning bajaradigan funksiyalaridan kelib chiqadi. Har bir iqtisodiy kategoriyaning o'z funksiyasi mavjud. Soliq ham mustaqil kategoriya sifatida o'zi bajaradigan funksiyalarga ega bo'lib, bu funksiyalar soliq kategoriyasining amaldagi harakatini ifodalaydi. Funksiya deganda, odatda, kategoriyaning hayotda ko'p qaytariladigan, takrorlanadigan doimiy harakatlarini tushunish lozim.

Soliqlarning funksiyalari to'g'risida turli xil qarashlar mavjud. Sobiq sotsialistik mamlakatlar iqtisodchilari o'rtasida soliqlar ikki funksiyani bajaradi, degan qarash keng tarqalgan edi. Bu ikki funksiya sifatida fiskal va nazorat funksiyalari tan olinardi. Ularning fikriga ko'ra, eng asosiy funksiya — bu soliqlarning fiskal funksiyasidir, chunki usiz nazorat funksiyasi mavjud bo'lishi mumkin emas.

G'arb iqtisodchilari ko'pchiligining nazariyalari angliyalik iqtisodchi J. Keynsning konsepsiyasiga asoslanadi. Bu konsepsiyaga ko'ra, soliqlar fiskal funksiyasidan tashqari iqtisodiyotni tartibga solish, rag'batlantirish va daromadlarni boshqarish vositasi funksiyalariga ega, soliqning bu funksiyalari uni iqtisodiyotni tartibga solish va iqtisodiy barqaror o'sishni ta'minlash vositasi sifatida foydalanish zarurligidan kelib chiqadi.

Neokeynschilik yo'nalishi vakillari bo'lgan L. Xarrot, N. Kaldor, A. Xansen va P. Samuelsonlarning fikriga ko'ra, soliqlar iqtisodiyotni tartibga solish funksiyasiga ega. Ular soliq stavkalarini o'zgartirish va turli imtiyozlar berish yo'li bilan bu funksiyani bajarish mumkin deb hisoblaydilar.

Soliqlarning daromadlarni boshqarish funksiyasining yuzaga kelishiga fransuz iqtisodchisi B. De Jirardenning nazariyasi asos bo'lgan. Bu nazariyaga ko'ra, soliqlar yordamida soliqqa tortishning progressiv shkalasini qo'llash yo'li bilan jamiyat a'zolari

o'rtasidagi mulkiy tengsizlikka barham berish mumkin. Hozirgi kunda bu nazariyaning davomchilari bo'lib amerikalik iqtisodchilar A. Ilersik, G. Koul, fransuz iqtisodchilari M. Kludo, J. Furaste hisoblanishadi. Ularning fikriga ko'ra, davlat soliq-lardan va transfert to'lovlaridan foydalanish yo'li bilan jamiyat milliy daromadini kambag'allar foydasiga qayta taqsimlaydi. Bu nazariyalar soliqlarning daromadlarni tartibga solish funksiyasi mavjud degan xulosa kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

I. Malmigiyanning fikriga ko'ra, soliqlar uch funksiyani bajaradi, ya'ni *fiskal*, *taqsimlash* va *rag'batlantirish*. Uning ta'kidlashicha, birinchi funksiya davlat daromadlari manbalarining tashkil topishi bilan bog'liq, ikkinchisi huquqiy va jismoniy shaxslarning daromadlarini taqsimlashni nazarda tutadi. Rag'batlantirish funksiyasi turli imtiyozlar va yengilliklar berish yo'li bilan amalga oshiriladi¹.

O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, g'arb iqtisodiy adabiyotlaridagi daromadlarni boshqarish funksiyasi I. Malmigiyanda taqsimlash funksiyasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Soliqlarning funksiyalari ularning mohiyatini amaliyotda harakat qilayotganligini ko'rsatadi. Shunday ekan, funksiya doimo yashab, soliq mohiyatini ko'rsatib turishi zarur. Bugun paydo bo'lib, ertaga yo'q bo'lib ketadigan holatlar soliq funksiyasi bo'la olmaydi. Demak, funksiya kategoriyasi doimiy, qat'iy takrorlanib turadigan voqelikni ifodalaydi. Shunday uslubiy yondashishdan kelib chiqib, soliqlar funksiyasini aniqlash kerak.

Soliqlarning funksiyalari masalasida katta bahslashuvlar mavjud, lekin yagona bir fikrga kelingan emas. Ko'pchilik iqtisodchilar soliqlarga fiskal, boshqaruvchi, rag'batlantiruvchi, nazorat funksiyalari xos deb ta'rif berishadi.

Bizning fikrimizcha, soliqlarning quyidagi asosiy funksiyalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

1. Fiskal funksiyasi.
2. Tartibga solish funksiyasi.
3. Rag'batlantirish funksiyasi.
4. Soliqning nazorat funksiyasi.
5. Qayta taqsimlash funksiyasi.

¹ *И. Малмигиан. Налоги как элемент финанса. М., 1997, стр. 69.*

1. Soliqlarning asosiy funksiyasi — fiskal funksiya hisoblanib (lotincha «*fiscus*» soʻzidan olingan boʻlib, xazina maʼnosini anglatadi), bu funksiyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar yordamida davlatning moliya resurslari hosil qilinadi hamda davlat faoliyat koʻrsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi. Soliqlar orqali korxonalar va fuqarolar daromadining bir boʻlagini davlat apparatini, mamlakat mudofaasini, noishlab chiqarish sohasining umuman oʻz daromadlari manbayiga ega boʻlmagan qismini (koʻpgina madaniyat muassasalari, jumladan, kutubxonalar, arxivlar va boshq.) yoki lozim darajada rivojlanishini taʼminlash uchun oʻzining mablagʻi yetishmaydigan tarmoqlarni (fundamental organ, teatrlar, muzeylar, koʻplab oʻquv yurtlari va h.k.) saqlab turish maqsadida undirib olish yoʻli bilan davlat budjetining daromad qismini shakllantirish soliqlar fiskal funksiyasining eng muhim elementi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan fiskal funksiyaning ahamiyati oshib boradi. Ishlab chiqarish ijtimoiy tusdaligining chuqurlashishi fan-texnika taraqqiyotining rivojlanish munosabati bilan, asosan, soliqlar hisobiga shakllantiriladigan moliyaviy resurslar oqimini koʻpaytirishning real zarurati yuzaga keladi. Davlat iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlarga koʻproq eʼtibor bergan sari koʻp moliyaviy resurslarni sarflamoqda, lekin soliq tizimi oʻzining fiskal funksiyasi vazifalarini bajarishi jarayonida ishlab chiqarish oʻsishiga, jamgʻarish jarayoniga xalal bermasligi, ijtimoiy adolatni buzmasligi hamda xalq xoʻjaligining umumiy tuzilmasida buzilishlar va chetga chiqishlar sodir boʻlishiga yoʻl qoʻymasligi, bozor jarayoniga putur yetkazmasligi kerak.

Soliqlarning ushbu funksiyasi orqali hosil boʻladigan pul resurslari davlat fondi (davlat budjeti) orqali qayta taqsimlanadi, ular ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga, ustuvor tarmoqlarni investitsiyalashga yoʻnaltiriladi.

Jahon amaliyotida ijtimoiy himoyaga muhtoj boʻlgan shaxslar uchun soliq imtiyozlari va yuqori daromad oluvchi shaxslar uchun progressiv stavkalar belgilash ham qoʻllanadi, yaʼni aholining kam daromad oladigan qismini ijtimoiy himoya qilish maqsadida daromadlarning bir qismi qayta taqsimlanadi. Bunday yondashuvlar soliqqa tortiladigan daromad aniqlanayotganida

soliqqa tortilmaydigan minimum miqdordagi daromad qo‘shilmaydi, ayni paytda ortiqcha daromadlar soliqqa yuqori progressiv stavkalar bo‘yicha tortiladi.

Soliqlarning ko‘pchiligi ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilar o‘rtasida yuzaga kelgan vaziyatni hisobga olgan holda joylarda korxonalar faoliyatining iqtisodiy shart-sharoitlarini o‘zgartirishga majbur etib, moliyaviy resurslarni makrodarajada qayta taqsimlashga olib keladi.

2. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida soliqlarning ikkinchi muhim funksiyasi ularning iqtisodiyotdagi tartibga soluvchilik roli hisoblanadi, ya‘ni davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish, sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga soladi va bu bilan xalq xo‘jaligi tarmoqlarining iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun muayyan «soliq muhiti»ni yaratadi. Ushbu funksiya orqali soliq tizimiga ta‘sir ko‘rsatadi, ya‘ni muayyan tarmoqda ishlab chiqarish sur‘atlarini rag‘batlantiradi yoki jilovlab turadi, sarmoyaning bir tarmoqdan soliq muhiti eng ma‘qul bo‘lgan boshqa tarmoqqa qo‘yilishini kuchaytiradi yoki pasaytiradi, shuningdek, aholining to‘lovga qobil talabini kengaytiradi yoki kamaytiradi.

Soliqlarning tartibga soluvchi sifatidagi funksiyasining ahamiyati bozor sharoitida o‘sib boradi, bu davrda tadbirkorlarni ma‘muriy qaram qilish usullari yo‘q bo‘lib ketadi yoki juda kam holda qoladi, korxonalar faoliyatini farmoyishlar, ko‘rsatmalar va buyruqlar yordamida idora qilish huquqiga ega bo‘lgan «yuqori tashkilot» tushunchasining o‘zi asta-sekin yo‘qola boradi. Biroq iqtisodiy faollikni izga solib turish, uning rivojlanishini jamiyat uchun maqbul bo‘lgan yo‘nalishda rag‘batlantirish zarurati saqlanib qoladi.

3. Rag‘batlantirish funksiyasi soliq tizimining eng muhim funksiyalaridan biri bo‘lib, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xomashyo resurslari, shuningdek, moliyaviy va mehnat resurslari, jamg‘arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag‘batlantiruvchi ta‘sir ko‘rsatadi, ya‘ni soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moliyaviy ahvolni mustahkamlashga va investitsiya faoliyatini jonlantirishga rag‘batlantiradi. Soliqlarning rag‘batlantirish funksiyasi orqali davlat

xalq xo‘jaligi taraqqiyotini rag‘batlantiradi, bu bilan fiskal funksiyani bajarish uchun bazani kengaytiradi, ishlab chiqarishni soliqlarning rag‘batlantirish funksiyasi orqali rag‘batlantirib, davlat oqilona soliq siyosatini olib borish bilan soliq yukini kuchaytirmasdan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning erkin faoliyat ko‘rsatishi ta‘minlanadi.

4. Soliqlarning nazorat funksiyasi soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan, soliqqa tortish obyekti, soliqqa tortiladigan baza, imtiyozlar singari va h.k. tegishli soliq ko‘rsatkichlarining hisob-kitoblarini tekshirishdek murakkab jarayondan iborat. Soliq hisobi soliq idoralariga belgilangan soliq hisobi shakllari orqali soliq to‘lovchilar o‘zlarining soliq majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi.

Soliqlar iqtisodiyotning tarixiy rivojlanish bosqichlarida ushbu jarayonlarni ta‘minlash maqsadiga bo‘ysunuvchi vazifalarni bajaradi. Soliqlarning funksiyalari esa ana shu vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Soliqlar bajaradigan vazifalar ko‘pchilik mamlakatlarning soliq qonunchiligida umumiy o‘xshashliklarga ega. Ana shunday an‘anaviy soliq vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- umumdavlat vazifalarini hal qilish uchun davlatga zaruriy moliyaviy resurslar ta‘minlab berish. Soliqlarning fiskallik funksiyasi ushbu vazifani hal qilish maqsadlariga xizmat qiladi. Bu vazifani hal qilish davlatning iqtisodiyotga qay darajada aralashuviga ko‘p jihatdan bog‘liq. Bu ko‘rsatkich qanchalik yuqori bo‘lsa, soliqlarning fiskallik funksiyasi shunchalik faol bo‘ladi. Ammo soliqlarning ushbu vazifasi faqat iqtisodiy jarayonlarni qamrab olmaydi, balki davlatning noishlab chiqarish xarajatlarining ko‘payishi ham davlatning ortiqcha moliyaviy resurslarga muhtojligini keltirib chiqaradi;

- mamlakat iqtisodiyotida qulay investitsiya muhitini yaratishga ko‘maklashish. O‘zbekiston Respublikasida soliqlarning ushbu vazifasini bajarishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, hozirgi kunda sarmoyalarning asosiy qismi savdo va xizmatlar sohasiga yo‘naltirilayotganligi tashvishli holdir. Buning asosiy sababi foyda normasining bu sohalarida

kattaligidir. Soliqlar sarmoyalarni bevosita mahsulot ishlab chiqarish sohasiga yoʻnaltirishning qudratli vositasi boʻlishi kerak;

- aholining mehnat faolligini ragʻbatlantirish. Soliqlar deyarli barcha mamlakatlarda ushbu vazifani bajaradi. Chunki ular aholi daromadlarini tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi. Daromadlardan olinadigan soliq stavkalarining eng yuqori chegarasini sezilarli darajada pasaytirish ishchi kuchining taklifi bilan bogʻliq salbiy oqibatlarining oldini olishi mumkin. Oʻtgan asrning 70—80-yillarida Shvetsiyada soliq stavkalarini aholi daromadlariga progressiv ravishda qoʻllash malakali ishchilarning boshqa mamlakatlar tomon migratsiyasiga olib kelgan;

- iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirish maqsadida daromadlarni taqsimlashning samaradorlik va adolat tamoyillari oʻrtasidagi muvofiqlikka erishish. Amaldagi soliqlarga barqarorlik va moslanuvchan soliq stavkalarining xosligi soliqlarning uzoq muddatli vazifalarini amalga oshirishga zamin yaratadi. Milliy va xorijiy investorlar kapital qoʻyilmalarini amalga oshirar ekan, ular oʻzlarining soliq majburiyatlarini aniq bilishi kerak. Soliq turlari va stavkalari barqaror va tez-tez oʻzgarmaydigan boʻlishi darkor. Soliq tizimiga mustahkam ishonch boʻlmagan taqdirda uzoq muddatli investitsiyalarning harakati susayadi.

Yuqorida aytib oʻtganimizdek, soliqlarning budjetga ijobiy taʼsiridan tashqari, muhim iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sohasida ham ulardan faol foydalanish mumkin. Narx-navoning isloh qilinishi, tashqi savdoning erkinlashtirilishi, mehnat bozorining isloh qilinishi va hokazolar yangi paydo boʻlgan tijorat strukturalarini moliyaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bu vazifani soliq stavkalarining tabaqa-lashtirish yoʻli orqali hal etish mumkin.

Shunday qilib, soliqlarning vazifalari ularni amalga oshirish muddatiga qarab qisqa muddatli, oʻrta va uzoq muddatli vazifalarga boʻlinadi. Bu vazifalar mazmuniga koʻra, bir-biridan farq qiladi. Soliqlar nafaqat davlat budjetining tushumlariga boʻlgan ehtiyojlarni qondirishga, balki davlat daromadlarini budjetning oʻrta muddatli rejada hayotiyligini yaxshilash maqsadida moslashuvchanligini amalga oshirishga ham xizmat qilishi mumkin.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Soliq siyosatiga ta'rif bering.
2. Soliq siyosatining huquqiy asoslarini ifodalab bering.
3. Soliq konsepsiyasi nima?
4. Soliq siyosati strategiyasiga ta'rif bering.
5. Soliq siyosati taktikasi nima?
6. Soliq tizimiga ta'rif bering.
7. Soliq tizimining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati nimada?
8. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini guruhlab bering.
9. Obyektiga qarab, soliqlar necha guruhga bo'linadi?

3-bob. SOLIQ MEXANIZMI TUSHUNCHASI

3.1. Soliq mexanizmining huquqiy asoslari

Xo'jalik faoliyatini tashkil qilish hamda boshqarishning ma'muriy rejalashtirish shakli va uslublari tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish, soliqlar va soliq mexanizmiga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirishni taqozo etadi. Ular bozor iqtisodiyoti sharoitida ikkinchi darajali iqtisodiy kategoriyadan davlatning jamiyat iqtisodiy hayoti, korxonalar, tashkilot va fuqarolarning xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiladigan quvvatli vositasiga aylanadi. Soliq mexanizmi — moliya mexanizmining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, soliq mexanizmi to'g'risidagi quyidagi mulohazalarni bildirish maqsadga muvofiqdir.

Izohli lug'atlarda «mexanizm» atamasi quyidagicha talqin etiladi:

1. Mashina va uskunalarning ichki tuzilishi bo'lib, ularni harakatga keltiradi.

2. Sun'iy va harakatchan qo'shimcha bo'g'inlar yig'indisi.

3. U yoki bu harakat tartibini aniqlovchi tizim, qurilma.

Yuqorida keltirilgan ta'riflarga ko'ra, «mexanizm» atamasi iqtisod fanida u yoki bu obyektga ta'sir o'tkazish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan vositalar, usullar, dastaklar va shakllarning ichki o'zaro bog'liqlik va aloqadorliklarining yig'indisi deb qarash mumkin.

Soliq mexanizmini jamiyat tomonidan soliq munosabatlarini tashkil etish uchun qo'llanadigan usullar yig'indisi deb atasa bo'ladi. Soliq mexanizmining tub mazmuni davlat, jamiyat va alohida subyektlarning ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga mo'ljallangan markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul

mablagʻlari fondlarini tashkil etish bilan bogʻliq obyektiv pul munosabatlari jarayonini aks ettiradi.

Soliq mexanizmi, iqtisodiy kategoriya boʻlgan soliqlardan farqli oʻlaroq, kishilar ongli faoliyatining natijasi sifatida ustqurmaga tegishli boʻlib, uni amalga oshirish shakli subyektiv xarakterga egadir. Soliq mexanizmi haqida kengroq tushuncha hosil qilish uchun, soliq va soliqqa tortish jarayonining tarkibiy elementlarini eslab oʻtish oʻrinlidir.

Soliq obykti, soliq subykti, soliq bazasi, soliq stavkasi, soliqni toʻlash muddatlari, soliq boʻyicha imtiyozlar va jarimalar, soliqlarni hisob-kitob qilish va budjetga oʻtkazish tartibi, soliq toʻlovchilarning masʻuliyatlari, soliq idoralari tomonidan nazorat olib borish tartibi va boshqalar soliq mexanizmining muhim tarkibiy elementlari hisoblanadi. Shunga koʻra, soliq mexanizmi davlat tomonidan soliq munosabatlarini tashkil etish uchun qoʻllaniladigan qonunlar, yoʻriqnomalar hamda soliqqa tortish jarayonining tashkiliy-huquqiy elementlari va uni boshqarishning yigʻindisini aks ettiradi.

Bu yerda alohida olingan soliq yoki majburiy toʻlovlar mexanizmini emas, balki umumiy holda barcha soliqlar va majburiy toʻlovlar mexanizmini yoritishda keltirish uchun ishlatiladigan qonunlar, yoʻriqnomalar va yuqorida taʼkidlab oʻtilgan soliqqa tortish jarayonining tarkibiy qismlari yigʻindisini umumiy nazarda tutgan holda aks ettirilgan.

Soliq mexanizmining tarkibiy qismlari birgalikda soliq munosabatlarini tashkil etishning shakllari, turlari, usullari «soliq mexanizmi konstruksiyasini» tashkil etadi. Ushbu «konstruksiya» tarkibiy qismlarining har biriga miqdor jihatdan oʻlchov birliklari oʻrnatish yoʻli bilan harakatga keltiriladi. Boshqacha qilib aytganda, soliq mexanizmi konstruksiyasi, soliq obykti va subykti, soliq stavkasi va undirib olish muddati, soliq boʻyicha imtiyozlar berish hamda jarimalar solish va boshqalarni aniqlash yoʻli bilan harakatga keltiriladi.

Soliqlarning ichki mohiyati harakat qilish qonuniyatlari va qarama-qarshiliklarni eʼtiborga olish, mustaqil davlatimiz uchun soliq mexanizmidan samarali foydalanishda katta ahamiyatga ega. Soliqlar va ularning funksiyalarini bir tomondan, soliq siyosati va soliq mexanizmini ikkinchi tomondan ajratib

o'rganish soliqlarning obyektivligini hamda soliqlar bo'yicha davlat faoliyatining subyektivligini tushunish imkoniyatini beradi.

Soliq mexanizmi o'z mohiyatiga ko'ra, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga mo'ljallangan markazlashgan va markazlashmagan pul mablag'lari fondlarini tashkil etish bilan bog'liq obyektiv pul munosabatlari jarayonini aks ettiradi. Soliq mexanizmining ichki mohiyati, uning tarkibi va tuzilishi bevosita soliqlarning mazmuni, tarkibi va tuzilishi (elementlari)dan kelib chiqadi.

Soliq mexanizmi — davlat tomonidan soliq munosabatlarini tashkil etish uchun qo'llaniladigan (huquqiy baza asosida) soliqqa tortish jarayonining elementlari va ularni boshqarishning yig'indisini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, soliq mexanizmi — bu soliq munosabatlarini tashkil qilish usullari yig'indisi bo'lib, u iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishda qulay shart-sharoitlar ta'minlash uchun davlat tomonidan qo'llaniladi.

Davlat soliq munosabatlarini tashkil etishning usullarini o'rnatar ekan, ularga mos qonunlar yaratadi va kuchga kiritadi. Davlat soliq qo'mitasi amaldagi soliq qonunchiligi asosida hamda o'zining vakolat doirasida tegishli vakolatli organlar bilan birgalikda har bir soliq turlari bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqadi. Shunday ekan, davlat soliq mexanizmiga soliq qonunchiligi yordamida huquqiy shakl beradi va uni boshqarib turadi.

Soliq mexanizmining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa soliqqa oid me'yoriy hujjatlardan iborat bo'lib, u umummilliy va davlat manfaatlarini aks ettiradi.

Soliq mexanizmining tarkibiy qismlari birgalikda soliq munosabatlarining shakllari, turlari, usullarini tashkil etadi. Soliq mexanizmi soliq tizimining amaliyotga tatbiq etilishini ifodalaydi. Undan foydalanish soliq elementlari yig'indisidan foydalanish uchun ishlab chiqilgan.

Soliq mexanizmining tarkibiy qismlari uzoq yillar harakat qilsa (masalan, soliqlarning turlari), uning elementlari (masalan, stavka, imtiyoz) tez-tez o'zgartiriladi.

Soliq mexanizmi davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda foydalaniladigan asosiy qurol sifatida budjet taqchilligini mumkin qadar bartaraf qilishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, davlat soliq mexanizmidan bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishda, tadbirkorlikning rivojlanishiga imkon yaratib berishda va ayni vaqtda aholining kam daromadli qatlamining ijtimoiy qashshoqlashishiga qarshi muhim vosita sifatida foydalanishi lozim.

Soliq mexanizmining vazifalari bevosita soliqlarning funksiyalaridan kelib chiqadi. Shundan kelib chiqib, soliq mexanizmi o'z mohiyatiga ko'ra, fiskal, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega.

Soliq mexanizmining fiskal ahamiyatini e'tiborga olgan holda asosiy vazifasi davlat ixtiyoriga zarur bo'lgan moliyaviy mablag'larni shakllantirish hisoblanadi. Bu borada quyidagilar asos qilib olinishi lozim:

- davlat va jamiyatning iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish;
- davlatning ijtimoiy yo'nalishdagi xarajatlari uchun moliyaviy asos yaratish;
- davlat budjeti taqchilligini imkon qadar kamaytirish. Ma'lumki, budjet taqchilligini kamaytirishga nafaqat budjet xarajatlarini qisqartirish, balki oqilona tashkil etilgan soliq mexanizmidan foydalangan holda budjet daromadlarini oshirish hisobiga ham erishish mumkin. Ushbu maqsadlarga, asosan, soliq mexanizmining fiskal vazifasidan foydalangan holda erishiladi.

Iqtisodiyotni boshqarish ikki xil shaklda amalga oshiriladi:

- a) ma'muriy boshqarish;
- b) iqtisodiy boshqarish.

Boshqarishning bozor munosabatlari sharoitiga mos keluvchi asosiy usuli, korxonalar faoliyatini uning oxirgi moliyaviy natijalariga bog'liq qilib qo'yishdan iborat.

Soliq mexanizmini qo'llash, ssuda kapitali va foiz stavkalaridan foydalanish (investitsiya siyosati), budjetdan kapital qo'yilmalarni hamda dotatsiyalar ajratish, davlat xarid baholarini o'rnatish, davlat buyurtmasi va boshqa davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi ta'sir etuvchi omillari hisoblanadi.

Soliq stavkalariga o'zgartirishlar kiritish, soliqlar bo'yicha imtiyozlar hamda jarimalardan foydalanish, ba'zi bir soliqlarni joriy qilish bilan birga ayrimlarini bekor qilish va boshqalar yordamida davlat alohida olingan tarmoq yoki ishlab chiqarish sohasining tezroq rivojlanishi uchun sharoit yaratib beradi.

Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarishni yoqlovchi ko'plab nazariyalar mavjud. Jumladan, A. Smit tomonidan ilgari surilgan soliqqa tortish tamoyillari soliqlarning fiskal ahamiyati bilan birgalikda iqtisodiyotni boshqarishda foydalaniladigan vosita sifatida o'rganish lozimligini tasdiqlaydi.

«Soliqlar — iqtisodiyotni tartibga soluvchi vosita» konsepsiyasi iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirishni ta'minlash va iqtisodiyotni boshqarishda soliqlardan foydalanishni anglatadi. Keyns o'zining ilmiy izlanishlarida iqtisodiyotni soliqlar vositasida boshqarib turish zaruratini nazariy jihatdan asoslab bergan va soliqlarga avtomatik tarzda barqarorlashtiruvchi vosita sifatida qaragan. Shu bilan birgalikda, soliq mexanizmini o'zgartirib, soliq siyosatini iqtisodiyotning siklli rivojlanishiga muvofiqlashtirishni tavsiya etgan.

«Soliqlar — daromadlarni barqarorlashtiruvchi vosita» nazariyasining asoschisi B.De Jirarden (fransuz iqtisodchisi) soliqlar yordamida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmiga ta'sir etib, jumladan, soliqqa tortishning progressiv shkalasini qo'llash orqali jamiyat a'zolarining mulkiy tengsizligini tugatish mumkinligini ta'kidlaydi.

Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarishning asosiy maqsadi xo'jalik yuritishda qulay sharoitlarni yaratib berish va xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, shu maqsadlarga erishish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

- soliq tushumlari hajmini o'zgartirish;
- soliqqa tortishning shakl va usullarini o'zgartirish;
- soliq stavkalarini o'zgartirish, ularni tabaqalashtirish;
- soliq imtiyozlaridan foydalanish;
- soliqqa tortilishi lozim bo'lgan obyektlarni o'zgartirish;
- jarimalar qo'llash va boshqalar.

Davlat iqtisodiyotni soliqlar orqali tartibga solishda makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajada ta'sir etadi. Makroiqtisodiy

darajada, soliq stavkasi miqdoriga o'zgartirish kiritish orqali inflatsiyani chegaralash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish kuchlarining hududlararo mukammal joylashishini tartibga solish, mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash, iqtisodiy o'sishga erishish kabi keng ko'lamli maqsadlarga erishish mumkin. Mikroiqtisodiy darajada esa, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatiga ta'sir etishi, ularning investitsiya faoliyatini rag'batlantirishi kabilarga erishishi mumkin.

Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarishda soliq mexanizmi elementlaridan keng ko'lamda foydalaniladi. Ulardan keng qo'llaniladigan va samarali choralari sifatida soliq stavkalarini, soliq imtiyozlarini o'zgartirish kabilarni alohida qayd etib o'tish lozim.

Soliq imtiyozlaridan ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda, investitsiyalarni rag'batlantirishda va boshqalarda keng foydalaniladi.

Soliq imtiyozlari rag'batlantirish va samarali qo'llanilishiga qarab, quyidagi ko'rinishlarda ifodalanishi mumkin:

- soliqlardan butunlay ozod qilish;
- yangi tashkil etilgan korxonalariga imtiyozlar berish;
- soliq to'lashdan vaqtincha ozod etish;
- soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish;
- soliqdan qisman ozod qilish;
- xorijiy investitsiyalarga imtiyozlar berish;
- eksportga imtiyozlar berish va boshqalar.

3.2. Soliqlarni undirish usullari

Soliq amaliyotida soliqlarni undirishning uch usuli mavjud:

- kadastrli;
- daromad manbayidan;
- daromad egasi daromadni olganidan so'ng (deklaratsiya bo'yicha).

Birinchi usul bevosita real soliqlarni hisoblash uchun foydalaniladigan obyektlar (yer, imoratlar va shu kabilar)ning bahosi va o'rtacha daromadliligi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan kadastr yoki reyestrda foydalanilishini taqozo etadi.

Oliy belgilariga ko‘ra tasniflanadigan obyektning tavsifnomasi kadastrning tuzilishiga asos bo‘ladi. Masalan, yer kadastrini tuzishda turli tumanlardagi ayni bir xildagi yer uchastkalari sifati, joylashgan joyi, foydalanilishi va boshqa belgilariga ko‘ra guruhlanadi. Har bir guruh uchun maydon birligining qator yillar uchun o‘rtacha daromadliligi belgilanadi. Boshqa hamma yer uchastkalari maydon birligidan soliq stavkasi belgilangan u yoki boshqa toifaga tenglashtiriladi.

Soliqni to‘lashning kadastrli usulining o‘ziga xos xususiyati sifatida shuni ajratib ko‘rsatish kerakki, soliqning to‘lanish payti daromadning olinishi payti bilan aslo bog‘liq bo‘lmaydi, chunki bunday usulda mol-mulk uning taxmin qilinadigan daromadliligining tashqi belgilari asosida baholanadi. Kadastrli usulda shaharlar va shahar qo‘rg‘onlarida yer solig‘i stavkalarini ishlab chiqishga ular hududini shahar ayrim tumanlari yerlari hamda infratuzilmasini iqtisodiy baholash qiymati bo‘yicha kompleks tarzda baholash asos qilib olingan.

Obyektning ana shunday belgilarga asoslanadigan o‘rtacha daromadliligi uning haqiqiy daromadliligidan jiddiy farqlanishi mumkin, shuning uchun bunday usul ko‘p jihatdan tarixiylik tusiga ega bo‘lishi mumkinki, undan soliq apparati uncha rivojlanmagan holatda qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasida yer solig‘i kadastrli usulda undiriladi. Bunda yerlarning unumdorligi (boniteti) hisobga olingan holdagi jadval shaklidagi yer solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan har yili yangidan tasdiqlanadi.

Ikkinchi usulda soliqni soliq subyektiga daromadni to‘laydigan yuridik shaxs hisoblaydi va ushlab qoladi. Ishchining ish haqidan, xizmatchining maoshidan daromad solig‘i shu tariqa undiriladi. Soliq korxonada xodimning daromadni olguniga qadar ushlab qolinadi, bu soliqni to‘lashdan bo‘yin tovlashni istisno qiladi, chunki buxgalteriya soliq solinadigan daromadni va soliq summasini aniq hisob-kitob qilib chiqadi. Bunday munosabatlarda ishtirok etuvchi yuridik shaxslar, ko‘pincha, fiskal agent yoki soliq agenti sifatida qaraladi.

Soliqning daromad manbayida to‘lanishi shuni anglatadiki, soliq uni deklaratsiyalar bo‘yicha to‘lashdagi singari soliq idorasi

tomonidan hisoblanib ushlab qolinmaydi, balki uni yuridik va jismoniy shaxs foydasiga to'lovni amalga oshiradigan fiskal agentlar to'lov manbalari (korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, boshqa ish beruvchilar)da hisoblaydilar va ushlab qoladilar.

Uchinchi usul soliq to'lovchilarning soliq idoralariga deklaratsiyalarni, ya'ni ularning olgan daromadlari va o'zlariga tegishli bo'lgan soliq imtiyozlari haqidagi rasmiy bayonotni berishni nazarda tutadi. Soliq idoralari soliq deklaratsiyasi va amaldagi soliqqa tortish stavkalari asosida to'lanishi lozim bo'lgan soliq miqdorini nazorat qiladilar.

Soliq deklaratsiyasi asosida, odatda, tadbirkorlik faoliyatidan, dehqon (fermer) xo'jaligini yuritishdan olinadigan daromadlar, shuningdek, intellektual faoliyat bilan shug'ullanadigan shaxslar (fan, adabiyot, san'at asarlarining mualliflari, kashfiyotlar, ixtirolar mualliflari, sanoat namunalari yaratuvchilari va h.k.) daromadlari soliqqa tortiladi.

3.3. Soliq elementlarining tarkibi

Soliq elementlari bir nechta tushunchalardan iborat bo'lib, ularning aniq chegarasi belgilanmagan. Soliq elementlari: soliq subyekti, soliq obyekt, soliq predmeti, soliq manbayi, soliqqa tortish birligi, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliq normasi, soliqni to'lash muddatlari, soliq yuki, soliq bazasini hisoblash usullari, soliqqa tortish usullari va shu kabi tushunchalarni qamrab oladi. Quyida soliq elementlarining har biriga qisqacha izoh beramiz.

Soliq subyekti — soliq to'lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar yoki, boshqacha qilib aytganda, soliq subyekti — bu soliqqa oid munosabatlarni tashkil etuvchi tomonlarning o'zaro majmuasi bo'lib, unda bir tomondan soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar), boshqa tomondan soliqni undirish vakolati yuklangan soliq xizmati organlari — Davlat soliq qo'mitasi, soliq boshqarmalari, tuman va shahar davlat soliq inspeksiyalari qatnashadi.

O'z faoliyatida barcha yuridik va jismoniy shaxslar soliq subyekti sifatida namoyon bo'lmaydi. Chunki bu yerda soliq-

lardan batamom ozod etiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar mavjudki, ular soliq subyekti sifatida soliq munosabatlarida ishtirok eta olmaydi. Ammo barcha soliq xizmati organlari soliq subyekti sifatida maydonga chiqadi.

Soliq agenti — yuridik va jismoniy shaxslardan soliqni ushlab qolish va davlat budjetiga o'tkazib beruvchi yuridik shaxslar. Bunda yuridik shaxslar, ular o'z faoliyatida bevosita yoki bilvosita ishga yollanganligi natijasida to'lanadigan ish haqidan, dividendlardan, doimiy muassasa orqali faoliyat ko'rsatmaydigan norezident yuridik va jismoniy shaxslardan ushlanishi lozim bo'lgan soliq summalarini ushlab qoladi va budjetga o'tkazib beradi, ushlab qolinmagan, kam ushlab qolingan va o'z vaqtida o'tkazib berilmagan soliq summasi uchun javobgar bo'lib qolaveradi, ya'ni ushbu keltirilgan dalillardan aytishimiz mumkinki, har bir yuridik shaxs soliq munosabatlarida soliq subyekti bo'lishi bilan birgalikda soliq agenti sifatida ham ishtirok etadi. Soliq agenti adabiyotlarda, asosan, fiskal agent sifatida e'tirof etiladi.

Soliq obyeksi — soliq to'lovchining soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan daromadi, oboroti va mol-mulki tushuniladi. Soliq obyeksi sifatida foyda yoki daromad, muayyan tovarlarning qiymati, yer maydoni, jismoniy va yuridik shaxslarning mulklari, tabiiy resurslardan foydalanish miqdori va boshqalar kiradi. Soliq obyeksi aslida jamiyatdagi mavjud moddiy va ma'naviy boyliklarning ayrimlariga qonun yo'li bilan ulardan foydalanuvchi, egalik qiluvchi va tasarruf qiluvchi soliq subyektlarining huquqlarini soliqqa tortishni xarakterlaydi.

Binobarin, moddiy yoki ma'naviy boyliklar soliq obyeksi qilib, albatta, unga mulkiy huquqqa ega bo'lgandagina yuzaga chiqadi. Masalan, egasiz imoratga soliq solinmaydi, chunki egasiz imoratga nisbatan soliq subyekti to'liq emas, vaholanki, bo'lgan taqdirda ham soliq obyeksi sifatida imorat emas, balki ushbu imoratga bo'lgan mulkiy huquqqa soliq solinadi. Shu jihatdan aytish mumkinki, soliq obyeksi aslida yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy huquqi va daromadiga qaratiladi.

Soliqqa tortish predmeti — soliq solinadigan daromad, oborot, mol-mulk va boshqalarga bo'lgan huquq emas, balki ularning

o'zidir, ya'ni soliq solish obyektini bo'lib biron-bir soliq predmetiga bo'lgan huquq tushunilsa, predmet bo'lib ana shu egalik qilinadigan daromad, yer uchastkasi, imorat va boshqalarning o'zi tushuniladi. Soliq obyektini yoki soliqqa tortish predmeti, unga kim egalik qilish huquqiga ega bo'lsa, unda soliqni to'lash majburiyati, ya'ni soliq subyektini namoyon qiladi. Demak, aytishimiz mumkinki, soliqqa tortish predmetiga egalik qilish huquqi soliq obyektini vujudga keltirsa, o'z navbatida, ushbu predmetga kimning egalik qilishi soliq subyektini yoki soliq to'lovchisini namoyon etadi.

Soliq manbayi — bu soliq to'lovchining to'laydigan soliqlari manbayi, ya'ni daromadi. Soliq obyektini va soliq manbayini bir-biridan farqlash lozim. Ayrim soliq turlari bo'yicha, masalan, daromad (foйда)ga, yalpi daromadga, jismoniy shaxslarning daromadiga soliqlar bo'yicha soliq obyektini ham, soliq manbayi ham bir xil bo'ladi, ya'ni nima obyekt bo'lsa, uning o'zi manba hisoblanadi.

Shu o'rinda soliqqa tortish predmeti, soliq obyektini va soliq manbayini farqlash va ularning mohiyatini ochib berish uchun aniq soliq turi bo'yicha ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Yer solig'i bo'yicha ko'radigan bo'lsak, uning soliqqa tortish predmeti bo'lib yer uchastkasi maydoni, unga kimning egalik qilish huquqi mavjud bo'lsa soliq obyektini paydo bo'ladi va ushbu yer solig'i qaysi manba hisobidan davlat budjetiga to'lansa, masalan, yerdan turli xil ko'rinishda foydalanish natijasida olinadigan daromad uning manbayi hisoblanadi.

Demak, ushbu fikrlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, soliqqa tortish predmeti o'z-o'zidan kimdadir soliq to'lash majburiyatini vujudga keltirmaydi. Misolimizga qaytadigan bo'lsak, yerga bo'lgan huquqni joylardagi mahalliy hokimiyat organlari beradi va shu bilan birgalikda yerdan foydalanuvchida soliq to'lash majburiyati vujudga keladi, chunki unda ushbu yer uchastkasidan foydalanish huquqi mavjud. Zero, soliq predmetiga kimning egalik qilish huquqi mavjud bo'ladigan bo'lsa, u soliq munosabatlarida soliq subyektini sifatida ishtirok etadi.

Soliq bazasi — soliq obyektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori. Hisoblanadigan soliq miqdori nafaqat soliq stavka-

larining miqdoriga, shu bilan birgalikda soliq stavkasi qo'llaniladigan obyektning miqdoriga ham bog'liq bo'ladi. Soliq bazasining miqdori qonunchilikda soliqqa tortilishi lozim bo'lgan soliq obyektidan ruxsat etiladigan chegirmalarga bog'liq ravishda o'zgarib turishi mumkin. Soliq bazasini soliq to'lovchilarning mazkur toifasiga taqdim etiladigan soliq imtiyozlariga muvofiq ravishda kamaytirishga ruxsat etiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, soliq bazasi soliq obyektidan katta yoki kichik bo'lishi mumkin. Masalan, yuqorida qayd etganimizdek, soliq to'lovchiga soliqdan imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lsa, bunday sharoitda soliq bazasi soliq obyektidan kichik, soliq obyektini qonunchilik bilan kengaytiriladigan bo'lsa, undan katta bo'lishi mumkin.

Soliqqa tortish birligi — bu obyektning o'lchov birligi. Masalan, daromad yoki mol-mulk solig'ida obyektning o'lchov birligi bo'lib uning so'mdagi bahosi ifodalansa, yer solig'ida o'lchov birligi bo'lib kv.m. yoki gektar hisoblanadi.

Soliq stavkasi — obyektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir. Soliq stavkasi soliq elementlari ichida eng ko'p amaliy ahamiyatga ega bo'lgan unsurdir. Chunki soliq stavkalarini o'zgartirish orqali davlat xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga sezilarli ta'sir etadi, ayrim faoliyat sohaslariga ustuvorlik berilishi, kapital zarur sohalarga yo'naltirilishi, rag'batlantirilishi mumkin.

Soliq stavkalari ikki xil ko'rinishda: qat'iy stavkalarda va nisbiy (foiz) stavkalarda ifodalanadi. Soliq stavkasi qat'iy stavkada belgilangan holda soliq obyektga nisbatan qat'iy so'mda belgilanadi. Masalan, yer solig'ining har bir gektari uchun qat'iy so'mda soliq miqdori o'rnatilgan. Yuridik va jismoniy shaxslarning daromadlariga, mol-mulklariga esa nisbiy stavkada yoki foizda soliq miqdori belgilangan.

Soliq stavkasi bilan soliqqa tortish obyektini o'rtasidagi bog'liqlik darajasiga qarab soliq stavkalarini proporsional, progressiv va regressiv turlarga ajratish mumkin. Proporsional soliq stavkasining mohiyati shundan iboratki, bunda soliqqa tortish obyektini qanday bo'lishidan qat'i nazar, soliq stavkasi o'zgar olmaydi. Masalan, respublikamiz soliq tizimida amal qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq uning obyektini

1000 so‘m bo‘lganida ham, 100000 so‘m bo‘lganida ham soliq stavkasi o‘zgarib qolaveradi, ya’ni soliq obyektining o‘zgarishi soliq stavkasining o‘zgarishiga ta’sir qilmaydi.

Progressiv soliq stavkasida soliq obyektining o‘zgarishi, o‘z navbatida, soliq stavkasining o‘zgarishiga, ya’ni oshib borishiga olib keladi. Masalan, jismoniy shaxslarning daromadiga soliq stavkalari progressiv tarzda belgilangan bo‘lib, jismoniy shaxslarning daromadlari oshib borgan sari soliq stavkalari ham oshib boradi. O‘zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligiga muvofiq, 2013-yil uchun jismoniy shaxslarning daromadiga soliq stavkalari: eng kam ish haqining 5 baravari miqdoriga 8 % da, 5 baravaridan 10 baravarigacha miqdoriga 16 % da, 10 baravaridan ortgan qismiga esa 22 % da belgilangan.

Progressiv soliq stavkasining ikki turi mavjud: oddiy progressiya va murakkab progressiya. Oddiy progressiyada soliqning orttirilgan stavkasi soliqqa tortiladigan barcha obyektga nisbatan qo‘llaniladi, murakkab progressiyada esa soliqqa tortish obyekti qismlarga bo‘linadi, ularning har biri o‘z stavkasi bo‘yicha soliqqa tortiladi, ya’ni orttirilgan stavkalar butun obyektga nisbatan emas, balki bundan oldingi bosqichdan ortgan qismiga nisbatan qo‘llaniladi. Yuqorida keltirgan misolimiz, jismoniy shaxslarning daromadiga soliq stavkalari murakkab progressiyadir.

Regressiv soliq stavkasida soliq obyektining oshib borishi bilan soliq stavkasi kamayib borib, daromad yoki mahsulot ko‘plab ishlab chiqarishni talab qiladi. Respublikamiz soliq qonunchiligiga muvofiq chetga eksport tovarlar ishlab chiqarib, erkin almashtiriladigan valutilarda tushumga erishganlar iqtisodiy qiziqtiriladi, ya’ni daromad (foyda) solig‘i kamaytirilgan stavkada to‘lanadi.

Soliq imtiyozlari — soliq to‘lovchilarga soliqlar bo‘yicha turli xil yengilliklar bo‘lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to‘liq yoki qisman va boshqa ko‘rinishlarda berilishi mumkin. Soliq stavkalarining mohiyati, ularning turlari, amal qilish mexanizmlari, belgilash mezonlarini keyingi savollarimizda yoritamiz.

Soliq bazasini hisoblash usullari. Soliq bazasini hisoblashning ikki xil usuli mavjud bo‘lib, ular kassa usuli va hisobga olish usullaridir. Kassa usulida soliq to‘lovchida soliqlarni to‘lash majburiyatlari daromad olganidan keyin vujudga kelsa, hisobga

olish usulida esa daromad olingan yoki sotishdan tushum qachon kelib tushishidan qat'i nazar tovarlarning jo'natilishi, o'z navbatida, soliqlarni to'lash majburiyatlarini vujudga keltiradi.

Soliqqa tortish usullari uch xil ko'rinishda amalga oshirilib, ular quyidagilarga: soliqlar tortishning kadastrli, deklaratsiya va manba oldidan soliqlar tortish usullariga ajratiladi. Ularning keng bayoni keyingi savollarda ochib beriladi.

Soliqlarni to'lash muddatlari va tartiblari. Soliqlar qonunchiligida har bir soliq turining budjetga to'lash muddatlari belgilangan. Soliqlar to'lash muddatlari deganda soliq to'lovchilarning davlat budjeti oldida soliq majburiyatlarining bajarish muddati ifodalanadi. Soliqlar to'lash muddatlari o'z mohiyatiga ko'ra, ikki xil ko'rinishga ega: *avans (bo'nak) to'lovlari va haqiqiy daromad olinganidan keyingi to'lovlar.*

Soliqlar to'lash tartibida esa, soliqning yo'naltirilganligi (budjetga yoki budjetdan tashqari fondlarga), soliq to'lash vositasi (milliy valuta, so'mda yoki boshqa mamlakatlar milliy valutasida. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq, soliqlar faqat milliy valuta, so'mda to'lanishi mumkin) hamda soliq to'lash shakllari (naqd pul yoki naqd pulsiz) ifodalanadi.

Soliqlar yuki — soliq to'lovchining muayyan vaqt oralig'ida to'lagan soliqlari yig'indisini ifodalaydi. Bunda soliq to'lovchilarning to'laydigan barcha soliqlari va soliqsiz majburiy to'lovlarining yig'indisi ifodalanadi. Soliqlar yukining aniq soliq to'lovchilar zimmasiga qancha to'g'ri kelganligini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Biroq to'g'ri soliqlarda soliq og'irligi aynan soliq to'lovchiga hisoblab o'tkazuvchi soliq to'lovchilar zimmasiga tushsa, egri soliqlarda soliq yuki soliq to'lovchilar emas, balki tovar (ish, xizmat)larni iste'mol qiluvchilar zimmasiga tushadi.

Muayyan turdagi yuridik va jismoniy shaxslar bo'yicha soliq yukining bir yilda budjetga to'langan barcha majburiy to'lovlar yig'indisi bilan aniqlash mumkin. Soliqlar yukining darajasi, o'z navbatida, mamlakatning iqtisodiy qudratiga, inflatsiya darajasiga, davlatning vakolatli funksiyalarni qo'llashiga, qolaversa, bozor munosabatlarining rivojlanishiga va ijtimoiy harakat doirasiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Soliq yukini ifodalashning bir qancha ko‘rinishlari mavjud: makrodarajadagi soliq yuki, mezodarajadagi soliq yuki va mikrodarajadagi soliq yuki. Soliq yuki makrodarajada ifodalan-ganda butun mamlakat miqyosida ifodalanib, asosiy ko‘rsatkich sifatida muayyan vaqt oralig‘ida davlat budjetiga kelib tushgan soliqlar yig‘indisining ana shu vaqt oralig‘ida yaratilgan YIM yoki MDga nisbati olinadi. Mezodarajada ifodalanganda alohida olingan soha, tarmoq yoki sektorga to‘g‘ri keladigan soliq yuki ifodalansa, mikrodarajada aniq bir olingan subyektga to‘g‘ri keladigan soliq yuki ifodalanadi.

3.4. Soliq imtiyozlari, ularning mohiyati va turlari

Jahon soliq tizimining asosiy va ajralmas qismlaridan biri, bu — soliq imtiyozlaridir. Har qanday davlat uning xo‘jalik yuritish tizimi qanday bo‘lishidan qat’i nazar, davlat budjetini daromadlar bilan ta‘minlashda asosiy vositalardan biri — bu soliqlar va soliqsiz to‘lovlardir. Ammo joriy etilgan soliqlar sof fiskal shaklda o‘rnatilishi mumkin emas. Chunki faqat budjet manfaati nuqtayi nazaridan o‘rnatilgan soliqlarning amal qilishi uzoq vaqtni o‘z ichiga olmaydi. Shuning uchun muayyan dara-jada soliq imtiyozlaridan foydalanish taqozo etiladi.

Soliq tizimida soliq imtiyozlaridan foydalanishning bir qator obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy sabablari mavjud bo‘lib, bizningcha, ular quyidagilardir:

- *birinchidan*, soliq imtiyozlari mavjudligining asosiy sabab-laridan biri bu soliq to‘lovchi (yuridik va jismoniy shaxs) larning jamiyatda tutgan mavqeyi, ijtimoiy holati turlicha ekanligidan. Shu jihatdan barchaga bir xil tartibda (miqdorda) soliq solish ma‘noga ega bo‘lmaydi;

- *ikkinchidan*, davlat iqtisodiyotga ta‘sir etib, uni tartiblash vazifasini amalga oshiradiki, bunda turli xil dastaklardan foyda-lanadi. Bu dastaklarning asosiylaridan biri bu jamiyatdagi ba‘zi muhim sohalarni yoki soliq to‘lovchilarning faoliyatini rag‘bat-lantirish maqsadida soliq imtiyozlari belgilanadi. Ya’ni davlat soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyotni samarali va qulay boshqa-rish yoki tartiblash imkoniyatiga ega bo‘ladi, bundan ko‘rina-diki, soliq imtiyozlari davlatning o‘z funksiya va vazifalarini yuzaga chiqaruvchi muhim dastak sifatida yuzaga chiqadi;

• *uchinchidan*, soliq imtiyozlari qo‘llanilishining asosiy sabablaridan yana biri bu milliy daromadni qulay, samarali va oqilona taqsimlashga erishishdan iboratdir. Ya’ni bundan soliqlar sifatida budjetga jalb etilishi lozim bo‘lgan moliyaviy resurslar imtiyoz berish tufayli budjetga jalb etilmasdan, soliq to‘lovchilarning o‘zlariga maqsadli ravishda qoldiriladi. Buning afzallik tomoni shundaki, soliq to‘lovlarini budjetga olish va uni yana qayta taqsimlash ishlarini osonlashtiradi va ish faoliyat turlarini rag‘batlantirishga erishiladi.

Qayd etish joizki, soliq imtiyozlari xususida turli xil fikrlar mavjud. Professor Q. Yahyoyev fikriga ko‘ra, «Soliq to‘lovchilarni soliqdan ozod etish, ular to‘laydigan soliq miqdorini (soliq bazasini) kamaytirish yoki soliq to‘lash shartini yengillashtirish soliq imtiyozidir»¹. Shuningdek, ushbu iqtisodchining ta’kidlashicha, soliq imtiyozi degan atama o‘rniga soliq yengilligi atamasi bu jarayonning mohiyatini ochib beradi². Amaliyotchi, iqtisodchi olim Sh. Gataullin soliq imtiyozlariga quyidagicha ta’rif beradi: «Soliq imtiyozlari amaldagi qonunlarga muvofiq ravishda soliqlardan to‘liq yoki qisman ozod qilishdir (skidkalar, chegirib tashlashlar va h.k.)»³.

Professor T.S. Malikovning ta’kidlashicha, soliq imtiyozlari deganda soliq to‘lovchining soliq majburiyatlari hajmining to‘liq yoki qisman qisqarishi, to‘lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi tushuniladi. Soliqlarning rag‘batlantiruvchi funksiyasi soliq imtiyozlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozi soliqqa tortish obyektining o‘zgarishida, soliqqa tortish bazasining kamayishida (qisqarishida), soliq stavkalarining pasaytirilishida va boshqalarda o‘z ifodasini topadi. Soliqqa tortilmaydigan obyekt minimumi, alohida shaxslar va soliq to‘lovchilarning ayrim toifalarini soliq to‘lashdan ozod qilish, soliqqa tortish obyektidan ayrim elementlarni chiqarish, soliq stavkalarini pasaytirish, maqsadli soliq imtiyozlari, soliq kreditlari (soliqlarning undirilishini kechiktirish) va boshqalar soliq imtiyozlarining ko‘rinishlaridir (turlaridir). Masalan,

¹ Q. Yahyoyev. Soliq. T., «Mehnat», 1997, 20-bet.

² O‘sha manba.

³ Sh. Gataullin. Soliqlar va soliqqa tortish. T., 1996, 74-bet.

korxonalar foydasidan olinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar ishlab chiqarishni kengaytirish va uy-joy qurilishini rivojlantirish xarajatlarini moliyalashtirishni, tadbirkorlikning kichik shakllarini, nogironlar va pensionerlarning bandligini ta'minlashni, ijtimoiy, madaniy va tabiatni muhofaza qilish sohalarini rag'batlantirishga qaratilgandir. Individual xarakterga ega bo'lgan imtiyozlarni berish, odatda, taqiqlanadi¹.

Soliqlarning va ular bo'yicha beriladigan imtiyozlarning mavjudligi doimo davlat vujudga kelishi bilan bog'lanib kelingan. Buyuk sohibqiron Amir Temur tuzuklarida ta'kidlanishicha, «Soliqlar davlatning iqtisodiy tayanchi va namoyon bo'lishidir»².

Agar «Temur tuzuklari»da berilgan soliqqa tortish tamoyillariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning asosini ham soliqqa tortishda beriladigan imtiyozlar egallaydi. Unga muvofiq, soliq to'lovchilardan soliqlarni aralashli undirish soliq siyosatining diqqat markazida turadi. «Temur tuzuklari»da keltirilishicha, «Kimki biron sahroni obod qilsa yoki poliz qilsa yoki biron bog' ko'kartirsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili esa (oliq-soliq) qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig'ilsin»³.

Bundan ko'rinadiki, soliqlardan beriladigan imtiyozlar bevosita davlat (xazina)ning iqtisodiy qudratiga bog'liq bo'lib, unda soliq imtiyozlari bilan budjet (xazina) daromadlarini shakllantirishning o'zaro bog'liqligi aks ettirilgan.

Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyotida soliq imtiyozlarining tutgan o'rni ingliz iqtisodchisi Keyns nazariyasida alohida o'rinni egallaydi. Keynschilar tomonidan soliq tizimi, aniqrog'i, soliq imtiyozlari makroiqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotni tartibga solishning tarkibiy elementi sifatida hamda davlatning tadbirkorlar manfaatiga ta'sir etish va budjetning daromad qismini to'ldirish borasidagi muhim iqtisodiy qurol sifatida qaraladi.

Ikkinchi Jahon urushidan keyin g'arb davlatlarida neoklassik yo'nalish, institutsional-ijtimoiy yo'nalish talablariga mos tarzda

¹ T. Malikov. Soliqqa tortishning dolzarb masalalari. T., 2000, 276-bet.

² Temur tuzuklari. T., 1993, 98-bet.

³ O'sha manba.

soliqqa tortish tizimida imtiyozlar nazariyasiga ancha e'tibor berildi. Mazkur iqtisodiy maktablar nazariy yondashuvlaridagi tub farqlar bo'lishiga qaramay, ularning vakillari umumiy tarzda soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirish va uni tartibga solish vositasi sifatida qaraganlar. Iqtisodiyotni boshqarishda soliq imtiyozlari rolini ular quyidagicha ifodalari edi: agar u yoki bu davlatning iqtisodiyoti ortiqcha ishlab chiqarish bilan xususiyatlanuvchi o'sish davrini o'tayotgan bo'lsa, u holda davlat soliq imtiyozlarini kamaytirish, ya'ni soliqlarni ko'paytirish, soliqqa tortishni kuchaytirish orqali korporatsiyalar bo'sh mablag'larini ko'proq budjetga jalb qilish lozim deb hisoblaganlar.

Agar mamlakat iqtisodiyoti turg'unlik holatini kechirayotgan bo'lsa, iqtisodiyotni jonlantirish uchun qo'shimcha sarmoya jalb qilish lozim. Bunda soliq imtiyozlaridan ham keng foydalanish zarurati tug'iladi degan xulosaga kelishgan. Bu holatda iqtisodchilar davlatga, soliq miqdorini kamaytirish, soliq imtiyozlarini ko'paytirishni maslahat beradilarki, bu narsa budjetga qo'shimcha mablag'lar va kapital qo'yilmalar uchun mablag'lar tug'ilishiga imkoniyat tug'diradi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning boshqa dastaklari qatori soliq siyosati talab va taklif o'rtasidagi mutanosiblikka erishish orqali iqtisodiyotda barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan. G'arb iqtisodchilari soliq tizimining ahamiyatini davlat faoliyatini amalga oshirish uchun uni zarur moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash sifatida ifodalanuvchi sof fiskal vazifa bilan cheklab qo'ymaydilar. Ularning soliq imtiyozlari nazariyasida soliqlarni tartibga solish vazifasiga katta e'tibor beradilar. Soliqlar davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning muhim quroli sifatida xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy xulq-atvoriga davlat ta'sirini ifodalaydilar. Ammo bunda soliq imtiyozlari asosiy vosita sifatida qaralishi keng nazarda tutilgan.

Bozor munosabatlari sharoitida mustaqil respublikamiz iqtisodiy erkinlashtirishni amalga oshirar ekan, iqtisodiyotni tartiblash va boshqarish jarayonida bir qator vositalardan foydalaniladiki, bunda soliq tizimining soliq stavkalari va imtiyozlaridan foydalanish eng samarali va oson usullardan biri bo'lib yuzaga chiqadi.

Soliq imtiyozlari bilan iqtisodiyotni boshqarish davlatning shunday faoliyati bilan bog‘liqlik, u takror ishlab chiqarish jarayonida vujudga kelgan nomutanosiblikni yo‘qotish uchun sharoit yaratadi. Boshqacha qilib aytganda, agar soliqlarning ba’zi tizimi ishlab chiqarishni tartibga solishning davlat strategiyasini aniqlasa, taktikasi soliq imtiyozlari orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozlarini soliq subyekti, soliq obyekt, soliqlarni undirish vositalari, muddatlari nuqtayi nazaridan bir necha guruhlar (turlar)ga bo‘lish mumkin. Soliq imtiyozlarini turli xil asoslar bo‘yicha guruhlash mumkin.

Barcha qonun hujjatlarida soliq turlari bo‘yicha imtiyozlar, asosan, quyidagi shakllarda:

- soliqdan batamom ozod etish;
- soliqdan vaqtincha yoki qisman ozod etish;
- soliq bazasini kamaytirish tarzida berilgan.


O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va unga asoslanib ishlab chiqilgan maxsus yo‘riqnoma hujjatlarida belgilangan soliq imtiyozlarini guruhlaydigan yoki turlarga ajratadigan bo‘lsak, bizningcha, u to‘rt turda amal qilayotganligining guvohi bo‘lamiz.

2-chizmadan ko‘rish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida soliq imtiyozlarining eng so‘nggi turi bu soliq solish usulini tanlash huquqidir. Bu imtiyoz faqat Soliq kodeksiga muvofiq berilgan bo‘lib, avvalgi soliq qonunchiligida bu imtiyoz ko‘zda tutilmagan edi. Bu imtiyoz turining mohiyati, asosan, kichik biznes subyektlari va qishloq xo‘jaligi korxonalariga soliq solishning u yoki bu turini tanlash huquqi berilganligi bilan ifodalanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida soliq tizimini takomillashtirib borishda, xorijiy mamlakatlarda soliq stavkalarining qo‘llanish mexanizmidan foydalanish, soliqlarning to‘liq va o‘z vaqtida kelib tushushini nazorat qilish tajribalarini o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda, investitsiyalar, ilmiy tekshiruv va tajriba-konstruktorlik ishlarini rag‘batlantirish va tartibga solishda davlat tomonidan soliq imtiyozlaridan keng foydalaniladi. Soliq imtiyozlari rag‘batlantirish va maqsadga muvofiq yo‘llanilishiga qarab quyidagilarga bo‘linadi:

- ayrim korxonalar va tashkilotlarni butunlay soliq to‘lashdan ozod etish;



M a n b a : Soliқ qonunchiligi me'yoriy hujjatlari asosida tayyorlandi.

2-chizma. Soliқ imtiyozlarining turlari.

- yangi tuzilgan korxonalar uchun soliq to'lash bo'yicha imtiyozlar berish. Bu imtiyozlar ishbiarmonlik va tadbirkorlik (agar mahsulot ishlab chiqarishga asoslangan bo'lsa) rivojlantirishga ijobiy ta'sir etadi.

Soliq imtiyozlarini qo'llash mexanizmidagi eng murakkab jarayon bo'lib soliq imtiyozlarini belgilash mezonlarini adolatli

tarzda belgilash hisoblanadi. Ammo qayd etish joizki, soliq imtiyozlarini belgilash jahon amaliyotida har bir mamlakatning iqtisodiy siyosatining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib belgilanadi va shu jihatidan u turli davlatlarda turlicha bo‘ladi.

Soliq imtiyozlarini soliq to‘lovchilarning investitsion mavqeyiga, ularning sotsial-ijtimoiy holatiga, respublikamizda qaysi sohani rivojlantirish ustuvorligiga, soliq to‘lovchilarning importning o‘rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish darajasiga hamda davlatlar o‘rtasidagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarga asoslanib belgilangandir. Soliq imtiyozlari mezonlarini to‘g‘ri, obyektiv aniqlash, soliqlarning adolatlilik tamoyilining ifodasi sifatida yuzaga chiqadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Soliq mexanizmining mohiyatini tushuntirib bering.
2. Soliq imtiyozlarini belgilash mezonlarini aniqlab bering.
3. Soliq mexanizmi tarkibiga nimalar kiradi?
4. Soliq elementlarining mohiyatini ochib bering.
5. Soliq elementlari tarkibiga qanday elementlar kiradi?
6. Soliq obykti bilan soliq predmeti farqlarini tushuntirib bering.
7. Soliq stavkalarining qanday turlari mavjud?
8. Proporsional, progressiv va regressiv stavka deganda qanday stavkalar tushuniladi?
9. Soliq imtiyozlarini guruhlab bering.
10. Soliqni undirish usullari qanday guruhlanadi?

4-bob. IQTISODIY RIVOJLANGAN MAMLAKATLARNING SOLIQ TIZIMI

4.1. Rivojlangan mamlakatlar soliq tizimining o‘ziga xos xususiyatlari

Soliqlarning qo‘llanib kelinishi qadimiy tarixga egadir. Soliq milliy daromadning bir qismi bo‘lib, majburiy va qaytarib bermaslik tamoyili asosida aholidan va yuridik shaxslardan davlat tomonidan o‘z xarajatlarini qoplash uchun olinadi. Iqtisodchi olimlarning fikricha, «Soliqda davlatning borlig‘ining iqtisodiy ifodasi gavdalanadi».

Quldorlik va feodalizm davrida natural xo‘jalik asosiy rolni o‘ynagani uchun soliq natural – yig‘im sifatida qo‘llangan (oziq-ovqat, armiya uchun oziq-ovqat, yem-xashak va h.k.).

Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bilan davlatlar daromadida pul soliqlarining roli oshib boradi. Bu har bir kishi (jon boshi)dan olinadigan soliq, yer solig‘i va hunarmandchilik soliqlaridir. Bundan tashqari, egri soliq hisoblangan aksizlar ham qo‘llanilgan.

Soliqning og‘irligi, asosan, dehqonlar zimmasiga tushib, ijaraga olish (ulgurji, ko‘tarasiga sotib olmoq) qo‘llangandan keyin yana ham og‘irlashgan. Ijaraga olish – savdogarlarga ma‘lum davrga va ma‘lum to‘lov asosida aholidan yig‘ish uchun davlat soliqlari va boshqa daromadlarni to‘plash huquqini beradi. Bundan tashqari, ma‘lum tovarlarni sotish huquqiga ham ega bo‘ladi. Davlat bilan tuzilgan shartnoma bahosi bilan savdogar yig‘ib olgan summasi o‘rtasidagi farq uning foydasini tashkil qilgan.

Davlat va xususiy ijaraga olish tizimi quldorlik davridan kelib chiqib, feodalizmning yemirilishi va kapitalistik ishlab chiqarish usuli vujudga kelish davrida juda keng tarqalgan va kapitalning boshlang‘ich jamg‘armasiga asos bo‘lgan. Ijaraga olish tizimi natural xo‘jalikning ustunligi, davlat xazinasiga mablag‘ to‘play-

digan moliya apparatining «bo‘shlik» qilishi natijasida yuzaga kelgan.

Birinchi ijaraga olish eramizdan avvalgi VI asrda Eronda kelib chiqqan. Yunoniston va Rimda esa eramizdan oldingi IV asrda tarqalgan. O‘rta asrda esa bu tizim Yevropada qo‘llanilgan. Ayniqsa, Fransiyada XIII asrda keng rivojlangan. XVI—XVII asrda Italiya, Gollandiya va Ispaniyada bu tizim evolutsiyasining yuqori darajasiga ko‘tarildi.

Angliyada ijaraga oluvchilar davlat kreditori rolini bajarishgan. Rossiyada XV asrning oxiri — XVI asrning boshida ijaraga olish tizimi keng miqyosda qo‘llanilgan. Eng taraqqiy etgan turlari — boj, tuz, vino to‘lovlarini ijaraga olish bo‘lgan.

Davlat xazinasiga tushadigan soliqning 40 % dan ortig‘i ichimlik solig‘idan kelib tushgan. Rossiyada 1863-yili vino to‘lovini ijaraga olish bekor qilinib, aksiz solig‘i bilan almashtirilgan. Ijaraga olish Hindistonda XIX asrgacha, Eronda esa XX asrgacha qo‘llanilgan.

O‘zgacha shaklda ijaraga olish XX asrda ham davom etgan. Masalan, Italiyada ayrim soliqlar banklar, omonat kassalari tomonidan yig‘ilgan. Amerikada ijaraga olish XX asrning boshlarida boqimandani to‘plashda qo‘llangan. Monopolistik kapitalizm davrida soliq juda keng taraqqiy etadi. Davlatning harbiy, boshqaruv xarajatlari ko‘payishi bilan soliq hajmi hamda uning turlari ko‘payib boradi.

Ikkinchi Jahon urushidan keyin har 10 yilda soliq 1,5 marta va undan ham ortiq ko‘payib turgan. Keyingi davrlarda rivojlangan davlatlar markaziy budjetlarining 90 % daromadi va mahalliy budjetlarining 80 % daromadi soliqlardan kelib tushgan.

Davlat mulkiga asoslangan korxonalar kam foyda keltiruvchi va zarar ko‘radigan bo‘lganligi sababli, ularning to‘lovlari budjet daromadining 5—8 % ini tashkil qilgan.

O‘sish sur‘ati bo‘yicha soliq yalpi milliy mahsulot hajmining o‘shidan tez hamda uning salmog‘i ham oshib borgan. 1984-yili soliqning yalpi milliy mahsulot hajmidagi salmog‘i Fransiyada — 45,4 %, Buyuk Britaniyada — 38,6 %, GFRda — 37,3 %, AQSHda — 29 %, Yaponiyada 27,7 % ni tashkil qilgan.

Hozirda rivojlangan davlatlarda soliqni majburiy ravishda hamma sinf vakillari to‘laydilar. Lekin yirik konsernlar dotatsiya

va subsidiya ko‘rinishida budjetdan yordam olishlari mumkin. Sanoati rivojlangan davlatlarda keyingi davrda to‘g‘ri soliqlarni undirish kuchaytirilgan. Ularning ichida asosiy davlat solig‘i bo‘lib daromad solig‘i xizmat qiladi. 1970-yildan boshlab, egri soliqlarni olish ham kuchayib ketdi. Bunday vaziyat, ayniqsa, qo‘shilgan qiymatdan olinadigan soliq kiritilgandan keyin muhim ahamiyat kasb etdi.

Davlat solig‘i bilan bir qatorda mahalliy soliqlar ham tez sur‘atda o‘sa boshladi. Umumiy soliq hajmida ularning salmog‘i o‘tgan asrning 80-yillarida AQSHda 30 %, Germaniyada 48 %, Yaponiyada 30 % ni tashkil qilgan. Soliqning og‘irligi yana sotsial sug‘urta fondiga badal olish bilan kuchaytiriladi. Germaniya, Fransiya, Italiyada soliqning 30 % dan ko‘prog‘i bu badallarga to‘g‘ri keladi. Sotsial sug‘urtaga ajratma mehnatkashlar daromadidan ayirib olinib, AQSHda 48 %, Fransiyada 20 %, Germaniyada 26 % ni tashkil qiladi.

Tadbirkorlar ijtimoiy sug‘urtaga ajratmani mahsulot tan-narxiga qo‘shadilar va uning og‘irligi tovar sotib oluvchilar zimmasiga bahoni oshirish orqali yuklatiladi. Shunday qilib, to‘g‘ri va egri soliqlar, sotsial sug‘urta fondiga badal to‘lash davlat xazinasiga pul to‘plashning asosiy yo‘llari bo‘lib, ularning og‘irligi, asosan, kam ta‘minlangan aholi zimmasiga tushadi va moliya oligarxiyasining boyishi uchun xizmat qiladi.

Qo‘llanayotgan iqtisodiy siyosatga binoan hozirgi davrda rivojlangan davlatlar soliqni iqtisodni boshqarish quroli sifatida ishlatadilar. Shu maqsadda soliq stavkasi, uni undirish usuli, soliq yengilligi, skidkasi ishlatiladi. Bu tadbirlar ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibiga, muvozanatiga, kapitalni jamg‘arishga, sotish bozoriga, ishlab chiqarish davrlariga ta‘sir ko‘rsatadi. Soliq ijtimoiy ishlab chiqarishning I va II bo‘limlarining o‘shish darajasiga ta‘sir qilib, ularning tenglashishiga va I bo‘limning II ga nisbatan tezroq rivojlanishi uchun imkoniyat yaratib beradi.

Davlat soliq va davlat xarajatlari orqali aholining to‘lov qobiliyatiga va uning hajmiga ta‘sir ko‘rsatadi. Soliq orqali aholi daromadiga ta‘sir qilib, kengaytirilgan ishlab chiqarish davrini boshqaradi va maromiga keltiradi.

Soliq solishni ko'paytirib, aholi daromadini kamaytirib yoki soliq solish asosida aholi daromadini ko'paytirib davlat kengaytirilgan ishlab chiqarishning bir me'yorda o'sishiga sharoit yaratadi.

Agar umumlashtirilgan holatda tahlil qilinsa, soliq orqali iqtisodni boshqarish chegaralangan xarakterga ega degan xulosaga kelish mumkin. Bu bilan talabning barchasini qamrab olmaydi. Soliq qarama-qarshi kuchlarga ega. Ba'zi vaqtda iqtisodning o'sishiga sharoit yaratish o'rniga unga xalaqit ham berishi mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda soliqlar (ayrim holatlardan tashqari) har xil nomlar bilan quyidagi asosiy shakllarga ega: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, huquqiy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, qo'shilgan qiymatga solinadigan soliq, aylanmaga solinadigan soliq, ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma va iste'molga qo'llanadigan maxsus soliq turlari va boshqalar. Tovarlarini ishlab chiqarish va sotish orqali yuzaga keladigan daromadlar va xarajatlar oqimini soliqqa tortishdan tashqari to'plangan boyliklarni soliqqa tortish ham yuzaga chiqadi. Ularning asosiy turlari: mol-mulk solig'i hamda meros va hadya solig'i.

Rivojlangan mamlakatlarda soliq tarkibi oxirgi yillari quyidagi belgilar bilan ta'riflanadi:

- *birinchidan*, ayrim mamlakatlarning iqtisodi daromad turlaridan olinadigan soliqlarga nisbiy bog'liq va o'zgarib turish xarakteriga ega;

- *ikkinchidan*, 1975-yilgacha Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkilotiga (OBSR) kiradigan mamlakatlarda iste'molga solinadigan soliqlar salmog'i nisbiy o'zgarmagan holda daromad solig'i salmog'i va ijtimoiy sug'urtaga ajratmaning salmog'i o'sib bordi. XX asrning yetmishinchi yillari ikkinchi yarmidan iste'molga solinadigan soliqning salmog'i ko'tarilib bordi. Bu, ayniqsa, Daniya, Finlandiya va Buyuk Britaniya davlatlarida namoyon bo'ldi;

- *uchinchidan*, iste'molga solinadigan soliq bilan aksiz solig'ining salmog'i ko'pchilik mamlakatlarda bir xil. Lekin 70—80-yillar birinchisining roli oshib bordi, oxirgisi esa pasaya boshladi.

Umumiy qabul qilingan egri va to'g'ri soliqlarning o'rtasidagi farq ham shartli xarakterga ega. Qabul qilinishicha, to'g'ri soliqlar to'g'ridan to'g'ri daromad oluvchilardan undiriladi. Ya'ni ularni daromad oluvchi jismoniy va huquqiy shaxslar to'laydi. Egri soliqlar daromadlarning yoki mahsulotlar aylanmasining ayrim bosqichlarida olinadi va natijada to'lovchining zimmasiga borib tushadi.

Rivojlangan davlatlarning soliq tizimi har xil iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sharoitlarda yuzaga kelgan. Shuning uchun yetarli darajada maromiga yetgan deb bo'lmaydi va shu sababli iqtisodchilar uni talab darajasiga ko'tarish uchun qator takliflar kiritishgan. Ular quyidagilardan iborat:

- soliq og'irligi baravar taqsimlanishi zarur. Yoki har bir soliq to'lovchi davlatga o'zining «haqqoniy ulushi»ni berishi kerak;

- soliqlar iloji boricha har xil shaxslar tomonidan iqtisodiy qaror qabul qilishiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Yoki bu ta'sir juda ham sezilarsiz darajada bo'lishi kerak (soliqqa tortishning betaraflik prinsipi);

- ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishda soliq siyosatidan foydalanish soliqlarning tenglik, haqqoniylik prinsiplarining buzilishini eng kam darajaga keltirishi kerak;

- soliq tarkibi va soliq siyosati iqtisodiyotni barqarorlashtirish va mamlakatni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kerak;

- soliq tizimi haqqoniyliги bilan ajralib turishi kerak, taxminiy tushunchalar bo'lmasligi va soliq to'lovchiga tushunarli bo'lishi zarur;

- soliqni boshqarish va soliq qonunchiligini saqlash xarajatlari eng kam miqdorga tushirilishi talab qilinadi.

Ushbu talablar soliq tizimi sifatini baholashda asos bo'lib xizmat qilishi kerak. Lekin amaliyotda to'g'ri va egri soliqlar tortishni ajratib bo'lmaydi. Shuning uchun soliqlarni nisbiy to'g'ri va egri soliqlarga bo'ladilar.

Keyingi yigirma yil davomida rivojlangan davlatlarda to'g'ri (daromad solig'i, kompaniya foydasiga solinadigan soliq, ishchilarning ijtimoiy sug'urta fondiga ajratmasi) va egri (iste'mol solig'i, aksizlar, tadbirkorlarning ijtimoiy sug'urta fondiga

ajratmalari) soliqlarning bir-biriga munosabati quyidagicha bo'lgan:

To'g'ri soliqlarning salmog'i umumiy tushumlar hajmida Gollandiya, Daniya, Lyuksemburg, Kanada, Yangi Zelandiya, Shveysariya, Avstriya, AQSH, Yaponiyada asosiy o'rinni egallagan bo'lsa, egri soliqlar salmog'i Fransiya, Avstraliya, Irlandiya, Gretsiya va Ispaniyada asosiy o'rinni egallagan.

Hozirda bir-biriga yaqinroq, tenglashgan to'g'ri va egri soliqlar o'rtasidagi nisbat Norvegiya, Italiya, Finlandiya va Shvetsiyada amal qilmoqda. To'g'ri soliqlarning roli Buyuk Britaniya, Germaniya, Finlandiya, Kanada, Yaponiya va AQSHda oshgan bo'lsa, egri soliqlar Avstraliya, Italiya, ayniqsa, Shvetsiyada juda yuqori sur'atlar bilan o'sishi kuzatildi.

Umuman olganda, Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OBSR) tarkibiga kiradigan davlatlarda to'g'ri soliqning salmog'i bir tekisda ko'tarilib borish tendensiyasiga ega bo'lganligi qayd etildi.

Soliq tizimidagi tarkibiy o'zgarishlar, asosan, iqtisodiy rivojlanish va inflatsiyaning egri soliqqa nisbatan, ko'proq to'g'ri soliqdan keladigan daromadga tavsifi kuchliroqligiga bog'liqdir.

Ushbu ta'sirni baholaydigan mezon ayrim soliqlarning elastikligi yoki egiluvchanligidir. Soliqlarning elastikligi ayrim soliqlardan olinadigan tushumlarning o'sishi, pasayishi ichki yalpi mahsulotning nominal ifodada o'sishi va pasayishiga bog'liq. Davlat tomonidan olinadigan soliqlar yig'indisi, ularning shakli va tuzilish usullari soliq tizimi deb yuritiladi.

Rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimi quyidagi xususiyatlar bilan ta'riflanadi:

1. Ayrim davlatlarning iqtisodi soliq turlariga bog'liqligi bir xil emasdir va ular o'zgarib turadi.

2. Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkilotiga kiradigan mamlakatlarda 1975-yilgacha daromad solig'i, ijtimoiy sug'urtaga ajratmaning salmog'i keskin o'sib bordi. Iste'molga solinadigan soliq salmog'ining tarkibi deyarli o'zgarmadi, lekin o'tgan asrning 70-yillarining ikkinchi yarmidan iste'molga solinadigan soliq salmog'i o'sa boshladi. Ayniqsa, bu o'sishlar Daniya, Finlandiya va Buyuk Britaniyada qayd etildi.

3. Iste'molga solinadigan soliq va aksiz soliqlarining salmog'i ko'pchilik mamlakatlarda bir xil. Lekin o'tgan asrning 70—80-yillarida birinchisining salmog'i oshib, ikkinchisniki esa kamayib bordi.

Umuman, daromad solig'i va ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma hajmi ko'payib bordi. Aksizlarning salmog'i hamma davlatlarda tushib ketdi, kompaniyalar foydasidan olinadigan soliq deyarli hamma davlatlarda kamayib ketdi.

Umumiy qabul qilingan soliqlarni to'g'ri va egriga bo'lish, bir tomondan daromadlarga soliq solishni anglatga, ikkinchi tomondan xarajatlarga soliq solishni anglatadi. Haqiqatda ularning o'rtasidagi farq nisbiy xarakterga ega va bu soliqlarni to'lovchilar zimmasiga yuklatishga bog'liq.

Kompaniyalarning foydasidan olinadigan soliq to'g'ri soliq hisoblanadi. Agar bu xarajat bahoning ustiga qo'yilib sotilsa, egri soliqqa aylanadi. Qo'shilgan qiymat solig'ini bahoga qo'shish imkoniyati bo'lmasa, u to'g'ri soliqqa aylanadi.

Faqat to'g'ri va egri soliqlar nisbiy hisoblanadi, lekin to'g'ri va egri soliqqa tortish tizimi bunday hisoblanmaydi. Bu tizim haqiqatda mavjud bo'lib, soliqlar yig'indisi asosida to'liq harakat qiladi.

Oxirgi o'n yillikda to'g'ri soliqdan olinadigan daromadning o'rtacha elastikligi 1 dan ortiq, egri soliqniki esa 1 dan past. Bundan ko'rinib turibdiki, rivojlangan davlatlarning soliq tizimi yuqori darajadagi egiluvchanlikka ega. Shuning uchun, ichki yalpi mahsulot o'sishi bilan, ularning «avtomatik» ravishda soliq daromadlari oshadi.

Hozirgi kunda ko'pchilik mamlakatlar soliq solishning yuqori darajasiga yetdi (davlat tomonidan milliy daromadning bir qismini olish).

Ayniqsa, bu masala ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazardan tahlil qilinsa, soliq solishni yanada kuchaytirish, ko'tarish, jamiyatning iqtisodiy tabiatida sifatli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Bu muammo eng dolzarb va faol bo'lib, hamma soliq sohasidagi tadbirlar shu masalani yechishga qaratilgan.

Rivojlangan mamlakatlarda har xil atamalar bilan yuritiladigan soliqlarning asosiy shakllari quyidagilar: jismoniy shaxs-

lardan olinadigan daromad solig‘i, yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, oborot solig‘i, ijtimoiy sug‘urta fondiga ajratma, iste‘mol bo‘yicha maxsus soliqlar.

Chet el mamlakatlarining ma‘lumotlari asosida soliq solish siyosatining asosiy yo‘nalishlarini taxminan bilish mumkin.

Soliq oshishining asosiy yo‘nalishlarini quyidagicha guruhlar bilan ifodalash mumkin:

- 1) korporatsiya solig‘i va kompaniyalarning foydasiga solinadigan boshqa soliqlar;
- 2) tadbirkorlarning ijtimoiy sug‘urta fondiga ajratmasi;
- 3) qo‘shimcha qiymat hisobidan beriladigan egri soliqlar;
- 4) aholidan olinadigan daromad solig‘i;
- 5) soliq tizimining milliy xususiyatini ifodalovchi soliqlar.

Korporatsiya va kompaniyalarning foydalaridan olinadigan boshqa soliqlar markaz va mahalliy darajalarda soliq olinadigan sof foydadan ma‘lum stavkada olinadi. Bu to‘lov soliq olishning asosiy shakli hisoblanadi. Lekin foydadan olinadigan soliqning umumiy daromaddagi salmog‘i katta emas. Oxirgi yillari AQSHda 8—10 %, Buyuk Britaniyada 7,5 % va Germaniyada 5 % ni tashkil qiladi. Kelajakda buning salmog‘i yana tushib borayotgani sezilyapti. Umuman, bu soliqning fiskal ahamiyati katta emas.

Mustaqil daromadga ega bo‘lgan shaxslardan daromad solig‘i olish mazmunan foydadan olinadigan soliqqa o‘xshaydi. Bu daromadlar dividend, foiz, renta va fuqarolarning (tijorat) faoliyatidan olinadigan daromatlardan tashkil topadi. Soliq jismoniy shaxslarning sof daromadidan olinadi. Shuning uchun ham o‘xshash hisoblanadi. Umumiy daromadda uning salmog‘i ham katta emas.

Masalan, oxirgi yillarda AQSHda 10—14 %, Buyuk Britaniyada 6—7 % va Germaniyada 5—7 % ni tashkil qildi. Bu soliqdan olinadigan daromad dinamikasi barqaror emas va tushib borish tendensiyasi sezilmoqda. AQSHda 1986-yilgi soliq islohotida bu soliqda progressiya kamaytirilgan. Ayniqsa, maksimal shkala va stavka darajasi pasaytirilgan. Bundan tashqari, dividendlarni ikki marta soliqqa tortish bo‘shashib boryapti.

Katta daromadlar bo'yicha progressiyani kamaytirib dividendlarni ikki marta soliq solishdan ozod qilishdan maqsad, aksioner kapitalni yangi investitsiyalarni moliyalashtirish, jamg'arma to'plashda soliq to'sqinligini kamaytirib, yashirincha iqtisodni chegaralashdan iborat.

Ijtimoiy sug'urta fondiga tadbirkorlarning ajratmasi ish haqi fondiga nisbatan qat'iy belgilangan yoki proporsional stavka bilan olinishi ko'zda tutilgan. Ajratma ishlab chiqarish xarajatiga kiradi va ishchi kuchini kengaytirilgan asosda ishlab chiqarish uchun qaratilgan. Ajratma davlatga ham, tadbirkorga ham qulay to'lov shakli hisoblanadi. Davlatga bu katta daromad manbai, tadbirkorga esa uning og'irligi korporatsion soliq bo'yicha soliq olinadigan foydaning pasayishi hisobiga kamaytiriladi. Bundan tashqari, bu xarajat mahsulot bahosiga kiritilib, iste'molchi zimmasiga o'tkaziladi. Masalan, bu soliq AQSHda 15 %, Buyuk Britaniyada 13 % va Germaniyada 25 % dan ortiqni tashkil qilgan. Ushbu soliq shakli barqaror xarakterga ega bo'lib, oxirgi yillarda o'sish tendensiyasiga egadir.

Egri soliqlar. Iste'moldan olinadigan ushbu soliq tadbirkorlar ajratmasiga o'xshash xarakterga ega va soliq olishning asosiy shakllaridan hisoblanadi. AQSHda 8—9 %, Buyuk Britaniyada 20 % dan ortiq, Germaniyada 18 % ni tashkil qilmoqda.

Ushbu to'lovning ahamiyati Buyuk Britaniyada yildan yilga oshib bormoqda, AQSH va Germaniyada esa barqaror bo'lib qolyapti. Bularda bu soliqlarning farqi shundan iboratki, AQSHda bu soliqlar shtat va mahalliy organlarga qarashli, Buyuk Britaniya va Germaniyada esa u umumdavlat solig'i hisoblanadi. Iste'moldan olinadigan egri soliq AQSHda, asosan, sotishdan olinadigan soliq bo'lib, Buyuk Britaniya va Germaniyada esa u qo'shilgan qiymat solig'i shakllarida qo'llaniladi. Bu soliqlar keng iste'mol tovarlariga qo'llanib, bir qancha yuqori stavkalarda olinadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i o'zining afzalliklari bilan keng miqyosda tarqalib bormoqda va kelajakda soliq yig'ishning asosiy metodlaridan biri bo'lib qoladi.

Yollanma ishchilarning (nominal ish haqidan) daromadidan olinadigan soliq o'z tarkibiga daromad solig'i va ijtimoiy sug'urta

fondiga ajratmalarni qamrab oladi. Buyuk Britaniya va Germaniyada uning salmog'i sezilarli katta, ya'ni 17 % dan 25 % gacha, AQSHda esa ancha past.

Daromadni soliqqa tortish tizimi deyarli hamma rivojlangan mamlakatlarda bir xil. Lekin ularning har birida qo'shimcha usullari mavjud bo'lib, o'z milliy xususiyatlariga egadir.

Soliq tizimining umumiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- hamma soliq to'lovchilar rezident va nerezidentlarga bo'linadi. Rezident deb hisoblash uchun asosiy belgi — jismoniy shaxs shu mamlakatda 6 oydan ortiq bo'lishi kerak. Soliq to'lovchilarni rezident va nerezidentga bo'lishdan maqsad rezidentlar daromad solig'ini ichki va tashqi manbalaridan to'laydilar. Ya'ni soliq javobgarligini global daromadi bo'yicha taqdim etadilar. Nerezidentlar faqat shu mamlakatda olgan daromadlari yuzasidan chegaralangan soliq javobgarligini beradilar;

- daromad solig'i undirilishida boshlang'ich asos — soliq to'lovchining umumiy daromadi hisoblanadi. Bu daromadga har xil manbalar kiradi: ish haqi, nafaqa, natural shaklida haq to'lash va h.k.

Daromad solig'i olishda umumiy daromad bilan soliq solinadigan daromad bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Soliq stavkasi so'nggi daromadga nisbatan qo'llaniladi. So'nggi olingan daromad umumiy daromaddan soliq bo'yicha qonuniy berilgan imtiyozlar summasiga farq qiladi. Ushbu imtiyozlar soliq olinmaydigan minimum, kasb bo'yicha xarajatlar, oilalar uchun imtiyozlar, farzandlar uchun imtiyozlar, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalardan tashkil topadi.

Ko'pchilik davlatlarda universal imtiyoz bo'lib, soliq olinmaydigan minimum hisoblanadi. Imtiyozlarning qolgan turlari ayrim davlatlardagina beriladi. Masalan, Fransiya, Germaniya, Yaponiyada qo'llanadi. Italiyada umumiy daromad soliq olinadigan daromadga teng bo'ladi. Bu davlatda ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma berilgandan keyin umumiy daromad soliq olinadigan daromadga teng bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlarda umumiy daromaddan soliqdan imtiyoz berish soliq imtiyozlarining asosiy shakli hisoblanadi. Soliq summasini kamaytirish qo'llanilmaydigan hollarda soliqning

hisobga olinishi yoki daromad solig'i bo'yicha to'lovchining soliq majburiyatini kamaytirish qo'llanadi.

Soliq imtiyozlaridan (skidka, zachot) tashqari, ayrim rivojlangan mamlakatlarda bolalarga davlatdan to'g'ridan to'g'ri to'lov beriladi, bu esa daromadni soliqqa tortishni kamaytiradi. Oilaning daromadi belgilangan chegaradan yuqori bo'lmagan hollarda to'lovning hajmi bolalarning soniga bog'liq, chegaradan yuqori bo'lsa, to'lov chegaralanadi.

Yuqorida keltirilgan doimiy soliq imtiyozlari bilan bir qatorda yuqorida qayd etilgan davlatlarda vaqtinchalik imtiyozlar qo'llaniladi. Bu imtiyozlar ma'lum guruh xarajatlariga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu xarajatlarga quyidagilar kiradi: zayomlar bo'yicha foizlar, hayotni sug'urta qilish badali, ayrim professional xarajatlar va h.k.

Daromad solig'ining stavkasi, qoida bo'yicha, progressiv shaklda qo'llanilib, ular murakkab progressiv stavkalar tartibida tuziladi. Oxirgi yillari yuqori stavkalar keskin pasayib ketdi va stavkalar soni kamaydi. Proporsional stavkaga o'tish darajasining yuksalishi kuzatilmog'dadir. Angliyada, asosan, 2 ta stavka: 25 va 40 % li stavkalar qo'llaniladi. Italiyada esa yuqori stavka 56 % ga va Yaponiyada 60 % ga tushirilgan.

Ishlaydigan er va xotin daromad solig'ini ixtiyoriy, daromadlarining umumiy yig'indisidan to'laydilar yoki ixtiyoran har biri alohida to'laydi. Ba'zi davlatlarda qo'shilgan umumiy daromaddan soliq kamroq to'lanadi. Qoida bo'yicha daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma ish haqi kabi manbalardan ishonada to'lanadi. Boshqa turdagi daromatlardan soliq er-xotin birgalikda yoki alohida yozgan deklaratsiyalari asosida olinadi.

4.2. Fransiya soliq tizimi asoslari

Fransiya jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri hisoblanadi. Fransiya iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish Yevropada eng yuqori darajada hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar orasida yalpi ichki mahsulotda majburiy to'lovlarning (soliq to'lovlari, ijtimoiy sug'urtaga ajrat-

malar) salmog'i eng yuqoriligi bilan Fransiya farq qiladi. XX asrning 80-yillari birinchi yarmida bu salmoq ortib borgan va 1985-yili 45,6 % ni tashkil qilgan (1976-yili 39,4 % bo'lgan). Bu ko'rsatkich bo'yicha Yevropa iqtisodiy hamkorlik (EBS) mamlakatlarining o'rtacha ko'rsatkichidan ancha yuqori hisoblanadi. Lekin Milliy majlisda o'ng partiyalarning o'rni mustahkamlanishi munosabati bilan 80-yillarning ikkinchi yarmida eslatilgan ko'rsatkich pasaya boshladi. O'ng partiya vakillari davlatning iqtisodiyotga aralashishini chegaralash, davlat sektoridagi qator korxonalarni denatsionalizatsiya qilish, bir me'yorda soliqlarni kamaytirib borish kabi masalalarni o'rtaga tashladilar.

Fransiyadagi majburiy ajratmalar tizimining yana bir xususiyati, ularning tarkibida ijtimoiy sug'urta foiziga ajratma salmog'i ancha yuqori. Majburiy ajratmalar tarkibida ijtimoiy sug'urta foiziga ajratma Fransiyada 43,3 % ni tashkil qiladi. Uning darajasi yirik rivojlangan mamlakatlar, shu jumladan, Yevropa iqtisodiy hamkorlik mamlakatlari ichida eng yuqori hisoblanadi. Fransiya past to'g'ri soliq va yuqori egri soliq salmoqlari darajasi bilan ham farq qiladi. Shu bilan bir qatorda Fransiyada ichki yalpi mahsulotda tovarlar va xizmatlardan tushadigan soliq salmog'i ham yuqori.

Yalpi ichki mahsulotda majburiy ajratmalar salmog'ining oshishi soliq tushumiga nisbatan ijtimoiy yo'nalishdagi fondlarga tushumlarning tezroq (ilgarilab ketgan holda) tushishi bilan bog'liq. Shu bilan bir qatorda, mahalliy tashkilotlar hukumati (regionlar, departamentlar, kommunalar) budjetiga soliq tushumlarining salmog'i markaziy hukumat budjetiga boradigan soliq tushumiga nisbatan tezroq oshib borishi amalga oshirildi.

1-jadvaldan shuni ta'kidlash mumkinki, Fransiyada YIH mamlakatlariga nisbatan (o'rtacha 33,4 %) daromad solig'ining stavkasi 12,2 % ni tashkil etadi. Aksioner kompaniyalarning foydasiga solinadigan soliq, mol-mulkka solinadigan soliqlarning stavkalar darajasi ham past daromadning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday yengilliklar daromad oladiganlarga juda katta qulayliklar yaratadi.

Rivojlangan mamlakatlarda majburiy ajratmalar (to'lovlar) tarkibi¹, %

T/r	Mamlakatlar	Daromad solig'i	Aksioner kompaniyalarning foydasiga solinadigan soliq	Ijtimoiy yo'nalish fondlariga ajratmalar	Ish beruvchidan olinadigan ish haqiga solinadigan soliq	Mol-mulka solinadigan soliq	Tovarlar va xizmatlarga solinadigan soliq	Boshqa soliqlar
1	Belgiya	32,0	6,9	33,8	—	2,4	24,9	—
2	Buyuk Britaniya	26,7	10,8	18,5	—	12,7	31,2	0,1
3	Germaniya	28,9	5,3	37,4	—	3,1	25,2	0,1
4	Italiya	35,7	—	33,3	0,5	2,5	28,0	—
5	Niderlandiya	20,5	7,3	42,5	—	3,5	25,9	0,3
6	AQSH	34,7	8,4	29,7	—	10,3	16,9	—
7	Fransiya	12,2	5,2	43,3	1,8	4,8	29,4	3,3
8	O'rtacha Yevropa iqtisodiy hamkorlik mamlakatlari bo'yicha	33,4	—	28,8	0,4	4,5	32,5	0,4
9	O'rtacha OBSR mamlakatlari bo'yicha	38,3	—	24,2	1,0	5,4	30,1	1,0

Bunga markazdan uzoq masofada ushlar siyosatini amalga oshirish, mahalliy organlarning daromad bazasini kuchaytirish, ularning markaziy hukumatga qaramligini kamaytirish sabab bo'ldi. Ta'kidlash zarurki, Yevropa hamjamiyati budjetlarining umumiy hajmida soliq xarakteriga ega bo'lgan to'lovlarning o'sishi mehnat ahamiyatining oshishi va integratsion jarayonning kuchayishi bilan bog'liq.

¹ И.Г. Русакова и др. Налоги и налогообложение. М., «ЮНИТА», 1998, стр. 261.

Fransiya davlat budjetining daromadida soliqlar (ajratmalar bilan birgalikda) tushumi 93 % ga yaqin o‘rinni egallaydi. Qolgani soliqsiz daromadlarga to‘g‘ri keladi.

Egri soliqlar budjet umumiy daromadining 60 % ga yaqinini beradi. Asosiy egri soliq Fransiyada qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblanadi. Bu soliq 1954-yili tatbiq qilingan. Budjetning solikli daromadlari ichida QQS 45 % ni tashkil qiladi.

Egri soliqlar tarkibida QQS salmog‘i 72,3 % ga teng.

2-jadval

Fransiyaning davlat budjeti tarkibi¹

Soliq turlari	Summasi, mln yevro	Salmog‘i, %
1. Qo‘shilgan qiymat solig‘i	669962	41,9
2. Jismoniy shaxslarga solinadigan daromad solig‘i	293110	18,1
3. Korxonalarga solinadigan soliq	170140	10,6
4. Neft mahsulotlariga solinadigan boj to‘lovi	118618	7,3
5. Boshqa soliqlar	245120	15,2
6. Soliqsiz tushumlar	120267	7,4
Jami	1617217	100,0

Keyingi egri soliq — ichki neft mahsulotlariga solinadigan soliq. Uning salmog‘i 7—8,5 % ga teng. Bu soliqqa 13,3 % egri soliqlar to‘g‘ri keladi. Egri soliqlarning kelib tushish tarkibi uzoq vaqt o‘zgarmasdan turdi. Bundan faqat ichki neft mahsulotlariga solinadigan soliq mustasno. Uning salmog‘i keyingi yillar oshib borgan. Amaliyotda bu soliq aksizlarga emas, bojxona bojiga tenglashtiriladi.

Neft mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun kerakli xomashyo, asosan, mamlakatga import orqali keltiriladi. Eksport va reeksport qilinadigan neft mahsulotlari umuman soliqqa tortilmaydi. Fransiya uchun o‘tgan asrning 80 va 90-yillarida bojxona bojining roli sezilarli ortib bordi.

¹ Д.Г. Черник, А.П. Починюк, Б.П. Морозов. Основа налоговой системы. М., «Финанс», 1998, стр. 100.

Deyarli 40 % ga yaqin budjet daromadlari to‘g‘ri soliqlardan kelib tushadi. Bularning tarkibida asosiy o‘rinni daromad solig‘i (jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq) egallaydi. Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq umumiy budjet daromadining 18—21 % ini tashkil qiladi. Ikkinchi o‘rinni to‘g‘ri soliqlar tarkibida aksioner kompaniyalarning foydasiga solinadigan soliq (korporatsiya solig‘i) egallaydi.

Budjetning soliq daromadlari tarkibida bu to‘lov 8 % dan 10 % gachani tashkil qiladi. Aksioner kompaniyalarning foydasiga solinadigan soliq salmog‘ining pasayib borishiga asosiy sabab, yengilliklar berish tizimining kengayishi hisoblanadi.

Fransiya korxonalari korporatsiya solig‘i bo‘yicha, asosan, ikki turdagi yengilliklardan foydalanadi:

- a) asosiy kapitalga nisbatan tezlashtirilgan amortizatsiyani qo‘llash;
- b) soliq kreditlari berish.

Soliq krediti 1982-yili kiritilgan va 1983-yil 1-yanvardan boshlab qo‘llaniladi. Ilmiy tekshirish ishlariga qilinadigan xarajat kredit olish huquqini beradi. Ilmiy tekshirish ishlarining xarajati o‘tgan yilgidan oshib ketsa, unga 50 % hajmda kredit beriladi.

3-jadval

Fransiyada aholining ijtimoiy guruhlariga binoan soliqlarning undirilishi

Aholining ijtimoiy guruhlari	To‘liq (jami) daromad	To‘g‘ri soliqlar	Egri soliqlar	Ijtimoiy ajratmalar	Jami
Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari	100	4,4	8,4	10,0	22,8
Qishloq xo‘jaligidagi yollanma ishchilar	100	2,2	13,2	30,8	46,2
Erkin kasb egalari	100	11,7	6,3	8,6	26,2
Oliy (mansabdor) kadrlar	100	12,6	9,6	19,6	41,8
Xizmatchilar	100	4,7	13,2	27,3	45,2
Ishchilar	100	3,2	13,2	32,8	49,2
Band bo‘lmaganlar (pensionerlar qo‘shilgan holda)	100	5,4	11,2	7,1	23,7

Kredit summasi olinadigan korporatsion soliqlardan chiqarib tashlanadi. Ilmiy tekshirish xarajatlariga imorat va uskunalarning amortizatsiyasi, xodimlarga beriladigan ish haqi va operatsion xarajatlar kiradi (xodimlarga ish haqi sifatida 55 % xarajat beriladi).

Shunday qilib, ijtimoiy guruhlar bo'yicha soliqlar umumiy daromadlaridan eng kamida 22,8 % va ko'pi bilan 49,2 % to'lanadi. Oliy (mansabdorlar) kadrlar va erkin kasb egalari, jadvalga ko'ra, to'g'ri soliqlarning, ya'ni daromad, mol-mulk soliqlarining asosiy to'lovchisi hisoblanadi (11,7 va 12,6 %). Egri soliqning asosiy to'lovchilari bo'lib qishloq xo'jaligidagi yollanma ishchilar, ishchi va xizmatchilar hisoblanadi. Ijtimoiy ajratmalarining katta qismini ham aynan shu to'lovchilar guruhi ta'minlab beradi.

Fransiyada, boshqa Yevropa davlatlari kabi, 1970-yillarda soliqlar sezilarli oshgandan keyin, ular bir maromga tushib qoldi. Daromad solig'i va qo'shilgan qiymat solig'ining avtomobil kabi tovarlar guruhi bo'yicha kamayishi, ijtimoiy sug'urta tizimiga ajratmani oshirish bilan to'ldirildi. 1995—2003-yillarga kelib, Fransiya soliq tizimini takomillashtirish, oxirgi amalga oshirilayotgan ichki yalpi mahsulotda soliqning salmog'ini bir maromda ushlab turish va sekin-asta pasaytirish yo'li bilan olib borilmoqda.

4.3. Buyuk Britaniya soliq tizimining asoslari

Buyuk Britaniyada boshqa mamlakatlarga nisbatan birinchi marta soliq tizimining shakllanish bosqichlari revolyutsion yo'llar orqali rivojlanib borgan daromad solig'ini Angliyada 1449-yili kiritishga harakat qilindi. Lekin bu harakat grafikda qo'zg'olon ko'tarilishiga sabab bo'ldi va Qirol bosh soliq yig'uvchini o'lim jazosiga tortib soliqni bekor qildi.

1472-yili Eduard IV 13 ming kamonchini Fransiya bilan urush uchun yollash maqsadida parlamentdan 10 % daromad solig'ini kiritishga ruxsat oldi. Angliyaliklar to'lashdan bosh tortdi va Qirol vaziri soliqni bekor qildi. 1641-yili kiritilgan jon boshiga solinadigan soliqni ham bekor qilishga to'g'ri keldi.

Hamma davlatlar tomonidan o'zlashtirilgan hozirgi daromad solig'i Angliyada kelib chiqqan va u 1799-yili Napoleon bilan

urush olib borish uchun kerakli pulni topish maqsadida kiritilgan. Buyuk Britaniyaning soliq tizimi XIX asrda yuzaga kelgan. Lekin o'sha davrning soliqqa tortish xususiyatlari hozirgi kunda ham saqlanib qolingan.

1973-yilgi soliq islohoti Buyuk Britaniyaning soliq tizimiga muhim o'zgartirishlar kiritdi va uni Yevropa Ittifoqi a'zolarining soliq tizimiga yaqinlashtirdi. Hozirgi kunda Buyuk Britaniyaning soliq tizimiga hamma rivojlangan davlatlarga taalluqli muhim o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Bu o'zgarishlar hukmron hukumatning siyosatini ifodalaydi. Oxirgi o'n yil davomida bir qator soliq tadbirlari o'tkazildi. Shu jumladan, bosqichma-bosqich soliq stavkalarini pasaytirish amalga oshirildi (aholiga 33 % dan 20 % gacha va korporatsiyalar uchun 52 % dan 33 % gacha).

Aholining turli qatlamlariga yengillik berish sharti o'zgartirilgan, ayrim soliqlar bekor qilinib yangi soliqlar kiritilgan. Umuman, soliq qonunchiligining islohoti murakkab soliq tizimining muammolarini yechish, uning asosiy tamoyillarini takomillashtirish, aholi va korporatsiyalarni to'g'ridan to'g'ri soliqqa tortish, soliq bazasini kengaytirishga qaratilgan edi.

Mamlakatning soliq islohotida, asosan, ikki yo'nalishni ajratish mumkin:

1. Shaxsiy daromadni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish (belgilangan tadbirlar 1987-yili tamomlangan edi).

2. Korporatsiyalarda daromadni soliqqa tortishni o'zgartirish (1987—1988-yillar belgilangan majmua tadbirlarni tamomlashga mo'ljallangan edi).

Soliq tadbirlarini amalga oshirishda o'zgarishlar 1988—89-moliya yili mamlakat budjetida o'z ifodasini topdi. Ushbu budjet soliq islohotining tubdan o'zgartirilgan dasturini ifodalab, hukumatning yangi siyosatini amalga oshirishga qaratilgan edi. Bu dasturda dunyoda eng oddiy soliq tizimini tashkil qilish belgilangan edi.

Buyuk Britaniya soliq islohotining asosiy mazmunini yorituvchi tadbirlar quyidagilar:

- shaxsiy daromad solig'ining eng pastki stavkasini 27 % dan 20 % ga tushirish;

- aholi daromadini ko'p bosqichli qismlarga bo'lishni va ularga progressiv stavkalarni qo'llashni kamaytirish (avval qo'llangan ko'p pog'ona o'rniga faqat soliqning uchta stavkasi qoldirilgan: 20, 24 va 40 %);

- er-xotinning daromadlarini alohida-alohida soliqqa tortish;
- soliq tizimini soddalashtirish.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish bilan soliq tizimi eng adolatli bo'ldi deb bo'lmaydi. Ingliz iqtisodchi olimlarining fikri bo'yicha, o'rtacha statistik britaniyalik soliq to'lovchi daromadiga soliq va ajratmalar oldingi to'langan salmog'i darajasida qolgan. Lekin o'rtacha stavka o'rtacha daromaddan ishchilar uchun 14 % dan 16 % ga oshdi; shu bilan bir qatorda o'rtacha darajadan 5 marta yuqori oylikka ega bo'lgan shaxslardan olinadigan soliqning o'rtacha stavkasi 52 % dan 35 % gacha tushdi. Natijada sanoati rivojlangan davlatlar orasida yuqori ish haqi oluvchi britaniyaliklar eng kam soliqqa tortiluvchilar bo'lib qoldi.

Past ish haqi oladigan shaxslar uning teskarisi — yuqori darajada soliqqa tortiladigan bo'lishdi. Natijada o'rtacha ish haqi oladigan va ikki bolali xodim o'zining ish haqidan 34 % ini soliq sifatida to'laydigan bo'ldi (sotsial sug'urtaga ajratmani qo'shgan holda). Bu ko'rsatkich AQSHda 26 % va Yaponiyada 23 % ni tashkil qiladi.

Buyuk Britaniyada 1997—1998-moliya yili budjet daromadlarining yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i 39 % ni tashkil qildi. 2001—2002-yili esa 37 % ga teng bo'ldi. Bu daromadlar tarkibida soliqlar alohida olinsa, ulushi kamroq bo'ladi.

Buyuk Britaniyaning hozirgi zamon soliq tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Markaziy soliqlar: aholidan olinadigan daromad soliqlari, korporatsiyadan olinadigan daromad solig'i (korporatsiya solig'i), neftdan olinadigan daromadga soliq, merosdan olinadigan soliq va egri soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, boj va aksizlar, gerb yig'imi). Yuqorida keltirilgan to'lovlar 90 % dan ortiq soliq tushumlarini ta'minlab beradi.

2. Mahalliy soliqlar (mol-mulk) 10 % nigina tashkil qiladi.

Buyuk Britaniyada quyidagi soliq stavkalari qo'llaniladi (1996—1997-moliya yili budjeti bo'yicha). Aholidan olinadigan daromad solig'i:

- 13900 f.st.gacha bo‘lgan daromaddan — 20 %;
- 225500 f.st.dan ortiqcha daromaddan— 40 %;
- korporatsiyalardan olinadigan daromad solig‘i — 33 %;
- «Kichik biznes»dan olinadigan daromad solig‘i yoki foydadan 300000 f.st.dan kam bo‘lgan kompaniyalar — 24 %.

Merosdan olinadigan soliq:

- 200000 f.st.gacha — 0 %;
- 200000 f.st.dan yuqori — 40 %;
- qo‘shilgan qiymat solig‘i — 17,5 %;
- aksizlar har xil;
- gerb yig‘imi — 0,5—2 %.

Davlat budjetining to‘g‘ri daromadining 64 % i aholidan olinadigan daromad solig‘iga va 19 % i kompaniyalar daromadidan olinadigan soliqqa to‘g‘ri keladi.

Buyuk Britaniya soliq qonunchiligining asoslari quyidagilar hisoblanadi: aholidan olinadigan va korporatsiyalardan olinadigan daromad soliqlari bo‘yicha 1970-yili chiqarilgan qonuniy akt, qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘g‘risida 1979-yili chiqarilgan akt va korporatsiyalardan olinadigan soliq bo‘yicha 1996-yili chiqarilgan aktlar.

Britaniya parlamenti soliqlarni mamlakatda yig‘ish bo‘yicha qonuniy hukmronlikka ega. Parlamentning yuridik huquqi Angliya, Uels, Shotlandiya hamda Shimoliy Irlandiyaga qo‘llaniladi va tarqatiladi. Hukumat g‘aznachilik (Moliya vazirligi) yordamida mamlakatning soliq tizimini boshqaradi. Hukumatning bu faoliyati parlament tomonidan nazorat qilinadi.

Buyuk Britaniya g‘aznachilik organi yagona davlat moliya instituti bo‘lib, boshqa mamlakatlarda deyarli unga o‘xshash tashkilot yo‘q. G‘aznachilik eng qadimiy saqlanib qolgan konstitutsion institut hisoblanadi. Hukumat tarkibida ham eng asosiy vazirlik deb qabul qilingan. Uning tarixiy yuzaga kelgan huquqi boshqa mamlakatlarning moliya vazirligi huquqidan kengroq. G‘aznachilik mamlakatning umumiy iqtisodiy strategiyasini ishlab chiqishga javob beradi.

Buyuk Britaniyada soliq qonunlari hukumat tomonidan tasdiqlanadi. Soliq qonunchiligini amaliyotda qo‘llashni boshqarish huquqi maxsus organga — maxfiy kengash (*Privy council*), vazirlar, ichki daromadlar boshqarma (*Board of inland*

revenue)lariga beriladi. Yuqorida ko'rsatilgan organlarning faoliyat chegarasi maxsus qabul qilingan parlament aktida ko'rsatilgan. Soliq organlarining huquqlarini tushuntirish va aniqlik kiritishda yo'riqnoma, o'zgacha «maxfiy kengash buyrug'i» (*orders in council*) beriladi.

Ushbu buyruq misoli sifatida ikki tomonlama soliq solishdan saqlash to'g'risida kelishish hujjatini tuzish, harakatdagi soliq qoidalarining yo'riqnomasi (*statutory instruments*) va uning bir qismi — jismoniy shaxslardan daromad solig'ini olish tizimi. Soliq xizmatini tashkil qilish g'aznachilikka qarashli ikki hukumat departamentiga berilgan: ichki daromadlar boshqarmasi, boj va aksizlar boshqarmasi.

Rasmiyatchilik bo'yicha ichki daromadlar boshqarmasi mustaqil hukumat muassasasi hisoblanadi. Uning funksiyasiga huquqiy va jismoniy shaxslardan soliq olishni nazorat qilish kiradi (daromad solig'i, kapitalga solinadigan soliq, gerb yig'imi).

Ma'muriy jihatdan bu nazorat bosh soliq inspektori (*chief inspector of taxes*) tomonidan amalga oshiriladi. Uning idorasi Londonda joylashgan. Bosh inspektorga 700 ta hududiy idoralar bo'ysunadi, ularning yordamida to'g'ridan to'g'ri aholidan soliq-lar yig'iladi va ularda axborot va maslahat berish xizmatlari tashkil qilingan. Hududiy idoralarda bir necha yuz soliq inspektorlari ishlaydi, ular korxonalarining hisob raqamlarini, shaxsiy hisobraqamlarini o'rganishib, soliq solinadigan summani baholagan holda qaytadan hisob-kitob qilish, to'lovlarni qaytarish bilan shug'ullanadilar, adliyada ichki daromadlar boshqarmasining manfaatini himoya qiladilar.

Ichki daromadlar boshqarmasining (IDB) bosmaxonasida AQSH va Fransiyadan farqli o'laroq qo'llanmalar chop qilinmaydi. Eng ko'p tarqalgan hujjat, IDB tomonidan har xil masalalar bo'yicha chop etiladigan maxsus risolalar hisoblanadi.

Boj va aksizlar boshqarmasi ixtiyorida hamma egri soliq solish tizimi bo'ladi (gerb yig'imidan tashqari).

4.4. Belgiya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari

Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg birgalikda bir iqtisodiy ittifoq — Benilyuksni tashkil qiladi. Benilyuks davlatlarining soliq tizimi ko'p asrlik tarixga ega. Ittifoq to'g'risidagi

shartnomaga 1958-yili qo‘l qo‘yilgan. Boshqaruv organlari turar joyi Brussel shahri hisoblanadi.

Yevropa iqtisodiy hamjamiyati — Rimda 1957-yilda G‘arbiy Yevropadagi 12 davlat shartnoma imzolagan, keyinchalik boshqa davlatlar ham ushbu guruhga qo‘shilishgan. Asosiy maqsad — boj ittifoqi tuzish, ishchi kuchi, xizmat va kapitalning umumiy bozorini tashkil qilish, uchinchi davlatlarga nisbatan yagona savdo siyosatini qo‘llash hamda qishloq xo‘jaligi, transport, ta‘lim sohalarida umumiy siyosat yuritish va h.k.

Hozirgi zamonda bu mamlakatlarning iqtisodiyoti yagona xo‘jalik kompleksini tashkil qiladi. Shu bilan bir qatorda, har bir davlatning soliq tizimi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Boshqa mamlakatlar kabi Belgiyaning soliq solish mexanizmi kompleks xarakterga ega va doimiy o‘zgarishlarga duch kelib turadi. Mamlakat qonunchiligi soliq to‘lovchilarni ikki kategoriyaga bo‘ladi: *rezidentlar* va *norezidentlar*.

Paydo bo‘lish joyi va manbalardan qat’i nazar, agar boshqaruvchilar doimiy ravishda Belgiyada bo‘lsa va uning ustavi shu mamlakatda ro‘yxatga olingan bo‘lsa, yuridik shaxs rezident hisoblanadi. To‘lovchilar — rezidentlar foydasiga solinadigan soliq, kapitalning o‘sishi ham qo‘shilgan holda soliqqa tortiladi, to‘lovchi — norezidentlar faqat Belgiyada olingan daromaddan soliqni beradilar.

Belgiyada ham to‘g‘ri va egri soliqlar mavjud. To‘g‘ri soliqlardan korporatsiya foydasiga solinadigan soliq va yakka tartibdagi daromad solig‘ining stavkalari bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar tarkibida Belgiya eng yuqori hajmdaligi bilan ajralib turadi.

4.5. Italiyada soliqlarning vujudga kelishi va rivojlanishi

Soliqlarning inson taraqqiyoti boshida paydo bo‘lishi, birinchi ijtimoiy talablar bilan bog‘liq soliqlarni olish shakli va uslublarining rivojlanishini uch yirik bosqichga bo‘lish mumkin:

Birinchi bosqich — qadimgi dunyodan o‘rta asrning boshlanish davrigacha.

Soliqlar davlatning kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan zaruriy iqtisodiy munosabatdir. Davlat tuzilishining rivojlanishi va shakli o‘zgarishi soliq tizimining o‘zgarishiga olib keladi. Bu davrda

davlat soliq va yig'implarni belgilash uchun moliya apparatiga ega bo'lmaydi. Davlat faqat umumiy oladigan summasining hajmini belgilaydi. Soliqlar yig'ishni shaharga yoki jamoaga topshiradi. Ko'proq ijaraga oluvchilar yordamidan foydalanadi.

Ikkinchi bosqich — XVI asr — XIX asrning boshi.

Bu davrda davlat muassasalari, shu jumladan, moliya tizimi yuzaga keladi. Davlat boshqarish ishining bir qismini o'z qo'lga oladi va soliq olinadigan kvotani (yuqori chegarani) belgilaydi, soliqlarni yig'ish jarayonini kuzatib boradi. Bu vaqtda ham ijaraga olish keng miqyosda qo'llanilib kelinadi.

Uchinchi bosqich — hozirgi davr. Davlat soliqlarni belgilash va yig'ib olish bo'yicha hamma funksiyani o'z qo'lga oladi. Hudud ma'muriyatlari va jamoa davlatga yordam sifatida qarashadi.

Davlatlarning boshlang'ich soliq to'plashlarida uning asosiy shakli qurbonlik qilish hisoblangan. Qurbonlik qilish faqat o'z xohishi shaklida emas, majburiy shaklda ham amalga oshirilgan. Bu yozilmagan qonun bo'lib, majburan to'langan, yig'ilgan. Soliqlar olingan daromadning 10 % ini tashkil qilishi kerak edi.

Eramizdan avvalgi XII asrda kishi boshidan olinadigan soliq Xitoy, Bobil va Fors davlatlarida bo'lgan. Qadimgi Yunonistonda eramizdan oldingi VII—IV asrlarda 1/10, 1/20 hajmda daromaddan soliq olish belgilangan. Aksizlar ham bo'lgan. Bu to'lov darvozadan shaharga kirishda olingan.

Shu bilan bir qatorda qadimgi dunyoda, Afinada ozod fuqaro soliq to'lamasligi kerak edi. Shaxsiy soliq quldorchilik tamg'asini ifodalaydi, ba'zi to'la huquqli fuqarolar o'zlari uchun soliq olishni kamsitish deb hisoblashgan. Mol-mulk solig'ini ham ular yoqtirmay qabul qilganlar. Asosan, ular o'z xohishlari bilan sadaqa berish, yengilgan davlatlar va ittifoqdosh mamlakatlardan boylik olish yo'li bilan o'z xazinasini to'ldirishgan.

Qadimgi Rimda ham boshlang'ich davrda soliqlar bo'lmagan. Davlat xarajati kam bo'lgan, ko'p lavozimlardagilar tekinga ishlaganlar.

Qurilish xarajatlarini umumdavlat yerlarini ijaraga berish orqali to'plagan mablag'lari bilan qoplaganlar. Urush davrida rimliklar ham soliq to'lay boshlashgan. Rim aholisi qasam ichib, ariza yozganlar va bu arizalarda o'zlarining mulklarini, oilaviy

ahvollarini ko'rsatishgan. O'sha vaqtda hozirgi daromad to'g'ri-
sidagi deklaratsiya asosi tashkil qilingan.

Eramizdan oldingi IV—III asrlarda Rim davlatida shahar-
koloniyalar yuzaga kelib, ularda kommunal (mahalliy) soliqlar
qo'llangan. Urushda ulkan g'alabaga erishgan bo'lsa, soliqlar
kamaytirilgan, yo'q qilingan. Xarajatlar kontributsiya hisobiga
qoplangan.

Bu davrda yagona soliq tizimi bo'lmagan, ayrim davlatlar,
jamoalar har xil tartibda soliqqa tortilgan. Moliya organi
bo'lmaganligi uchun Rim davlati ijarachilardan foydalangan.
Korrupsiya va suiiste'mol qilish ijara tizimida juda rivoj topadi.

Shuning uchun Yuliy Sezar to'g'ri soliqlar bo'yicha ijarani
yo'q qilib, egri soliqlar bo'yicha qoldirgan. Sezar moliya,
ayniqsa, soliq tizimini qaytadan tashkil qildi.

Rim imperiyasida mol-mulkni hisobga olish (senz), yerning
sifati, turlari bo'yicha ma'lumot to'plash va h.k. Rim imperiyasining
hududlarida yer solig'ining asosiy daromad manbalariga aylan-
tirildi. Soliq stavkasi 1/10 yerdan olingan daromadga teng edi:
mevali daraxtlar soniga qarab ham maxsus soliqlar kiritilgan.
Soliqqa tirik inventar ham tortilgan. Bu tushunchaga yirik shoxli
mollar bilan qullar ham kirgan.

Eramizning VI asrida imperator Avgust meros solig'i kiritgan
(5 %) edi. Shuningdek, egri soliqlardan oborot solig'i, ichki
iste'mol aksizi kiritilgan (1 %). Qullarni sotish bo'yicha maxsus
oborot solig'i kiritilgan (4 %). Qullikdan ozod qilish oborot
solig'i bozor qiymatidan 5 % hajmda olingan. Tuz aksizi kiritilgan.

Rim imperiyasida soliqlar faqat fiskal emas, xo'jalikni
rivojlantirish funksiyasini ham bajargan. Rim imperiyasidan keyin
Vizantiyada ham soliq olish rivojlangan. VII asrda 21 soliq turi
bo'lgan. Bu yer solig'i, kishi boshidan olinadigan soliq, ot sotib
olish uchun soliq va h.k. Agar imorat qurilganda uning hajmi
belgilangandan oshib ketsa, jarima olingan va uning otini
«havoga solinadigan soliq» deb yuritishgan.

Vizantiyada flot qurilishi uchun soliq, armiyani saqlash
xarajatlari uchun soliqlar kiritildi. Soliqlarning ko'pligi Vizantiya
davlatining moliyaviy rivojlanishi o'rniga, moliyaviy inqirozga olib
kelgan. Soliqning og'irligi, yuki, asosan, dehqonlar zimmasiga

tushib, ijaraga olish (ulgurji, ko'tarasiga sotib olish) qo'llan-gandan keyin, yana ham og'irlashgan.

Soliqlar tarixida alohida o'rinni soliq ijarasi egallaydi. *Ijaraga olish* – savdogarlarga ma'lum davrga va ma'lum to'lov asosida aholidan yig'ish uchun davlat soliqlari va boshqa daromadlarni to'plash huquqini beradi. Bundan tashqari, ma'lum tovarlarni sotish huquqiga ham ega bo'ladi. Davlat bilan tuzilgan shartnoma bahosi bilan savdogar yig'ib olgan summasi o'rtasidagi farq uning foydasini tashkil qilgan.

Ijaraga olishning boshqa turlari XX asrda ham davom etgan. Masalan, Italiyada ayrim soliqlarni banklar, omonat kassalar yig'gan, Amerikada esa ijaraga olish XX asrning boshlarida boqimandani to'plashda qo'llangan. Italiya soliq tizimida tarix o'zining sezilarli tamg'asini qoldirgan.

Soliq tushumlari Italiya budjeti daromadining asosiy manbayi hisoblanadi (80 % dan ko'proq). Soliq solish tarkibiga 1973—1974-yillardagi soliq islohoti katta o'zgartishlar kiritdi. Islohot soliqlarning ko'p pog'onaliligini, qadimiy, eskirganligini, to'liq bo'l-maganligini yo'q qildi. Natijada Yevropa hamjamiyati mamlakat-larining amaliyotiga yaqinlashtirdi. Italiyaning hozirgi zamon soliq tizimi aniq tarkibi, umumlashtirilgan soliq solish qoidasi, to'g'ri soliqlarning egri soliqlarga nisbatan ustunligi bilan ifodalanadi.

1974-yilgi islohot ko'proq to'g'ri soliqlarni oddiylashtirishga qaratildi. Bu soliqlarni olish amaliyotiga 1988-yilgi islohot ham katta ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, huquqiy shaxslardan olinadigan daromad so-lig'i va mahalliy soliqlarga (huquqiy va jismoniy shaxslardan olinadi) katta ta'sir ko'rsatdi.

Ayrim daromadlardan manbayida qat'iy belgilangan stavka bilan ushlar usuli yana bitta yangi to'g'ri soliqlarning — kapitaldan keladigan daromaddan olinadigan soliqlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Omonat va obligatsiyalardan olinadigan daromad jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tarkibida bo'lishiga qaramay, texnik jihatdan soliqqa tortiladi va asosiy daro-mad solig'ini hisoblashda soliq solinadigan umumiy daromaddan chiqarib tashlanadi.

To'g'ri soliqlar tarkibiga XX asrning 80-yillarida o'zgargan meros va hadyadan olinadigan soliq ham kiradi.

Tovarlarni bosqichma-bosqich ishlab chiqarish va muomala sohaslarida oldinga siljish, xizmat ko'rsatish, tovarlarni import qilish, mulkdorchilik shaklini o'zgartirish va boshqa bitimlar bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar ham egri soliqlarga tortiladi. Ularning tarkibida eng muhimi qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanadi. Qolgan egri soliqlar o'ziga xos qo'llash sohasi bilan bog'liq va ularning nomi, qoida bo'yicha, o'z mazmunini ifodalaydi:

- gerb solig'i davlat tomonidan: fuqarolik va tijorat hujjatlarini huquqiy rasmiylashtirish uchun olinadi;

- ro'yxatga olish solig'i gerb solig'ini to'ldiradi va hujjatlar rasmiylashtirilgandan keyin davlat registratsiya qilish kitobiga yozish talab qilinganda to'lanadi;

- ko'chmas mulk qiymatining o'sishiga solinadigan soliqni mahalliy organlar ehtiyojiga ko'chmas mulk foydasi bilan sotilganda olinadi;

- boshqa ishlab chiqarish va tijorat aksizlari (elektr energiya-siga, alkogolli ichimliklar, shakar, tamaki) va yig'imlar (sug'urta kontraktlarini tuzishda, aksiya va obligatsiyalarni sotib olishda davlat tomonidan konsession xizmat ko'rsatilganda, ya'ni ruxsatnoma, litsenziyalar berish va h.k.) olinadi;

- bojxona boji va yig'imi;

- loto va lotereyalardan olinadigan soliq.

1974-yilda o'tkazilgan soliq islohoti natijasida 1975—1980-yillarda ayrim soliqlarning fiskal ahamiyati to'xtovsiz o'zgarib turdi. Moliyaviy ahamiyati bo'yicha ikkita soliq yetakchilik vazifasini bajardi. Bular jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va qo'shilgan qiymatga solinadigan soliq. Davlatning umumiy soliq tushumlari summasida ularning ulushi 50 % dan oshib ketadi.

4.6. Federativ va konfederativ davlatlarning soliq tizimi xususiyatlari

Federalizmga asoslangan soliq tizimini, ayniqsa, hozirgi zamon dunyo iqtisodiyotining rivojlanishi sharoitida o'rganish, bu tizimda mulklarni taqsimlash uslublarini va daromad, soliqlar manbayining kelib chiqishini bilish muhim qiziqish uyg'otadi.

Federatsiya deb, bir necha davlat a'zolari ma'lum huquqiy davlat mustaqilligini saqlab qolib, yangi yagona davlat tuzilmasini tashkil qilishi tushuniladi. Federatsiya shakli ittifoq fuqaroligi, armiya va ittifoq davlat organlarining mavjudligini talab qiladi.

O'z navbatida, konfederatsiya bir necha alohida davlatlarning ittifoqi bo'lib, o'z mustaqilligini saqlab qoladi, lekin bir necha umumiy boshqarish organlari bo'yicha birlashadilar. Dunyo amaliyotida AQSH, Germaniya, Kanada — federativ, Shveytsariya — konfederativ davlatlar hisoblanadi.

Federalizm — hokimiyat tizimi sifatida konstitutsiya bo'yicha qator hukmronlik qilish funksiyalari hudud organlariga beriladi va shu bilan bir qatorda eng yuqori hukmronlik — markaziy hukumat — millat mustaqilligini ifodalovchi organ ixtiyorida qoldiriladi. Hozirgi zamon federalizmi raqobatbardosh federalizm deb yuritiladi. Bunda kichik jamoalarning masalasi imkoniyat boricha pastki hokimiyat organlari tomonidan yechilishi kerak.

Shunday tartib yuqori mustaqillik va haqiqiy demokratiyani ta'minlab beradi. Mahalliy organlar erkin tovarlarni sotishga, xizmat ko'rsatishga ko'maklashishlari kerak. Tovarlarni boshqa joyda ishlab chiqarib, litsenziya olingan bo'lsa, mahalliy organ uni tekshirishi va litsenziya berishi kerak emas. Shunda ular «begona» tadbirkorlarni taklif qilib, soliq bazasini kengaytirib boradi.

Yana har bir manzil o'zining xarajati, daromadi bilan qoplab borilishi va o'z soliq bazasini mustahkamlashi zarur. Barcha darajadagi hokimiyat o'zining soliq tizimini tashkil qilib, rivojlantirish huquqiga ega. Agar jami soliq stavkalari markazdan belgilansa, hududlarning mustaqilligiga katta zarar yetkazilar edi. Natijada haqiqiy raqobatbardosh federalizmni amalga oshirib bo'lmaz edi.

Federativ davlatlarda soliq tizimi yuqoridagi prinsiplar asosida tashkil topishi kerak. Unitar davlatlarda esa faqat siyosiy kuch, erkinlik markaziy hokimiyat ixtiyorida bo'ladi. Federativ davlatlarda haqiqiy davlat mustaqilligi ikki darajada bo'ladi — markaziy va hududiy. Lekin davlat birligini ta'minlash uchun yagona soliq qonunchiligini ta'minlab berish kerak. Yuqorida ko'rsatilgan qoida va tartiblarga binoan, federativ davlatlarning soliq tizimlari tashkil qilingan.

4.7. Amerika Qo‘shma Shtatlari soliq tizimining asoslari

AQSH katta tarixga ega davlat bo‘lganligi uchun uning soliq tizimi chuqur o‘rganilgan, nazariy asoslangan va amaliyotda keng miqyosda sinalgan. Bu tizim bir necha asrlar davomida amaliy xususiyatlarini saqlab, ularni rivojlantirib kelmoqda.

AQSH konstitutsiyasiga binoan, federal va shtat hukumatlari mustaqil soliq siyosati yuritish huquqiga ega. Soliqlar federal, shtat hukumatlari va mahalliy organlari hukumati tomonidan yig‘iladi. AQSHning hozirgi soliq tizimi 1986-yil sentabr oyida qabul qilingan. Ushbu soliq islohoti qonuni 1942-yili kiritilgan daromad to‘g‘risidagi qonundan keyin eng yirik soliq tadbiri hisoblanadi.

Islohotning asosiy maqsadi federal soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va «adolatli» soliq solish yo‘li bilan mamlakatda iqtisodiyotni rivojlantirish darajasini rag‘batlantirishdan iborat edi. Islohot natijasida fuqarolarni daromad solig‘iga tortish va korporatsiya foydasini soliqqa tortish tizimi sezilarli darajada o‘zgardi.

Daromad solig‘ining eng yuqori stavkasi ayrim shaxslar uchun 50 % dan 26 % ga va korporatsiyalar uchun 46 % dan 34 % ga tushirildi. 1993-yili qabul qilingan qonun ham soliq tizimiga talaygina o‘zgartirish kiritdi. Qonunda xususiy shaxslar uchun ikkita soliq stavkasi (36 % va 39,6 %) va korporatsiyalarga 34 % dan 35 % gacha o‘zgartirish kiritildi. Shu bilan bir qatorda, xizmatga taalluqli ziyofat, ko‘ngilochar tadbirlar bilan bog‘liq chegirmalar qisqartirildi.

AQSHda 70 % dan ortiq soliq tushumlari to‘g‘ri soliqlardan, shu jumladan, ularning 40 % dan ko‘prog‘i federal daromad solig‘idan iborat.

Soliqlarning zarurligi, mazmuni va ahamiyati ko‘pchilik AQSH iqtisodchilari tomonidan nazariy jihatdan asoslangan. Bu sohaga Kempbell, Makkonel, Stenli Bryu va boshqalar katta hissa qo‘shishdi. Qator kamchiliklar, qarama-qarshiliklar, iqtisodiyotning ko‘p tarmoqliligi xususiyatlari va harakatdagi soliq qonunchiligining murakkabligini hisobga olib, hozirgi vaqtda AQSH Soliq kodeksining yangi loyihasi tayyorlangan.

Ijtimoiy manfaatdorlik va ijtimoiy xizmatning tabiati juda murakkab va ko'p qirrali hisoblanadi. Shu sababli, aniq shaxs amaliyotda qaysi sohadan ko'p daromad ko'rayotganini aniqlash qiyin. Shuning uchun aniq shaxs avtomobil yo'llaridan, bepul o'rta ta'lim tizimidan, davlat va mahalliy xavfsizlik organlari, yong'indan himoya qilish va ob-havoni oldindan aytib berish xizmatlaridan qanday moddiy manfaat olishini belgilash oddiy masala emas. Demak, soliq og'irligini taqsimlash muammoli masala bo'lib qolgan. Iqtisodiyotda soliq og'irligini taqsimlash muammosiga ikki xil qarash mavjud:

- olingan manfaatni soliqqa tortish tamoyili;
- to'lov qobiliyati konsepsiyasi tamoyili.

Olingan manfaatni soliqqa tortish prinsipiga asosan, uy xo'jaliklari va tadbirkorlar davlat beradigan tovar, ko'rsatgan xizmatni xuddi boshqa tovarlarni sotib olgandek qabul qilishlari kerak. Hukumat tomonidan taklif qilinadigan tovar va xizmatlarni qabul qiluvchilar, ushbu tovar va xizmatlarni moliyalashtirish uchun soliq to'lashlari kerak. Mantiqiy jihatdan bu to'g'ri bo'ladi.

Ijtimoiy manfaatning bir qismi olingan manfaatni soliqqa tortish qoidasi asosida moliyalashtiriladi. Masalan, benzindan olinadigan soliq, qoida bo'yicha, yo'llarni qurish va ta'mirlashni moliyalashtirishga sarflanadi. Kim sifatli yo'ldan naf olsa, yo'l uchun xarajatni to'laydi. Shunga qaramay, qachonki, aniq va keng miqyosda olingan manfaatni soliqqa tortish prinsipi qo'llanganda, shu zahoti muammolar kelib chiqadi.

Birinchi muammo — uy xo'jaligi boshlig'i, tadbirkor ayrim xizmatlardan qanday hajmda naf (foyda) olishini baholash. Avtomobil egalari yaxshi sifatli avtoyo'ldan har xil darajada foyda olganlaridek, avtomobil egasi bo'lmagan shaxslar ham foyda oladilar. Yaxshi yo'llarning paydo bo'lganidan tadbirkorlar ham bozorlarni kengaytirib, yutadilar.

Ikkinchi muammo — qabul qilingan afzalliklarni soliqqa tortish prinsipi asosida moliyalashtirish hukumatning daromadlarni qaytadan taqsimlash harakatini muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Shuningdek, kambag'al oilalarning xayriya nafaqalarini moliyalashtirish uchun kerak bo'lgan mablag'ni ularni soliq

to'lashga majbur qilish yo'li bilan qoplash fikri ham bema'ni va natijasiz hisoblanadi.

To'lov qobiliyati prinsipi manfaatni soliqqa tortish prinsipidan keskin farq qiladi. Bu prinsipning asosida soliq yuki, asosan, aniq daromad va farovonlik darajasiga bog'liq degan fikr yotadi. To'lov qobiliyati prinsipi yuqori daromadli shaxslar yoki tadbirkorlar kam daromadlilarga nisbatan mutlaq va nisbiy ko'proq soliq to'lashini talab qiladi.

Bu konsepsiya asosida quyidagi fikr yotadi: uy xo'jaligi tomonidan olingan har bir qo'shimcha dollar, o'z navbatida, qiziqishning tobora pasayib borishiga olib keladi. Bunday holning yuzaga kelish sababi oddiy: daromadning dollarda olingan dastlabki qismi birlamchi ehtiyojga ega bo'lgan tovarlarga sarf etilib, keyingi mablag'lar u darajada zarur bo'lmagan tovar va xizmatlarga ishlatiladi. Bu shuni anglatadiki, kambag'aldan soliq sifatida undirilgan dollarlar boy odamdan soliq sifatida olingan dollarlarga nisbatan ko'proq zararni tashkil etishi mumkin.

Shunday qilib, soliqdan ko'rilgan zararni tenglashtirish (baravarlashtirish) maqsadida, soliq olinadigan daromad hajmiga qarab taqsimlanadi. Bu alohida ahamiyatli holatdir. Lekin bu prinsipni qo'llashning ham muammolari mavjud. Masalan, bir yilga 50 ming dollar daromad oladigan uy xo'jaligi 10 ming dollar oladigan uy xo'jaligidan ko'proq soliq to'lash qobiliyatiga ega. Lekin boy kishi o'z daromadiga qarab, necha marta ko'proq soliq to'laydimi, yo'qmi degan savol tug'iladi. Amaliyotda har bir kishining soliq to'lash imkoniyati to'liq aniqlanmagan. Masalani yechishda mamlakatni boshqaruvchi partiya, vaqt talabi, hukumatning daromadga bo'lgan talabini hisobga olib, afzalroq ko'rilgan holat olinadi.

Amerika iqtisodiyotining soliqlari tarkibi olingan manfaatni soliqqa tortish prinsipiga ko'ra, ko'proq to'lov qobiliyati konsepsiyasiga to'g'ri keladi. To'lov qobiliyati va olingan manfaatni soliqqa tortish prinsiplarini ko'rib chiqish pirovard natijada soliq stavkalari to'g'risidagi savolga va har qanday shaxsning daromadi oshganda bu stavkalarni o'zgartirish masalalariga olib keladi.

Soliq stavkalari progressiv (ilgʻor, taraqqiy), proporsional (mutanosib) va regressiv (orqaga qaytish) tarzida boʻladi. Shunga qarab, soliqlarni ilgʻor, mutanosib va regressiv turlarga boʻlish mumkin. Bunday taʼriflash stavka bilan daromadning bir-biriga munosabatiga asoslanadi. Daromad olishga sabab, hamma soliqlar daromaddan, mahsulotdan, imorat, yer uchastkasidan olinishiga qaramay, kimningdir daromadidan toʻlanadi.

Daromad oʻsishi bilan oʻrtacha stavka oshib borsa, soliq progressiv (ilgʻor) hisoblanadi. Bunday soliq faqat mutlaq (oʻzgarimas) summani faraz qilib qolmay, daromad oshishi bilan olinadigan qismining koʻpayishini ham anglatadi.

Regressiv soliqda, daromad oshishi bilan oʻrtacha stavka pasayib boradi. Bunday soliqlar daromad koʻpayishi jarayonida uning kam va yanada kam qismining oshishini talab qiladi. Regressiv stavkalar boʻyicha soliq katta mutlaq summani keltirishi va balki, daromad koʻpayishi bilan katta absolut summani keltirmasligi mumkin. Mutanosib (proporsional) soliq shunday belgilanadiki, daromad hajmining oʻzgarishidan qatʼi nazar, oʻrtacha soliq stavkasi oʻzgarmay qoladi. Taʼkidlab oʻtish lozimki, progressiv soliqlar boylarni qattiqroq ezsa, regressiv soliq kambagʻallarga ogʻirroq taʼsir qiladi.

Federal hukumat tomonidan olinadigan soliqlar mamlakatning hamma hududlarida bir xil boʻlib, ular federal daromadning asosiy bandi hisoblanadi. Shtat soliqlari bir-biridan farq qiladi. Aholining yashash joyini tez-tez oʻzgartirib, yaʼni koʻchib yurishi yuqori darajada boʻlganligi uchun bu soliqlarni yigʻish mexanizmi texnik jihatdan juda ham murakkab hisoblanadi. Bu holat ham AQSH soliq tizimining xususiyatlariga izoh beradi.

Budjet tushumining katta qismini toʻgʻri soliqlar taʼminlaydi. Uning hissasi juda yuqori (70 % gacha). Egri soliqlar, asosan, regressiv soliq boʻlganligi uchun oddiy soliq toʻlovchilar tomonidan doimiy ravishda tanqid qilinadi. Lekin koʻpchilikning fikricha, egri soliqlarning yagona fazilati bor — ularni yigʻishning oddiyligi. Haqiqatda tovarni sotib oluvchi sotishdan olinadigan soliqni toʻlashdan bosh tortmaydi. Teskari holatda unga tovar sotmaydi.

AQSH — federal respublika. Davlat tuzilishi asosida faqat hokimiyatning vazifalari bo'yicha bo'linish emas, hududlar bo'yicha ham ajratish yotadi.

Hokimiyatning hududlar bo'yicha tuzilishi yetarli darajada vazifalarni aniq chegaralash va uchta hududlar – federal, shtat, mahalliy hokimiyatlarning alohida huquqlarini nazarda tutadi. Bunday ajratilish bilan budjet xarajatlari va soliq tushumlarining xarakteri uzviy bog'liqdir.

Federal hukumatning asosiy faoliyati mudofaa, mamlakatning tashqi aloqalari, inson resurslarini qayta ishlab chiqarish (sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, daromadlarni qayta taqsimlash) va davlat qarzi xizmatini ta'minlashdan iborat.

Federal hukumatning har xil xarajatlari ichida quyidagi guruhlar ajralib turadi:

- daromadni himoya qilish;
- milliy mudofaa;
- davlat qarzi bo'yicha foizlarni to'lash.

AQSHda to'g'ri va egri soliqlarning tarkibi quyidagi jadvalda keltirilgan.

4-jadval

AQSHning soliq tizimi

To'g'ri soliqlar	Egri soliqlar
1. Aholidan olinadigan daromad solig'i	1. Aksizlar, bojxona boji
2. Korporatsiya foydasiga solinadigan soliq: federal, shtat, mahalliy	2. Ijtimoiy sug'urtaga xususiy tadbirkorlarning federal badallari
3. Shtatlar va mahalliy organlarning mol-mulk solig'i	3. Transport vositalari yig'imi va boshqa soliqlar (tadbirkorlardan olinadigan shtatlar va mahalliy soliqlar)
4. Ijtimoiy sug'urtaga ajratma (federal, shtatlar)	
5. Meros va sovg'alardan olinadigan soliq	
6. Fuqarolardan transport vositasi uchun olinadigan yig'im	

Daromadni himoya qilish kategoriyasi qariyalar, mehnatga qobiliyatsiz, ishsiz, tibbiy yordamga muhtoj nogironlarga yordam ko'rsatib, ularning daromadlari darajasini saqlab turish bilan bog'liq. Milliy mudofaa federal budjetning to'rtidan bir qismini qamrab oladi. Bu davlat qo'shinlarining jangovar holatini ta'minlash uchun yuqori darajada xarajat qilinishini anglatadi. Davlat qarzi bo'yicha foizlarni to'lash oxirgi davrda nisbatan oshdi. Bu bir tomondan davlat qarzining oshishi va ikkinchi tomondan foiz stavkalari ko'tarilishi bilan bog'liq.

Yuqorida ko'rsatilgan xarajatlarni qoplash uchun federal hukumat daromadga va, shu jumladan, soliqlarni yig'ish imkoniyatiga ega.

Federal budjetga fuqarolardan olinadigan daromad solig'i, ish haqi fondiga solinadigan soliq kelib tushadi. Bundan tashqari, kichik hajmda aksiz yig'imlari, bojxona boji, ko'chmas mulkka solinadigan soliq, sovg'alar foydasiga solinadigan soliqlar kelib tushadi. Yuqoridagi ketma-ketlikka muvofiq, soliq sifatida yig'ilgan har bir dollardan olinadigan soliq va boshqalar federal budjetga tushadi. Federal budjetga tushadigan aksiz solig'i — benzin, tamaki mahsulotlari, alkogolli ichimliklarni sotish bilan bog'liq bo'lgan tanlangan soliqlar hisoblanadi.

Shtatlarga aholiga va korporatsiya mulkiga taalluqli nazoratni muntazam tartibga solish, ma'muriy boshqarish funksiyalari, ishchi kontraktlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish, kasb faoliyatiga litsenziya berish, fuqarolar holati aktini rasmiylashtirish va boshqa vazifalar yuklatilgan.

O'zini o'zi boshqaruvchi mahalliy organlar, asosan, o'z hududlarida aholi va korxonalariga har xil xizmat ko'rsatadilar. Bu maktabda o'qitish, kommunal xizmati, yo'l xo'jaligi, ijtimoiy yordam berish, shaxs va mulkni muhofaza qilish, uy-joy qurilishi, shaharni rivojlantirish, yong'in va politsiya xizmati, dam olish joylariga qarash kabi vazifalarni bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, yashovchilarga istiqomat qilishlari uchun moddiy va sotsial sharoit yaratish, shu hududda joylashgan korxonalarining ishlab chiqarishini rag'batlantirishdan iborat bo'ladi.

AQSHda iqtisodiyotni budjet-soliq orqali boshqarish juda keng miqyosda qoʻllaniladi. Hozirgi vaqtda 25 % ga yaqin ichki milliy mahsulot budjet orqali qaytadan taqsimlanadi.

AQSHdagi hokimiyat tarkibiga binoan, har bir darajada budjet tashkil topadi — federal hukumat budjeti, shtatlar va mahalliy oʻzini oʻzi boshqaruvchi organlar budjetiga boʻlinadi. Navbatdagi moliya yiliga (1-oktabrdan boshlanadi) federal budjetning loyihasi hamma federal vazirliklar va mahkamalar ishtirokida maʼmuriy-budjet boshqarmasi tomonidan tuziladi va prezident tomonidan kalendar yilining boshida kongressga olib chiqiladi. Kongressda loyiha koʻriladi va navbatdagi moliya yili boshlangunga qadar tasdiqlanadi.

5-jadval

AQSHda hokimiyat darajasi va soliq turlari boʻyicha budjet tushumining odatdagi tarkibi (% hisobida)

Hokimiyat darajasi	Hamma soliqlar	Soliq turlari boʻyicha			
		Daromad soligʻi		Sotishga solinadigan soliq	Mulk qiymatiga solinadigan soliq
		Fuqarolardan	Korporatsiyalardan		
Federal	56,4	82,1	76,9	30,2	—
Shtat	26,8	16,3	20,9	58,6	4,0
Mahalliy	16,8	1,6	2,2	11,2	96,0

Jadvaldan koʻrinib turibdiki, federal budjetga 82,1 % fuqarolardan va 76,9 % korporatsiyalardan olinadigan daromad soligʻi kelib tushyapti. Sotishga solinadigan soliqning asosiy qismi shtatlar budjetiga tushmoqda. Mol-mulkka solinadigan soliqning deyarli hammasi mahalliy budjetlarga yoʻnaltiriladi.

Shunday qilib, federal budjet oʻzining asosiy talabini fuqarolardan va korporatsiyalardan olinadigan daromad soligʻi hisobiga, shtatlar — sotishga solinadigan soliq va mahalliy organlar — mol-mulkka solinadigan soliq hisobiga qoplaydilar. Maʼlum darajada, anʼanaviy boʻlmagan sotishga solinadigan soliq ham mahalliy hokimiyat talabini qondiradi. AQSHning hozirgi zamon soliq tizimiga federal hukumat va shtat hamda mahalliy hokimiyatlar soliqlarning asosiy turlaridan parallel tarzda foydalanish xarakterlidir.

AQSHning soliq tizimi

Soliqlar		
Federal	Shtatlar	Mahalliy
1.Daromad solig'i (federatsiya)	1.Daromad solig'i (shtatlar)	1.Daromad solig'i (mahalliy)
2.Korporatsiyalar foydasi	2.Korporatsiyalar foydasi	2.Korporatsiyalar foydasi
3.Ijtimoiy sug'urtaga ajratma	3.Ijtimoiy sug'urta fondiga badallar	3.Ijtimoiy sug'urta fondiga badallar
4. Bojxona boji	4. Sotishga solinadigan soliq	4.Umumiy sotishga solinadigan soliq, aksizlar, ekologiya solig'i
5.Meros va hadyalar	5.Maxsus alkogol ichimliklar, tamaki mahsulotlari va yoqilg'iga solinadigan aksizlar	5.Meros va hadyalardan
	6.Meros va hadyalar	6.Mol-mulk solig'i 7.Transport vositalaridan yig'im
	7.Mol-mulksolig'i	
	8.Transport vositalaridan yig'im	

Iqtisodiyotni tartibga solish maqsadida, ayniqsa, tanqislik holatini bartaraf qilish uchun federal budjetning ham daromad, ham xarajat qismidan foydalaniladi, ishlatiladi. Xarajat qismi 20 ta asosiy budjet kategoriyalariga bo'linadi. Shu jumladan, milliy mudofaa xarajati, xalqaro ishlarni olib borish, qishloq xo'jaligi, transport, energetikani rivojlantirish, sog'liqni saqlash, ijtimoiy sug'urta va boshqalar taxminan 60 % umumdavlat xarajatlari federal budjet zimmasiga va qolgani shtat hamda mahalliy organlar budjetiga to'g'ri keladi.

AQSHning XX asr oxiridagi iqtisodiy siyosatida asosiy o'rinni soliq sohasidagi tadbirlar egalladi. 1981—1983-yillarda bosqichma-bosqich daromad solig'ining stavkasi sezilarli pasaytirildi. Islohot soliqlarni to'plash boshqarmasi (STB) zimmasiga to'g'ri keldi. Unga rahbar etib Charlz Rossoti tayinlandi. Yangi boshliq 33 ta hududiy STBning direktorlari va bosh taftishchilarini

almashtirdi. Charlz Rossoti soliq boshqarmalari faoliyatidagi kamchiliklarni topdi va ularni yo‘qotishi natijasida boqimanda kamaytirildi.

AQSH budjet tizimining har bir shoxobchasi alohida soliqlarga asoslangan. Masalan, federal budjetni to‘ldirishda asosiy manba aholidan va korporatsiyalardan olinadigan daromad solig‘i hisoblanadi. Shtatlar budjeti sotishdan olinadigan soliqqa va mahalliy (shu jumladan, munitsipal) hukumat budjeti ularning hududida joylashgan mulk qiymatidan olinadigan soliqqa asoslangan.

Aholi har uch xil turdagi daromad solig‘ini: federal, shtat va mahalliy, ikki xil mol-mulk solig‘i: universal va aksiz solig‘ini, shtat hamda mahalliy budjetlarga to‘laydi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning tarkibini keltiring.
2. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar iqtisodni boshqarishda soliqdan qanday foydalanadilar?
3. Rivojlangan mamlakatlar soliq tizimining asosiy uch xususiyatini tushuntiring.
4. Fransiya qo‘shilgan qiymat solig‘ining vatani ekanligini tasdiqlang.
5. Soliq tizimining boshqarish organlari tavsifini bering.
6. Soliq nazoratining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Buyuk Britaniya soliq tizimidagi oxirgi o‘zgarishlarni yoriting.
8. Soliq tizimini boshqarish organlari.
9. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkasining o‘sib borish yo‘nalishini ifodalang.
10. Haftalik soliqni hisoblash va yig‘ish tartibining ahamiyati.
11. Shedular soliq solish va soliqni o‘tgan yilgi bazadan hisoblash Britaniya soliq yig‘ish xarajatini qaysi darajada oshiradi?

II bo'lim

**YURIDIK SHAXSLARNING
SOLIQLARI VA SOLIQQA
TORTISH**

5-bob. YURIDIK SHAXS TUSHUNCHASI. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLAR

5.1. Yuridik shaxs tushunchasi


Yuridik shaxs deb quyidagilar e'tirof etiladi: O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo'lgan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot. Chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan chet el tashkiloti. O'zbekiston Respublikasining, chet davlatning qonun hujjatlariga yoki xalqaro shartnomaga muvofiq tashkil etilgan xalqaro tashkilot.

Notijorat tashkilotlari deganda, foyda olishni faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan va olingan daromadlarni o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan yuridik shaxslar tushuniladi. Notijorat tashkilotlariga budjet tashkilotlari, shu jumladan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa tashkilotlar kiradi.

Soliqlar deganda, soliq qonunchiligida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.

Boshqa majburiy to'lovlar deganda, soliq qonunchiligida belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari,

bojxona to'lovlari, shuningdek, vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan, muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi.



3-chizma. Yuridik shaxslar.

Soliq to'lovchilar, soliq qonunchiligiga muvofiq, zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalaridir.

Soliq agentlari, soliq qonunchiligiga muvofiq, zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir.


Soliq to'lovchining vakillari, qonunga yoki ta'sis hujjatiga muvofiq, soliq to'lovchining vakili bo'lishga vakolatli shaxslardir. Vakolatli organlar quyidagilardir:

1. *Davlat soliq xizmati organlari* — O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari.

2. *Bojxona organlari* — O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari.


3. *Moliya organlari* — O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tuman va shahar hokimliklarining moliya bo‘limlari.

4. Boshqa majburiy to‘lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari.



4-chizma. Vakolatli organlar.

Soliq to‘lovchilar va vakolatli organlar soliq munosabatlarining subyektlaridir.



5-chizma. Soliq munosabatlarining subyektlari.

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti deb O‘zbekiston Respublikasida davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik shaxs e‘tirof etiladi.

Norezidentning O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasi deganda norezident O‘zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan, shu jumladan, faoliyatni vakolatli shaxs orqali amalga oshirayotgan har qanday joy e‘tirof etiladi.

5.2. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar

Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarga quyidagilar kiradi:

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i.
2. Qo'shilgan qiymat solig'i.
3. Aksiz solig'i.
4. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar.
5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.
6. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq.
7. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i.
8. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.
9. Yagona soliq to'lovi.
10. Yagona yer solig'i.
11. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Yuridik shaxslarning hamma soliqlari naqd pulsiz to'lanadi. Biroq ayrim yig'imlar (davlat va bojxona bojlari) naqd pulli bo'lishi mumkin. Yuridik shaxslar soliqlarining naqd pulsiz to'lanishi juda katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Pul o'tkazishlar tezlashadi, ijtimoiy xarajatlar tejaladi.

2007-yil 23-noyabrda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 2007-yil 30-noyabrda Senat tomonidan ma'qullangan, 2007-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov tomonidan tasdiqlangan va 2008-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 23-moddasiga asosan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tizimi quyidagi tarkibga ega:


1. Umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar.
2. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar.

Yuridik shaxslardan olinadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i.
2. Qo'shilgan qiymat solig'i.
3. Aksiz solig'i.
4. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar.
5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Boshqa majburiy to'lovlar:

1. Davlat boji.
2. Bojxona to'lovlari.



6-chizma. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari.

Yuridik shaxslardan olinadigan mahalliy soliqlarga quyidagilar kiradi:

1. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq.
2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i.
3. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarga quyidagilar kiradi:

1. Yagona soliq to'lovi.

2. Yagona yer solig'i.


3. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Mamlakatimiz soliq qonunchiligiga muvofiq, soliq to'lovchilar ikki katta guruhga, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslar guruhiga bo'lingan holda ularning faoliyat ko'rsatish xususiyatidan kelib chiqib yana tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Respublikamiz davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar katta ahamiyatga egaligini yuqoridagi ma'lumotlardan bevosita ko'rishimiz mumkin.


Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari

- soliq solish obyekti;
- soliq solinadigan baza;
- stavka;
- hisoblab chiqarish tartibi;
- soliq davri;
- soliq hisobotini taqdim etish tartibi;
- to'lash tartibi.

7-chizma. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari.



8-chizma. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari prinsiplari.



9-chizma. Soliqlar qonunchiligida qo'llaniladigan asosiy tushunchalar.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Yuridik shaxs tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning qanday turlari mavjud?
3. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning qanday asosiy prinsiplari mavjud?
4. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va makroiqtisodiy holatning uzviy bog'liqligini matematik modellashtirish.
5. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va makroiqtisodiy holatning korrelatsion bog'liqligi nimalardan iborat?
6. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha soliq yuki va uni aniqlash tartibi qanday?
7. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar tushumlari dinamikasining trend tahlili. Laffer egri chizig'i.
8. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning yalpi talab va yalpi taklifga ta'siri qanday?
9. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning mamlakatdagi investitsion muhitga ta'siri qanday?

6-bob. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG'I

6.1. Foyda solig'i to'lovchi yuridik shaxslar

Foyda solig'i to'lovchi yuridik shaxslar quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;
- O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo'lish manbayi O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Quyidagilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilari bo'lmaydi:

- notijorat tashkilotlar. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotganda notijorat tashkilotlar o'zi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan foydadan soliq to'lovchi bo'ladi;
- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining obykti quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasi;
- O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining soliq qonunchiligiga muvofiq, chegirmalar qilinmagan holda to'lov manbayida soliq solinadigan daromadlari.

Soliq solinadigan baza jami daromad bilan soliq qonunchiligida nazarda tutilgan chegirib tashlanadigan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida, soliq qonunchiligida, boshqa qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlarida nazarda tutilgan imtiyozlar hamda soliq qonunchiligiga muvofiq, soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi summalari inobatga olingan

holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi.

O'tgan soliq davrlariga tegishli, joriy soliq davriga o'tkazilishi lozim bo'lgan zararlar mavjud bo'lsa, soliq solinadigan baza soliq qonunchiligiga muvofiq taqsimlab o'tkaziladigan zararlar summasiga kamaytiriladi.

Jami daromadga quyidagilar kiradi:

- tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;
- boshqa daromadlar.

Soliq to'lovchining qiymati chet el valutasida ifodalangan daromadlari milliy valutada olingan daromadlar bilan jamlangan holda buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinadi.

Quyidagilar soliq to'lovchining daromadi sifatida qaralmaydi:

1. Ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan, aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birlashtiriladigan mablag'lar.

2. Muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda) yoki muassis (ishtirokchi) ulushining miqdori kamaytirilganda, shuningdek, tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa doirasida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

3. Oddiy shirkat shartnomasi sherigining (ishtirokchisining) shartnoma sheriklari (ishtirokchilari) umumiy mulkidagi ulushi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, hissasi miqdorida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

4. Realizatsiya qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun boshqa shaxslardan dastlabki haq (bo'nak) tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

5. Qonun hujjatlariga muvofiq, majburiyatlarni ta'minlash tariqasida garov yoki zaklad tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ularga bo'lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o'tadigan paytga qadar.

6. Budjetdan berilgan subsidiyalar.

7. Agar mablag'larni (mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni) boshqa shaxsga o'tkazish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yuz berayotgan bo'lsa, tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar.

8. Olingan grantlar va insonparvarlik yordami.

9. Notijorat tashkilotlar tomonidan ustav faoliyatining ta'minoti va uni amalga oshirish uchun olingan, belgilangan maqsadga ko'ra va (yoki) tekin kelib tushgan mablag'lar.

10. Sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'voni (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar.

11. Vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko'rsatish yuzasidan boshqa shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek, komitent yoxud boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash hisobiga kelib tushgan mol-mulk (haq to'lovi bundan mustasno).

12. Ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) ijara (lizing) to'lovining qismi tariqasida olgan moliyaviy ijara (lizing) obyektini qiymatining qoplamasi.

13. Telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek, mazkur vositalardan foydalanishga hamda ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlardan olingan daromadlar.

14. Ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyekti muassislari (ishtirokchilari)dan uning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag'lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta boshlangan taqdirda, ushbu mablag'lar jami daromad tarkibiga kiritiladi hamda soliqqa tortiladi.

15. Investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan, investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

O'zbekiston Respublikasidagi to'lov manbayida soliq solinadigan dividendlar va foizlar jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan, shu jumladan, yordamchi xizmatlar tomonidan realizatsiya qilishdan qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i chegirib tashlangan holda olingan tushum tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olinadigan daromaddir.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum yuklab jo‘natilgan tovarlar (bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar) qiymatidan kelib chiqqan holda tovarlarni jo‘natish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish hollarini tasdiqlovchi hujjatlar asosida belgilanadi.

Vositachilik faoliyatidan daromadlar oladigan yuridik shaxslar uchun tushum deyilganda ko‘rsatilgan xizmatlar uchun olinishi lozim bo‘lgan haq summasi tushuniladi.

Nashriyot va tahririyatlar uchun gazeta-jurnallarni realizatsiya qilishdan olingan tushum ularda reklamani joylashtirishdan olingan daromadlar kiritilgan holda aniqlanadi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan foizlar, royalti, daromadlar olish imkonini beruvchi mol-mulkni va mulkiy huquqlarni boshqa shaxslarga foydalanishga berish, shuningdek, talab qilish huquqidan boshqa shaxsning foydasiga voz kechishdan olingan daromadlar, agar ushbu xizmatlardan olingan jami daromadlar summasi tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan daromadlarning umumiy summasida ustunlik qilsa, xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar deb e’tirof etiladi.

Kredit, sug‘urta tashkilotlari, qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari uchun soliq qonunchiligida ko‘rsatilgan daromadlar xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar deb e’tirof etiladi.

6.2. Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

1. Tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda.
2. Bitim shartlari o‘zgarganda.

3. Baholar o'zgarganda, sotib oluvchi siylov (skidka)dan foydalanganda.

4. Bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga soliq qonunchiligida nazarda tutilgan tuzatishni kiritish bir yillik muddat ichida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha esa, kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritish soliq qonunchiligida ko'rsatilgan hollar yuz berganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovar (ish, xizmat)ni yetkazib beruvchi tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritishni soliq qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiradi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga soliq qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda tuzatish kiritish ko'rsatilgan hollar yuz bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Boshqa daromadlarga tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi, ular quyidagilardan iborat:

1. Soliq to'lovchining soliq qonunchiligiga muvofiq asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar.

2. Soliq qonunchiligiga muvofiq, mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar.

3. Soliq qonunchiligiga muvofiq, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlar.

4. Soliq qonunchiligiga muvofiq, tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek, ishlar va xizmatlar.

5. Inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar.

6. Hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar.

7. Soliq qonunchiligiga muvofiq, majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar.

8. Soliq qonunchiligiga muvofiq, talablardan oʻzganing foydasiga voz kechish shartnomasi boʻyicha olingan daromadlar.

9. Soliq qonunchiligiga muvofiq, ilgari chegirib tashlangan xarajatlarning yoki zararlarining oʻrnini qoplash tarzidagi daromadlar.

10. Soliq qonunchiligiga muvofiq, xizmat koʻrsatuvchi xoʻjaliklardan olinadigan daromadlar.

11. Soliq qonunchiligiga muvofiq, birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar.

12. Undirib olingan yoki qarzdor tomonidan tan olingan jarimalar va pena, shuningdek, qonuniy kuchga kirgan sud hujjati asosida qarzdor tomonidan toʻlanishi lozim boʻlgan jarimalar va pena.

13. Soliq qonunchiligiga muvofiq, kursdagi ijobiy farq.

14. Dividendlar va foizlar.

15. Royalti.

16. Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bevosita bogʻliq boʻlmagan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar.

Qoʻshilgan qiymat soligʻi solinadigan boshqa daromadlar qoʻshilgan qiymat soligʻi summasi chegirilgan holda aniqlanadi.

Buxgalteriya hisobi toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan foyda asosiy vositalar hamda boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan daromaddir.

Asosiy vositalar va boshqa mol-mulk obyektlarining chiqib ketishidan olinadigan moliyaviy natija (foyda yoki zarar)ni aniqlashda asosiy vositalar va boshqa mol-mulk obyektlarining ilgarigi qayta baholashlardagi ortgan summasining ushbu asosiy vositalar va boshqa mol-mulk obyekti qiymatining ilgarigi qayta baholashlardagi kamayishi summasidan ortgan qismi asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olingan daromad tarkibiga kiritiladi.

Ijara toʻlovining summasi mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromaddir. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromad ijaraga beruvchining foizli daromadidir.

Soliq to'lovchi tekin olgan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek, ishlar va xizmatlar, soliq qonunchiligida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, soliq to'lovchining daromadi bo'ladi. Mol-mulk, mulkiy huquqlar tekin asosda olinayotganda oluvchi shaxsning daromadlari bozor qiymati bo'yicha belgilanadi.

Mol-mulkning, mulkiy huquqlarning bozor qiymati hujjatlar bilan yoki baholovchi tomonidan tasdiqlanadi. Hujjatlar bilan tasdiqlash deb quyidagilar e'tirof etiladi:

- jo'natish, yetkazib berish yoki topshirish hujjatlari;
- yetkazib beruvchilarning narxlarga oid ma'lumotlari (prays-varaqlar);
- ommaviy axborot vositalaridan olingan ma'lumotlar;
- birja ma'lumotlari;
- Davlat statistikasi organlarining ma'lumotlari.

Majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

- fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq, da'vo muddati o'tgan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar;
- sudning yoki vakolatli davlat organining qaroriga binoan, hisobdan chiqarilgan majburiyatlar.

Soliq to'lovchining budjet va davlat maqsadli jamg'armalari oldidagi qarzining, qonun hujjatlariga muvofiq, hisobdan chiqarilgan summalari daromad tarkibiga kiritilmaydi.

Talablardan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olinadigan daromadlar asosiy qarz talablari bo'yicha qarzdor tomonidan to'langan summalar, shu jumladan, qarzdor tomonidan asosiy qarzdan tashqari to'langan summalar bilan soliq to'lovchi tomonidan olingan qarz qiymati o'rtasidagi ijobiy farq tarzida aniqlanadigan daromadlardir.

Qoplash tarzida olinadigan daromadlarga soliq solinadigan bazani aniqlashda ilgari chegirilgan va joriy soliq davrida o'rni qoplangan xarajatlar va (yoki) zararlar kiradi. Qoplash summasi qaysi soliq davrida olingan bo'lsa, o'sha soliq davrining daromadi bo'ladi. Soliq solinadigan bazani aniqlashda ilgari chegirib tashlanmagan xarajatlarning va (yoki) zararlarining o'rnini qoplash summasi boshqa daromad tarkibiga kiritilmaydi.

Zaxiralarni tashkil etish xarajatlari soliq solinadigan bazani aniqlashda ilgari chegirib tashlangan shubhali qarzlar (tavakkalchilik operatsiyalari) bo'yicha zaxiralar qisqargan hollarda, ularning qisqarish summasi boshqa daromadlar tarkibida hisobga olinadi yoki buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xarajatlarni kamaytiradi.

Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar deganda faoliyati soliq to'lovchining asosiy faoliyatiga xizmat ko'rsatishga qaratilgan va mazkur soliq to'lovchining maqsadi bo'lgan tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan xo'jaliklar tushuniladi. Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarga yordamchi xo'jaliklar, uy-joy-kommunal xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy soha obyektlari, oshxonalar va bufetlar, o'quv kombinatlari hamda shunga o'xshash xo'jaliklar, o'z xodimlariga yoki boshqa shaxslarga xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi ishlab chiqarishlar va xizmatlar kiradi.

Uy-joy-kommunal xo'jaligi obyektlariga uy-joy fondi, mehmonxonalar (turistik mehmonxonalar bundan mustasno), boshqa joydan keluvchilar uchun uylar va yotoqxonalar, tashqi obodonlashtirish obyektlari, sun'iy inshootlar, suv havzalari, plajlar uchun inshoot hamda jihozlar, shuningdek, aholini gaz, issiqlik va elektr bilan ta'minlash obyektlari, uy-joy-kommunal xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy soha, jismoniy tarbiya va sport obyektlariga texnik xizmat ko'rsatish hamda ta'mirlash uchun mo'ljallangan uchastkalar, sexlar, bazalar, ustaxonalar, garajlar, maxsus mashinalar va mexanizmlar, omborxonalar kiradi.

Ijtimoiy-madaniy soha obyektlariga sog'liqni saqlash, madaniyat obyektlari, bolalar maktabgacha tarbiya obyektlari, bolalar dam olish oromgohlari, sanatoriylar (profilaktoriylar), dam olish bazalari, pansionatlar, jismoniy tarbiya va sport obyektlari (shu jumladan, treklar, otchoparlar, otxonalar, tennis kortlari, golf, badminton o'yinlari uchun maydonchalar, sog'lomlashtirish markazlari), aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasining ishlab chiqarishga oid bo'lmagan obyektlari (hammomlar, saunalar, kir yuvish, tikish hamda maishiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa ustaxonalar) kiradi.

Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar tomonidan xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan (olinadigan) mablag'lar summasi va xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar faoliyati bilan bog'liq xarajatlar summasi o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Valuta hisobvaraqlari bo'yicha, shuningdek, chet el valuta-sidagi operatsiyalar bo'yicha kursdagi ijobiy farq buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, quyidagi hollarda daromadlar tarkibiga kiritiladi:

- chet el valutasiga bo'lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o'tayotgan sanada shu chet el valutasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan yuqori bahoda sotilganda;

- chet el valutasiga bo'lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o'tayotgan sanada shu chet el valutasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan past bahoda sotib olinganda;

- chet el valutasini kursdagi o'zgarish munosabati bilan balans-ning valutaga oid moddalari tegishli hisobot davri uchun qayta baholanganda.

Baholari chet el valutasida belgilangan tovar (ish, xizmat)lar uchun o'zaro hisob-kitoblarni milliy valutada amalga oshiradigan soliq to'lovchilar uchun tovar (ish, xizmat)lar realizatsiya qilingan yoki olingan sanadan ushbu tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga haq to'langan sanagacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdagi o'zgarish munosabati bilan yuzaga keluvchi ijobiy farq tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga haq to'langan sanadagi jami daromad tarkibiga buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq kiritiladi.

Xarajatlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

- chegirib tashlanadigan xarajatlar va chegirilmaydigan xarajatlarga bo'linadi.

Soliq to'lovchining xarajatlari soliq solinadigan foydani aniqlash paytida chegirib tashlanadi, soliq qonunchiligiga muvofiq chegirib tashlanmaydigan xarajatlar bundan mustasno.

Asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar, soliq qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda esa, qonun hujjatlariga

va (yoki) soliq to'lovchining hisobga olish siyosatiga muvofiq rasmiylashtirilgan zararlar ham soliq to'lovchining xarajatlari bo'ladi.

Soliq to'lovchining xarajatlari haqiqatda qaysi soliq davrida amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha davrda chegirib tashlanadi. Agar ayni bir xil xarajatlar xarajatlarning bir nechta moddasida nazarda tutilgan bo'lsa, soliq solinadigan foydani hisoblashda mazkur xarajatlar faqat bir marta chegirib tashlanadi.

Soliq to'lovchi sarflagan va qiymati chet el valutasida ifodalangan xarajatlar qiymati milliy valutada ifodalangan xarajatlar bilan jamlab hisobga olinadi. Mazkur xarajatlarni qayta hisoblash soliq to'lovchi tomonidan buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchining xarajatlari chegirib tashlanadigan va chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga bo'linadi. Chegirib tashlanadigan xarajatlar quyidagilardir:

1. Moddiy xarajatlar.
2. Mehnatga haq to'lash xarajatlari.
3. Amortizatsiya xarajatlari.
4. Boshqa xarajatlar.

5. Kelgusida soliq solinadigan foydadan chegirib tashlanadigan hisobot davridagi xarajatlar.

Quyidagilarga soliq to'lovchining xarajati sifatida qaralmaydi:

1. Vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko'rsatish uchun boshqa shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishi munosabati bilan, shuningdek, komitent yoki boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi va (yoki) boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarga haq to'lash hisobiga vositachi va (yoki) boshqa ishonchli vakil tomonidan topshirilgan mol-mulk tarzidagi to'lovlar, agar bunday xarajatlar tuzilgan shartnomalarning shartlariga muvofiq vositachi yoki boshqa ishonchli vakilning yoxud boshqa topshiriq beruvchining xarajatlari tarkibiga kiritilishi lozim bo'lmasa.

2. Soliq to'lovchi emitent tomonidan topshirilgan, aksiyadorlar o'rtasida aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga binoan, o'zlariga tegishli aksiyalar miqdoriga mutanosib ravishda

taqsimlanadigan aksiyalarning qiymati yoxud emitentning ustav fondi (ustav kapitali) ko'paytirilgan taqdirda, aksiyalarni aksiyadorlar o'rtasida taqsimlashda dastlabki aksiyalar o'rniga berilgan yangi aksiyalarning nominal qiymati bilan aksiyadorning dastlabki aksiyalarining nominal qiymati o'rtasidagi farq.

3. Boshqa yuridik shaxslarning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki oddiy shirkatga hissa sifatida berilgan mol-mulk, mulkiy huquqlar qiymati.

Moddiy xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1. Xomashyo, materiallar, butlovchi qismlar va yarimtayyor mahsulotlar.

2. Ishlab chiqarilgan va (yoki) realizatsiya qilinadigan tovarlarni o'rash va boshqacha tayyorlash uchun, shu jumladan, sotuv oldidan tayyorlash uchun, boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun materiallar, uskunalar hamda boshqa mol-mulknii ta'mirlash uchun materiallar va ehtiyot qismlar.

3. Inventar, xo'jalik anjomlari, amortizatsiya qilinadigan mol-mulk bo'lmagan boshqa mol-mulk.

4. Soliq to'lovchining texnologik, transport, boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun sarflanadigan barcha turdagi yoqilg'i, energiya, shu jumladan, soliq to'lovchining o'zi tomonidan ishlab chiqarish hamda xo'jalik ehtiyojlari uchun barcha turdagi energiyani hosil qilish, binolarni isitish, shuningdek, energiyani bir shakldan o'zga shaklga o'tkazish va uzatish xarajatlari.

5. Yerlarni rekultivatsiya qilish va tabiatni muhofaza qilishning boshqa tadbirlari uchun xarajatlar.

6. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar doirasida suv xo'jaligi tizimlaridan soliq to'lovchilar tomonidan iste'mol qilinadigan suv uchun to'lov.

7. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organ yoki soliq to'lovchi tomonidan tasdiqlangan normalar doirasida ishlab chiqarish va (yoki) tashish chog'idagi texnologik yo'qotishlar.

8. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organ yoki soliq to'lovchi tomonidan tasdiqlangan tabiiy kamayish normalari doirasida tovar-moddiy zaxiralarni saqlash hamda tashish chog'idagi yo'qotishlar va buzilishlar.

Moddiy xarajatlarga kiritiladigan tovar-moddiy zaxiralarning qiymati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Agar yetkazib beruvchidan qabul qilingan qaytariladigan tara qiymati olingan tovar-moddiy zaxiralar narxiga qo'shilgan bo'lsa, qaytariladigan tara qiymati ularning ehtimol tutilgan foydalanilishi yoki ularni realizatsiya qilish narxi bo'yicha ularni sotib olish uchun qilingan xarajatlarning umumiy summasidan chiqarib tashlanadi. Mahsulot yetkazib beruvchidan tovar-moddiy zaxiralar bilan qabul qilingan hamda qaytarilmaydigan tara va o'rov idishlari qiymati ularni sotib olish xarajatlari summasiga kiritiladi. Tarani qaytariladigan yoki qaytarilmaydigan tara jumlasiga kiritish tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish shartnomasi (kontrakti) shartlari bilan belgilanadi.

Moddiy xarajatlar summasi qaytariladigan chiqindilar qiymatiga kamaytiriladi. Qaytariladigan chiqindilar deganda xomashyo (materiallar), yarimtayyor mahsulotlar, issiqlik beruvchi va boshqa turdagi moddiy resurslarning tovar (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan, boshlang'ich resurslarning iste'molboplik xususiyatlarini (kimyoviy yoki fizik xossalarini) qisman yo'qotgan va shu tufayli xarajatlar oshib ketgan (mahsulot chiqishi kamayib ketgan) holda foydalaniladigan yoki belgilangan maqsadi bo'yicha foydalanilmaydigan qoldiqlari tushuniladi.

Tovar-moddiy zaxiralarning texnologiya jarayoniga muvofiq, boshqa bo'linmalarga boshqa turdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish uchun to'laqonli xomashyo (materiallar) sifatida o'tkaziladigan qoldiqlari, shuningdek, texnologiya jarayonini amalga oshirish natijasida olinadigan qo'shimcha (yo'l-yo'lakay olingan) mahsulot qaytariladigan chiqindilar jumlasiga kirmaydi.

Qaytariladigan chiqindilar quyidagi tartibda baholanadi:

- bu chiqindilardan asosiy yoki yordamchi ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin bo'lsa-yu, lekin bunda xarajatlar oshib ketsa (tayyor mahsulot chiqishi kamayib ketsa), ehtimol tutilgan foydalanish narxida;

- bu chiqindilar chetga realizatsiya qilinsa, realizatsiya qilish narxida.

Mehnatga haq to‘lash xarajatlariga quyidagilar kiradi:

1. Haqiqatda bajarilgan ish uchun mehnatga haq to‘lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblangan ish haqi.

2. Ilmiy daraja va faxriy unvon uchun ustamalar.

3. Predmeti ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bo‘lgan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalarga muvofiq, jismoniy shaxslarga to‘lanadigan to‘lovlar.

4. Yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o‘xshash organi) a‘zolariga yuridik shaxsning o‘zi tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar.

5. Rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar:

a) yillik ish yakunlari bo‘yicha mukofot;

b) yuridik shaxsning mukofotlash to‘g‘risidagi lokal hujjatlarida nazarda tutilgan to‘lovlar;

d) kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va mansab maoshlariga ustamalar;

e) ko‘p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to‘lovlar;

f) ratsionalizatorlik takliflari uchun to‘lovlar.

6. Kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiya):

a) qonun hujjatlariga muvofiq, amalga oshiriladigan tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo‘lgan joylardagi ishlar bilan bog‘liq qo‘shimcha to‘lovlar (ish staji uchun ustamalar, baland tog‘li, cho‘l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koeffitsiyentlar bo‘yicha to‘lovlar);

b) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro‘yxati bo‘yicha og‘ir, zararli, o‘ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan, shunday sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ish haqiga ustamalar;

d) texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ish vaqtdan tashqari dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda mansab maoshlariga ustamalar va qo‘shimcha to‘lovlar;

e) ko‘p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek, bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko‘rsatish doirasi kengay-

ganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi, o'zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo'lmagan xodimlarning vazifalarini bajariganlik uchun ustamalar;

f) doimiy ishi yo'lda kechadigan yoki ko'chib yurish va harakatlanish xususiyatiga ega bo'lgan xodimlarning jo'nab ketish paytidan qaytib kelish paytigacha yo'ldagi har bir sutka uchun to'lanadigan ish haqiga ustamalar;

g) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ishlar vaxta usulida bajarilganda xodimlarning ish haqiga ustamalar;

h) yuridik shaxs joylashgan yerdan (yig'ilish punktidan) ishlash joyigacha va orqaga qaytish uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan, ishlar vaxta usulida bajarilgan taqdirda yo'lga ketadigan kunlar, shuningdek, xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va (yoki) transport tashkilotlarining aybi bilan yo'lda ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi, mansab maoshi miqdorida to'lanadigan summalar;

i) ishlar vaxta usulida tashkil qilinganda, ish vaqti umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to'lovlar;

j) yerosti ishlarida doimiy band bo'lgan xodimlarga ularning stvoldan ishlash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxta (kon)da harakatlanishining me'yoriy vaqti uchun to'lanadigan qo'shimcha haqlar;

k) dala ta'minoti.

7. Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash:

a) qonun hujjatlariga muvofiq:

- yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta'tilga haq to'lash, shuningdek, undan foydalanilmaganda, shu jumladan, xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to'lash;

- noqulay va o'ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek, og'ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo'shimcha ta'tilga haq to'lash;

- o‘qish bilan bog‘liq ta‘tilga va ijodiy ta‘tillarga haq to‘lash;
- o‘n ikki yoshga to‘lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki o‘n olti yoshga to‘lmagan nogiron bolasi bor ayollarga berilgan qo‘shimcha ta‘tilga haq to‘lash;

b) asosiy ish joyi bo‘yicha asosiy ish haqi qisman saqlab qolinganda holda majburiy ta‘tilda bo‘lgan xodimlarga beriladigan to‘lovlar;

d) donor xodimlarga ko‘rikdan o‘tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to‘lash;

e) O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq, davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga haq to‘lash;

f) qishloq xo‘jaligi ishlariga va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo‘yicha saqlab qolinadigan ish haqi;

g) avvalgi ish joyi bo‘yicha mansab maoshi miqdorlari muayyan bir muddat davomida saqlab qolinganda holda boshqa yuridik shaxslardan ishga joylashtirilgan, shuningdek, vazifani vaqtincha bajarib turganda xodimlarga maoshdagi farqni to‘lash;

h) yuridik shaxslarning xodimlariga kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o‘qishi vaqtida asosiy ish joyi bo‘yicha to‘lanadigan ish haqi;

i) xodimning aybisiz bekor turib qolinganda vaqt uchun haq to‘lash;

j) sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra, yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta‘siridan xoli bo‘lgan kamroq haq to‘lanadigan ishga o‘tkazilganda saqlanadigan avvalgi o‘rtacha oylik ish haqini qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda to‘lash, shuningdek, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalariga ish haqining haqiqiy miqdorigacha qo‘shimcha haq to‘lash;

k) majburiy progul vaqti yoki kam haq to‘lanadigan ishni bajarganlik uchun qonun hujjatlariga muvofiq yoki yuridik shaxsning qaroriga ko‘ra haq to‘lash;

l) o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning imtiyozli soatlarga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek, tibbiy ko‘rikdan o‘tish bilan bog‘liq vaqt uchun haq to‘lash;

m) yuridik shaxslarning asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun, o‘quvchilar va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalb qilinadigan malakali xodimlari mehnatiga haq to‘lash;

n) oliy o‘quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislariga ta‘til vaqti uchun yuridik shaxs hisobidan to‘lanadigan nafaqalar.

8. Nogironlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qo‘shimcha to‘lovlar.

Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, soliq to‘lovchi tomonidan hisobga olinadigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar ushbu moddaning qo‘llanilishi maqsadida amortizatsiya qilinadigan mol-mulk deb e‘tirof etiladi.

Quyidagilar amortizatsiya qilinmaydi:

1. Yer uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa obyektlar (suv, yerosti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar).

2. Mahsuldor chorva mollari.

3. Kutubxona fondi.

4. Muzei qimmatliklari (muzei ashyolari).

5. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiyalashga o‘tkazilgan asosiy vositalar.

6. Arxitektura yodgorliklari.

7. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, yo‘laklar, sayilgozlar, xiyobonlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarrufida bo‘lgan obodonlashtirish inshootlari.

8. Qiymati ilgari to‘liq chegirilgan mol-mulk.

9. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar tarkibiga o‘tkazilmagan kapital qo‘yilmalar.

Soliq solish maqsadida amortizatsiya qilinishi kerak bo‘lgan mol-mulk amortizatsiyaning quyidagi eng yuqori normalari bilan guruhlariga taqsimlanadi:

Mol-mulk amortizatsiyasi me'yorlari

Guruhlar tartib raqami	Kichik guruhlar tartib raqami	Asosiy vositalar	Amortizatsiya-ning yillik eng yuqori normasi, %
<i>I. Binolar, imoratlar va inshootlar</i>			
	1	Binolar, imoratlar	5
	2	Neft va gaz quduqlari	
	3	Neft-gaz omborlari	
	4	Kema qatnaydigan kanallar, suv kanallari	
	5	Ko'priklar	
	6	Dambalar, to'g'onlar	
	7	Daryo va dengiz prichal inshootlari	
	8	Korxonalarining temiryo'llari	
	9	Qirg'oqni mustahkamlovchi, qirg'oqni himoyalovchi inshootlar	
	10	Rezervuarlar, sisternalar, baklar va boshqa sig'imlar	
	11	Ichki xo'jalik va xo'jaliklararo sug'orish tarmog'i	
	12	Yopiq kollektor-drenaj tarmog'i	
	13	Havo kemalarining uchish-qo'nish yo'llari, yo'laklari, to'xtash joylari	
	14	Bog'larning va hayvonot bog'laring inshootlari	
	15	Sport-sog'lomlashtirish inshootlari	
	16	Issiqxonalar va parniklar	
	17	Boshqa inshootlar	
<i>II. Uzatish qurilmalari</i>			
	1	Elektr uzatish hamda aloqa qurilmalari va liniyalari	8
	2	Ichki gaz quvurlari va quvurlar	
	3	Oqova suv, kanalizatsiya va issiqlik tarmoqlari	

	4	Magistral quvurlar	
	5	Boshqalar	
<i>III. Kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar</i>			
	1	Issiqlik texnika uskunolari	8
	2	Turbina uskunolari va gaz turbinalari qurilmalari	
	3	Elektr dvigatellari va dizel-generatorlar	
	4	Kompleks qurilmalar	
	5	Boshqa kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)	
<i>IV. Faoliyat turlari bo'yicha ish mashinalari va uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)</i>			
	1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga tegishli mashinalar va uskunalar	15
	2	Qishloq xo'jaligi traktorlari, mashinalari va uskunolari	
	3	Kommutatsiyalar va ma'lumotlarni uzatish raqamli elektron uskunolari, raqamli tizimlar uzatish uskunolari, raqamli aloqa-o'lchov texnikasi	
	4	Yo'ldosh, uyali aloqa, radiotelefon, peyjing va trunking aloqa uskunolari	
	5	Uzatishlar tizimlari kommutatsiyalarining o'xshash uskunolari	
	6	Kinostudiyalarning maxsus uskunolari, tibbiy va mikrobiologiya sanoati uskunolari	
	7	Kompressor mashinalari va uskunolari	
	8	Nasoslar	
	9	Yuk ko'tarish-transport, yuk ortish-tushirish mashinalari va uskunolari, tuproq, karer hamda yo'l-qurilish ishlari uchun mashinalar va uskunalar	
	10	Ustun-qoziq qoqish mashinalari va uskunolari, maydalash-yanchish, sara-lash, boyitish uskunolari	
	11	Texnologik jarayonlar uchun barcha turdagi sig'imlar	

	12	Neft qazib chiqarish va burg'ilash uskunalari	
	13	Boshqa mashinalar va uskunalalar	
<i>V. Harakatlanuvchan transport</i>			
	1	Temiryo'lining harakatdagi tarkibi	8
	2	Dengiz, daryo kemalari, baliqchilik sanoati kemalari	
	3	Havo transporti	
	4	Avtomobil transportining harakatdagi tarkibi, ishlab chiqarish transporti	20
	5	Yengil avtomobillar	
	6	Sanoat traktorlari	
	7	Kommunal transport	10
	8	Maxsus vaxta vagonlari	
	9	Boshqa transport vositalari	20
<i>VI. Kompyuter, periferiya qurilmalari, ma'lumotlarni qayta ishlash uskunalari</i>			
	1	Kompyuterlar	20
	2	Periferiya qurilmalari va ma'lumotlarni qayta ishlash uskunalari	
	3	Nusxa ko'chirish-ko'paytirish texnikasi	
	4	Boshqalar	
<i>VII. Boshqa guruhlarga kiritilmagan qat'iy belgilangan aktivlar</i>			
	1	Ko'p yillik dov-daraxtlar	10
	2	Boshqalar	15

Soliq solish maqsadlari uchun har bir kichik guruh bo'yicha amortizatsiya ajratmalari amortizatsiya normasini qo'llash orqali, biroq soliq qonunchiligida belgilangan eng yuqori normadan oshmagan holda hisoblab chiqiladi.

Soliq solish maqsadlari uchun amortizatsiyani soliq qonunchiligida belgilanganidan pastroq va soliq to'lovchining hisob siyosatida mustahkamlab qo'yilgan normalar bo'yicha hisoblashga yo'l qo'yiladi.

Soliq solinadigan foydaning to'liq hisoblanmagan amortizatsiya summasiga soliq solish maqsadlarida soliq qonunchiligida

nazarda tutilgan normalarga zid ravishda qayta hisoblash amalga oshirilmaydi.

Foydalanishda bo'lgan asosiy vositalar obyektlarini oladigan soliq to'lovchi ushbu asosiy vositalar obyekti bo'yicha amortizatsiya normasini mazkur asosiy vositalar obyektidan avvalgi mulkdorlar tomonidan foydalanilgan yillar (oylar) soniga kamaytirilgan foydalanish muddatini hisobga olgan holda belgilashga haqlidir. Agar mazkur asosiy vositadan avvalgi mulkdorlarda amalda foydalanish muddati ushbu asosiy vositalarning soliq qonunchiligida tasniflanishi bilan belgilanadigan foydalanish muddatiga teng yoki undan ortiq bo'lsa, soliq to'lovchi texnika xavfsizligi talablarini va boshqa omillarni hisobga olgan holda bu asosiy vositadan umumli foydalanish muddatini mustaqil ravishda, lekin uch yildan kam bo'lmagan muddatga belgilashga haqlidir. Foydalanishda bo'lgan asosiy vositalardan foydalanish muddatini aniqlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda, amortizatsiyani hisoblash yangi asosiy vositalarga bo'lgani singari amalga oshiriladi.

Nomoddiy aktivlar uchun qilingan xarajatlar soliq to'lovchi tomonidan, ularning boshlang'ich qiymati va umumli foydalanilishi muddatidan, lekin soliq to'lovchining faoliyati muddatidan ortiq bo'lmagan muddatdan kelib chiqqan holda hisoblab chiqilgan normalar bo'yicha har oyda eskirish tariqasida jami daromad-dan chegirib tashlanadi.

Nomoddiy aktivlar obyektidan umumli foydalanish muddatini aniqlash O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga yoki chet davlatning qo'llanilishi mumkin bo'lgan qonun hujjatlariga muvofiq, shuningdek, nomoddiy aktivlardan foydalanishning tegishli shartnomalar bilan bog'liq umumli muddatidan kelib chiqqan holda patentning, guvohnomaning amal qilish muddati va (yoki) intellektual mulk obyektlaridan foydalanish muddatlarining boshqa cheklanishlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Umumli foydalanish muddatini aniqlab bo'lmaydigan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya normalari besh yilga, lekin soliq to'lovchining faoliyat muddatidan ortiq bo'lmagan muddatga mo'ljallab belgilanadi.

Boshqa xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1. Soliq to'lovchining faoliyatini amalga oshirish uchun o'zga yuridik yoki jismoniy shaxslar bajargan ishlar va xizmatlar qiymati, bularga quyidagilar kiradi:

- mahsulot ishlab chiqarish (tayyorlash) bo'yicha ayrim operatsiyalarni bajarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish, xomashyo (materiallar)ga ishlov berish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy vositalarga texnik xizmat ko'rsatish va boshqa shu kabi ishlar;

- o'zga yuridik va jismoniy shaxslarning transport xizmatlari;
- ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etish uchun yoki soliq to'lovchining faoliyati bilan bog'liq boshqa vazifalarni bajarish uchun o'zga yuridik shaxslar tomonidan xodimlar (texnik personal)ni taqdim etishga doir xizmatlar uchun xarajatlari.

2. Asosiy vositalar va boshqa mol-mulkni ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko'rik va qarov, o'rtacha, joriy hamda kapital ta'mirlash xarajatlari). Asosiy vositalarni kapital ta'mirlashni amalga oshirish xarajatlarining bir maromda kiritib borilishini ta'minlash uchun soliq to'lovchi asosiy vositalarning kelgusi ta'mirlanishi uchun belgilangan tartibda zaxiralar tashkil etishga haqli.

3. Ijara to'lovlari, shuningdek, ijaraga olingan asosiy vositalarni saqlab turish bilan bog'liq xarajatlar.

4. Konservatsiyaga qo'yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va obyektlarini saqlash xarajatlari (boshqa manbalar hisobiga qoplanadigan xarajatlardan tashqari).

5. Vakolatli tashkilotlar tomonidan muayyan huquqlar yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berishni nazarda tutuvchi hujjatlarni berganlik uchun yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlar bo'yicha xarajatlar, shuningdek, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ekspertizadan o'tkazish hamda mahsulotni sertifikatlashtirish bilan bog'liq xarajatlar.

6. Mahsulotni sotish bozorlarini o'rganish xarajatlari.

7. Inventarni, xo'jalik anjomlarini va maxsus ish kiyimlarini yuvish, tuzatish hamda dezinfeksiya qilish xarajatlari summasi yoki ularga to'langan haq.

8. Qat'iy hisobotdagi blanklarni, kvitansiyalar va boshqa hujjatlarni tayyorlash xarajatlari summasi yoki ularni olish uchun to'langan haq.

9. Tushumni inkassatsiya qilish xarajatlari.

10. Reklama uchun xarajatlar.

11. Qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘ini kiritgan holda mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilish tushumi hajmining bir foizi doirasida vakillik xarajatlari. Vakillik xarajatlariga soliq to‘lovchining o‘zaro hamkorlik o‘rnatish yoki uni saqlab turish, shuningdek, soliq to‘lovchining boshqaruv va nazorat organlari majlislariga kelgan ishtirokchilarni qabul qilish hamda ularga xizmat ko‘rsatish maqsadlarida qiladigan xarajatlari kiradi. Bu xarajatlar mazkur shaxslarning rasmiy qabulini o‘tkazish, transport ta‘minoti, ovqatlanishi va turar joyi, soliq to‘lovchining shtatida turmagan tarjimonlar xizmatiga haq to‘lash xarajatlari.

12. Kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli ta‘mirlash va ularga kafolatli xizmat ko‘rsatish xarajatlari.

13. Telekommunikatsiyalar va pochta xizmatlari uchun to‘lanadigan haq.

14. Xizmat safarlari uchun xarajatlar:

a) tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safarlari joyiga borish va qaytib kelish uchun haqiqatda qilingan xarajatlar, shu jumladan, joyni band qilib qo‘yish haqi. Yo‘l hujjatlari bo‘lmagan taqdirda, xarajatlar temiryo‘l transportidagi (yoki agar temiryo‘l aloqasi bo‘lmasa, shaharlararo avtobusdagi) yo‘l haqi qiymati miqdorida, lekin aviachipta qiymatining 30 % idan ko‘p bo‘lmagan miqdorda chegirib tashlanadi;

b) O‘zbekiston Respublikasi doirasida tasdiqlovchi hujjatlar asosida joyni ijaraga olish uchun haqiqatda qilingan xarajatlar, shu jumladan, joyni band qilib qo‘yish xarajatlari. Yashaganlikni tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lmasa, mazkur xarajatlar qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida chegirib tashlanadi. O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqilganda joyni ijaraga olish uchun qilingan xarajatlar qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida chegiriladi;

d) xizmat safarida bo‘lingan vaqt uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida to‘lanadigan kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

e) qonun hujjatlarida belgilangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa xarajatlar.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan amalga oshiriladigan kompensatsiya to‘lovlari.

16. Soliq to‘lovchining faoliyatida talab etiladigan boshqa shaharlik, chet ellik mutaxassislarni ishga taklif qilish bilan bog‘liq xarajatlar.

17. Auditorlik tekshiruvlari bo‘yicha xarajatlar.

18. Maslahat, axborot xizmatlariga, shuningdek, buxgalteriya hisobini yuritish va tiklash bo‘yicha xizmatlarga haq to‘lash.

19. Bank va depozitariy xizmatlariga haq to‘lash.

20. Soliq to‘lovchining faoliyatida zarur bo‘lgan kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, xodimlarning malakasini oshirish xarajatlari.

21. Qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan hamda soliq to‘lovchining xarajatlariga kiritiladigan budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lanadigan soliqlar, boshqa majburiy to‘lovlar.

22. Assotsiatsiyalarga, jamg‘armalarga va boshqa tashkilotlarga, shu jumladan, xalqaro tashkilotlarga to‘lanadigan badallar, agar bunday badallarni to‘lash soliq to‘lovchi faoliyatining amalga oshirilishi uchun majburiy shart bo‘lsa yoki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga binoan amalga oshirilsa.

23. Mehnat sharoitlarini muhofaza qilish va ta‘minlash, texnika xavfsizligi, yong‘inga qarshi va soqchilik muhofazasini hamda texnikaviy foydalanish qoidalarida nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarni ta‘minlash xarajatlari.

24. Litsenziya bitimlariga ko‘ra huquq egasi bilan shartnoma bo‘yicha elektron-hisoblash mashinalari va ma‘lumotlar bazalari dasturlaridan foydalanish huquqini olish bilan bog‘liq xarajatlar. Mazkur xarajatlarga elektron-hisoblash mashinalari va ma‘lumotlar bazalari uchun dasturlarni yangilashga doir xarajatlar ham kiradi.

25. Intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan huquqlardan va xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalardan (xususan, ixtirolarga, sanoat namunalari va intellektual mulkning boshqa turlariga bo‘lgan patentlardan yuzaga keladigan huquqlardan) foydalanganlik uchun to‘lovlar.

26. Buxgalteriya hisobotini e'lon qilish, shuningdek, boshqa axborotni, agar qonun hujjatlarida ularni e'lon qilishni (oshkor qilishni) amalga oshirish majburiyati soliq to'lovchining zimmasiga yuklangan bo'lsa, e'lon qilish va boshqacha tarzda oshkor qilish xarajatlari.

27. Xodimning mehnatda mayib bo'lishi yoki uning sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetkazilishi yoxud xodim oila a'zosining vafoti munosabati bilan beriladigan yoki xodimning vafoti munosabati bilan oila a'zolariga beriladigan moddiy yordam.

28. Qonun hujjatlariga muvofiq, qayta tashkil etilishi, xodimlar (shtatlar) sonining qisqarishi munosabati bilan ozod etiladigan xodimlarga to'lovlar.

29. Tibbiy yordam punktini saqlab turish xarajatlari, xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazganlik va profilaktika tadbirlari uchun tibbiyot muassasalariga to'lanadigan haq.

30. Sog'liqni saqlash obyektlari, qariyalar va nogironlar uylari, sog'lomlashtirish oromgohlari, madaniyat hamda sport obyektlari, ta'lim obyektlari, shuningdek, uy-joy fondi obyektlari ta'minotiga doir xarajatlar (shu jumladan, amortizatsiya ajratmalari va barcha turdagi ta'mirlash ishlarini o'tkazish xarajatlari).

31. Ixtiyoriy sug'urta uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini qo'shgan holda tushgan tushum hajmining 2 % doirasidagi ajratmalar.

32. O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarga mol-mulkni sug'urta qilish va hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha to'lanadigan sug'urta mukofotlari summalari.

33. Sug'urtaning majburiy turlariga ajratmalar.

34. Atrof-muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida kompensatsiya to'lovlari.

35. Faoliyat bilan bog'liq ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari uchun xarajatlar, bundan asosiy vositalarni sotib olish, ularni o'rnatish hamda kapital tusdagi boshqa xarajatlar mustasno. Loyiha-smeta hujjatlari, bajarilgan ishlar dalolatnomasi va tegishli ilmiy tadqiqot, loyihalash, izlanish hamda

to'lanishi kerak bo'lgan, yuk tashuvchining tegishli birlamchi hujjatlari bilan tasdiqlangan summa o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan haq summasi soliq solinadigan daromad hisoblanadi. Yuk tashuvchining tegishli birlamchi hujjatlari bo'lmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining norezidentiga norezidentning fraxtdan olinadigan daromadlariga soliq solish uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'langan umumiy summaga soliq solinadi.

11. O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan shartnoma majburiyatlari buzilganligi uchun jarimalar hamda pena. Tekinga olingan mol-mulk.

12. O'zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan olingan boshqa daromadlar.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olgan daromadlariga quyidagilar kirmaydi:

- O'zbekiston Respublikasi norezidentining, faqat shu norezident nomidan amalga oshiriladigan va faqat tovarlar xarid qilish (olish), shuningdek, tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish bilan bog'liq tashqi savdo operatsiyalari (shu jumladan, tovar ayirboshlash operatsiyalari) bo'yicha olingan daromadlari;

- banklarning — O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining vakillik hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ular bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatishdan, shuningdek, xalqaro to'lov kartochkalari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishdan olinadigan daromadlar;

- O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan olinadigan daromadlar.

Daromadni to'lash deganda, naqd pulli va (yoki) naqd pulsiz shaklda pulni, qimmatli qog'ozlarni, ishtirok etishdagi ulushni, tovarlarni, mol-mulkni berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromadlar to'lash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi norezidenti oldidagi qarzdorlikni uzish hisobiga amalga oshiriladigan, daromad oluvchining — O'zbekiston Respublikasi norezidentining qarzi talabini hisobdan chiqarish yoki hisobga olish tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining daromadlariga soliq solish mazkur O‘zbekiston Respublikasi norezidenti o‘z daromadlarini uchinchi shaxslar, boshqa davlatlardagi o‘z bo‘linmalari foydasiga va boshqa maqsadlarda tasarruf etishidan qat’i nazar, amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lov manbayida ushlab qolishni O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi va O‘zbekiston Respublikasining boshqa norezidentiga daromad to‘lovchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari amalga oshirishlari shart.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining summasi daromadni O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga to‘lash sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha hisoblab chiqariladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining summasi ushlab qolinmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga daromad to‘layotgan O‘zbekiston Respublikasi rezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi norezidenti yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining ushlab qolinmagan summasini va u bilan bog‘liq pena summasini qonun hujjatlariga muvofiq budjetga kiritishi shart.

Sug‘urta badallaridan olingan daromadlar bo‘yicha soliqlarning to‘langan summalari sug‘urta hodisasi yuz berganda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin. Sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urta uchun to‘lovga doir xarajatlar to‘lov manbayida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i ushlab qolingani va budjetga o‘tkazilgan sug‘urta qildiruvchining — O‘zbekiston Respublikasi norezidentining daromadlarini kamaytirish uchun hisobga olinadi. Mazkur qayta hisob-kitobni O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga daromadni to‘lagan va to‘lov manbayida soliqni ushlab qolgan yuridik shaxs bajarishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining norezidentiga to‘lov manbayida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i ushlab qolinmasdan daromadni to‘lash quyidagi hujjatlardan biri mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi:

- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq, soliq to‘lashdan ozod qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston

Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan tasdiqlangan ariza;

- O‘zbekiston Respublikasining norezidenti davlat soliq xizmati organida O‘zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi sifatida faoliyatni amalga oshirishi va doimiy muassasasi sifatida hisobda turganligi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan tasdiqlangan ma’lumotnoma.

O‘zbekiston Respublikasining norezidenti O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq, soliqlar bo‘yicha imtiyozdan foydalanish uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organiga chet davlatning vakolatli organi tomonidan berilgan, O‘zbekiston Respublikasi soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomaga ega bo‘lgan davlatda mazkur shaxsning doimiy joylashgan joyi (rezidentligi) borligini tasdiqlovchi rasmiy tasdiqnomani taqdim etishi shart.

Bunda daromadlar xorijiy banklarga to‘langan taqdirda, soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnoma mavjud bo‘lgan davlatda xorijiy bankning doimiy joylashgan joyi borligini tasdiqlashi, agar bunday joylashgan joy hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot manbalaridagi ma’lumotlar bilan tasdiqlangan bo‘lsa, talab qilinmaydi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasini kamaytirish yoki uni to‘lashdan ozod etish to‘g‘risidagi ariza O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga daromadni to‘lashdan oldin O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organiga belgilangan shaklda topshiriladi. Yuridik shaxslar — O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan va O‘zbekiston Respublikasining boshqa norezidentiga daromad to‘lovchi O‘zbekiston Respublikasi norezidenti uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organining muhri bilan tasdiqlangan ariza yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasini kamaytirish uchun yoki yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lashdan ozod qilish uchun asos bo‘ladi.

Mazkur ariza tuzilgan kontrakt summasi uchun (summaning bir qismi uchun) taqdim etiladi. Agar kontrakt summasini aniqlashning iloji bo‘lmasa, ariza har yili taqdim etiladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasini kamaytirish yoki yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod qilish to'g'risidagi ariza O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organiga ilova xat va O'zbekiston Respublikasi norezidenti O'zbekiston Respublikasidagi manbadan daromad olayotgan kontrakt (shartnoma)ning nusxasi bilan birga beriladi. Bunday ariza davlat soliq xizmati organiga O'zbekiston Respublikasi norezidentining vakolatli shaxsi tomonidan berilganda ishonchnoma taqdim etilib, mazkur vakolatli shaxs arizani shu ishonchnoma asosida taqdim etadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasini kamaytirish yoki yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod qilish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan ariza topshirilgan paytdan e'tiboran o'ttiz kun ichida qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan to'langan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari daromadlaridan ushlab qolingan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i budjetga to'langan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining mazkur norezidenti O'zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro shartnomasi qoidalariga muvofiq, soliq qonunchiligida belgilangan soliq majburiyatlari bo'yicha da'vo muddati ichida to'langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini budjetdan qaytarish huquqiga ega. Bunda O'zbekiston Respublikasining norezidenti O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shakldagi soliqni qaytarish uchun ariza;

- daromadni to'lash paytida O'zbekiston Respublikasining mazkur norezidenti O'zbekiston Respublikasi soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomaga ega bo'lgan mamlakatda doimiy joylashgan joyiga (rezidentligiga) ega bo'lganligini tasdiqlovchi, tegishli chet davlatning vakolatli organi tomonidan berilgan rasmiy tasdiqnoma;

- O'zbekiston Respublikasining norezidentiga qaysi kontrakt yoki boshqa hujjatga muvofiq daromad to'langan bo'lsa, o'sha kontrakt yoki boshqa hujjatning nusxalari, shuningdek, daromadning to'langanligini va qaytarilishi lozim bo'lgan, yuridik

shaxslardan olinadigan foyda solig'ining ushlab qolingan va budjetga o'tkazilganligini tasdiqlovchi to'lov hujjatlarining nusxalari.

Hujjatlar chet tilida tuzilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organi ularning davlat tilida qilingan va notarial tasdiqlangan tarjimasini talab qilishga haqli. Bunda hujjatlarni taqdim etish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, ular konsullik orqali legallashtirilgan holda amalga oshiriladi.

Ortiqcha hisoblangan va to'langan soliqni qaytarish O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan qaytarish to'g'risida chiqarilgan qaror asosida, ariza berilgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida soliq qonunchiligida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'ini to'lovchilar bo'lib kimlar hisoblanadi?
2. Rezidentlar kimlar?
3. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'ida soliq solish obyekti nima hisoblanadi?
4. Jami daromad tarkibiga nimalar kiradi?
5. Royalti nimani anglatadi?
6. Soliq solinadigan foydani belgilashda jami daromaddan qanday chegirmalar amalga oshiriladi?
7. Yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliq bo'yicha qanday soliq stavkalari mavjud?
8. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'i bo'yicha qanday imtiyozlar mavjud?
9. Norezidentlar hamda chet ellik yuridik shaxslarning foydasiga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
10. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'ini hisobga olish tartibi qanday?

9-bob. QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I, UNI HISOBLASH TARTIBLARI

9.1. Qo‘shilgan qiymat solig‘i tushunchasi

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng, 1992-yili davlat budjetiga tashqaridan dotatsiya va subvensiya olmasdan tuzilishi bo‘yicha talablar qo‘yildi. Boshlang‘ich bosqichda soliq siyosati ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishga ega bo‘lgan budjet daromad va xarajatlarining tengligini ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal qilishga qaratilgan edi. Uni mamlakatimizda ishlab chiqarish hajmi tushib ketgan bir sharoitda, yuqori inflatsiya paytida va davlat moliya tizimidagi o‘ta og‘ir bir vaziyatda amalga oshirishga to‘g‘ri keldi.

Yuzaga kelgan vaziyat, bilvosita soliqlar, asosan, qo‘shilgan qiymat solig‘iga asoslangan soliq tizimining fiskal vazifani bajarishi zarurligini taqozo qildi. Soliqlar joriy etilishining bosh maqsadi davlat taqdim etayotgan xizmatlarni moliyaviy resurslar bilan ta‘minlashdan iboratdir. Shu sababli, bu davrda soliq islohotida sezilarli muhim o‘zgarishlar bo‘lib o‘tdi, bunda, ayniqsa, aylanmaga soliq va sotishdan soliq o‘rniga qo‘shilgan qiymat solig‘i joriy etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i joriy qilinishining asosiy sabablaridan bo‘lib, birinchi navbatda, uning yordamida davlat budjetiga daromadlar tushumining tengligini ta‘minlash va bozor munosabatlarini shakllantirish vaqtida katta ahamiyatga ega bo‘lgan davlat budjetini tuzishning barqaror bazasini yaratish hisoblanadi.

Davlat budjetining daromadlarini shakllantirishda qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan to‘ldirish g‘oyasi XX asr boshlarida vujudga kelgan. Qo‘shilgan qiymat solig‘i ilk bor Germaniyada 1919-yilda Vilgelm fon Simens tomonidan nemischa «*Veredelte Umsatzsteuer*» — «Mukammallashgan aylanma soliq» nomi bilan joriy etilgan. Bu soliq turi ilk bor qo‘shilgan qiymat solig‘i nomi bilan fransuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan 1954-yilda taklif

qilingan va 1960-yilda Kot d-Ivuar Respublikasida joriy etilib, ushbu mamlakat soliq tizimiga soliq turi sifatida kiritilgan.

Dunyo mamlakatlarida qo‘shilgan qiymat solig‘i undirish tartibi dastlab 1954-yilda fransuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan tavsiya etilgan, bu soliq turi bilan bog‘liq fikrlar XX asrning boshlarida vujudga kelgan va jahonning 48 dan ortiq mamlakatlarida joriy etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarida 1992-yildan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘i joriy etilgan. O‘zbekiston Respublikasida qo‘shilgan qiymat solig‘i 1992-yilda joriy etilgan bo‘lib, bu soliqni huquqiy tartibga soluvchi soliq qonunchiligi hujjati bo‘lib 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi Qonun va unga muvofiq ishlab chiqilgan 1992-yil 30-martdagi «Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi yo‘riqnoma hisoblanadi. Soliq qonunchiligiga muvofiq, 1992-yilda dastlab qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 30 % miqdorida belgilangan edi.

9.2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar quyidagilardir:

1. Soliq solinadigan oborotlarga ega bo‘lgan yuridik shaxslar.
2. Soliq qonunchiligiga muvofiq, zimmasiga O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lash bo‘yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar.
3. Tovarlarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar, o‘z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno.

4. Oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) — yuridik shaxs.

Quyidagilar qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar hisoblanmaydi:

1. Notijorat tashkilotlari.
2. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

9.3. Soliq solish obyekti

Soliq solish obyekti quyidagilardir:

1. Soliq solinadigan oborot.
2. Soliq solinadigan import.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilish oboroti deb quyidagilar e'tirof etiladi:

1. Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish.

2. Bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga, agar tarkibiy bo'linmalar soliq qonunchiligiga muvofiq mustaqil soliq to'lovchilar bo'lsa, mol-mulkni berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish.

3. Mol-mulkni moliya ijarasiga (shu jumladan, lizingga) berish.

4. To'lovni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan tovarni jo'natish.

5. Mol-mulkni operativ ijaraga berish.

6. Intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqni o'tkazish yoki ulardan foydalanish huquqini berish.

7. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarishda soliq qonunchiligiga muvofiq, xarajatlari chegirilmaydigan soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'zi ishlab chiqargan tovarlarni berish, o'z kuchi bilan ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish.

Soliq to'lovchining tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilish oboroti soliq solinadigan oborotdir.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar soliq solinadigan importdir. Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilish oborotlariga, agar ularni realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi hududi bo'lsa, qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Tovarlar jo'natilgan (berilgan) kun tovarlarni realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir. Agar tovarlarni jo'natish amalga oshirilmasa, tovarga bo'lgan mulk huquqi oluvchiga o'tkazilgan kun realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Garovga qo'yilgan mol-mulk (tovar) garovga qo'yuvchi tomonidan topshirilganda garov narsasiga bo'lgan mulk huquqi

o‘tkazilgan sana garovga qo‘yuvchi uchun realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Yuridik shaxsning xodimlariga ularning mazkur yuridik shaxsdagi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy ehtiyojlari uchun ish haqi hisobiga, shu jumladan, bepul tovarlar berilganda, ishlar bajarilganda, xizmatlar ko‘rsatilganda tovar berilgan, ishlar bajarilgan, xizmatlar ko‘rsatilgan hamda hisobvaraqq-faktura va (yoki) ishlar bajarilgani, xizmatlar ko‘rsatilgani faktini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar rasmiylashtirilgan kun oborot amalga oshirilgan sanadir.

Tara shartnomada nazarda tutilgan muddatda qaytarilmasa, bu tarani qaytarish uchun belgilangan sana qaytarilishi lozim bo‘lgan taraning realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Ishlarni, xizmatlarni realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sana quyidagi shartlardan biri bajarilganda boshlanadi:

- hisobvaraqq-faktura yozib berilganda;
- ishlar bajarilganligi, xizmatlar ko‘rsatilganligi faktini tasdiqlovchi hujjatlar rasmiylashtirilganda.

Ishlar, xizmatlar doimiy (uzluksiz) asosda realizatsiya qilingan taqdirda, hisobvaraqq-faktura yozilgan sana ishlarni, xizmatlarni realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Shartnoma (kontrakt)ning amal qilishi davrida ishlarni, xizmatlarni oluvchi ularning natijalaridan o‘z ishlab chiqarish faoliyatida doimiy asosda foydalanishi mumkin bo‘lgan taqdirda, doimiy (uzluksiz) asosda realizatsiya qilish ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko‘rsatilganligini anglatadi.

Ishlar, xizmatlar O‘zbekiston Respublikasi norezidentidan olingan taqdirda, ishlar, xizmatlar olinganligi to‘g‘risidagi hujjat rasmiylashtirilgan sana oborot amalga oshirilgan sanadir. Soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning qiymati asosida, unga qo‘shilgan qiymat solig‘ini kiritmagan holda belgilanadi.

Tovar (ish, xizmat)lar tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog‘liq xarajatlar hisobga olingan holda) past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda, soliq to‘lovchiga o‘z ehtiyojlari uchun tovarlar berilganda (ishlar bajarilganda, xizmatlar ko‘rsatilganda), shuningdek, tovar (ish, xiz-

mat)lar bepul berilganda soliq solish maqsadlari uchun soliq solinadigan baza tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog‘liq xarajatlar hisobga olingan holda) kelib chiqib belgilanadi.

Tovarlar qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda, soliq solinadigan baza qo‘shilgan qiymat solig‘ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida, aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha esa, ularni qayta ishlash xizmatlari qiymati asosida, soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan aksiz solig‘ini hisobga olgan holda belgilanadi.

Qurilish, qurilish-montaj va ta‘mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar, xizmatlar bo‘yicha, shuningdek, obyektlarni foydalanishga tayyor holda qurishda shartnomaviy narxlardan kelib chiqqan holda hisob-kitob hujjatlari haq to‘lash uchun taqdim etilgan, bajarilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ishlarning, xizmatlarning qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir. Agar shartnomaga binoan, bu ishlarni materiallar bilan ta‘minlash majburiyati buyurtmachining zimmasida bo‘lsa, ushbu materiallarga bo‘lgan mulk huquqi buyurtmachining o‘zida saqlanib qolgan taqdirda, bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati soliq solinadigan bazadir.

Import qilingan tovarlar realizatsiya qilinganda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinda qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo‘lishi mumkin emas.

Aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq solinadigan bazaga aksiz solig‘ining summasi kiritiladi. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini ham o‘z ichiga oladigan, ularning realizatsiya qilish narxi bilan qoldiq qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Mol-mulk moliyaviy ijaraga, shu jumladan, lizingga berilganda, soliq solinadigan baza qo‘shilgan qiymat solig‘i summa-

sini o'z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktiv qiymati bilan uning balans (qoldiq) qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi, soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar moliyaviy ijaraga (lizingga) berilganda esa, qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktivning qiymati soliq solinadigan bazadir. Bunda chiqib ketayotgan aktivning qiymati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan, moliyaviy ijara ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida aktiv sifatida e'tirof etiladigan summa tarzida belgilanadi.

Qurilishi tugallanmagan obyekt realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, qurilishi tugallanmagan obyektning realizatsiya qilish narxi bilan balans qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Kredit tashkiloti tomonidan garov bilan ta'minlangan majburiyatni qoplash hisobiga olingan mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, realizatsiya qilish narxi bilan qarzni qoplash hisobiga mazkur garov mol-mulki olingan qarz summasi o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Baho (tarif)lari davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganda, soliq solinadigan baza belgilangan baholar (tariflar)dan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq, realizatsiya qilishda soliq solinmaydigan oborotlar hisoblanuvchi chiptalar, abonementlar, yo'llanmalar (joysiz davolanish uchun berilgan hujjatlar) va xizmatlar olishga huquq beruvchi boshqa hujjatlar mazkur xizmatlarni ko'rsatmaydigan yuridik shaxslar tomonidan o'z xodimlari va ularning oila a'zolari uchun realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, realizatsiya qilish bahosi va ularni olish bahosi o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisobga olish nazarda tutilmagan mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda (mazkur mol-mulk qo'shilgan qiymat solig'i bilan olinganligi yoki olinmaganligidan qat'i nazar), soliq

solinadigan baza uning realizatsiya qilish (chiqib ketish) qiymati bilan balans qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, ekspeditorning soliq solinadigan bazasi qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq tariqasida olinishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachilik shartnomasi, topshiriq yoki vositachilik xizmatlari ko'rsatish bo'yicha boshqa shartnoma asosida o'zga shaxsning manfaatlarini ko'zlab xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq (foiz) tariqasida olinishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachilik, topshiriq shartnomasiga binoan, komitent yoki topshiriq beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

Garovga qo'yuvchi garov mol-mulkini garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarish hisobiga topshirgan taqdirda, garovga qo'yuvchining soliq solinadigan oboroti miqdori garovga oluvchi tomonidan realizatsiya qilingan mol-mulk qiymatidan kelib chiqqan, biroq qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda mazkur garovga qo'yilgan mol-mulkka olingan zayom mablag'lari summasidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi. Garovga topshirilgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar bo'yicha garovga qo'yuvchining soliq solinadigan bazasi qo'shilgan qiymat solig'ini ham o'z ichiga oladigan, ularning realizatsiya qilish narxi bilan balans (qoldiq) qiymati o'rtasidagi ijobiy farqdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Qaytariladigan tara soliq solinadigan oborotga kiritilgan taqdirda, tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, soliq solinadigan baza mazkur taraning qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan garov qiymati asosida belgilanadi.

9.4. Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish

Soliq to'lovchining soliq solinadigan bazasiga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

1. Tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda.
2. Bitim shartlari o'zgarganda.
3. Narxlar o'zgarganda, sotib oluvchi siylov (skidka)dan foydalanganda.
4. Bajarilgan ishlardan, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Soliq solinadigan bazaga soliq qonunchiligida nazarda tutilgan tuzatishni kiritish bir yillik muddat ichida, kafolat muddati belgilangan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha esa, kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq, soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish qo'shimcha hisobvaraƣ-faktura yoki tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Soliq solinadigan bazaga tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganligi nazarda tutilgan hollarda tuzatish kiritish ko'rsatilgan hollar yuz bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Tovarlarni import qilishda soliq solinadigan bazaga tovarlarning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasiga tovarlarni import qilishda to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'ining, bojxona bojlarining summolari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan taqdim etilgan ishlar, xizmatlar, agar ularning realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lsa va soliq qonunchiligiga muvofiq, ularga qo'shilgan qiymat solig'i solinishi kerak bo'lsa, ishlarni, xizmatlarni oluvchi O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchisining soliq solinadigan oborotidir.

Ishlar, xizmatlarni oluvchida soliq solinadigan baza O'zbekiston Respublikasi norezidentiga to'lanishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromad bo'yicha to'lov manbayida ushlab qolinishi lozim bo'lgan soliq summasi chegirib tashlanmagan holda belgilanadi.

Budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i-ning summasi belgilangan stavka va soliq solinadigan bazadan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Olingan ishlar, xizmatlar uchun haq to‘lash chet el valutasida amalga oshirilgan taqdirda, soliq solinadigan oborot bu oborot amalga oshirilgan sanadagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha milliy valutada qayta hisoblab chiqiladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘langanligini tasdiqlovchi to‘lov hujjati soliq qonunchiligiga muvofiq, soliq summasini hisobga olish huquqini beradi.

Budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini aniqlashda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni oluvchi haqiqatda olingan va (yoki) soliq to‘lovchi tomonidan ishlab chiqarilgan hamda o‘z ehtiyojlari uchun foydalanilgan tovar (ish, xizmat)lar bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan (to‘langan) qo‘shilgan qiymat solig‘i-ning summasini hisobga olish huquqiga ega, agar bunda quyidagi shartlar bajarilsa:

1. Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni oluvchi qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchi bo‘lsa.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)dan soliq solinadigan oborotlar, shu jumladan, nol darajali stavka qo‘llaniladigan oborotlar maqsadida foydalanilsa.

2. Olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga yetkazib beruvchi tomonidan yozilgan hisobvara-q-faktura yoki soliq qonunchiligiga muvofiq taqdim etiladigan qo‘shilgan qiymat solig‘i alohida ajratib ko‘rsatilgan boshqa hujjat mavjud bo‘lsa.

3. Tovarlar import qilinganda qo‘shilgan qiymat solig‘i budjetga to‘langan bo‘lsa.

4. Qo‘shilgan qiymat solig‘i budjetga to‘langan bo‘lsa.

5. Nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadigan tovarlar eksportida chet ellik sotib oluvchi (to‘lovchi) tomonidan eksport qilinayotgan tovarlar uchun haq to‘langanligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko‘chirma mavjud bo‘lsa.

Mol-mulk ustav fondi (ustav kapitali)ga qo‘yilma sifatida olinganda oluvchi yetkazib beruvchi tomonidan to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini soliq qonunchiligida ko‘rsatilgan shartlarga rioya qilgan holda hisobga olish huquqiga ega.

Tovarlardan foydalanishning kafolatli muddati davrida ularni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha haq olmasdan ishlar bajarilganda, xizmatlar ko'rsatilganda moddiy resurslar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'i summasi, shu jumladan, ehtiyot qismlar va detallar qiymati soliq qonunchiligida ko'rsatilgan shartlarga rioya etilgan taqdirda hisobga olinadi.

Tovar vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha olingan taqdirda, komitent, topshiriq beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i hisobot davrida realizatsiya qilingan tovarlar ulushida hisobga olinadi.

Umumbelgilangan soliqlarni to'lashga va (yoki) qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy to'lashga o'tilgan taqdirda, yuridik shaxs bunday turdagi to'lovlarga o'tilgan paytdan e'tiboran tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning qoldiqlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olish huquqiga ega.

9.5. Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan va solinmaydigan oborotlar

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchida soliq solinadigan va solinmaydigan oborotlar, shu jumladan, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan oborotlar mavjud bo'lgan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i soliq qonunchiligida belgilangan tartibda hisobga olinadi.

Mol-mulkni ijaraga berishga, intellektual mulk obyektlaridan foydalanish huquqini berishga xizmatlar sifatida qaraladi.

Quyidagilar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisobga olinmaydi:

1. Olinayotgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar bo'yicha, shuningdek, moliyaviy ijaraga, shu jumladan, lizingga berish uchun olinayotgan mol-mulk bo'yicha.

2. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmagan yuridik shaxslar tomonidan, shuningdek, soliq qonunchiligiga muvofiq, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovar (ish, xizmat)lar

ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar tomonidan foydalanish uchun olingan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha.

3. O'zbekiston Respublikasi hududi realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etilmaydigan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha.

4. Tekinga olingan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha.

5. Soliq qonunchiligiga muvofiq, chegirib tashlanmaydigan xarajatlarni amalga oshirish maqsadida olingan mol-mulk bo'yicha.

Ilgari hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i quyidagi hollarda hisobga olishdan chiqarib tashlanishi kerak:

- qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish uchun yuridik shaxslar tomonidan foydalanilayotgan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha;

- soliq qonunchiligida belgilangan qoidalarga rioya etilmagan taqdirda;

- qonun hujjatlariga muvofiq, vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan normalardan, bunday normalar mavjud bo'lmaganda esa soliq to'lovchi tomonidan tasdiqlangan normalardan ortiqcha moddiy resurslar bo'yicha yo'qotishlar va buzilishlar.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi soliq solishning soddalash-tirilgan tartibiga (qo'shilgan qiymat solig'i to'lamaydiganlar toifasiga) o'tganda ilgari hisobga olingan tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlari, shuningdek, tayyor mahsulot qoldiqlari bo'yicha hisobga olishga kiritilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga tuzatish kiritiladi. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bo'yicha imtiyoz berilganligi munosabati bilan soliq solinmaydigan obro-rotlar yuzaga kelgan soliq to'lovchilarga ham tuzatish kiritish-ning shunga o'xshash tartibi tatbiq etiladi.

Soliq solinmaydigan oborot uchun foydalaniladigan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha mahsulot yetkazib beruvchilarga va import bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinmaydi, balki ushbu tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning qiymatida hisobga olinadi.

Soliq solinadigan va soliq solinmaydigan oborot mavjud bo'lganda soliq solinadigan oborotga, shu jumladan, nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborotga, shuningdek, yuridik shaxsning o'z ehtiyojlari uchun (xarajatlar sifatida qaraladigan)

oborotga to'g'ri keladigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisobga olinadi.

Hisobga olinadigan summa qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchining tanloviga binoan, alohida-alohida va (yoki) mutanosib usulda aniqlanadi. Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini aniqlashning tanlangan usuli kalendar yil mobaynida o'zgartirilishi mumkin emas. Mutanosib usul qo'llanilganda hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi soliq solinadigan oborotning umumiy oborot summasidagi ulushidan kelib chiqib aniqlanadi.

Alohida-alohida usul qo'llanilganda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan oborot maqsadlarida foydalanish uchun olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yuzasidan xarajatlar hamda qo'shilgan qiymat solig'i summalari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritadi. Bunda alohida-alohida hisobni yuritish imkoni bo'lmagan umumiy xarajatlar bo'yicha xarajatlarni taqsimlash mutanosib usulda amalga oshiriladi.

Hisobvara-q-faktura qat'iy hisobot hujjati bo'lib, unda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

1. Hisobvara-q-fakturaning tartib raqami va yozib berilgan sanasi.

2. Hisobvara-q-faktura ilova qilinadigan tovar jo'natish hujjatlarining yoki shartnomaning raqami va sanasi.

3. Soliq to'lovchining va tovar (ish, xizmat)lar sotib oluvchining nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) hamda identifikatsiya raqami.

4. Realizatsiya qilingan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlarning nomi va o'lchov birliklari (ularni ko'rsatishning imkoniyati bo'lsa).

5. O'lchov birligidan (ularni ko'rsatishning imkoniyati bo'lsa) kelib chiqqan holda realizatsiya qilingan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlarning hisobvara-q-faktura bo'yicha soni (hajmi).

6. Shartnoma (kontrakt) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olmagan holda, qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladigan davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar (tariflar)

qo'llanilgan taqdirda esa, soliq summasini hisobga olgan holda o'lchov birligiga to'g'ri keladigan narx (tarif).

7. Realizatsiya qilinayotgan tovarlar, bajarilayotgan ishlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar jami sonining (hajmining) qo'shilgan qiymat solig'isiz qiymati.

8. Aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ining stavkasi va summasi.

9. Tovarlari (ishlar, xizmatlar)ning sotib oluvchisiga taqdim etilayotgan qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va summasi.

10. Realizatsiya qilingan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar jami soni (hajmi)ning aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olingan qiymati.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan oborotni va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar, shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmagan yuridik shaxslar tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni oluvchi shaxsga hisobvaraqa-faktura taqdim etishlari shart, quyidagi hollar bundan mustasno:

1. Yo'lovchilar tashishni yo'l chiptalari bilan rasmiylashtirish.

2. Tovar (ish, xizmat)lar aholiga naqd pulda realizatsiya qilingan hollarda sotib oluvchiga fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasi cheki, terminal cheki, kvitansiya berish.

3. Tovarlarning eksport-import tarzida yetkazib berilishini rasmiylashtirish.

4. Qabul qilib olish-topshirish dalolatnomasi rasmiylashtiriladigan moliyaviy ijara (shu jumladan, lizing) shartnomasi bo'yicha mol-mulknini topshirish. Bunda tegishli hujjatlar (moliyaviy ijara shartnomasining tarkibiy qismi bo'lgan ijara (lizing) to'lovlari jadvali, hisobvaraqa, ijaraga (lizingga) oluvchiga ijara (lizing) to'lovlarini to'lash uchun yuborilgan yozma bildirish va shu kabilar) bilan rasmiylashtirilgan har bir ijara (lizing) to'loviga ham hisobvaraqa-faktura yozilmaydi.

5. Bank operatsiyalarini mijozning shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirma berish orqali rasmiylashtirish.

6. Sug'urta xizmatlarini topshiriq shartnomasi va (yoki) sug'urta polisi orqali rasmiylashtirish.

7. Soliq qonunchiligida ko'rsatilgan ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda, ishlar (xizmatlar)ni haqiqatda mazkur ishlar bajarilganligini (xizmatlar ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi hujjatlar bilan rasmiylashtirish.

Soliq qonunchiligida ko'rsatilgan hujjatlar hisobvara-q-faktura o'rnini bosadigan hujjatlardir. Bunda qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berilgan taqdirda, ushbu hujjatlarda qo'shilgan qiymat solig'i summasi, albatta, ajratib ko'rsatilishi kerak.

Kelgusida tovarlarni yetkazib berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish uchun oldindan to'langan haq (bo'nak) yozilgan hisobvara-q hisobvara-q-faktura bo'lmaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmagan, shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar hisobvara-q-fakturada qo'shilgan qiymat solig'i summasini ko'rsatmaydilar hamda «qo'shilgan qiymat solig'isiz» shtampini bosadi (yozib qo'yadi).

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi uchun hisobvara-q-faktura qo'shilgan qiymat solig'ini soliq qonunchiligiga muvofiq hisobga olish uchun asos bo'ladi. Hisobvara-q-faktura tovar (ish, xizmat)lar realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanada yoziladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan elektr energiyasi, suv, gaz, aloqa xizmatlari, kommunal xizmatlar, temiryo'lda tashishlar, transport-ekspeditorlik xizmati, bank operatsiyalari, shuningdek, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni uzluksiz yetkazib berishni amalga oshirayotgan soliq to'lovchilar o'zining oxirgi kunda bir marta hisobvara-q-faktura yozadi.

Hisobvara-q-fakturada tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning qiymati va qo'shilgan qiymat solig'i summasi milliy valutada ko'rsatiladi.

Tuzilgan shartnomalarning shartlariga binoan tovarlariga, ishlari va xizmatlariga narx (tarif)lar chet el valutasida belgilanadigan yuridik shaxslar hisobvara-q-fakturalarni chet el valutasida yozib, ayni bir vaqtda uni hisobvara-q-faktura yozib berilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha qayta hisoblagan holda milliy valutada ifodalaydi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni yetkazib beruvchi qo‘shimcha hisobvaraƒ-fakturada quyidagi ma‘lumotlarni ko‘rsatishi kerak:

1. Qo‘shimcha hisobvaraƒ-fakturaning raqami va tuzilgan sanasi.

2. Hisobvaraƒ-fakturani to‘ldirishda zarur bo‘lgan rekvizitlar.

3. Tuzatish kiritilayotgan hisobvaraƒ-fakturaning raqami va sanasi.

4. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobga olmagan holda soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish miqdori (salbiy yoki ijobiy).

5. Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga tuzatish kiritish miqdori (salbiy yoki ijobiy).

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar o‘zlari olgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha hisobvaraƒ-fakturalarning, shuningdek, realizatsiya qilingan tovar (ish, xizmat)lar bo‘yicha taqdim etilgan hisobvaraƒ-fakturalarning reyestrini yuritishi shart. Bunda olingan tovar (ish, xizmat)lar bo‘yicha hisobvaraƒ-fakturalar reyestriga faqat qo‘shilgan qiymat solig‘i ajratib ko‘rsatilgan hisobvaraƒ-fakturalar kiritiladi.

Hisobvaraƒ-fakturaning shakli, uni to‘ldirish tartibi, shuningdek, kelib tushgan va taqdim etilgan hisobvaraƒ-fakturalar reyestrini yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Soliq solinadigan oborotlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i soliq solinadigan oborot bo‘yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan soliq qonunchiligiga muvofiq, hisobga olinadigan soliq summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Tovarlarini import qilish bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ining summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobda turgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

• qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida hisobot

davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshirilgan muddatda;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq to'lovchilar, bundan kredit va sug'urta tashkilotlari mustasno, qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha hisobvaraq-fakturalar reyestrini taqdim etadi. Hisobvaraq-fakturalar reyestrining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini budjetga to'lash soliq qonunchiligiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitoblarini taqdim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay amalga oshiriladi. Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha to'langan summasi soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha qarzi bo'lmagan taqdirda, soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchiga qaytariladi. Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining navbatdagi hisobot davri uchun hisoblab chiqarilgan soliq summasidan ortgan summasi qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha navbatdagi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi.

Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining soliq davri yakunlariga ko'ra hisoblangan soliq summasidan ortiqchaligi saqlanib qolgan taqdirda, ushbu ortiqcha summa keyingi soliq davriga o'tkaziladi va qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi yoxud soliq to'lovchiga belgilangan tartibda qaytariladi.

Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborot hisobidan hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha summasi davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchining soliqni qaytarib berish to'g'risidagi yozma arizasini olgan paytdan e'tiboran, o'ttiz kun ichida soliq to'lovchiga qaytariladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- soliq qonunchiligiga muvofiq, to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi qoplanadi;
- soliq to‘lovchining boshqa soliqlar bo‘yicha mavjud qarzi qoplanadi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq, soliq to‘lovchining bank hisobvarag‘iga pul mablag‘lari o‘tkaziladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasining pul mablag‘larini bank hisobvarag‘iga o‘tkazish yo‘li bilan soliq to‘lovchiga qaytarish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchi qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qaytarish uchun soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi hujjatlarni yozma arizaga to‘rt nusxada ilova etgan holda taqdim etadi:

- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha yuridik shaxs qarzlarning solishtiruv dalolatnomasi. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzlarning solishtiruv dalolatnomasi hisobot oyidan keyingi oyning 15-kuniga qadar tuziladi va bir kalendar oy mobaynida amal qiladi;

- qo‘shilgan qiymat solig‘ining hisob-kitobi;

- agar yuridik shaxsga ilgari qo‘shilgan qiymat solig‘i qaytarib berilgan bo‘lsa, qaytarilgan summalar va qaytarib berish sanasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar.

Soliq to‘lovchilar soliq qonunchiligida ko‘rsatilgan hujjat-larga qo‘shimcha ravishda quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

1. Tovarlarini eksport qilishni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar — hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini, shuningdek, chet el valutasida realizatsiya qilingan tovarlar uchun tushum soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasidagi bank hisob-varag‘iga kelib tushganligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko‘chir-malarni.

Tovarlar eksportini vositachilik, topshiriq shartnomasi bo‘yicha vositachi, ishonchli vakil orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxslar — hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini, shu-ningdek, chet el valutasida realizatsiya qilingan tovarlar uchun tushum vositachining, ishonchli vakilning yoki soliq to‘lov-

chining O‘zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag‘iga kelib tushganligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko‘chirmalarni yoki ularning ko‘chirma nusxalarini.

2. Chet el diplomatik vakolatxonalari hamda ularga tenglash-tirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanish uchun tovar (ish, xizmat)lar realizatsiya qilayotgan yuridik shaxslar — belgilangan shaklda rasmiylashtirilgan hisobvara-q-fakturalarning nusxalarini.

3. «Bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo‘yicha ishlar bajarayotgan, xizmatlar ko‘rsatayotgan, shuningdek, chet el yuklarini O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tashish (tranzit tashish) bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar:

- ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish uchun tuzilgan kontraktning nusxasini;

- bajarilgan ishlarga, ko‘rsatilgan xizmatlarga chet ellik sotib oluvchi (to‘lovchi) tomonidan haq to‘langanligini tasdiqlovchi bank ko‘chirmasi nusxasini;

- ishlar (xizmatlar)ni sotuvchi va sotib oluvchi tomonidan imzolangan ishlar bajarilganligini (xizmatlar ko‘rsatilganligini) tasdiqlovchi hujjat nusxasini.

4. Aholiga suv ta‘minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta‘minoti, gaz ta‘minoti bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar — nol darajali stavka qo‘llanganligini tasdiqlovchi hujjatlarining nusxalarini.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qaytarish to‘g‘risidagi yozma arizani ko‘rib chiqish hamda mablag‘larni soliq to‘lovchining hisobvarag‘iga soliq qonunchiligiga muvofiq o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori bilan belgilanadi.

9.6. Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkalari

Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkalari quyidagilardan iborat:

- 20 % li qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi;
- nol darajali qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasining 2013-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ 1887-sonli Qaroriga muvofiq, 2013-yilda qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 20 % miqdorida saqlab qolindi.

9.7. Qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etiladigan oborotlar

Qo‘shilgan qiymat solig‘idan quyidagi realizatsiya qilish obo-rotlari ozod etiladi:

1. Yuridik va jismoniy shaxslarga muayyan huquqlar beril-ganda davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan ko‘rsatila-digan, davlat boji, patent boji, yig‘im yoki boshqa to‘lovlar undiriladigan xizmatlar.

2. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar.

3. Bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar.

4. Dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xiz-matlari, diniy ashyolarni realizatsiya qilish, diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning udumlar va marosimlar o‘tkazishga doir xizmatlari.

5. Protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun mo‘ljallan-gan inventarlar, shu jumladan, ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan buyumlar va inventarlar, shuningdek, nogironlarga ko‘rsatilayotgan ortopedik protezlash xizmatlari, protez-ortopediya buyumlari va nogironlar uchun mo‘ljallangan inventarlarni ta‘mirlash hamda ulardan foydala-nishga doir ishlar bo‘yicha xizmatlar.

6. Davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqa-rish ustaxonalarining mazkur muassasalar tomonidan realiza-tsiya qilinadigan mahsulotlari.

7. Pochta markalari (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalar, konvertlar.

8. Aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to‘lash bo‘yicha xizmatlari.

9. Budget mablag‘lari hisobidan bajariladigan ilmiy tadqiqot va innovatsiya ishlari.

10. Shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari (taksidan, shu jumladan, yo'nalishli taksidan tashqari), shuningdek, temir-yo'l va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida (taksidan, shu jumladan, yo'nalishli taksidan tashqari) shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashish xizmatlari.

11. Oliy, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarida, shuningdek, kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda ta'lim berishning haq evaziga o'qitishga doir qismi bo'yicha xizmatlar.

12. Qimmatbaho metallarni vakolatli davlat organiga saqlab turish uchun topshirish va ularning eksporti.

13. Tibbiy (veterinariya) xizmatlari (kosmetologiya xizmatlari bundan mustasno), dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo'ljallangan buyumlar, shu jumladan, ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan shunday vositalar va buyumlar.

14. Chet el havo kemalariga xizmat ko'rsatish yuzasidan bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston Respublikasining havo bo'shlig'ida amalga oshiriladigan xizmatlar, shu jumladan, aeronavigatsiya xizmati.

15. Sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish, turistik ekskursiya xizmatlari, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport muassasalarining xizmatlari.

16. Davlat mulkini xususiylashtirish tartibida realizatsiya qilinayotgan mol-mulk.

17. Gidrometeorologiya va aerologiya ishlari.

18. Geologiya va topografiya ishlari.

19. Bosma mahsulotlar, shuningdek, bosma mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni realizatsiya qilish bilan bog'liq tahririy, matbaa va noshirlik ishlari (xizmatlari).

20. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar hamda O'zbekiston Milliy axborot agentligining asosiy faoliyatiga doir mahsulot va xizmatlar.

21. Nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniylar» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 % ini nogironlar tashkil etuvchi yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqar-

rilayotgan tovar (ish, xizmat)lar, bundan vositachilik, savdo, tayyorlov, ta'minot-sotish faoliyatini amalga oshirish bo'yicha realizatsiya qilish oborotlari mustasno.

22. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlilar (kreditlar) yuridik shaxslar oladigan, shuningdek, grantlar hisobiga olingan tovar (ish, xizmat)lar.

23. Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar.

24. Vakolatli davlat organining ixtisoslashgan ekspertiza bo'linmalari o'tkazadigan ekologik ekspertiza xizmatlari.

25. Davlat tilini va davlat tilida ish yuritishni o'rgatish xizmatlari.

26. O'zi yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsuloti.

27. Ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlov bo'linmalari xizmatlari.

28. Ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali sifatida beriladigan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tugallanmagan qurilish obyektlari.

29. Budjet mablag'lari hisobidan bajariladigan yer-kadastr, yer tuzish, tuproq va geobotanika ishlari.

30. Davlat rezervining tovar-moddiy zaxiralari, ular anglanayotganda.

31. Telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnika vositalari, shuningdek, mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar.

32. Investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida topshirilayotgan mol-mulk.

9.8. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Kreditlar, zayomlar bo'yicha foizlarni hisoblab chiqarish va undirish, kreditlar, zayomlar berish, kafillik (kafolat)lar, shu jumladan, bank kafolatlari berish.

2. Depozitlar qabul qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan, vakil banklarda hisobvaraqlarini ochish va yuritish.

3. To'lovlar, o'tkazmalar, qarz majburiyatlari, cheklar va to'lov vositalari bilan bog'liq operatsiyalar, inkasso bo'yicha operatsiyalar.

4. Milliy valuta va chet el valutasini bilan bog'liq operatsiyalar, numizmatika maqsadlarida foydalaniladiganlari bundan mustasno.

5. Yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlar depozit hisobvaraqlarini, shu jumladan, vakil depozitariylarini ochish hamda yuritish.

6. Qimmatli qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar) bilan bog'liq operatsiyalar.

7. Qimmatli qog'ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni (paylarni) realizatsiya qilish.

8. Kliring operatsiyalari.

9. Akkreditivlar ochish va ularga xizmat ko'rsatish.

10. Pul mablag'larini konvertatsiya qilish bo'yicha operatsiyalar.

11. Chet el valutasini bilan ayirboshlash operatsiyalarini tashkil etish.

12. Kassa operatsiyalari (banknot va tangalarni qabul qilib olish, berish, qayta hisoblab chiqish, maydalab berish, almash-tirish, saralash va saqlash).

13. Moliyaviy ijara (lizing) shartnomasining ijara beruvchi (lizingga beruvchi)ning foiz tariqasidagi daromadiga tegishli qismi bo'yicha xizmatlar ko'rsatish.

14. Forfeiting va faktoring operatsiyalari.

15. Lombard operatsiyalari (garovga qo'yilgan mol-mulkka qisqa muddatli kreditlar berish).

16. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining oboroti.

Sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish xizmatlari bo'yicha sug'urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta qilish bo'yicha xizmatlar, bu xizmatlar natijasida:

1. Sugʻurta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qoʻshilgan qiymat soligʻidan ozod qilinadi:

a) sugʻurta qilish, birgalikda sugʻurta qilish va qayta sugʻurta qilish shartnomalari boʻyicha sugʻurta mukofotlari;

b) qayta sugʻurta qilishga topshirilgan shartnomalar boʻyicha vositachilik haqi va tantemalar;

d) sugʻurta agenti, sugʻurta va qayta sugʻurta brokeri, surveyer hamda sugʻurta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;

e) qayta sugʻurta qilishga topshirilgan shartnomalar boʻyicha sugʻurta toʻlovlari ulushining qayta sugʻurtalovchilar tomonidan toʻlanadigan toʻlovi;

f) sugʻurta qilish, birgalikda sugʻurta qilish va qayta sugʻurta qilish shartnomalari boʻyicha uchinchi shaxslardan subrogatsiya (regress) tartibida talab qilish boʻyicha daromadlar;

g) sugʻurta bozorining professional ishtirokchilari koʻrsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;

h) qayta sugʻurta qilish shartnomalari boʻyicha depo mukofotlariga hisoblangan hamda qayta sugʻurta qildiruvchi tomondan qayta sugʻurtalovchiga oʻtkazilgan foizlar;

i) hayotni sugʻurta qilish shartnomalari boʻyicha sugʻurta qildiruvchilar taqdim etgan zayomlardan olinadigan daromadlar;

j) sugʻurtalovchining (qayta sugʻurtalovchining) investitsiya faoliyatidan olinadigan daromadlar, shu jumladan, sugʻurta rezervlari va sugʻurta fondlari mablagʻlarini investitsiyalashdan olinadigan daromadlar;

k) sugʻurta qilish, birgalikda sugʻurta qilish va qayta sugʻurta qilish shartnomalari boʻyicha franshizlarni qoplashdan olinadigan daromadlar;

l) qonun hujjatlariga muvofiq sugʻurtalovchiga oʻtgan, sugʻurta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

m) qayta sugʻurta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular boʻyicha sugʻurta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalari;

n) bevosita sugʻurta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar.

2. Sugʻurta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qoʻshilgan qiymat soligʻidan ozod qilinadi:

a) sugʻurta toʻlovi (sugʻurta toʻvoni);

b) preventiv tadbirlar oʻtkazish uchun beriladigan mablagʻlar;

d) sugʻurta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sugʻurtalovchi toʻlaydigan mablagʻlar;

e) sugʻurta qilish shartnomasiga muvofiq, boshqa mablagʻlar.

9.9. Qoʻshilgan qiymat soligʻidan ozod qilinadigan importlar

Quyidagi tovarlarni import qilishda qoʻshilgan qiymat soligʻidan ozod qilinadi:

1. Jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar.

2. Chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek, ushbu vakolatxonalarining diplomatik va maʼmuriy-texnik xodimlari, shu jumladan, ularning oʻzlari bilan birga yashayotgan oila aʼzolari shaxsiy foydalanishi uchun moʻljallangan tovarlar.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar.

4. Davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan, texnik koʻmak koʻrsatish maqsadida olib kirilayotgan tovarlar.

5. Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari boʻyicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlilar (kreditlar) mablagʻlari, shuningdek, grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan tovarlar.

6. Dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun moʻljallangan buyumlar, shuningdek, dori vositalari va tibbiyot (veteri-

nariya) uchun mo'ljallangan buyumlar ishlab chiqarish uchun qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan xomashyo.

7. O'zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq, tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek, butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, agar ularni yetkazib berish texnologik asbob-uskunalarni yetkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa.

8. Investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq, investitsiya majburiyatlari sifatida olib kiriladigan mol-mulk.

9. Vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari.

10. Bolalar poyabzali ishlab chiqarishga ixtisoslashgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar o'z ishlab chiqarishida foydalanish uchun olib kirayotgan xomashyo, materiallar va yarim mahsulot.

11. Qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha yog'och-taxta materiallari va yog'och.

Tovarlarni chet el valutasida eksportga realizatsiya qilish (qimmatbaho metallar bundan mustasno) oborotiga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Chet el tarafi o'zarolik prinsipiga amal qilgan taqdirda, chet el diplomatik vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek, bu vakolatxonalarda diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlarining, shu jumladan, ular bilan birga yashayotgan oila a'zolarining, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasalar hamda O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan bo'lmasalar, shaxsiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Diplomatik servis xizmati tomonidan keyinchalik chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga realizatsiya qilish uchun olinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga nol darajali stavka bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishda nol darajali stavka qo‘llanilishi tatbiq etiladigan O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan chet el diplomatik vakolatxonalari va diplomatik vakolatxonalariga tenglashtirilgan xalqaro tashkilotlarning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, «Bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlarga (ko‘rsatilgan xizmatlarga), agar qayta ishlash mahsulotlari O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladigan bo‘lsa, nol darajali stavka bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadi.

«Bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlar (ko‘rsatilgan xizmatlar)ga, agar keyinchalik qayta ishlash mahsulotlari bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq «erkin muomalaga chiqarish» rejimiga joylashtiriladigan bo‘lsa, belgilangan stavka bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadi.

Xalqaro yo‘nalishda tashishlar bo‘yicha ko‘rsatiladigan quyidagi xizmatlarni realizatsiya qilish oborotiga nol darajali stavka bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadi:

- tranzit yuklarni O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab tashish;
- yo‘lovchilar, bagajlar, yuklar va pochmani xalqaro yo‘nalishda tashish.

Suv ta‘minoti, kanalizatsiya, sanitariya tozalash, issiqlik ta‘minoti, gaz ta‘minoti bo‘yicha aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarga, shu jumladan, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari aholi nomidan oladigan ana shunday xizmatlarga nol darajali stavka bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash quyidagicha amalga oshiriladi:

- qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — (qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida hisobot davridan keyingi oying 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshirilgan muddatda) qo‘shilgan qiymat solig‘i hisob-kitobini taqdim etish uchun belgilangan kundan (25 kundan) kechiktirmay;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan — har oyda, keyingi oying 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Davlat budjetining daromadlarini shakllantirishda qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan to‘ldirish g‘oyasi qachon vujudga kelgan?
2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i ilk bor qayerda va kim tomonidan qanday nom bilan joriy etilgan?
3. Bu soliq turi ilk bor qo‘shilgan qiymat solig‘i nomi bilan kim tomonidan qachon taklif qilingan?
4. Qo‘shilgan qiymat solig‘i ilk bor qachon va qaysi mamlakat soliq tizimiga soliq turi sifatida kiritilgan?
5. O‘zbekiston Respublikasida qo‘shilgan qiymat solig‘i qachon joriy etilgan?
6. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarida qachondan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘i joriy etilgan?
7. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar bo‘lib kimlar hisoblanadi?
8. Qo‘shilgan qiymat solig‘i nimani ifodalaydi?
9. Qo‘shilgan qiymat solig‘i solish obyektiga nimalar kiradi?
10. Soliq solinadigan aylanma qanday aniqlanadi?

10-bob. AKSIZ SOLIG‘INI HISOBLASH VA BUDJETGA TO‘LASH TARTIBI

10.1. Aksiz solig‘i to‘lovchilari

Aksiz solig‘i to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslar quyidagilardir:

- O‘zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig‘i solinadigan tovarlar (aksiz to‘lanadigan tovarlar)ni ishlab chiqaruvchilar;
- O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to‘lanadigan tovarlarni import qiluvchilar;
- oddiy shirkat aksiz to‘lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi (ishtirokchisi).

Aksiz to‘lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo‘yicha aksiz to‘lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo‘lmagan shaxs O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaroriga binoan, aksiz solig‘ini to‘lovchi etib belgilanishi mumkin.

10.2. Aksiz solig‘i obykti

Quyidagi operatsiyalar aksiz solig‘i solinadigan obyektidir:

1. Aksiz to‘lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan:
 - tovarni sotish (jo‘natish);
 - garov bilan ta‘minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo‘yilgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni garovga qo‘yuvchi tomonidan topshirish;
 - aksiz to‘lanadigan tovarlarni bepul topshirish;
 - aksiz to‘lanadigan tovarlarni ish beruvchi tomonidan ish haqi hisobiga yollangan xodimga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda topshirish yoki hisoblangan dividendlar hisobiga yuridik shaxsning muassisiga (ishtirokchisiga) topshirish;
 - aksiz to‘lanadigan tovarlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlar (ishlar, xizmatlar) ayirboshlash uchun topshirish.

2. Aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali tariqasida yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida topshirish.

3. Aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisi (muassisi)ga u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoki yuridik shaxs qayta tashkil etilganligi, tugatilganligi (bankrotligi) munosabati bilan topshirish, shuningdek, oddiy shirkat shartnomasi doirasida ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni mazkur shartnoma sherigi (ishtirokchisi)ga uning shartnoma ishtirokchilari umumiy mulkidagi mol-mulkdan ulushi ajratib berilgan yoki bunday mol-mulk taqsimlangan taqdirda topshirish.

4. Aksiz to'lanadigan tovarlarni ulush qo'shish asosida qayta ishlashga topshirish, shuningdek, ulush qo'shish asosida xomashyo va materiallarni, shu jumladan, aksiz to'lanadigan xomashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallarning mulkdoriga topshirish.

5. Ishlab chiqarilgan va (yoki) qazib olingan aksiz to'lanadigan tovarlarni o'z ehtiyojlari uchun topshirish.

6. Aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilish.

Quyidagilarga aksiz solig'i solinmaydi:

1. Aksiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno.

2. Keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan «Bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni topshirishga.

3. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida;

- davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan, texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida;

- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo‘yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan zayomlar (kreditlar) mablag‘lari hisobiga, shuningdek, grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan, aksiz to‘lanadigan tovarlarni import qilishga.

4. Aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig‘i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga. O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig‘i solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirish normalarining eng yuqori chegarasi qonun hujjatlarida belgilanadi.

5. Vakolatli davlat organining yozma tasdig‘i mavjud bo‘lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo‘yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilishga.

Aksiz to‘lanadigan tovarlar oluvchiga jo‘natilgan (topshirilgan) kun, aksiz to‘lanadigan tovarlarga doir soliq solinadigan operatsiyalar amalga oshirilgan sanadir.

Garovga qo‘yilgan aksiz to‘lanadigan tovarlar garovga qo‘yuvchi tomonidan topshirilgan taqdirda, garov narsasiga bo‘lgan mulk huquqi o‘tgan sana garovga qo‘yuvchi uchun realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Import qilinayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlar bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazilgan sana ularga doir operatsiya amalga oshirilgan sanadir.

Aksiz solig‘ining stavkalari mutlaq summada (qat‘iy) belgilangan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq solinadigan baza aksiz to‘lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi.

Aksiz solig‘ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan ishlab chiqarilayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha, realizatsiya qilingan aksiz to‘lanadigan tovarlarning aksiz solig‘i hamda qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Ish haqi hisobiga, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga, bepul yoki boshqa tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga ayirboshlash

uchun beriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, shuningdek, tovarlar tannarxidan past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda soliq to'lovchi tovarlarni topshirish paytida uning haqiqiy tannarxidan kam bo'lmagan darajada belgilaydigan narx asosida hisoblangan qiymat soliq solinadigan bazadir.

Qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallar qiymatini o'z ichiga oladi.

Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymati asosida belgilanadi.

Soliq solinadigan bazaga quyidagi hollarda soliq to'lovchida tuzatish kiritiladi:

- tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- bitim shartlari o'zgartirilganda;
- baholar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda.

Soliq solinadigan bazaga tuzatishni kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar bo'yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi. Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish soliq qonunchiligiga muvofiq yangi hisobvaraqa-faktura yoki ko'rsatilgan hol yuz berganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga soliq qonunchiligida tutilgan hollarda tuzatish kiritish ko'rsatilgan hollar yuz bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Aksiz to'lanadigan tovarlar eksportini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardir:

- eksport qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlarni yetkazib berish uchun tuzilgan kontrakt;
- tovarlarni eksport rejimida chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining belgisi qo'yilgan bojxona yuk deklaratsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidagi o'tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar tayin-

langan mamlakatga jo'natilganligini tasdiqlovchi belgisi qo'yilgan tovarga ilova qilinadigan hujjatlar.

Aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori bilan tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2013-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ 1887-sonli Qaroriga muvofiq, aksiz solig'i stavkalari tovarning qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor) va (yoki) naturada ifodalangan o'lchov birligiga mutlaq summada (qat'iy) belgilanadi.

Aksiz solig'ini hisoblab chiqarish soliq qonunchiligiga muvofiq aniqlanadigan soliq solinadigan bazadan va aksiz solig'ining belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan aksiz solig'ining summasi soliq qonunchiligida belgilangan chegirma summasiga kamaytiriladi.

Aksiz to'lanadigan tovarlar olinayotganda yoki O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilinayotganda, agar mazkur tovarlardan keyinchalik aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida foydalanilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida to'langan aksiz solig'i summasi chegirib tashlanadi.

Aksiz to'lanadigan tovar (xomashyo) yetkazib beruvchilar mazkur tovar (xomashyo) bo'yicha aksiz solig'i summasini hisobvaraqa-fakturada ajratib ko'rsatishlari kerak. Olinayotgan aksiz to'lanadigan tovar (xomashyo) bo'yicha aksiz solig'i summasi hisobvaraqa-fakturada ajratib ko'rsatilmagan bo'lsa, aksiz solig'ining mazkur summasi chegirib tashlanmaydi.

Chegirma soliq davrida realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlar hajmiga to'g'ri keladigan aksiz to'lanadigan tovar (xomashyo) hajmidan kelib chiqqan holda aniqlangan aksiz solig'ining hisobvaraqa-fakturada yoki bojxona yuk deklaratsiyasida ko'rsatilgan summasiga nisbatan amalga oshiriladi.

Qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan tayyorlangan aksiz to'lanadigan tovarlar topshirilayotganda ham qayta ishlashga berilgan aksiz to'lanadigan xomashyo va materiallarning mulkdori aksiz solig'i to'laganligini tasdiqlashi sharti bilan qo'llaniladi.

10.3. Soliq davri

Soliq davri quyidagilardir:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun — bir oy.

Aksiz solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

- aksiz solig'i to'lovchilar bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har chorakda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq, hisoblab chiqarilgan aksiz solig'i summasi budjetga quyidagi muddatlarda to'lanadi:

- joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay — joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun;
- joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay — joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun;
- kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay — hisobot oyining qolgan kunlari uchun;
- import qilinadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i aksiz markalari olinguniga qadar to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek, uning bojxona hududiga import qilinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tamg'alanishi shart.

Qisqacha xulosalar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, soliqqa tortish tizimiga ko'ra, aksiz solig'i bilvosita soliqlardan hisoblanib, mahsulot, tovar bahosi tarifiga ustama shaklda qo'yilib, iste'mol mahsuloti bahosining yuqori bo'lishiga, narxnavoning o'sishiga bevosita ta'sir etadi. Aksizlar — tovarlar uchun

qo‘yiladigan bilvosita soliqlarning bir turi bo‘lib, qo‘shilgan qiymat solig‘idan farqli ma’lum bir chegaralangan tur va guruhdagi mahsulotlarning narxiga qo‘shiladi.

Aksizlar qadimda barcha davlatlar budjeti daromadlarini shakllantirishda munosib hissa qo‘shib kelgan. Chunki aksizlar orqali davlat zarurati uchun zarur bo‘lgan moliyaviy mablag‘larni tez va oddiy soliqqa tortish mexanizmi orqali undirish imkoniyati mavjud bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimida aksizlar davlat moliyaviy resurslarining shakllanib borishida asosiy o‘rin tutadi. Alohida tovarlardan aksiz solig‘ini undirish zarurligi ulardan davlat budjetining daromadlarini shakllantirishning qo‘shimcha manbasi sifatida foydalanishdan tashqari, alohida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish uchun zarurligidir.

Bilvosita soliqlar, xususan, aksiz solig‘i davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy soliqlardan biri bo‘lib, davlat budjeti daromadlari tarkibida eng yuqori soliq tushumlari ushbu soliqlardan tashkil topadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Aksiz tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
2. O‘zbekiston Respublikasida aksiz solig‘i qachon joriy etilgan?
3. Aksiz solig‘ini to‘lovchilar bo‘lib kimlar hisoblanadi?
4. Aksiz solig‘i solish obyektiga nimalar kiradi?
5. Aksiz solig‘i bo‘yicha qanday soliq imtiyozlari mavjud?
6. Aksiz solig‘i stavkalari va hisoblash tartibi qanday?
7. Aksiz solig‘i summasi budjetga qanday muddatlarda to‘lanadi?
8. Aksiz solig‘ini respublika budjetiga o‘tkazish tartibi qanday?
9. Bojxona yuk deklaratsiyasida aksiz solig‘ini aks ettirish tartibi qanday?

11-bob. YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILAR UCHUN SOLIQLAR VA MAXSUS TO'LOVLAR

11.1. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliq to'lovlari

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni kavlab olish, mineral xomashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshirayotgan, shuningdek, foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilardir.

Yer qa'ridan foydalanuvchilar quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydilar:

- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- qo'shimcha foyda solig'i;
- bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar quyidagilardir:

- yer qa'ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan, mineral xomashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar;

- foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar.

Kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektidir. Tayyor mahsulotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori bilan belgilanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va realizatsiya qilish yoki topshirish, shu jumladan, bepul berish, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish maqsadida o'z iste'moli va boshqa ehtiyojlari uchun mo'ljallangan foydali qazilma (foydali komponent) tayyor mahsulot deb e'tirof etiladi.

11.2. Soliq solish obyektı

Soliq solish obyektı tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Uglevodorodlar uchun soliq solish obyektı quyidagilardir:

- sanoat yo'sinida dastlabki qayta ishlovdan o'tkazilgan kavlab olingan uglevodorodlar, shu jumladan, qo'shilib chiqadigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar;

- uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonida ajratib olingan, lekin oldingi kavlab olinganda va qayta ishlanganda foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar.

Qatlamdagi bosimni saqlab turish va (yoki) uglevodorodlarni tugal texnologik jarayon doirasida ajratib olish uchun mahsuldor qatlamga qayta haydab kiritiladigan tabiiy gaz hajmi soliq solish obyektı bo'lmaydi.

Ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan, texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar soliq solish obyektidir.

Quyidagilar qattiq foydali qazilmalar bo'yicha soliq solish obyektidir:

- kavlab olingan (shu jumladan, qo'shilib chiqadigan) foydali qazilmalar. Foydali qazilmalardan, mineral xomashyodan, texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali komponentlar.

Soliq to'lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida kavlab olingan hamda o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar soliq solish obyektı bo'lmaydi. Keng tarqalgan foydali qazilmalar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish uchun, kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot bo'yicha alohida, pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chegirgan holda)

naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Hisobot davrida tayyor mahsulot realizatsiya qilinmagan bo‘lsa, soliq solinadigan baza realizatsiya qilish amalga oshirilgan oxirgi hisobot davrida tayyor mahsulotni realizatsiya qilishning o‘rtacha olingan bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tayyor mahsulot umuman realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq solinadigan baza hisobot davrida mazkur foydali qazilmalarni kavlab olishning (ajratib olishning) ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda soliq to‘lovchi realizatsiya qilish amalga oshirilgan o‘sha hisobot davrida hisoblangan yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq summasiga hisobot davrida tarkib topgan o‘rtacha olingan bahodan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi shart.

Tayyor mahsulot tannarxidan past bahoda realizatsiya qilingan yoki topshirilgan taqdirda o‘rtacha olingan bahoni hisob-kitob qilish uchun tannarx qabul qilinadi, lekin u deklaratsiya qilinayotgan baholardan yuqori bo‘lmasligi kerak.

Tayyor mahsulot (tayyor mahsulotning bir qismi) boshqa tayyor mahsulotni ishlab chiqarish uchun xomashyo bo‘lgan yoki tayyor mahsulot (qayta ishlab hosil qilingan mahsulot) o‘zining ishlab chiqarish yoki xo‘jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda bunday mahsulot uchun soliq solinadigan baza kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Kalendar yil soliq davridir. Hisobot davri quyidagichadir:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar uchun — bir oy;
- jismoniy shaxslar uchun — kalendar yil.

11.3. Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi

Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabr-dagi «O‘zbekiston Respublikasining 2013-yilgi asosiy makroiqtisodiy

tisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ 1887-sonli Qaroriga muvofiq, 2013-yilda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari quyidagi miqdorda belgilangan:

9-jadval

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari

Soliq solinadigan obyekt	Soliq stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan, % da
1. Asosiy va qo'shimcha foydali qazilmalar kavlab olinishi uchun	
Energiya manbalari	
Tabiiy gaz	30,0
Utilizatsiya qilingan tabiiy gaz	9,0*
Yer ostidan kavlab olingan gaz	2,6
Nostabil gaz kondensati	20,0
Neft	20,0
Ko'mir	4,0
Rangli va noyob metallar	
Tozalangan mis	8,1
Molibdenli sanoat mahsuloti	4,0
Konsentratlangan qo'rg'oshin	4,0
Metall rux	4,0
Volfram konsentrati	10,4
Uran	10,0**
Asl metallar	
Oltin	5,0
Kumush	8,0
Qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xomashyosi	24,0
Qora metallar	
Temir	4,0

Kon-kimyo xomashyosi	
Tosh tuz (ovqatga ishlatiladigan)	3,5
Kaliy tuzi	3,5
Natriy sulfat	3,5
Fosforitlar (grafitlar)	5,0
Karbonat xomashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar)	3,5
Glaukonit	3,5
Mineral pigmentlar	4,8
Kon-ruda xomashyosi	
Plavik shpatli konsentrat	21,2
Tabiiy grafit	8,0
Ikkilamchi boyitilmagan kulrang kaolin	7,9
Kvars-dala shpati xomashyosi	6,5
Shisha xomashyosi	3,0
Bentonitli gil	4,8
Talk va talktoshi	4,0
Talkomagnezit	4,0
Mineral bo'yoqlar	5,7
Vollostanit	4,0
Asbest	4,0
Mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt	4,0
Barit konsentrati	4,0
Metallurgiya uchun noruda xomashyo	
O'tga chidamli, qiyin eruvchan, qoliplash gilmoyasi	4,0
Ohaktoshlar, dolomitlar	4,0
Kvars va kvarsitlar	6,5
Qoliplash qumlari	4,0
Vermikulit	4,0
Noruda qurilish materiallari	
Sement xomashyosi	3,5
Tabiiy bezaktoshdan bloklar	3,5
Marmar ushog'i	3,8

Gips toshi, ganch	5,3
Keramzit xomashyosi	3,5
G'isht-cherepitsa xomashyosi (qumoqsimon, lyossimon jinslar, zichlovchi sifatida lyosslar, qumlar va boshq.)	3,5
Gips va angidrid	4,0
Arralanadigan, xarsangtosh va shag'al uchun toshlar	3,8
Qurilish qumlari	4,0
Tosh-shag'al aralashmasi, shag'al aralashmasi, mayda toshlar, shag'al	4,0
Qumtoşlar	3,5
Chig'anoq ohaktosh	3,5
Slaneslar	3,5
Boshqa keng tarqalgan foydali qazilmalar (mergellar, argelitlar, amvritlar va boshq.)	3,5
2. Texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali qazilmalar	Asosiy foydali qazilma boyligini kavlab olganlik uchun stavkaning 30 % i

* Belgilangan stavka bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi belgilagan tartibda utilizatsiya qilingan mash'al gazini realizatsiya qiladigan korxonadan to'lanadi.

** «Navoiy KMK» DK uranni kavlab olganlik bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan tartibda to'laydi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

- yuridik shaxslar tomonidan — ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

- jismoniy shaxslar tomonidan — yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan — hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan yuridik shaxslar tomonidan — har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay;

Qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar quyidagilardir:

- ayrim foydali qazilmalar (foydali komponentlar)ni kavlab olishni (ajratib olishni) amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar;

- foydali qazilmalardan ishlab chiqariladigan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar.

Mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi. Realizatsiya qilishdan olingan sof tushum bilan qonun hujjatlarida belgilangan hisob-kitob bahosi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan daromadning bir qismi (qo'shimcha foyda) qo'shimcha foyda solig'ini solish obyektidir.

Qo'shimcha foyda summasi bilan qo'shimcha foyda qismiga to'g'ri keladigan sof tushumdan hisoblab chiqarilgan soliq va boshqa majburiy to'lovlar summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan sof qo'shimcha foyda soliq solinadigan bazadir. Qo'shimcha foyda solig'i solinadigan foydali qazilmalar va mahsulot turlari ro'yxati, shuningdek, soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Bonus yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to'lovdur.

Yer qa'ridan foydalanuvchi quyidagi turdagi bonuslarni to'laydi:

- imzoli bonus;
- tijoratbop topilma bonusi;
- Davlat boshqaruvi organlari bonuslar to'lamaydi.

Imzoli bonus yer qa'ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash va qidirish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun bir martalik qat'iy belgilangan to'lovdur. Imzoli bonus litsenziya olingan kundan e'tiboran soliq to'lovchi tomonidan o'ttiz kundan kechiktirmay budjetga to'lanadi va bu haqda soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yozma shaklda xabar qilinadi.

Tijoratbop topilma bonusu tegishli litsenziyada ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida foydali qazilma konlarining har bir tijoratbop topilmasi uchun, shu jumladan, dastlabki belgilangan ajratib olinayotgan zaxiralarni ko'paytirishga olib keluvchi konlarni qo'shimcha qidirish o'tkazish chog'idagi foydali qazilmalar topilmasi uchun to'lanadigan to'lovidir. Tijoratbop topilma bonusu, agar avval mazkur kon bo'yicha tijoratbop topilma bonusu to'lanmagan bo'lsa, foydali qazilmalarni kavlab olish huquqini olgan yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan ham to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabr-dagi PQ 1887-sonli Qaroriga muvofiq, 2013-yilda imzolanadigan bonus stavkalari quyidagi miqdorda belgilangan:

10-jadval

Imzolanadigan bonus stavkalari

T/r	Foydali qazilmalarni razvedka qilish va qidirish huquqi	Bonusning eng kam stavkasi (eng kam ish haqiga nisbatan karrali miqdorlarda)
1.	Uglevodorod konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	10000
2.	Oltin qidirish va razvedka qilish huquqi	10000
3.	Qimmatbaho (oltindan tashqari), noyob va asl metallar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	1000
4.	Rudali foydali qazilmalar konlarini, 2 va 3-bandlarda ko'rsatilganlardan tashqari, qidirish va razvedka qilish huquqi	500
5.	Noruda foydali qazilmalar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	100

Tijorat topilmasi bonusining summasi yer qa'ridan foydalanish uchun soliqning yillik summasidan oshgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tijorat topilmasi bonusini 3 yilgacha muddatda bo'lib-bo'lib to'lash ko'rinishidagi imkoniyat berilishi mumkin.

Foydali qazilma konlarini keyinchalik ularni kavlab olishni nazarda tutmaydigan qidirish o'tkazishda tijoratbop topilma bonusu to'lanmaydi. Vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan

konda foydali qazilmalarning qazib olinadigan zaxiralari hajmi soliq solish obyektidir.

Foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati soliq solinadigan bazadir. Foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati vakolatli davlat organi belgilagan axborot manbalarining ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro birjada belgilangan birja bahosi bo'yicha hisoblab chiqiladi. Jahon bozorida narx mavjud bo'lmagan taqdirda, qazib olinadigan foydali qazilmalarning qiymati vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabr-dagi PQ 1675-sonli Qaroriga muvofiq, 2012-yilda tijorat topilmasi bonusi stavkalari quyidagi miqdorda belgilangan:

11-jadval

Tijorat topilmasi bonusi stavkasi

Foydali qazilmalarni qazib olish huquqi	Stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan, % da
Uglevodorodlar, qimmatbaho va noyob metallar, rudali va noruda foydali qazilmalarni qazib olish huquqi	0,1

Tijoratbop topilma bonusi soliq solinadigan bazadan va bonusning belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Tijoratbop topilma bonusining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga vakolatli davlat organi foydali qazilmalar zaxiralarini tasdiqlagan kundan e'tiboran yigirma besh kundan kechiktirmay soliq to'lovchi tomonidan taqdim etiladi.

Tijoratbop topilma bonusini to'lash vakolatli davlat organi foydali qazilmalar zaxiralarining kondan qazib olinadigan hajmini tasdiqlagan kundan e'tiboran to'qson kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabr-dagi PQ 1887-sonli Qaroriga muvofiq, 2013-yilda ayrim turdagi mahsulotlar bo'yicha qo'shimcha foyda solig'i stavkalari quyidagi miqdorda belgilangan:

**Ayrim turdagi mahsulotlar bo'yicha qo'shimcha
foyda solig'i stavkasi**

Mahsulot	Soliq solinadigan bazaning miqdori (QQS va aksiz solig'isiz)	Soliq stavkasi
Katodli mis*	so'mdagi ekvivalentda «kesish narxi»gacha 1 tonna uchun 4350 AQSH dollaridan yuqori	50 %
Tabiiy gaz*	so'mdagi ekvivalentda «kesish narxi»gacha 1000 m ³ uchun 160 AQSH dollaridan yuqori	
Polietilen granulalar	1 tonna uchun 1325000 so'mdan yuqori	
Sement**	1 tonna uchun 105000 so'mdan yuqori	
Klinker	1 tonna uchun 80000 so'mdan yuqori	

* Qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar soliq to'langandan so'ng qo'shimcha foydaning ular ixtiyorida qoladigan qismini to'liq hajmda maxsus ochiladigan investitsiya hisobvaraqlariga o'tkazadilar. Ko'rsatilgan investitsiya hisobvaraqlaridan mablag'lar faqat O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilangan tartibda sotish uchun ma'qullangan investitsiya loyihalarini moliyalash, investitsiya loyihalarini amalga oshirishga jalb etilgan kreditlarga xizmat ko'rsatish, shuningdek, asosiy ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlashga sarflanadi.

** Muqobil yoqilg'i — ko'mir asosida ishlab chiqarilgan oq sement va sementdan tashqari.

1. Qo'shimcha foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

2. Tabiiy gaz bo'yicha qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar bo'lib tabiiy gazni eksportga realizatsiya qiladigan, qonun hujjatlariga muvofiq, soliq solish obyekti yuzaga keladigan yuridik shaxslar (mahsulot taqsimoti to'g'risidagi bitim doirasida faoliyatni amalga oshiradigan operatorlar va investorlar bundan mustasno) hisoblanadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Soliqqa tortish maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar tushunchasi qanday ma'noni anglatadi va maxsus to'lovlarga nimalar kiradi?
2. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlarni to'lovchilar kimlar hisoblanadi?
3. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar soliqqa tortish obyektlariga nimalar kiradi?
4. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar bo'yicha qanday soliq stavkalari mavjud?
5. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlarni hisoblash tartibi qanday?
6. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar bo'yicha qanday imtiyozlar mavjud?
7. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlarni to'lash muddatlari qanday?

12-bob. SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ

12.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi hududida suvdan foydalanishni yoki suv iste'molini amalga oshiruvchi quyidagi shaxslardir:

- yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;
- faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari;
- tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o'z ehtiyojlariga ishlatiladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchidir.

Quyidagilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar bo'lmaydi:

- notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan suv hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchi bo'ladi;
- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

12.2. Soliq solish obyekti

Yerusti va yerosti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari soliq solish obyektidir.

Suv resurslarining yerusti manbalariga quyidagilar kiradi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, turli xil kanallar va hovuzlar, yer ustidagi boshqa suv havzalari hamda suv manbalari.

Suv resurslarining yerosti manbalariga artezian quduqlari va skvajinalar, vertikal va gorizontal drenaj tarmoqlari hamda boshqa inshootlar yordamida chiqazib olinadigan suvlar kiradi.

Foydalanilgan suvning hajmi soliq solinadigan bazadir. Suv resurslarining yerusti va yerosti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya (birlamchi) hisobga olish hujjatlarida aks ettirilgan suv o'lhagich asboblarning ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o'lhagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suv obyektlaridan suv olish limitlaridan, suv iste'molining texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda dovdaraxtlarni sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yerusti va yerosti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida-alohida hisobini yuritadilar. Suv resurslarining yerusti va yerosti manbalaridan suv keladigan oqova suv tarmoqlaridagi suvdan foydalanilgan taqdirda, soliq solinadigan baza manbaning har bir turi bo'yicha alohida-alohida aniqlanadi. Suv yetkazib beruvchi yuridik shaxslar oqova suv tarmog'iga suv resurslarining yerusti va yerosti manbalaridan keladigan suv hajmlarining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1-fevraliga qadar taqdim etishlari kerak. Davlat soliq xizmati organlari bu ma'lumotlarni soliq to'lovchilar e'tiboriga yetkazishi lozim.

Soliq to'lovchi issiq suv hamda bug' hosil qilinishi bo'yicha soliq solinadigan bazani ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun o'zi foydalangan suv resurslari hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi. Binolarning bir qismi, alohida joylar ijaraga topshirilganda soliq solinadigan baza suv yetkazib beruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan ijaraga beruvchi tomonidan aniqlanadi.

Binolarning bir qismini, alohida joylarni ijaraga olgan va suv yetkazib beruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan yuridik shaxslar soliq solinadigan bazani mustaqil ravishda aniqlaydi.

Soliq to'lovchilar yuridik shaxslar bilan suv yetkazib berilishi yuzasidan solishtirib ko'rish jarayonida olingan suvning hajmini

aniqlashtirishda suv hajmi farqini solishtiruv amalga oshirilgan davrdagi hisob-kitoblarda aks ettiradi.

Yuridik shaxslarning hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to'lovchilar bu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanlik uchun soliq to'lamaydi. Ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalaniladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi.

Yagona yer solig'i to'lovchilari bo'lmagan qishloq xo'jaligi korxonalari soliq solinadigan bazani soliq davrida bir gektar sug'oriladigan yerlarni sug'orish uchun sarflanadigan suvning butun xo'jalik bo'yicha o'rtacha hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari uchun soliq solinadigan baza soliq qonunchiligiga muvofiq, davlat soliq xizmati organlari tomonidan aniqlanadi.

12.3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq imtiyozlari

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

1. Nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniylar» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 % ini nogironlar, 1941—1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan korxonalar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi.

2. Suv uchun budjetga soliq o'tkazgan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilar.

3. Birlamchi foydalanilgan suv uchun to'lov amalga oshirilgan suvdan ikkilamchi foydalanuvchi suv iste'molchilari.

4. Ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslar — tadbirkorlik subyektlari — yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to‘g‘risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e‘tiboran. Ixtiyoriy ravishda tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to‘xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, soliq imtiyozi qo‘llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo‘llanilgan butun davr uchun to‘liq miqdorda undiriladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza quyidagi hajmlarga kamaytiriladi:

1. Sog‘liqni saqlash muassasalarida davolash maqsadida foydalaniladigan yerosti mineral suvlari hajmiga.

2. Dori vositalarini tayyorlash uchun foydalaniladigan suv hajmiga.

3. Atrof-muhitga zararli ta‘sir ko‘rsatishining oldini olish maqsadida chiqazib olinadigan yerosti suvlari hajmiga.

4. Shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida chiqazib olingan va qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun yer qa‘riga qaytarib quyiladigan yerosti suvlari hajmiga.

5. Hidroelektr stansiyalari gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv hajmiga.

6. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sho‘rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan suv hajmiga.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun to‘lanadigan solig‘ining umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan ko‘pni tashkil etadigan yuridik shaxslar (mikrofirmalar va kichik korxonalar tashqari) uchun — bir oy.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun to‘lanadigan solig‘ining umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan kamni tashkil etadigan yuridik shaxslar, shuningdek, mikrofirmalar va kichik korxonalar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun — yil choragi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari va yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari uchun — kalendar yil.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabr-dagi PQ 1887-sonli Qaroriga muvofiq, 2013-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun quyidagi soliq stavkalari belgilangan:

13-jadval

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari

T/r	To‘lovchilar	1 m ³ uchun stavka (so‘m)	
		yerusti suv resurslari manbalari	yerosti suv resurslari manbalari
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2—4-bandlarda ko‘rsatilganlaridan tashqari)	43,0	54,6
2.	Elektr stansiyalar	12,4	18,5
3.	Kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari	23,6	30,5
4.	Yagona yer solig‘ini to‘lashga o‘tmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari, dehqon xo‘jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suv resurslaridan foydalanadigan jismoniy shaxslar	2,3	2,6

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi suvdan foydalanish yoki suv iste‘moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagilar tomonidan yiliga bir marta taqdim etiladi:

- yuridik shaxslar tomonidan (qishloq xo‘jaligi korxonalari bundan mustasno) — yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

- yagona yer solig‘ini to‘lashga o‘tmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan — joriy soliq davrining 15-dekabrigacha.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — soliq davridan keyingi yilning 25-yanvarigacha. Soliq davri mobaynida soliq to‘lovchilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha joriy to‘lovlarni to‘laydilar, bundan yagona yer solig‘ini to‘lashga o‘tmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari, O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari, shuningdek, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari mustasno.

Joriy to‘lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to‘lovchilar joriy soliq davrining 25-yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e‘tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay, suvdan foydalanish yoki suv iste‘moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga mo‘ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (foydalaniladigan suv hajmidan) va suv resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to‘g‘risidagi ma‘lumotnomani taqdim etadilar;

- soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan ko‘pni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno) — har oyning 25-kunidan kechiktirmay suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq yillik summasining o‘n ikkidan bir qismi miqdorida;

- soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan kamni tashkil etadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan yuridik shaxslar, shuningdek, mikrofirmalar, kichik korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq yillik summasining to‘rttdan bir qismi miqdorida.

Soliq davri mobaynida mo‘ljallanayotgan soliq solinadigan baza o‘zgargan taqdirda, soliq to‘lovchi suv resurslaridan foydalanganlik

uchun soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun joriy to'lovlarga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning o'zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash joriy to'lovlar hisobga olingan holda soliq to'lovchilar tomonidan, suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyida, hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi, bundan yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari mustasno.

Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha joriy to'lovlar summasi hisob-kitobga ko'ra budjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, pena hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1-mayigacha amalga oshiriladi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar kimlar hisoblanadi?
2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektiga nimalar kiradi?
3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha qanday soliq stavkalari mavjud?
4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibi qanday?
5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha qanday imtiyozlar mavjud?
6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash muddatlari qanday?

13-bob. MAHALLIY SOLIQLAR VA YIG‘IMLARNI HISOBLASH VA TO‘LASH TARTIBI


13.1. Mahalliy soliqlar, yig‘imlarning mohiyati va tarkibi

Soliqlarning umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo‘linishi hukumat idoralarining respublika hukumati va mahalliy hukumatlarga bo‘linishi asosidan kelib chiqadi. Har bir hokimiyat idoralari o‘zining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o‘z budjetiga va uni ta’minlaydigan soliqlarga ega bo‘lishi kerak. Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika budjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy budjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushishi mumkin. Agar kelgusi yili mahalliy budjetlarning o‘z manbalari ko‘payib qolsa, respublika soliqlaridan ajratma berishning hojati qolmaydi. Respublika va mahalliy soliqlar yagona mohiyatga ega bo‘lib, budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan to‘lovlardir.

Mahalliy soliqlar mahalliy hukumatlar bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to‘liq biriktirib berilgan. Mahalliy hukumatlar, asosan, mehnatkashlarga yaqin bo‘lganligidan ular ijtimoiy masalalar — maktab, sog‘liqni saqlash, madaniyat, maorif, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin bu soliqlarga yig‘imlar ularning budjet xarajatlarining 30—40 % ini qoplaydi, xolos. Keyingi vaqtda mahalliy budjetlar daromadlari salmog‘ini 50—60 % ga yetkazish xususida hukumat qarorlari mavjud.

Mahalliy budjetlar davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning xarajatlari hisobiga, birinchi navbatda, kommunal mulk obyektlari, yo‘llar, maktablar qurilishi, aloqa vositalarini rivojlantirish, shuningdek, uy-joy qurilishi pul bilan ta’minlanadi. Mahalliy hokimiyat organlari budjetidan mahalliy ma’muriyat va boshqa budjet masalalarini tutib turish uchun ham foydalaniladi. Mahalliy budjetlar xarajatlarida ijtimoiy-madaniy ehtiyojlar, sog‘liqni saqlash obyektlariga doir, iqtisodiy

muvozanatni qo‘llab turish xarajatlari ham muhim o‘rin tutadi. Davlat budjeti daromadlari, birinchi navbatda, markaziy va mahalliy hokimiyat organlari undiradigan soliqlardan, davlat zayomlari, shuningdek, budjetdan tashqari yoki maqsadli fondlardan olinuvchi tushumlardan iborat bo‘ladi. Bunday fondlarni barpo etish aniq maqsadlar uchun, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy tUSDagi maqsadlarga yirik moliya resurslarini safarbar etish zarurati bilan shartlangan.



10-chizma. O‘zbekiston Respublikasidagi mavjud mahalliy soliqlar turi¹.

Ular qatoriga ijtimoiy sug‘urta, yo‘llar qurish, atrof-muhit muhofazasi, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash hamda ko‘pgina boshqa maqsadlar kiradi. Ularning miqdori muntazam ravishda oshib bormoqda. Budjetning daromad qismini shakllantirish ko‘pgina muammolarga ega bo‘lib, ularni hal etish ko‘p jihatdan soliq tizimining holatiga bog‘liqdir. Soliqqa oid qonunlarga tez-tez tuzatishlar kiritish, ko‘pincha, korxonalarining moliyaviy ahvolini og‘irlashtirib, ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, uni izdan chiqaradi. Mahalliy soliq to‘lovchilarga o‘z faoliyatining moliyaviy natijalarini prognozlash imkonini beradigan tUSDagi qonunlar, aksincha, ishlab chiqarishning barqaror bo‘lishiga, investitsiya faoliyatini rivojlantirishga imkon yaratadi.

¹ Respublika Axborot-maslahat markazi. T., 2008, 6—12-bet.

Shuning uchun budget daromadlari sohasidagi siyosat asosiga soliq siyosatini oldindan taxmin qilish, uning davomiyligi qoidasi qo'yilishi kerak, bu esa soliq tizimiga uning negizlarini buzmaydigan va uni takomillashtirishga yo'naltirilgan o'zgartirishlarni kiritish mumkinligini istisno etmaydi. Milliy daromadni qayta taqsimlash, mamlakatda yangidan yaratilgan qiymatning kattagina qismini davlat ixtiyoriga olish, davlat barcha daromadlarining umumiy moddiy asosi hisoblanadi.

13.2. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'ini hisoblash va budgetga to'lash tartibi

Sobiq Ittifoq davrida qishloq xo'jaligi solig'i, yer va qurilish binolariga ega bo'lganlik uchun soliqlar mavjud edi. Ittifoq barbod bo'lganidan keyin yer solig'i bilan bog'liq bo'lgan masalalar qonun ostidagi me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solindi va 1993-yil 6-may kuni O'zbekiston Respublikasining «Yer solig'i to'g'risida» gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun bilan yer solig'i obyektlari, subyektlari, stavkalarini belgilash tartibi hamda hisoblanish va to'lanish tartiblari belgilab qo'yildi.

1997-yil 24-aprel kuni O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qabul qilinishi bilan bu soliq O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida nazarda tutilgan mahalliy soliqlardan biri sifatida kodeksda mustahkamlab qo'yildi. Ushbu kodeksning 96-moddasiga ko'ra, «O'z mulkida, egaligida yoki foydalanishda yer uchastkalari bo'lgan yuridik shaxslar yer solig'i to'lovchilar hisoblanadi. Belgilangan tartibda yagona soliqni to'lash bilan soliqqa solishning soddalashtirilgan tizimiga o'tgan kichik korxonalar yer solig'ini to'lamaydilar» deb ta'rif berilgan edi.

Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun budgetga to'lovlar yer solig'i yoki yer uchun ijara haqi tariqasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni

hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Yuridik shaxslar mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yer solig'i to'laydilar.

2008-yildan joriy etilgan Soliq kodeksining 12-bo'lim, 49-bob, 279-moddasiga binoan, mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig'ini to'lovchilardir.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalanigan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun yer solig'ini to'lovchidir.

Quyidagilar yer solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi:

- notijorat tashkilotlar. Tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan taqdirda, notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatida foydalanilgan yer uchastkalari bo'yicha yer solig'i to'lovchilar bo'ladi;

- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar. Soliq kodeksining 12-bo'lim, 49-bob, 280-moddasiga binoan, mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari soliq solish obyektidir. Jumladan:

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;

- qishloq yoki o'rmon xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

- korxonalar, binolar va inshootlar qurish uchun yoki qishloq xo'jaligiga taalluqli bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun berilgan yer uchastkalari;

- korxonalar, binolar yoki inshootlarga bo'lgan mulk huquqi o'tishi bilan birga egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari.

Soliq kodeksining 281-moddasiga muvofiq, soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni soliq solinadigan bazadir.

Qaysi yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida

solliq to'lovchiga o'tgan bo'lsa, o'sha yer uchastkalari uchun solliq solinadigan baza yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, solliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e'tiboran kamaytiriladi.

Solliq kodeksining 12-bo'lim, 49-bob, 282-moddasiga asosan, yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i bo'yicha quyidagi imtiyozlar mavjuddir. Yer solig'i to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari — o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda foydalanadigan yer uchastkalari uchun;

2) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 % ini nogironlar, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi;

3) yangi tashkil etilgan dehqon xo'jaliklari — davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan e'tiboran ikki yilga;

4) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari — yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda solliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Solliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:

1) bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi (kirish yo'llari, sug'orish ariqlari, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa yerlar), jamoa garajlarining yerlari;

2) muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yerlari, bundan xo‘jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar mustasno. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yerlari jumlasiga davlat qo‘riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo‘riqxonalarining, tabiat bog‘larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo‘riqxonalarining (ovchilik xo‘jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo‘riqxonalarini bundan mustasno), tabiiy pitomniklarning yer uchastkalari kiradi;

3) sog‘lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (xo‘jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) — tegishli muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika va davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo‘lgan yer uchastkalari;

4) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar (xo‘jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) — aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yerlar;

5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar (xo‘jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) — tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan tarixiy-madaniy qo‘riqxonalar, xotira bog‘lari, sag‘analar, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari egallagan yerlar;

6) suv fondi yerlari;

7) elektr uzatish liniyalari, ularning podstansiyalari va inshootlari egallagan yerlar;

8) umumdavlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirgakli liniyalar va radiofikatsiyalar, yerosti kabelli liniyalari va h.k. boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar;

9) madaniyat, xalq ta‘limi va sog‘liqni saqlash obyektlari egallagan yerlar;

10) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari egallagan yerlar;

11) umumiy foydalanishdagi temiryo‘llar va boshqa yerlar.

Belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalariga ushbu moddada belgilangan imtiyozlar tatbiq etilmaydi. Soliq kodeksining 12-bo‘lim, 49-bob, 283-moddasiga asosan, yer solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Yer solig'i stavkasi yer zonalariga qarab belgilanadi. Masalan, Toshkent shahri 14 zonaga bo'lingan, yirik va katta shaharlar hududlari 4 zonaga, kichik shaharlar 3 zonaga va posyolkalar 2 zonaga.

Yer uchastkalariga qadar bo'lgan masofa shaharlar va tuman markazlarining ma'muriy chegaralaridan avtomobil yo'llari bo'yicha belgilanadi. Yer uchastkasi ikkita shahar yaqinida joylashgan holda shaharning yuqoriroq funksional ahamiyatiga muvofiq keluvchi eng ko'p koeffitsiyenti qo'llaniladi.

Yuridik shaxslar tomonidan (qishloq xo'jaligi korxonalaridan tashqari) soliq yilning har choragida, teng ulushlarda chorakdagi ikkinchi oyning 15-kunigacha to'lanadi. Qishloq xo'jaligi korxonalarini yer solig'ini bir yilda bir marotaba — hisobot yilining 15-dekabrigacha to'laydilar.

13.3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga yagona yer solig'i

O'zbekiston Respublikasi oldida turgan qator ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni yechishda, shu jumladan, bozorlarni tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirishda, aholining ish bilan ta'minlanishida bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lmish kichik biznesning ahamiyati beqiyosdir.

O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishda davlatning yordami katta. Shu tufayli kichik biznes korxonalarini o'zining katta imkoniyatlarini ishga solishi mumkin, ularga davlat yordam berishi, kafolatlashidan tashqari, ixchamlashgan soliqqa tortish tizimiga o'tishga ruxsat berishining o'zi katta yordamdir. Bu yordam kichik biznes korxonalarining moliya-xo'jalik faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Respublikamizda xususiy va kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 31-dekabrda 469-sonli qaroriga binoan, ularni soliqqa tortishning soddalash-tirilgan tartibi va tizimlari joriy etildi.

Ixchamlashgan soliq tizimining ahamiyati juda kattadir. Bu faqat soliqlarning ixchamlashganligida emas, balki hisob xodimlari uchun vaqt va pul xarajatini kamaytirish, soliqlarga yig'img'ildan to'lanadigan moliyaviy jazolarni kamaytirish imkonini beradi.

Soliq kodeksining 20-bo‘lim, 55-bob, 348-moddasiga muvofiq, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari uchun qo‘llaniladi va yagona soliq to‘lovini, yagona yer solig‘ini hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to‘lashning maxsus qoidalari qo‘llanilishini, shuningdek, mazkur soliqlar bo‘yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi.

Soliq kodeksining 20-bo‘lim, 57-bob, 362-moddasiga muvofiq, yagona yer solig‘ini to‘lovchilar quyidagilardir:

- qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar;
- qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqot tashkilotlari-ning tajriba-eksperimental xo‘jaliklari va ta‘lim muassasalarining o‘quv-tajriba xo‘jaliklari.

Bir vaqtning o‘zida quyidagi shartlarga javob beradigan yuridik shaxslar soliq solish maqsadida qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar jumlasiga kiradi:

- yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish va o‘zi yetishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yoxud yer uchastkalaridan foydalangan holda faqat qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish asosiy faoliyat turi bo‘lgan yuridik shaxslar;

- qishloq xo‘jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o‘zlariga belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish va o‘zi yetishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash ulushi realizatsiya qilish yoki qayta ishlash uchun olingan qishloq xo‘jaligi mahsulotini o‘z ichiga oluvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash umumiy hajmida kamida 50 % ni tashkil etadigan yuridik shaxslar.

Quyidagilar yagona yer solig‘ini to‘lovchilar sifatida qaral-
maydi:

1. O‘rmon va ovchilik xo‘jaliklari.

2. Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari.

Yagona yer solig‘ini to‘lash tartibini qo‘llash uchun soliq to‘lovchi har yili joriy soliq davrining 1-fevraliga qadar soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga o‘tgan soliq davrida qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish va

qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo‘jaligi mahsulotining o‘zi yetishtirgan va qayta ishlagan ulushi ko‘rsatilgan ma’lumot-nomani taqdim etadi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo‘jaligi mahsulotining o‘zi yetishtirgan va qayta ishlagan ulushini aniqlashda Soliq kodeksining 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlar hisobga olinmaydi.

Yagona yer solig‘ini to‘lashdan umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tgan soliq to‘lovchi Soliq kodeksida nazarda tutilgan yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha u umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tgan soliq davrining birinchi choragi uchun joriy to‘lovlarni to‘lashdan ozod qilinadi.

Soliq kodeksining 362-moddasi ikkinchi qismida belgilangan shartlarga javob beradigan qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar, shuningdek, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo‘jaliklari va ta‘lim muassasalari o‘quv-tajriba xo‘jaliklari faoliyatning yagona yer solig‘ini to‘lash tatbiq etiladigan qismi bo‘yicha soliq solishning boshqacha tartibini tanlash huquqiga ega emas.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash bilan bog‘liq bo‘lmagan faoliyat turlarini amalga oshirishda yagona yer solig‘i to‘lovchi mazkur faoliyat turlari bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.

Soliq kodeksining 350-moddasi birinchi qismiga muvofiq, soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolingan mikrofirmalar va kichik korxonalar faoliyatning boshqa turlari bo‘yicha korxonalarining tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha yagona soliq to‘lovi to‘lashi mumkin.

Yagona yer solig‘ini to‘lovchilar uchun Soliq kodeksining 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlarga qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash bilan bog‘liq daromadlar sifatida qaraladi hamda ularga soliq solinmaydi, birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar bundan mustasno. Birgalikdagi faoliyatdan olinadigan daromadlarga yagona yer solig‘i to‘lovchida dividendlarga soliq solish uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha soliq solinadi.

Soliq kodeksining 364-moddasiga muvofiq, yer uchastkalari ijaraga (shu jumladan, ichki xo‘jalik pudratiga) berilganida yagona yer solig‘ini to‘lash majburiyati ijaraga beruvchining zimmasida saqlanib qoladi.

Soliq kodeksining 365-moddasiga muvofiq, qonun hujjatlarida ko‘rsatilishicha, qishloq xo‘jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi soliq solish obyektidir.

Soliq kodeksining 366-moddasiga muvofiq, soliq solinadigan yer uchastkalarining qonun hujjatlariga binoan belgilangan normativ qiymati soliq solinadigan bazadir. Agar yer uchastkalarining normativ qiymati belgilanmagan bo‘lsa, qishloq xo‘jaligi tovari ishlab chiqaruvchilari uchun soliq solinadigan yer uchastkalari maydoni soliq solinadigan bazadir.

Agar egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida vujudga kelsa, bunday yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga bo‘lgan huquq vujudga kelgan oydan keyingi oydan boshlab hisoblab chiqariladi. Agar yer uchastkasi maydoni kamaytirilsa, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan boshlab kamaytiriladi.

Agar yuridik shaxslarda, hisobot davrida yagona yer solig‘i bo‘yicha imtiyozga bo‘lgan huquqlar vujudga kelganda soliq solinadigan baza bu huquq vujudga kelgan oydan boshlab kamaytiriladi. Yagona yer solig‘i bo‘yicha imtiyoz ega bo‘lgan huquq tugatilgan taqdirda, soliq solinadigan baza bu huquq tugatilgan oydan keyingi oydan boshlab ko‘paytiriladi.

Soliq kodeksining 20-bo‘lim, 55-bob, 367-moddasiga muvofiq, yagona yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar mavjud. Yagona yer solig‘ini to‘lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

- yangi tashkil etilgan qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan boshlab, ikki yil muddatga. Mazkur imtiyoz tugatilgan fermer xo‘jaliklari bazasida tashkil etilgan fermer xo‘jaliklariga tatbiq etilmaydi;

- ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to‘g‘risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e‘tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan mud-

datlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar — yagona yer solig'i to'lovchilarga Soliq kodeksining 282-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar ham tatbiq etiladi.

Soliq kodeksining 20-bo'lim, 55-bob, 369-moddasiga muvofiq, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi mavjud.

Yagona yer solig'i summasi soliq solinadigan bazaga qarab:

- yer uchastkalarining normativ qiymati va yagona yer solig'i-ning belgilangan stavkasidan;
- yer uchastkalarining maydonidan, yer uchastkasi joylashgan yer va yer uchastkasining sifat tavsifini (bonitet ballini) nazarda tutadigan tuzatish koeffitsiyenti e'tiborga olingan holda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Belgilangan daromaddan olinadigan yagona soliq to'lashga o'tish soliq to'lovchilarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilangan buxgalteriya va statistika hisobotlari taqdim etish majburiyatlaridan ozod qilmaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha yagona yer solig'ining vaqtinchalik baza stavkalari, ma'muriy tumanlar va shaharlar bo'yicha sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlariga doir yagona yer solig'ining vaqtinchalik baza stavkalari, shuningdek, yagona yer solig'ining vaqtinchalik baza stavkalariga tuzatish koeffitsiyentlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Yagona yer solig'i bo'yicha soliq hisob-kitobi va budjetga o'tkazish tartibi quyidagichadir:

- yerlarning joylashgan joyi va sifatiga (bonitet balliga) qarab baza stavkalari tegishli tuzatish koeffitsiyentlariga tuzatiladi.

Har bir yer maydoni turi uchun yagona yer solig'i quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S = Ser.u. \cdot Sb \cdot Tk,$$

bu yerda, *S* — yagona yer solig‘i summasi, so‘mda; *Ser.u.* — yer uchastkasi maydoni, gektarda; *Sb* — soliqning baza stavkasi, 1 gektar uchun, so‘mda; *Tk* — tuzatish koeffitsiyenti.

Yagona yer solig‘ini to‘lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- hisobot yilining 1-iyuligacha — yillik soliq summasining 20 % i;
- hisobot yilining 1-sentabrigacha — yillik soliq summasining 30 % i;
- hisobot yilining 1-dekabrigacha — soliqning qolgan summasi.

13.4. Respublikamizda jismoniy shaxslar yer solig‘i

O‘zbekiston Respublikasida yerga egalik qilish va yerdan foydalanish pullidir. Yer uchun haq yillik yer solig‘i sifatida undiriladi. «Yer solig‘i to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq, yerga egalik qiluvchi yoki undan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar yillik yer solig‘i to‘laydilar. Uning hajmi mazkur uchastka sifatiga, qayerda joylashganiga hamda suv bilan ta‘minlanish darajasiga qarab belgilanadi.

O‘zbekiston soliq qonunchiligida jismoniy shaxslarning yerlari o‘z mulkida, egaligida yoki foydalanishda yer uchastkalariga ega, amaliyotda esa jismoniy shaxslarning yerlari tomorqa yerlari va qo‘shimcha tashqaridan olingan yerlarga bo‘linadi.

Soliq kodeksining 12-bo‘lim, 50-bob, 287-moddasiga muvofiq, mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar, shuningdek, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari yer solig‘ini to‘lovchilardir.

Yer solig‘i to‘lovchilar har yili yil boshida soliq idoralari tomonidan ro‘yxatga olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to‘lanadigan ijara haqi yer solig‘iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan jismoniy shaxslarga yer solig‘ini to‘lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab

chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Uy-joy, yashash uchun mo'ljallanmagan imorat va inshootlar meros bo'yicha o'tishi bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish huquqi va foydalanish huquqi o'tgan yer uchastkalari uchun yer solig'i meros qoldiruvchining soliq majburiyatlari hisobga olingan holda merosxo'rlardan undiriladi.

Soliq kodeksining 12-bo'lim, 50-bob, 288-moddasiga muvofiq, jismoniy shaxslar uchun quyidagi yer uchastkalari soliq solish obyektidir:

1) dehqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

2) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

3) jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek, yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari;

4) xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;

5) meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;

6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;

7) tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Ko'p xonadonli uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyekti bo'lmaydi. Soliq kodeksining 289-moddasiga muvofiq, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yer uchastkalari maydoniga doir ma'lumotlari soliq solinadigan bazadir.

Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek, yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalarining maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza ushbu yer uchastkalarini bergan tashkilotlar boshqaruv organlarining ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Soliq kodeksining 12-bo'lim, 50-bob, 290-moddasiga muvofiq, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar quyidagilar:

Jismoniy shaxslarning yer soligʻidan quyidagilar ozod qilinadilar:

1) yaylov chorvachiligining choʻponlari, yilqiboqarlari, mexanizatorlari, veterinar va texniklari, boshqa mutaxassisleri va ishchilari;

2) «Oʻzbekiston Qahramoni» unvoniga sazovor boʻlgan fuqarolar. Mazkur imtiyoz «Oʻzbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi toʻgʻrisidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) 1941–1945-yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari hamda qonun hujjatlarida belgilanadigan doiradagi ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari boʻlimining yoxud boshqa vakolatli organning maʼlumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga – nogironning imtiyozlarga boʻlgan huquqi toʻgʻrisidagi guvohnoma asosida beriladi;

4) I va II guruh nogironlari;

5) yolgʻiz nafaqaxoʻrlar. Yolgʻiz yoki voyaga yetmagan bolalari bilan yoxud nogiron bolasi bilan alohida uyda, kvartirada yoki yotoqxonada birga yashovchi nafaqaxoʻrlar soliq solish maqsadida yolgʻiz nafaqaxoʻrlar deb tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi va (yoki) tuman (shahar) ijtimoiy taʼminot boʻlimining maʼlumotnomasi asosida beriladi;

6) shaxsiy nafaqa tayinlangan shaxslar;

7) koʻchirib keltirilgan fuqarolar kelib joylashgan yer uchastkalari boʻyicha – yer uchastkalari berilgan paytdan eʼtiboran besh yilgacha;

8) shaxslar – ularga yakka tartibdagi uy-joy qurilishi va dehqon xoʻjaligi yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida berilgan yer uchastkalari boʻyicha – yer uchastkasi berilgan oydan keyingi oydan eʼtiboran ikki yil muddatga va boshqalar.

Soliq kodeksining 282-moddasi ikkinchi qismining soliq solinmaydigan yer uchastkalariga taalluqli qismida nazarda tutilgan imtiyozlar yer soligʻi toʻlovchi boʻlgan jismoniy shaxslarga ham tatbiq etiladi. Belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalariga ushbu moddada belgilangan imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

Soliq kodeksining 291-moddasiga muvofiq, tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yoxud uylar, dala-hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar, joylar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda yer uchastkalari uchun yer solig'i jismoniy shaxslardan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash uchun belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi hamda ularga Soliq kodeksining 290-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

Yer solig'i stavkalari har yili yangi yil uchun budjet tasdiqlanayotganda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Berilgan yerlardan ikki yil davomida foydalanmagan jismoniy shaxslardan yer solig'i uch baravar miqdorida undiriladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga binoan, yerlarni o'z xohishi bo'yicha egallab olgan fuqarolarga 5 karradan 10 karragacha eng kam ish haqi miqdorida jarima solinadi.

Jinoyat kodeksiga binoan esa ma'muriy javobgarlik tayinlangandan so'ng fuqaro o'z xohishi bilan yerni egallab olsa, 50 karradan 100 karragacha eng kam ish haqi miqdorida yoki 3 yilgacha tarbiyalash ishlariga yoki 3 yilgacha ozodlikdan mahrum etiladi.

Soliq kodeksining 292-moddasiga muvofiq, kalendar yil soliq davridir. Soliq kodeksining 12-bo'lim, 50-bob, 293-moddasiga muvofiq, jismoniy shaxslar uchun yer solig'ini hisoblab chiqarish davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmati organlari yer solig'ini to'lovchilar bo'lgan jismoniy shaxslarning hisobini muntazam yuritadi. Yer solig'i summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan to'lov xabarnomasi jismoniy shaxslarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan har yili 1-maydan kechiktirmay topshiriladi.

Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o'zgartirish va imtiyozlarga bo'lgan huquqlar vujudga kelganida (bekor qilinishi), davlat soliq xizmati organlari mazkur o'zgarishlardan keyin bir oy ichida yer solig'ini qayta hisob-kitob qilishlari hamda soliq to'lovchiga yer solig'i summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishlari kerak.

Yil mobaynida ajratilgan yer uchastkalari uchun yer solig'ini jismoniy shaxslar tomonidan yer uchastkasi ajratilganidan keyingi oydan e'tiboran to'lanadi. Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, yer solig'ini to'lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e'tiboran to'xtatiladi (kamaytiriladi).

Soliq davri uchun yer solig'ini to'lash jismoniy shaxslar tomonidan hisobot yilining 15-oktabriga qadar to'lanishi lozim.

13.5. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq

O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilarning hisobi davlat soliq xizmati organlari tomonidan har bir yilning 1-yanvaridagi holati bo'yicha davlat sug'urta idoralari va kommunal xo'jalik organlari (texnik inventarlash byurolari)da mavjud bo'lgan imorat egalari to'g'risidagi ma'lumotlarga binoan, shahar va tumanlar bo'yicha ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Soliq kodeksining 11-bo'lim, 48-bob, 272-moddasiga muvofiq, mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el fuqarolari, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilari.

Soliq kodeksining 11-bo'lim, 48-bob, 273-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylar, kvartiralar, dala-hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar soliq solish obyekti.

Soliq kodeksining 274-moddasiga muvofiq, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining inventarizatsiya qiymati to'lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyekti bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari

bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir. Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish obyekti bo'yicha to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir obyekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

Soliq kodeksining 11-bo'lim, 48-bob, 275-moddasiga muvofiq, jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'iga imtiyozlar mavjud.

Quyidagilarning mulkida bo'lgan mol-mulkka jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solinmaydi:

1) «O'zbekiston Qahramoni» unvoniga sazovor bo'lgan fuqarolarning. Mazkur imtiyoz tegishincha «O'zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

2) 1941–1945-yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari hamda doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslarning. Mazkur imtiyoz urush nogironining tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga – nogironning imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolarning (shu jumladan, u yerga vaqtincha yo'llangan yoki xizmat safariga yuborilgan shaxslarning). Mazkur imtiyoz tegishincha tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, vakolatli davlat organlari tomonidan berilgan, imtiyozlar berish uchun asos bo'ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi;

4) qonun hujjatlarida belgilangan soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida nafaqaxo'rlarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi;

5) I va II guruh nogironlarining. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishda yarador, kontuziya bo'lganlik yoki shikastlanganlik oqibatida yoxud frontda bo'lish

tufayli orttirilgan kasallik oqibatida halok bo'lgan harbiy xizmat-chilarning ota-onalari va boshqa turmush qurmagan rafiqalari (erlari)ning;

7) muddatli xizmat harbiy xizmatchilari va ularning oila a'zolarining (xizmatni o'tash davrida).

Ushbu moddada belgilangan imtiyozlar mulkdorning tanlashiga binoan, faqat bir mol-mulk obyektiga taalluqli bo'ladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan stavkalar bo'yicha soliqqa tortiladi, bunday stavkalar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan soliq to'lovchilarga umumiy belgilangan tartibda yetkaziladi.

Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo'yicha organlarning bahosi bo'lmasa, soliq undirish uchun Toshkent shahri va viloyat markazlarida 18480 ming so'm va boshqa shaharlar va qishloq joylari uchun 8030 ming so'm miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

O'z mulkida egaligida soliqqa tortiladigan mol-mulki bo'lgan nafaqaxo'rlar (pensionerlar)ning soliqqa tortiladigan mol-mulkning umumiy maydoni 60 m².gacha soliqqa tortilmaydi.

Mol-mulk solig'i bir necha mol-mulkka ega bo'lgan mol-mulk egasining tanloviga qarab, mol-mulkning har bir turi bo'yicha faqat bir obyektga taalluqli bo'ladi. Bunda imtiyozlar faqat mol-mulk imtiyoziga ega bo'lgan shaxsning mulki bo'lganidagina taqdim etilishi lozim.

Yil davomida to'lovchilarda mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lganida ular ko'rsatilgan to'lovlardan ana shunday huquq vujudga kelgan oydan boshlab ozod qilinadi.

Soliq kodeksining 275-moddasida ko'rsatilgan imtiyozlarni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar imtiyozlarni olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni mustaqil ravishda taqdim etadilar.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi mol-mulkning 1-yanvarga bo'lgan holatiga ko'ra, inventarizatsiya qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

2013-yil uchun jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ı stavkasi

Soliq solinadigan obyekt	O'lchov birligi	Soliq solinadigan bazaga nisbatan, soliq stavkasi % larda
1. Uy-joylar, kvartiralar, dala hovli va bog' uylari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar ularning inventar qiymatidan kelib chiqib (shaharda joylashgan 200 m ² joylardan tashqari).	m ²	1,04
2. Shaharda joylashgan uy-joylar, kvartiralar, dala-hovli va bog' uylari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar ularning inventar qiymatidan kelib chiqib:		
• 200 m ² .dan ortiq 500 m ² .gacha	m ²	1,25
• 500 m ² .dan ortiq	m ²	1,55

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Axborot-maslahat markazi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Bir nechta mulkdorning umumiy ulushli mulkida bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mulkdorlarning har biri tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi.

Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ular barpo etilgan yildan keyingi yil boshidan e'tiboran to'lanadi. Meros bo'yicha o'tgan mol-mulk uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq merosxo'rlarda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliq, soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi. Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar zarur hujjatlarni soliq organlariga taqdim etadilar.

Imoratlar, xonalar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i ularning har yil 1-yanvaridagi holati yuzasidan kommunal xizmat ko'rsatish idoralari beradigan ro'yxatdan o'tkazish qiymatiga doir

ma'lumotlar asosida, bunday ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda esa mazkur obyektlarning majburiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlarni hisoblab chiqarish uchun qo'llaniladigan baho asosida hisoblab chiqariladi.

Mol-mulk solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomalari to'lovchilarga soliq idoralari tomonidan har yili 1-maydan kechiktirmay topshiriladi. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini 15-oktabrdan kechiktirmay to'laydi.

Soliq to'lovchi soliqni ortiqcha to'lagan holda ortiqcha to'langan soliq summalari to'lovchining yozma arizasi olingan kundan boshlab, o'ttiz kun muddatda soliq to'lovchiga qaytariladi yoki bo'lg'usi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi.

13.6. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i

Mahalliy soliqlarning biri bo'lgan infratuzilmani rivojlantirish solig'i 1997-yil 26-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ijtimoiy sohaning idoraviy obyektlarini joylardagi davlat hokimiyati organlari balansiga bosqichma-bosqich o'tkazish to'g'risida»gi 453-sonli qaroriga binoan qabul qilingan.

2008-yilda joriy etilgan Soliq kodeksining 13-bo'lim, 295-moddasiga muvofiq, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilardir.

Quyidagilar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi:

- notijorat tashkilotlar (bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan foydasi mustasno);
- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Soliq kodeksining 296-moddasiga muvofiq, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i chegirilganidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazadir. Bunda olingan dividendlar soliq solinadigan bazadan chegirib tashlanadi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining eng yuqori stavkasi 2005-yildan soliq solish obyektiga nisbatan 8 % miqdorida belgilangan.

Soliq kodeksining 297-moddasiga muvofiq, balansida ijtimoiy infratuzilma obyektlari bo'lgan soliq to'lovchilar soliq solinadigan bazani foyda solig'i to'langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foydani va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini ta'minlash uchun haqiqatda sarflangan xarajatlarning mazkur xarajatlar summasidan hisoblab chiqilgan foyda solig'i summasiga kamaytirilgan summasini qo'shish orqali aniqlaydi. Ushbu moddani qo'llash maqsadida ijtimoiy infratuzilma obyektlariga sog'liqni saqlash obyektlari, xalq ta'limi obyektlari va bolalar dam olish oromgohlari kiradi.

Soliq kodeksining 298-moddasiga muvofiq, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha quyidagi imtiyozlar mavjud:

- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuro-niy» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 % ini nogironlar, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar ozod qilinadi, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslar mustasno. Ushbu imtiyozni olish huquqini belgilayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi.

Soliq kodeksining 299-moddasiga muvofiq, kalendar yil soliq davridir. Yil choragi hisobot davridir. Soliq kodeksining 300-moddasiga muvofiq, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Balansida ijtimoiy infratuzilma obyektlari bo'lgan soliq to'lovchilar budjetga to'lanadigan soliq summasini quyidagi tartibda aniqlaydi:

- agar ijtimoiy infratuzilma obyektlarini ta'minlash uchun xarajatlar summasi ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq summasiga teng yoki undan ortiq bo'lsa, soliq to'lanmaydi;

- agar ijtimoiy infratuzilma obyektlarini ta'minlash uchun xarajatlar summasi ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq summasidan kam bo'lsa, budgetga to'lanadigan soliq hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan haqiqatda sarflangan xarajatlar summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Ijtimoiy soha obyektlarini o'z mablag'lari hisobiga tutib turish xarajatlarni qiluvchi korxonalar uchun (bundan yalpi daromad solig'ini to'lovchi korxonalar mustasno) soliq solish bazasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$SF + Xijt. + S,$$

bu yerda, SF — barcha soliqlar to'langanidan keyin korxonada tasarrufida qoladigan foyda (sof foyda); $Xijt.$ — o'z mablag'lari hisobiga ijtimoiy soha obyektlarini tutib turish xarajatlari; S — belgilangan daromad (foyda) solig'i stavkasi va o'z mablag'lari hisobiga ijtimoiy soha obyektlarini tutib turish xarajatlari summasidan kelib chiqib hisoblangan daromad (foyda) solig'ining hisob-kitob summasi ($Xijt. \cdot \text{foyda solig'i stavkasi} / 100$).

Yalpi daromad solig'ini to'laydigan va o'z mablag'lari hisobiga ijtimoiy soha obyektlarini tutib turish xarajatlarini qiladigan korxonalar uchun soliq solinadigan baza quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$SF + Xijt.,$$

bu yerda, SF — barcha soliqlar to'langanidan keyin korxonada tasarrufida qoladigan sof foyda; $Xijt.$ — o'z mablag'lari hisobiga ijtimoiy soha obyektlarini tutib turish xarajatlari.

Agar xarajatlar summasi soliq summasidan oshib ketsa, korxonada ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lamaydi.

Agar xarajat summasi soliq summasidan kam bo'lsa, korxonada ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini eng yuqori stavka bo'yicha hisoblangan soliq summasi bilan ijtimoiy obyektlarni qurish xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlaydi. Chorak davomida barcha to'lovchilar soliqning joriy to'lovlarini budgetga to'laydilar.

Joriy to'lovlar hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining yil choragidagi summasining uchdan bir qismi miqdorida har oyning 15-kunidan kechiktirmay to'lanadi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchilar tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lash mazkur soliq bo'yicha hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

13.7. Mahalliy yig'implarni budjetga to'lash tartibi

Mahalliy yig'implar har bir mahalliy hududlar shart-sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadi. Mahalliy yig'implardan tushadigan daromadlar shu hudud mahalliy budjet daromadlarini shakllantiradi va shu mintaqa uchun sarf etiladi.

Mahalliy yig'implarning joylarda tashkil etilishi har bir mahalliy mintaqa budjetining ijobiy natijalarga erishishiga olib keladi. O'z navbatida shuni aytib o'tish lozimki, yuqorida ko'rib chiqilgan mahalliy yig'implarning hozirgi kunda mahalliy hududlar o'rtasida keng joriy qilinganlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi mahalliy soliqlar va yig'implarni joriy etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan muvofiqlashtirilishi lozim. Mahalliy soliqlar va yig'implar mahalliy budjetga o'tkaziladi.

Mahalliy moliya negizini mahalliy budjet tashkil etadi. U mahalliy hokimiyat tasarrufida bo'lgan xo'jalik subyektlarining daromad va xarajatlarini o'z ichiga oladi. Odatda, mahalliy budjet davlat budjetining ajralmas qismi bo'lsa-da, u nisbatan mustaqildir. Mahalliy budjetning umumiy moliya tizimidagi salmog'i 30 % dan 60 % gacha bo'lishi mumkin.

Jismoniy va yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan umumdavlat va mahalliy soliqlardan tashqari soliqsiz to'lovlar, ya'ni mahalliy yig'implarni ham to'laydilar.

Mahalliy yig'implar soliqsiz budjetga to'lovlar tarkibiga kiradi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida budjet daromadlari, asosan, qonuniy to'lovlar, ya'ni soliqlar evaziga tashkil topadi. Lekin bunday soliqlardan tashqari soliq xarakteriga ega bo'lgan soliqsiz to'lovlar ham mavjud. Soliqsiz to'lovlar, ya'ni mahalliy yig'implarning muhim xususiyatlari shundan iboratki, ular, asosan, ko'rsatilgan hujjatlar uchun haq sifatida, vaqt-vaqti bilan tushadi va nisbatan kam summani tashkil etadi.

Qator mahalliy yig'implarni joriy etish hamda ularning undirishini tashkil qilish masalasi mahalliy hokimiyat organlarining vakolatiga kiritilgan. Shuningdek, bu organlar mazkur yig'implar bo'yicha imtiyozlarni ham belgilashadi. Mahalliy yig'implardan tushgan tushumlar hududlarning mahalliy ehtiyojlari uchun foydalaniladi. Mahalliy hokimiyatlarga o'z hududlari doirasida yig'implarni, ya'ni soliqsiz to'lovlarni kiritish huquqi berilgan.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida amalda qo'llanilayotgan mahalliy yig'implarga quyidagilar kiradi:

- dehqon bozori yig'imi, yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilarni ro'yxatga olish yig'imi, birjadagi oldi-sotdilarni amalga oshirish yig'imi, vino-araq ichimliklarini sotish huquqi uchun litsenziya yig'imi, transportga joylar ajratish yig'imi, savdo qilish huquqi yig'imi va shu jumladan, ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'imi.

Yuqorida nazarda tutilgan mahalliy yig'implar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati organlari tomonidan joriy etiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasida mahalliy soliqlarga yig'implar Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Mahalliy yig'implar har bir mahalliy hududlar mahalliy shart-sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadi. Mahalliy yig'implardan tushadigan daromadlar shu hudud mahalliy budjet daromadlarini shakllantiradi va shu hudud uchun sarf etiladi.

Mahalliy yig'implarning joylarda tashkil etilishi har bir mahalliy hudud budjetining ijobiy natijalarga erishishiga olib keladi. O'z navbatida shuni aytib o'tish lozimki, yuqorida ko'rib chiqilgan mahalliy yig'implarning hozirgi kunda mahalliy

hududlar o'rtasida keng joriy qilinganlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi mahalliy soliqlar va yig'implarni joriy etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan muvofiqlashtirilishi lozim. Mahalliy soliqlarga yig'implar mahalliy budjetga o'tkaziladi. Yig'implarni to'lovchilar va yig'im obyektlari quyidagilardan iborat.

O'zbekiston Respublikasida mahalliy yig'implarni to'lovchilar barcha yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Ammo ular mahalliy yig'implarning obyektlariga egaligi bilan bir-biridan farq qiladi. Mahalliy yig'implarni to'lovchilar quyidagilardir:

1. Dehqon bozori yig'imini to'lovchilari bo'lib, dehqon bozoriga sotish uchun olib kelingan mahsulot turi va miqdoridan qat'i nazar, ma'lum bir joydan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi, yig'im obyektini bozordagi savdo rastasi hisoblanadi.

2. Birjadagi oldi-sotdilarni amalga oshirish yig'imi to'lovchilari bo'lib, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, tovar, xomashyo, valuta birjalaridan bitimlar tuzish yo'li bilan tovar, mol-mulk yoki mulkiy huquqini qo'lga kirituvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Yig'imning obyektini birjada tuzilgan bitim summasi hisoblanadi.

3. Vino-araq ichimliklarini sotish huquqi uchun litsenziya yig'imi to'lovlari bo'lib, viloyatlar va Toshkent shahri hududida vino-araq mahsulotlari bilan savdo qiluvchi yuridik hamda jismoniy shaxslar hisoblanadi. Yig'imning obyektini esa litsenziyani sotib olish hisoblanadi.

Savdo huquqi yig'imi to'lovlari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida chakana savdo nuqtalari orqali savdoni amalga oshiruvchi jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadi. Do'konlar, umumiy ovqatlanish korxonalari, savdo chodirlari va ko'chaga olib chiqiladigan lotoklar, kiosklar, peshtaxtalar, dorixonalar va savdo-sotiq amalga oshiriladigan boshqa obyektlar chakana savdo nuqtalari hisoblanadi. Yig'im savdo-sotiqni amalga oshirishga sertifikat (guvohnoma) berilgani uchun to'lanadi.

7. Mahalliy auksionlar va lotereyani o'tkazish huquqi litsenziya yig'imi to'lovlariga mahalliy auksionlar yoki lotereya o'yinlarini tashkil etuvchi yuridik va jismoniy shaxslar kiradi. Auksionlarga

qo'yiladigan tovarlarning (ko'chmas mulkdan tashqari) qiymati yoki lotereyalar chiqarish mo'ljallangan summa yig'im obykti bo'lib hisoblanadi.

8. Qisqa muddatli avtotransport turar joylarda qilingan yig'im olish to'lovlari bo'lib, avtotransportlarni qisqa muddatga saqlovchi avtotransport turar joy egalari hisoblanadi. Xo'jalik yuritish shaklidan qat'i nazar, yuridik va jismoniy shaxslar yig'im to'lovchi hisoblanadilar.

Ayrim turdagi tovarlarning alohida turlari, shu jumladan, alkogol mahsulot bilan savdo-sotiq qilish huquqi uchun litsenziya yig'imi alohida to'lanadi. Yig'imni to'lash bir martalik talon yoki guvohnoma sotib olish yo'li bilan to'lanadi. Savdo huquqini beruvchi bu guvohnoma bir oydan o'n ikki oygacha berilishi mumkin. Sertifikatni joylardagi davlat hokimiyati organlari beradi. Ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'imi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilanishicha, vino-araq va tamaki mahsulotlari uchun kiritiladi. Mulkchilik shaklidan qat'i nazar, Toshkent shahri hududida ushbu mahsulotlar bilan savdo-sotiq qiluvchi jismoniy va yuridik shaxslar ushbu yig'imning subyektlari hisoblanadi.

Yig'im bitim summasi bilan bir vaqtda to'lanadi. Vino-araq ichimliklarini sotish huquqi uchun litsenziya yig'imini to'lash litsenziya sotib olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Vino-araq mahsulotlari bilan savdo qilish huquqiga litsenziya maxsus vakil qilingan organ tomonidan beriladi. Yig'im stavkasini xarakteriga qarab, amaldagi eng kam oylik ish haqiga nisbatan qoldiqsiz bo'linadigan miqdorlarda belgilash tavsiya etiladi.

Savdo qilish yig'imi bir martalik talon yoki guvohnoma sotib olish yo'li bilan to'lanadi. Yig'im stavkasi amaldagi eng kam oylik ish haqiga qarab qoldiqsiz to'lanadigan miqdorda belgilanadi.

Mahalliy auksionlar va lotereyani o'tkazish huquqini beruvchi litsenziya yig'imi, yig'im subyekti tomonidan litsenziya sotib olish yo'li bilan to'lanadi.

Jismoniy shaxslar yig'imni soliq organlariga daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya bilan birgalikda yig'im summasining hisob-kitobini taqdim etish chog'ida to'laydilar.

Soliq kodeksining 19-bo‘lim, 345-moddasiga muvofiq, tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im joriy qilingan tovarlar savdosini va xizmatlar ko‘rsatishni belgilangan tartibda amalga oshirayotgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im to‘lovchilardir.

Soliq kodeksining 346-moddasiga muvofiq, tovarlar va xizmatlarning qonun hujjatlarida belgilanadigan ro‘yxati tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko‘rsatish uchun yig‘im obyektidir.

16-jadval

Yig‘im turlari va stavkalari

Yig‘im turlari	Stavkalari
<p>Ayrim tovarlarni savdo qilish huquqi uchun yig‘im:</p> <ul style="list-style-type: none"> • alkogolli mahsulotlarga; • qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallardan ishlangan tovarlar bilan savdo qiluvchilar; • avtotransport vositalarining turar joyi uchun pullik xizmatlar uchun yig‘im 	<p>Bir oylik uchun eng kam oylik ish haqining 5 barobari</p> <p>Bir oylik uchun eng kam oylik ish haqining 3,5 barobari</p> <p>Har bir oy uchun eng kam ish haqining 8 barobari</p>

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi Axborot-maslahat markazi.

Soliq kodeksining 19-bo‘lim, 347-moddasiga muvofiq, tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im yig‘im stavkalarining qonun hujjatlarida belgilangan oylik miqdori doirasida hisoblab chiqariladi.

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan to‘lanadi.

Yuqoridagi jadvalda ko‘rsatib o‘tilgan stavkalar hajmi O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida yagona hisoblanadi. Soliq stavkasining aniq miqdori O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining taklifiga ko‘ra, budjetga to‘lovlar hisob-kitobi mexanizmini takomillashtirish va to‘lov intizomini mustahkamlash bo‘yicha hukumat komissiyasi tomonidan belgilanadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Mahalliy soliqlar va yig‘imlarning mohiyati nimada?
2. Mahalliy soliqlar va yig‘imlarni kimlar joriy etish huquqiga ega?
3. Mahalliy soliqlar va yig‘imlarning tarkibini sanab bering.
4. Mahalliy soliqlar va yig‘imlarning to‘lovchilari kimlar hisoblanadi?
5. Mahalliy soliqlar va yig‘imlarni to‘lash muddatlari qanday?
6. Nima uchun soliqlar mahalliy va umumdavlat soliqlariga bo‘linadi?
7. Mahalliy budjetlar va mahalliy soliqlarning bog‘liqligi mavjudmi?
8. Nima sababdan mahalliy soliqlar faqat mahalliy budjetga tushadi?

III boʻlim

**SOLIQ SOLISHNING
SODDALASHTIRILGAN
TARTIBI**

14-bob. **SODDALASHTIRILGAN SOLIQ SOLISH TARTIBI**

14.1. O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi, unda kichik biznes va tadbirkorlikning roli

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi o‘zbek xalqining asriy orzularining amalga oshishiga va mamlakatimizning yuksalishiga, iqtisodiyotimizning kompleks rivojlanishiga, uning tarkibini kengaytirishga va takomillashtirishga, turmush farovonligini oshirishga va aholining erkin, farovon hayot kechirishiga keng imkoniyatlar yaratdi.

Ma’lumki, sobiq Ittifoqda umumittifoq mehnat taqsimoti ta’sirida har bir iqtisodiy hudud va har bir ittifoqdosh respublika ma’lum bir kompleksga ixtisoslashgan edi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti paxta kompleksiga ixtisoslashgandi. Shu bois bu yerda paxta yetishtirish, uni qayta ishlash va unga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar rivojlangan edi.

Shuning uchun, respublika iqtisodiyotining bir tomonlama rivojlanganligi natijasida, sobiq Ittifoq respublikalari orasidagi kooperatsiya aloqalarining barbod bo‘lishi oqibatida iqtisodiyotning holati keskin yomonlashdi, ya’ni iqtisodiyotning sanoat va boshqa tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish keskin kamayib ketdi, birinchi darajali zaruratga ega bo‘lgan mahsulot yetishmasligi sezila boshladi va aholining turmush darajasi pasaya boshladi. Tabiiyki, kuchli iqtisodiy potensialga ega bo‘lgan, yer qa’rida ko‘plab miqdorda Mendelejev jadvalining deyarli barcha elementlari bo‘lgan, juda qulay tabiiy-iqlimiy sharoitga, rivojlangan kommunikatsiya vositalariga va iste’dodli kadrlarga ega bo‘lgan O‘zbekiston sharoitida bunday ahvolga rozi bo‘lish mumkin emas edi.

Mamlakat rahbariyati qat’iyat bilan boshlagan ilmiy-amaliy asoslangan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlari natijasida O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiyoti

asta-sekinlik bilan kompleks rivojlangan iqtisodiyotga aylana bordi.

Hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimizda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, uning tarkibini kengaytirish va takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish bo'yicha katta tadbirlar amalga oshirilayotir va ular iqtisodiyotimizning rivojlanish sur'atlarini jadallashtirib yubordi.

Iqtisodiyotning bunday jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga, tarkibining takomillashuviga va samaradorligining oshishiga kichik biznes subyektlarining ta'siri tobora oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha oxirgi paytda erishilgan yutuqlar Xalqaro valuta jamg'armasi, boshqa obro'li xalqaro tashkilotlar va xorijiy tadqiqot markazlari tomonidan tan olindi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan olib borilayotgan mamlakatimizda makroiqtisodiy mo'tadillikni va iqtisodiy rivojlanishning jadal sur'atlarini ta'minlovchi iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, strukturaviy islohotlarni jadallashtirish siyosatining, hatto, hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ham nihoyatda samaradorligini ta'kidladilar.

14.2. Kichik biznesning mohiyati va afzalliklari

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, kichik biznes subyektlari O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydi. Farovonligimizning oshib borishini va iqtisodiyotimiz samaradorligining o'sishini bozor munosabatlari rivojisiz, tadbirkorlikning keng yoyilishisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shunday ekan, «Kichik biznes subyektlari kimlar?» degan savol tug'iladi.

Kichik biznes subyektlari katta korxonalaridan ulardan faqatgina miqyos (razmer)lari bilan farq qiladigan korxonalar, tashkilot va mikrofirmalardir yoki kichik korxonalar deganimizda, qandaydir boshqa korxonalarni tushunmay, balki barcha mulkchilik shakllariga asoslangan oddiy korxonalar tushunilib, ulardan faqat miqyoslari bilan farq qiladilar. Amaldagi qonunchilikka binoan, kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, mulkchilikning hamma shakllarida tuzilishi

va taqiqlanmagan barcha faoliyat turlari bilan shugʻullanishi mumkin.

Kichik biznes subyekti – huquqiy shaxs. U nomi yozilgan oʻz muhriga, mustaqil balansga, bank muassasalarida hisob raqamiga ega boʻlishi lozim. U oʻz nomidan shartnomalar tuzadi, oʻz mulkiy huquqlari va burchlariga ega boʻladi. Hakamlik sudi va betaraf hakamlik sudlarida daʼvogar yoki javobgar sifatida chiqishi mumkin.

Kichik biznes subyekti:

- fuqarolar, oila aʼzolari va birgalikda faoliyat yuritayotgan boshqa shaxslar;

- davlat, ijarachi, jamoa, qoʻshma korxonalar, jamoat tashkilotlari va ularning korxonalari, aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa huquqiy shaxslar;

- davlat mulkini tasarruf etish topshirilgan idoralar;

- jismoniy va huquqiy shaxslar hamkorligida tashkil etilishi mumkin.

Kichik biznes subyektlari bir qator afzalliklarga ega:

- kichik biznes subyektlarini tashkil etish koʻp mablagʻ va koʻp vaqt talab etmaydi;

- kichik biznes subyektlarini har qanday, hattoki eng kichik aholi punktlarida ham joylashtirish mumkin. Bu esa respublikamizning demografik oʻziga xosligi, yaʼni aholi sonining oʻsish surʼatlari balandligi va natijada aholini ish joylari bilan taʼminlash muammolarini tezlik bilan hal qilishga imkon beradi. Bularning hammasi bizning sharoitda alohida ahamiyat kasb etadi;

- bozor konyunkturasi talablariga tez moslashadi;

- mahalliy va ikkilamchi xomashyodan maksimal foydalanish imkonini beradi;

- ichki bozorni isteʼmol tovarlari va xizmatlar bilan qisqa muddatlarda toʻldirish imkoniga ega;

- sogʻlom raqobatni kuchaytirishga, mahsulot sifatini yaxshilashga, chakana narxlar pasayishiga sharoit yaratadi;

- yangi ish joylari yaratish va aholi punktlarining infrastrukturasi rivojlantirish bilan bogʻliq boʻlgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga imkoniyatlar yaratadi;

- budjetni ishsizlik boʻyicha nafaqalar toʻlash bilan bogʻliq xarajatlardan ozod etadi.

Kichik biznes subyektlarining samaradorligiga eng yaxshi tasnifni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov berib o‘tgan edi: «Kichik biznes — jamiyatda ham iqtisodiy, ham siyosiy vaziyatni mo‘tadillashtirishga yordam beradigan o‘rta tadbirkorlar sinfining paydo bo‘lishi demakdir. Bu — respublika bozorini zarur iste‘mol tovarlari va xizmatlar bilan boyitishdir. Bu yangi ish o‘rinlaridir. Shuni hamisha nazarda tutish kerakki, faqat kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng, hamma joyda rivojlantirish hisobigagina g‘oyat keskin muammoni — aholining, ayniqsa, qishloq joylarda va ortiqcha mehnat zaxiralari ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga qanday katta ahamiyat berilayotganini yana mavjud bo‘lgan mintaqalarda ish bilan bandligini ta‘minlash vazifasini hal qilishga qodir bo‘lamiz»¹.

Kichik biznesning ahamiyati, ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan hozirgi paytda yanada oshib bormoqda. Bu fikrni Prezident I.A. Karimov o‘zining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18 yilligiga bag‘ishlangan tantanali majlisda so‘zlagan ma‘ruzasida «Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o‘zining iqtisodiyotimizdagi o‘ta muhim va salmoqli hissasi, roli va ta‘siri, sodda qilib aytganda, boshqa hech bir soha va yo‘nalish o‘rnini bosolmaydigan katta ahamiyati bilan davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o‘rin egalladi», degan so‘zlari hamda O‘zbekiston Respublikasida 2011-yilning «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deb e‘lon qilinishi ham tasdiqlab turibdi.

Yuqoridagilarni e‘tiborga olib, respublika rahbariyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tezkor rivojlantirish masalalariga o‘zining iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qarab, ularga turli xil, shu jumladan, soliqdan imtiyozlar berib kelmoqda. Buni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning «Yana bir muhim masala — kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi uchun soliq va boshqa to‘lovlar borasida qulaylik va yengilliklar yaratish bilan bog‘liqdir»², deb aytgan so‘zlari ham tasdiqlab turibdi.

¹ I.A. Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O‘zbekiston», 1997, 197-bet.

² I.A. Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2011-yil 22-yanvar.

Tahlillar korxonalariga asossiz ravishda kichik biznes subyekti maqomini berish, ularning kichik biznesga beriladigan imtiyozlardan o‘rinsiz va nohaq foydalanishlariga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Shuning uchun korxonalar va tashkilotlarga «kichik biznes subyekti» maqomini berish huquqini beruvchi mezonni to‘g‘ri tanlab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero dunyoda kichik biznesga doimiy ravishda alohida ahamiyat berib kelinmoqda, natijada kichik biznes ilg‘or mamlakatlar iqtisodiyotining yetakchi qismiga aylangan.

Shunday qilib, kichik biznes subyektlarining yuqori samaradorligiga bugungi kunda hech qanday shubha qolmadi, shuning uchun ularga katta imtiyozlar berilgan va bu imtiyozlardan bunga huquqi bo‘lmagan xo‘jalik yurituvchi subyektlar ham foydalanishga harakat qiladilar. Buning oldini olish uchun korxonalar va tashkilotlarga kichik biznes subyekti maqomini beruvchi mezonni qat‘iy belgilab qo‘ymoq zarur.

17-jadval

Ayrim ko‘rsatkichlar bo‘yicha kichik biznes subyektlarining xususiyatlari¹ (foizlarda)

T/r	Mamlakatlar	Kichik korxonalarining xo‘jalik yurituvchi subyektlardagi ulushi	Kichik korxonalarda ishlovchilarning barcha ishlovchilardagi ulushi	Kichik korxonalar-dagi yillik sotuvning umumiy sotuvdagi ulushi	Kichik korxonalarining milliy daromad-dagi ulushi
1	AQSH	99,8	53,0	45,0	34,9
2	Yaponiya	99,3	77,7	51,8	56,6
3	Germaniya	87,7	66,0	—	47,4
4	Buyuk Britaniya	75,8	52,0	39,0	—

Bunday mezon sifatida quyidagi:

- ishlovchilar soni;
- ishlab chiqarish quvvatlari;
- sotilgan mahsulot miqdori;

¹ X.P. Сабиров, А.А. Фаттахов, О.Н. Иминов. Налогообложение малого и среднего бизнеса в Республике Узбекистан. Т., «Moliya», 2000, стр. 41.

- asosiy fondlar qiymatining miqdori kabi ko‘rsatkichlarni qo‘llash mumkin.

Chet el adabiyotlarida, kichik biznes subyektlari qatoriga 1 dan 100 kishigacha ishlovchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar kiritiladi:

- 1 dan 20 kishigacha – hunarmandchilik ustaxonalari;
- 20 dan 100 kishigacha – kichik korxonalar.

Ammo o‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, dunyoning turli mamlakatlarida xo‘jalik yurituvchi subyektlarni kichik biznes subyektlari qatoriga kiritish mezonlari masalasida yagona fikr yo‘q. Masalan:

- kichik biznesning ahamiyati juda baland bo‘lgan Yaponiyada xususiy korxonalar 7 guruh (1 kishidan 4 kishigacha, 5–9, 10–29, 30–49, 50–99, 100–299, 300–499 gacha)ga bo‘lingan;

- Germaniyada ancha yirik guruhlash qo‘llaniladi (20–49, 50–99, 100–199, 200–499);

- Buyuk Britaniyada xo‘jalik yurituvchi subyektlarni kichik biznesga kiritish 3 ta ko‘rsatkich asosida amalga oshiriladi, ya‘ni ishlovchilar sonidan tashqari balans miqdori va yillik oborot miqdori qo‘llaniladi;

- AQSHda tarmoqlar xususiyatini hisobga olib, «yillik sotuv miqdori» ko‘rsatkichi qo‘llaniladi. Masalan, transportda yillik sotuv miqdori 3,5 dan 20 mln dollar orasida, qurilishda 9–21, ulgurji savdoda 15–35, chakana savdoda 3,5–13,5, xizmat ko‘rsatish sohasida 2,5–14,5 mln dollar¹ orasida bo‘lsa, bu xo‘jalik yurituvchi subyekt kichik biznes subyekti hisoblanadi.

Shunday qilib, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni kichik biznes subyekti qatoriga kiritish mezonlari masalasida dunyoda yagona yondashuv yo‘q.

O‘zbekiston Respublikasida hozirgi paytda korxonalar va tashkilotlarga kichik biznes subyektlari maqomini berish huquqiga ega bo‘lgan mezon sifatida yuqoridagi ko‘rsatkichlardan faqat bittasi, ya‘ni «ishlovchilar soni» ko‘rsatkichi qabul qilingan.

E’tirof etish lozimki, ishlovchilar qatoriga korxonadagi barcha toifadagi ishlovchilaridan tashqari, shu korxonaning filiallari,

¹ X.P. Сабиров, А.А. Фаттахов, О.Н. Иминов. Налогообложение малого и среднего бизнеса в Республике Узбекистан. Т., «Moliya», 2000, стр. 43.

sho‘ba korxonalari va vakolatxonalarining ishlovchilari hamda shartnomalar bo‘yicha ish bajaruvchilar ham kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti holatini mamlakatimiz oldida turgan asosiy ijtimoiy-iqtisodiy vazifalardan hamda kichik biznesni ustuvor sur‘atlar bilan rivojlantirishdan kelib chiqib chuqur o‘rganish, korxonalar va tashkilotlarni kichik biznes subyektlari qatoriga qo‘shish huquqini beruvchi mezon sifatida hozir qo‘llanilib kelayotgan «ishlovchilar soni» ko‘rsatkichining o‘zi yetarli emas. Shuning uchun mezon sifatida kichik biznes subyektlariga har taraflama baho bera oladigan sintetik ko‘rsatkich, ya’ni «eng katta smenadagi ishlovchilar soni» ko‘rsatkichini qo‘llashni taklif etamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 30-avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 6-apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish choralari to‘g‘risida»gi Farmoniga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Farmoniga muvofiq, kichik biznes subyektlari qatoriga quyidagilar:

- yakka tadbirkorlar;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar kiritiladi.

Iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi va konkret vaqt sharoitlarining o‘zgarishi natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlarni kichik biznes subyekti qatoriga kiritish mezonlarining miqdorlari ham o‘zgarishi mumkin.

Kichik biznes subyektlarining mezonlari har bir tarmoqda bir xil emas, balki turlichadir. Masalan:

1. Mikrofirma bo‘lish uchun xodimlar soni:

- ishlab chiqarish tarmoqlarida — 20 nafardan;
- xizmat ko‘rsatish va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlarida — 10 nafardan;
- ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanishda — 5 nafardan oshmasligi lozim.

2. Kichik biznes subyekti bo‘lishi uchun xodimlar soni:

- yengil, oziq-ovqat, mebel sanoatlarida, metall va yog‘ochga ishlov berish, asbobsozlik va qurilish materiallari ishlab chiqarishda — 100 nafardan;
- mashinasozlik, metallurgiya, issiqlik-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta

ishlash, qurilishda va boshqa ishlab chiqarish sohaslarida — 50 nafardan;

- fan, fanga xizmat qilish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish, savdo va umumiy ovqatlanishda va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlarida — 25 nafardan oshmasligi lozim.

Bu ko‘rsatkichni qo‘llash ish joylari tanqisligi yaqqol sezilib turgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qo‘shimcha investitsiyalar sarflamasdan turib, yangi ish joylarini barpo etish, asosiy fondlardan foydalanishni oshirish, yangi qurilish uchun zarur bo‘lgan yer sathini tejash, yangi kommunikatsiyalar qurishni talab etmasdan turib, ishlab chiqarish quvvatlarini 3 baravargacha oshirishga va natijada bozorda talab katta bo‘lgan turli xil sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko‘paytirishga imkon yaratadi.

14.3. Kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi mamlakatimizda tasodifan paydo bo‘lib qolgani yo‘q. Islohotlarning dastlabki yillarida O‘zbekiston iqtisodiyotida paydo bo‘lgan tub tarkibiy o‘zgarishlar va aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilishi natijasida xarajatlar miqyosi oshib ketdi, bu esa, o‘z navbatida, xarajatlarni qoplashning asosiy manbayi bo‘lgan soliq tushumlarining to‘xtovsiz oshib borishiga olib keldi.

Yuqoridagi salbiy holatlarning oldini olish maqsadida davlatimiz soliq tushumlarini ko‘paytirishning soliq stavkalarini oshirish yo‘lini emas, balki eng samarali bo‘lgan — soliqqa tortish bazasini kengaytirish yo‘lini tanlab oldi. Buning uchun soliqqa tortish bazasini kengaytirishning kam xarajat talab qiladigan va tez muddatlarda amalga oshirish imkonini beradigan kichik biznesni ustuvor sur’atlar bilan rivojlantirish orqali amalga oshirish yo‘li tanlab olindi.

Kichik biznesni rivojlantirishning samaradorligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov «Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o‘zining iqtisodiyotimizdagi

o‘ta muhim va salmoqli hissasi, roli va ta‘siri, sodda qilib aytganda, boshqa hech bir soha va yo‘nalish o‘rnini bosolmaydigan katta ahamiyati bilan davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o‘rin egallaydi»¹, deb ko‘rsatib o‘tgan va kichik biznesni jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish zarurligini ustuvor vazifa qilib belgilab bergan edi. Bu muhim vazifani bajarish uchun kichik biznes subyektlariga mos keladigan soliqqa tortish tartibini ishlab chiqish obyektiv zaruratga aylanib qolgan edi, chunki:

- ko‘pchilik kichik biznes subyektlarining oladigan daromadlari past bo‘lgani uchun ular barcha umumbelgilangan soliqlarni bazo‘r to‘lashlari mumkin edi;

- mamlakatimizda bozor iqtisodiyotining shakllanish sharoitida davlatning ustuvor vazifalari qatoriga raqobat muhitini barpo etish qo‘yilgan edi. O‘z navbatida, sog‘lom raqobat bo‘lishi uchun bozorda bir paytning o‘zida ko‘plab mustaqil tashkilotlar va shaxsiy korxonalar qatnashishi lozim;

- soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibida bozorning kichik qatnashchilarining soliqlarni hisoblash, hisob yuritish va hisobotlar tuzish hamda ularni soliq idoralari oldida himoya qilishga ketadigan solishtirma xarajatlarni minimallashtirishga imkonlari yo‘q edi, chunki ularning yetarli miqdorda malakali xodimlarni ishlatishga imkoniyatlari yo‘q edi;

- o‘z navbatida, soliq idoralari ham soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibida faoliyat yurituvchi ko‘plab mayda soliq to‘lovchilar ustidan soliq ma‘muriyatchiligini amalga oshirish bo‘yicha ortiqcha xarajatlarga yo‘l qo‘yar edilar.

Shunday qilib, kichik biznesni ustuvor sur‘atlar bilan rivojlantirish vazifasi qo‘yilgan bir sharoitda, kichik biznes subyektlariga mos keladigan soliqqa tortish tartibini ishlab chiqish obyektiv zaruratga aylanib qolgan edi. Bu muammoni hal qilish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov «Iqtisodiyotni erkinlashtirishda, birinchi navbatda, soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va uni-

¹ I.A. Karimov. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish — taraqqiyotimizning muhim omilidir. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2010-yil 8-dekabr.

fikatsiya qilish masalalari muhim o‘rin tutadi»¹ deb ko‘rsatib o‘tgan edi.

Yuqoridagilarni e‘tiborga olib, kichik biznesni ustuvor sur‘atlar bilan rivojlantirishni rag‘batlantirish va samaradorligini oshirish maqsadida, uning soliqqa tortish mexanizmini soddalashtirish, soliq turlarining, soliq hisobi shakllari va hisobotlar sonini kamaytirish, soliq to‘lovchilarga tushunishlarini osonlashtirish va soliqlarni to‘lash muddatlarini bir oy yoki undan kamroq (dekada)dan yil choragigacha uzaytirish va pirovard natijada soliq yukini optimallashtirish variantlarini izlab topish maqsadlarida, mamlakatimiz soliq tizimiga yangi konstitutsional o‘zgarish — soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi ishlab chiqilib, soliq amaliyotiga joriy etildi, ya‘ni kichik biznes subyektlarida xodimlar soni chegaralangan bo‘lgani uchun ularga kam mehnat, kam vaqt va kamroq moddiy xarajatlar sarflash imkonini beradigan ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibi ishlab chiqilgan edi.

Bu tartibda faoliyat yurituvchi kichik biznes subyektlari quyidagi soliqlar va majburiy to‘lovlar:

- yuridik shaxslar foyda solig‘i (24 varaq);
- qo‘shilgan qiymat solig‘i (15 varaq);
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (3 varaq);
- mol-mulk solig‘i (13 varaq);
- yer solig‘i (8 varaq);

budjetdan tashqari:

- Pensiya jamg‘armasi (2 varaq);
- Respublika yo‘l jamg‘armasi (2 varaq);
- Tibbiyot va ta‘lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasi (2 varaq)ga majburiy ajratmalar o‘rniga faqat bitta yagona soliq to‘lovi (11 varaq)ni to‘laydilar, ya‘ni soliq inspeksiyasiga topshiriladigan hisobotlarning umumiy miqdori 69 varaqdan 11 varaqqacha kamaydi va hisobotlarni soliq inspeksiyasiga topshirish muddatlari yiliga 12 martadan 4 martagacha kamaydi. Oqibatda, «yagona soliq to‘lovi»ni hisoblash soddalashtirdi, osonlashtirdi va xato qilmaslik imkoniyati $8 \cdot (12 - 4) = 64$ martagacha oshdi.

¹ I.A. Karimov. Inson manfaatlari ustuvorligini ta‘minlash — barcha islohot va o‘zgarishlarimizning bosh maqsadidir. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2008-yil 9-fevral.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibida qo'llaniladigan soliq turlari. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida «soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilangan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek, ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini ko'zda tutuvchi alohida tartibidir va «yagona soliq to'lovi»ni, «yagona yer solig'ini hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha «qat'iy belgilangan soliq»ni hisoblab chiqarish hamda to'lashning maxsus qoidalari qo'llanilishini, shuningdek, mazkur soliqlar bo'yicha soliq hisobi va hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi»¹, deb keltirilgan

O'zbekiston Respublikasida soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibiga o'tkazilgan yuridik shaxslarning eng ko'p qismi «yagona soliq to'lovi» to'lovchilari bo'lib, ular barcha tarmoqlarning kichik biznes subyektlarini va undan tashqari miqyosidan qat'i nazar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini hamda lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslarni o'z ichiga oladilar.

Yagona yer solig'i to'lovchilarning miqyosi ancha tor bo'lib, bu soliq to'lovchilari qatoriga faqatgina qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar va qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari kiradi.

Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha «qat'iy belgilangan soliq»ni to'lovchilar qatoriga faoliyatining ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan faoliyatining ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar kiradi.

«Yagona soliq to'lovi» to'lovchilari davlatning budjetdan tashqari maxsus jamg'armalariga ajratmalar to'lashdan ham ozod etilgan, ammo yagona yer solig'i to'lovchilari – ozod etilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 351-moddasiga muvofiq, mikrofirma va kichik korxonalariga soliqqa tortishning xohlagan tartibini tanlash huquqi berilgan, ya'ni ular xohlasa

¹ Soliqqa oid qonun hujjatlari. T., «NORMA», 2008, 238–239-betlar.

yagona soliq to'lovini to'lashni ko'zda tutuvchi soddalashtirilgan tartibini, xohlasalar barcha umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tishlari mumkin.

Yagona soliq to'lovchisi bo'lgan kichik biznes subyektlari barcha yuridik shaxslar kabi quyidagi soliq va majburiy to'lovlarni to'lashni davom ettiradilar:

- to'lov manbayida ushlab qolinadigan foyda solig'i;
- bojxona to'lovlari;
- bajarilgan ishlar va xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz mahsuloti ishlab chiqarishdagi aksiz solig'i;
- yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- yagona ijtimoiy to'lov;
- alohida tovarlar turlari bilan chakana savdo qilish va alohida xizmat ko'rsatish huquqi uchun yig'im;
- davlat boji;
- avtotransport vositalarini sotib olish va O'zbekistonga vaqtinchalik olib kirish uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Shunday qilib, kichik biznes subyektlarini yagona soliq to'loviga o'tkazish uning samaradorlik darajasining yanada ko'tarilishiga, hujjatlar aylanishini kamaytirishga (6 martagacha), hisob va hisobot shakllarini soddalashtirish hamda hajmini qisqartirishga, topshiriladigan hisobotlar sonini kamaytirishga olib kelar ekan.

Kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibiga o'tkazish. Mikrofirma va kichik korxonalar o'zlari xohlagan soliqqa tortish tartibini, ya'ni yagona soliq to'lovini to'lashni ko'zda tutuvchi soddalashtirilgan yoki umumbelgilangan tartibini tanlash huquqi berilgan.

Faoliyat yuritib turgan mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishlari uchun kelgusi hisobot davri boshlanishidan kamida bir oy oldin, yangi tashkil etilayotganlari davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng esa kamida o'n besh kun oldin O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shaklda o'zi joylashgan hududdagi soliq idorasiga yozma ravishda ariza berishi lozim.

Agar mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashdan ixtiyoriy ravishda bosh tortsalar, hisobot davri tugagandan keyin o'n kundan kechiktirmay o'zi joylashgan hududdagi davlat soliq idorasiga yozma ravishda ariza beradi va keyingi hisobot davridan boshlab soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibiga o'tadi.

Hisobot yili tugagach, belgilangan ishlovchilar soni me'yoriga rioya eta olmay qolishsa, yagona soliq to'lovini to'lovchilar o'zi joylashgan hududdagi davlat soliq idorasiga yozma ravishda yillik moliyaviy hisobot berish muddatidan kechiktirmay ariza beradi va keyingi hisobot yilidan soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibiga o'tadi.

Yagona soliq to'lovini to'lash huquqini yo'qotgan mikrofirma va kichik korxonalar, bu huquqni yo'qotgan yil uchun hisoblab chiqilgan umumbelgilangan soliqlar asosida yagona soliq to'lovini qaytadan hisoblab chiqadi.

Yagona soliq to'lovini qaytadan hisoblab chiqish uchun mikrofirma va kichik korxonalar o'zlari joylashgan hududdagi davlat soliq idorasiga yillik yagona soliq hisobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay:

1. Umumbelgilangan soliqlarning har bir turi bo'yicha hisob-kitoblar;

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shaklda umumbelgilangan soliqlarning hisoblab chiqarilgan summasi to'g'risidagi ma'lumotlarni topshiradi.

Agar umumbelgilangan soliqlarning hisoblab chiqarilgan summasi to'langan yagona soliq to'lovi summasidan ko'p chiqsa, ortiqcha summa budjetga o'tkazilishi lozim, kam chiqsa, budjet bilan hisob-kitoblar qilinmaydi.

Yagona soliq to'lovini qayta hisoblash tegishli mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotib olgan xaridorlar bilan qayta hisob-kitoblargiz amalga oshiriladi.

Agar hisob-kitoblar va ma'lumotlar topshiriladigan bo'lsa va muddatidan kechiktirilmay topshirilsa, moliyaviy jazo qo'llanilmaydi, agar kechikib topshirilsa, qonunchilikda belgilangan moliyaviy jazo qo'llaniladi.

Mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashdan ixtiyoriy ravishda bosh tortgach, boshqa soliqqa tortish

rejimiga hisobot yil choragi tamom bo'lishiga bir oy qolishidan kechiktirmay soliq inspeksiyasiga yozma xabar berib, faqat navbatdagi yil choragidan boshlab o'ta oladi.

Yagona soliq to'lovi to'lash tartibidan boshqa soliqqa tortish tartibiga o'tgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovi to'lash tartibiga kamida bir yildan keyingina barcha oldingi qarzlarni to'lab, yana qayta o'tish huquqiga ega bo'ladi.

Soliq to'lovchilar va soliqqa tortish obyekti. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 350-moddasiga muvofiq, yagona soliq to'lovchisi bo'lib qonunchilik tomonidan belgilangan kriteriy (ishlovchilarning o'rtacha soni)ga muvofiq, mikrofirmalar va kichik korxonalar hisoblanuvchilar xizmat qiladi. Bular qatoriga quyidagi kichik biznes subyektlari kirmaydi:

- aksizosti mahsuloti ishlab chiqaruvchi va yer qa'ridan foydalanish uchun solig'ini to'lanadigan foydali qazilmalar qazib oluvchilar;

- yagona yer solig'i va qat'iy belgilangan soliq to'lanadigan faoliyat yurituvchilar;

- mahsulotni taqsimlash to'g'risidagi kelishuvlar qatnashuvchilari.

Yagona soliq to'lovining soliqqa tortish obyekti bo'lib, yalpi tushum hisoblanadi. Soliqqa tortish maqsadida yalpi tushum tarkibiga:

1. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan kelgan tushumdan qo'shilgan qiymat solig'ini chiqarib tashlangan farq (qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tgan yagona soliq to'lovi to'lovchisi uchun) kiradi.

2. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushum:

- qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, puskonaladka, loyihalash-tadqiqot va ilmiy-tekshirish tashkilotlari uchun qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, puskonaladka, loyihalash-tadqiqot va ilmiy-tekshirish tashkilotlarining o'z kuchlari bilan bajargan ishlarni sotishdan tushum;

- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun — tovar aylanmasi;

- mulkini lizingga beruvchi yuridik shaxslar uchun — lizingdan foiz daromadi;

- komissiya shartnomasi, topshiriqlar shartnomasi va boshqa shartnomalar bo'yicha vositachi yuridik shaxslar uchun — ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'langan pul summasi;

- tayyorlov, ta'minot-sotish tashkilotlari uchun — sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish baholari orasidagi farq;

- lotereyalar tashkil qilish faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar uchun — bahosi ko'rsatilgan lotereya chiptalarini tarqatishdan tushgan pul.

3. Boshqa daromadlar.

Soliqqa tortish bazasi quyidagilarni chiqarib tashlangandan so'ng, qolgan yalpi tushum miqdoriga teng bo'ladi:

1. Davlat qimmatli qog'ozlaridan olingan daromadni.

2. Manbayida soliqqa tortiladigan dividendlar va foizlardan olingan daromadni.

3. To'lovchining ustav jamg'armasiga jo'natilgan dividendlar va foizlardan olingan daromadni.

4. Hisobot yilida topilgan o'tgan yillar daromadini.

5. Qaytarib beriladigan ko'p foydalaniladigan taraning bahosi (agar taraning bahosi oldin tovarlar, ishlar va xizmatlar sotishdan tushgan tushum tarkibiga kiritilgan bo'lsa)ni.

6. Yetkazib beruvchilardan olingan chegirmalar va asosiy vositalarni hisobdan chiqarishdan olingan boshqa daromadlarni.

Soliqqa tortish bazasi quyidagi kichik biznes subyektlari uchun kamaytiriladi:

1. Avtomobil yoqilg'i quyish stansiyasi bo'yicha quyidagi summaga:

- jismoniy shaxslardan avtotransport uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz olgani uchun olinadigan soliq;

- benzin, dizel yoqilg'isi va gazning chakana narxi bilan avtomobil yoqilg'i quyish stansiyasining belgilangan chegarasidan ortiq bo'lgan sotib olish narxi orasidagi mahalliy budgetga o'tkazilishi lozim bo'lgan farq.

2. Lotereyalar tashkil qilish faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar uchun yutuq fondi summasi (tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlar umumiy summasidan ortiq bo'lmasligi lozim).

3. Brokerlik idoralari uchun — birjaga o'tkaziladigan kelishuv summasidan komission yig'im.

4. Komissiya shartnomasi va topshiriqlar shartnomasi bo'yicha vositachi yuridik shaxslar uchun — tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovlari.

Undan tashqari, ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlariga muvofiq hisoblangan soliqqa tortish bazasi — quyidagilarga yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga kamaytiriladi:

- yangi texnologik jihozlar sotib olishga (soliqqa tortish bazasining 25 % idan ko‘p bo‘lmagan summaga. Soliqqa tortish bazasini kamaytirish yangi texnologik jihozlar ishga tushirilgan soliq davridan boshlab besh yil davomida amalga oshiriladi);

- o‘z yosh xodimlariga ipoteka krediti bo‘yicha sotib olingan uy-joy uchun to‘lanadigan to‘lovlar (soliqqa tortish bazasining 10 % idan ko‘p bo‘lmagan summaga).

Soliq stavkalari. Kichik biznesning soliq stavkalari har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasining keyingi yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlarini belgilash to‘g‘risidagi maxsus Qaroriga muvofiq belgilanadi va tasdiqlanadi.

18-jadval

Kichik biznes subyektlarining 2013-yil uchun yagona soliq to‘lovining stavkalari¹ (% larda)

T/r	Soliq to‘lovchilar	Stavka
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari, 2—9-bandlarda ko‘rsatib o‘tilganlari bundan mustasno	6
2.	Sanoat sohasidagi korxonalar	5
3.	Kompyuter dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish (realizatsiyaning kamida 80 % ini tashkil etganda)	5
4.	Bojxona rasmiylashtiruv bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari)	6
5.	Lombardlar	30
6.	Gastrol-konsert faoliyati bilan shug‘ullanish uchun litsenziyasi bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarni jalb etish yo‘li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan korxonalar	30

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasining 2013-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi 1887-sonli Qarori.

7.	Tayyorlov va ta'minot-sotish tashkilotlari, brokerlik idoralari, vositachilik, topshiriq va shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar	33
8.	Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik korxonalari	13
9.	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlar bilan savdo qilish uchun statsionar savdo qilish joylarini ijaraga berishga ixtisoslashgan (ijaraga berishdan olinadigan daromad 60 % dan ijaraga berishga ko'p) korxonalar	30
10.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining erkin almashtiriladigan valutadagi hissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan korxonalar uchun sotishning umumiy hajmida: <ul style="list-style-type: none"> • 15 dan 30 % gacha • 30 va undan ortiq % ni 	30 % pasayadi 50 % pasayadi
11.	Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari uchun plastik kartalarni qo'llagan holda haqi to'langani ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha	10 % pasayadi

Kichik biznesning yuqori samaradorligini e'tiborga olib, uni jadal sur'atlar bilan rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasida soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibini doimiy takomillashtirib borish bilan bir qatorda, yagona soliq to'lovining stavkalari surunkali ravishda pasaytirilib borilmoqda. Yagona soliq to'lovining stavkalari doimiy ravishda pasaytirib borilgan va 2012-yilga kelib, sanoat sohasida faoliyat ko'rsatuvchi kichik biznes subyektlari 5 % stavkada yagona soliq to'lovini to'laydilar.

Soliqdan beriladigan imtiyozlar. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlari to'laydigan yagona soliq to'lovidan bir qator imtiyozlar berilgan:

- nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalarda ishlovchilarning kamida 50 % ini nogironlar, urush va mehnat faxriylari tashkil etuvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar (savdo, vositachilik, ta'minot-sotish, tayyorlov va lotereyalar tashkil etish faoliyati bilan

shug'ullanuvchi kichik biznes subyektlaridan tashqari) yagona soliq to'lovini to'lashdan to'liq ozod etiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 15-maydagi «Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1112-sonli Qaroriga muvofiq, kichik korxonalar o'z uylarida ishlayotgan (kasanachilik bilan shug'ullanayotgan) fuqarolar bilan qonun hujjatlarida belgilangan xodimlar sonining cheklangan me'yoridan ko'pi bilan 30 % oshgan miqdorda mehnat shartnomalari tuzganda, kichik korxonalar uchun nazarda tutilgan kafolatlar, imtiyozlar va preferensiyalar mazkur kichik korxonalar uchun saqlanib qolinishi belgilandi.

Yagona soliq to'lovi tizimida ishlashga huquqi bo'lgan kichik biznes subyektlarining bu tizimga o'tib ishlashga qiziqishlarini oshirish uchun xizmat qiladigan juda kuchli rag'batlantiruvchi omillardan biri — bu Soliq kodeksining 360-moddasiga muvofiq, yagona soliq to'lovini to'lovchilar uchun qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga ruxsat berishdek imtiyozdir.

Kichik biznes subyekti bu imtiyozdan foydalansa, yagona soliq to'lovi summasi budjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga (ammo yagona soliq to'lovi summasining 50 % idan ko'p bo'lmagan summaga) kamaytiriladi. Natijada, qo'shilgan qiymat solig'i summasi miqdoriga qarab, yagona soliq to'lovining 2012-yil uchun belgilangan stavkasi (5 %) ni ikki baravar (2,5 %) gacha pasaytirib hisoblab chiqarishi va budjetga to'lashlari mumkin. Albatta, bu soliq yukini pasaytirish uchun juda katta imkoniyat, chunki kichik biznes subyekti budjetga qancha qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'tkazmasin, bu summa uning pirovard moliyaviy natijalariga ta'sir ko'rsatmay, bu mahsulotni sotib oluvchi iste'molchi tomonidan to'lab beriladi, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan kichik biznes subyekti foyda ham, zarar ham ko'rmaydi.

Yuqoridagilardan tashqari, kichik biznes subyekti o'zi xomashyo sotib olayotganda to'lagan qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham iste'molchi hisobidan tiklab oladi. Bu yerda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi kichik biznes subyekti budjetga to'lanishi lozim bo'lgan yagona soliq to'lovi summasining yarmisigacha miqdorini o'z ixtiyorida qoldirib yutadi, budjetga esa, shuncha miqdorda yagona soliq to'lovi summasi tushmay

qoladi. Boshqacha qilib aytganda, yagona soliq to'lovi to'lovchisi juda katta summani yutadi, davlat esa yutqazmaydi, chunki yo'qotilayotgan yagona soliq to'lovi summasi o'rniga shuncha miqdorda qo'shilgan qiymat solig'i summasi budjetga tushadi.

Albatta, bu holni ijtimoiy nuqtayi nazardan yaxshi harakat deb hisoblab bo'lmaydi, chunki to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi mahsulot narxiga kiritilib, pirovard iste'molchi bo'lgan aholi bo'yniga tushadi. Ammo hozirgi paytda mamlakatimizda amalda bo'lgan bozor iqtisodiyotining asosiy maqsadi — maksimal foyda olish talabi shunga olib kelishi tabiiy bir holdir.

Yagona soliq to'lovini hisoblash va budjetga to'lash tartibi. Yagona soliq to'lovi soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda soliqqa tortish bazasi va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqib hisoblanadi.

Turli xil soliq stavkasi to'lanadigan faoliyat yurituvchi yagona soliq to'lovi to'lovchi kichik biznes subyektlari har bir faoliyat turi bo'yicha alohida hisob yuritishlari lozim va tegishli soliq stavkalaridan kelib chiqib yagona soliq to'lovini hisoblashlari lozim.

Yagona soliq to'lovining hisob-kitobi to'lovchi kichik biznes subyektlari tomonidan soliq inspeksiyasiga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

O'tgan yil yakunlari bo'yicha faoliyat turi savdo faoliyati va umumiy ovqatlanish bo'lgan kichik biznes subyektlari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, hisobot yilining boshidan yagona soliq to'lovini to'lashi shart.

Savdo va umumiy ovqatlanish kichik biznes subyektlari sifatida yangi tashkil etilgan korxonalar yagona soliq to'lovini davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan joriy yil tugagunga qadar, 1-oktabrdan keyin to'laydi.

Yagona soliq to'lovi to'lovchilari bu soliqni to'lash muddatini davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan boshlab, bir yil muddatga kechiktirish huquqiga ega, kechiktirilgan summalar imtiyozli davr tugagandan so'ng 12 oy ichida teng ulushlar bilan to'lanadi.

Hisobot yili tugashi bilan belgilangan xodimlar soni kichik biznes subyekti mezoniga mos kelmaydigan yagona soliq to'lovi to'lovchilari va ilgari soliq to'lovi to'lovchisi bo'lgan xususiy lashtirilgan kichik biznes subyektlari tomonidan oxirgi ikki chorak davomida ularning realizatsiya qilgan tovarlari miqdori obyektiv

sabablarsiz soliq organlari tomonidan belgilangan tartibda hisoblab chiqilgan mol-mulk va yer solig‘i summasining 10 karrasidan kam bo‘lgan taqdirda, soliq organlarining ogohlantirishiga asoslanib, davlat soliq organlariga yillik moliyaviy hisobot taqdim etish muddatidan kechiktirmay taqdim etiladigan yozma bildirish asosida, keyingi hisobot yilidan boshlab umumbelgilangan soliqlar to‘lashga o‘tadi.

Yagona soliq to‘lovi to‘lash huquqidan mahrum bo‘lganlar o‘tgan hisobot yili uchun umumbelgilangan soliqlar bo‘yicha hisob-kitoblar asosida yagona soliq to‘lovi yuzasidan qayta hisob-kitobni amalga oshiradilar.

Qayta hisob-kitob o‘tkazish uchun yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar yil yakunlari bo‘yicha yagona soliq to‘lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay davlat soliq organlariga quyidagilarni:

- Soliq kodeksida nazarda tutilgan shaklda va tartibda umumbelgilangan soliqlarning har bir turi bo‘yicha hisob-kitoblarni;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda hisoblab chiqarilgan umumbelgilangan soliqlar summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani taqdim etadilar.

Umumbelgilangan soliqlar summasi hisoblangan yagona soliq to‘lovi summasidan oshib ketgan taqdirda oshgan summa budjetga to‘lanishi shart, ammo hisoblangan yagona soliq to‘lovi summasi umumbelgilangan soliqlar summasidan oshib ketsa, budjet bilan qayta hisob-kitob qilinmaydi.

Yagona soliq to‘lovi bo‘yicha qayta hisob-kitob o‘tkazish tovarlarni sotib oluvchilar bilan tegishli hisob-kitoblarsiz amalga oshiriladi.

Hisob-kitoblar va ma’lumotnoma yil yakunlari bo‘yicha yagona soliq to‘lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay taqdim etilsa, moliyaviy sanksiyalar qo‘llanilmaydi.

Agar kichik biznes subyektlari hisobot yili yakunlari bo‘yicha belgilangan shartlarga javob bermay qolsalar, kelgusi yil boshidan boshlab umumbelgilangan soliqlar to‘lashga o‘tishlari kerak, belgilangan shartlarga javob bermay qolingan hisobot yili tugaganidan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga soliq solish tartibi tanlanganligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma bildirish

taqdim etishlari shart. Soliq to'lovchi tomonidan yozma bildirishning belgilangan muddatda taqdim etilmaganligi uning umumbelgilangan soliqlarni to'lashga berilgan roziligi deb hisoblanadi.

Umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan yagona soliq to'lovi to'lovchilari kamida 12 oydan so'ng yagona soliq to'lovini to'lashga qayta o'tishlari mumkin.

Agar yagona soliq to'lovi to'lovchilari qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan oborotni amalga oshirsalar, qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lashlari va ixtiyoriy ravishda rad etishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, rad etish faqat navbatdagi yil boshidan amalga oshirilishi mumkin. Agar mikro-firma va kichik korxonalar asosiy faoliyatlaridan tashqari faqat maxsus soliq rejimida ishlovchi kichik biznes subyektlariga xos faoliyat turlari bilan ham shug'ullansalar, ular bu faoliyat turlari bo'yicha qonunchilik tomonidan shu kategoriya korxonalari uchun ko'zda tutilgandek alohida hisob yuritishlari va soliqlarni, yig'imlarni va davlatning budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalariga ajratmalarni to'lab borishlari shart. Masalan, yagona yer solig'i to'lovchisi bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar korxonasi kichik biznes subyekti maqomiga ega bo'lsa, o'z faoliyatining boshqa turlari bo'yicha o'z xohishlariga ko'ra, yagona soliq to'lovini yoki barcha soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lashlari mumkin.

Yagona soliq to'lovi budjetga to'lovlardan qarzlarni hisobi (schoti) bo'yicha hisobga olib boriladi. Belgilangan tartibda hisoblab chiqilgan yagona soliq to'lovi soliqlar va yig'imlarni to'lash uchun foydadan foydalanish hisobi (schoti) debeti va budjetga to'lovlardan qarzlarni hisobga olish hisobining kreditida ko'rsatiladi.

To'lab bo'lingan yagona soliq to'lovi budjetga to'lovlardan qarzlarni hisobga olish hisobi (schoti)ning debitida va pul mablag'larini hisobga olish hisobida ko'rsatiladi.

14.4. Tadbirkorlikning mohiyati va uni soliqqa tortish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkor deganimizda, foyda olish maqsadida qonunchilik tomonidan taqiqlanmagan biron-bir faoliyat bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs tushuniladi. Masalan, oila a'zolaridan biri ertalab tandirda non yopib, oila a'zolari bilan issiq non bilan nonushta qilsa, tadbirkor bo'lmaydi, chunki bu faoliyatdan foyda olmaydi, agar u shu nonni bozorga olib chiqib, foyda olish maqsadida sotsagina, u tadbirkor bo'ladi.

Shaxsiy tadbirkor deganimizda, yuridik shaxsni tashkil etmasdan, mustaqil ravishda, ishlovchilarni yollash huquqsiz, o'z mulki bo'lgan mol-mulkdan foydalanib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs tushuniladi. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi va undan daromad oluvchilar belgilangan tartibda soliq to'laydilar.

Tadbirkorlar soliqlarni O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 58-bobiga muvofiq to'laydilar. Agar shaxsiy tadbirkor ma'lum muddatga o'z faoliyatini to'xtatsa, to'xtatishdan oldin u tadbirkorlarni ro'yxatga oluvchi organga o'z faoliyatini vaqtinchalik to'xtatishi to'g'risida ariza va arizaga qo'shib, davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi o'z guvohnomasini qo'shib topshiradi.

Shaxsiy tadbirkordan o'z faoliyatini vaqtinchalik to'xtatishi to'g'risida ariza va davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomasini olgan tadbirkorlarni ro'yxatga oluvchi organ bu haqida tegishli soliq organiga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shaklda ma'lumot beradi.

Tegishli soliq organi uchun tadbirkorlarni ro'yxatga oluvchi organdan olingan shaxsiy tadbirkorning o'z faoliyatini vaqtinchalik to'xtatishi to'g'risidagi ma'lumot faoliyatni to'xtatiladigan muddat uchun qat'iy belgilangan soliqni hisoblashni to'xtatishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxsiy tadbirkor daromadlar va amalga oshirilgan tovar operatsiyalarini hisobga olish registrida daromadlar va amalga oshirilgan tovar operatsiyalarini hisobga olib borishlari shart. Daromadlar va amalga oshirilgan tovar operatsiyalarini hisobga olish registri bo'lib quyidagilar xizmat qiladi:

- chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxsiy tadbirkorning daromadlar va amalga oshirilgan tovar operatsiyalarini hisobga olish kitobi;
- tovar chiptalari kitobi.

Daromadlar va amalga oshirilgan tovar operatsiyalarini hisobga olish registri shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Daromadlar va amalga oshirilgan tovar operatsiyalarini hisobga olish registri shaxsiy tadbirkorning arizasiga binoan, soliq inspeksiyasi tomonidan ro'yxatga olinadi.

Daromadlar va amalga oshirilgan tovar operatsiyalarini hisobga olish registri oxirgi yozuv yozilgan kundan boshlab, 5 yil davomida raqamlab tikilgan va tegishli soliq inspeksiyasi tomonidan muhrlangan holda shaxsiy tadbirkorda saqlanadi.

Jismoniy shaxslar bir martalik deklaratsiya bilan ishlashlari mumkin. Daromad olish maqsadida bir martalik operatsiyalarni bajargan holda jismoniy shaxslar ro'yxatga oluvchi organda ro'yxatdan o'tmasdan turib soliq inspeksiyasiga bir martalik deklaratsiya topshiradilar. Bo'lajak daromadni ko'rsatib yozilgan bunday deklaratsiya operatsiya bajarilmasdan oldin soliq inspeksiyasiga topshiriladi. Soliq inspeksiyasi bu deklaratsiya asosida tegishli daromad solig'i summasini hisoblab chiqib, shu summani to'lashi uchun fuqaroga to'lov xabarnomasini beradi. Hisoblab berilgan summa budjetga to'langach, soliq inspeksiyasi fuqaroga deklaratsiyani qaytarib beradi.

Soliq to'lovchi soliq deklaratsiyasini quyidagi soliq inspeksiyasiga topshiradi:

- jismoniy shaxs yashash joyidagi;
- faoliyat olib borayotgan joyidagi.

Bir martalik deklaratsiya asosida jismoniy shaxsdan daromad solig'i 8 %, 16 % va 22 % lik shkala bo'yicha hisoblanadi. Shu bilan birga, daromad solig'i bir martalik deklaratsiya topshirilgan oydagi stavka bo'yicha hisoblanadi.

Bir martalik deklaratsiya — bu kutilayotgan daromad haqidagi ma'lumotdir. Shuning uchun bir martalik deklaratsiya topshirgan fuqarolar hisobot yilidan keyingi yilning 1-apreligacha soliq inspeksiyasiga o'zlarining yillik yalpi daromadlari haqida deklaratsiya topshirishlari shart.

Agar fuqaro bir martalik faoliyat yuritib, uning solig'ini to'lab bo'lgandan keyin tadbirkorlik faoliyatini davom ettirishni xohlasa, u, albatta, yuridik shaxsni tashkil etmasdan xususiy tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tishi shart.

Soliq to'lovchilar. Qat'iy belgilangan soliq yuridik shaxsni tashkil etmasdan xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs tomonidan: daromad solig'i va boshqa umumdavlat hamda mahalliy soliqlar va yig'imlar o'rniga to'lanadi. Bunda qat'iy belgilangan soliq to'lovchilar uchun quyidagilarni to'lashning amaldagi tartibi saqlanib qoladi:

- bojxona to'lovlari;

- yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;

- suv resurslaridan tadbirkorlik maqsadlarida foydalanuvchilar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

- aksizosti mahsulotlari ishlab chiqarilganda yoki import qilinganda aksiz solig'i;

- davlatning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;

- davlat bojlari;

- alohida tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im.

Agar shaxsiy tadbirkor soliqqa tortiladigan mol-mulkka va yerga ega bo'lsa, ular jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk va yer soliqlarini to'lashga majbur. Agar shaxsiy tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan bino va jihoz, shu jumladan, transportda amalga oshirsa, u shu faoliyatini amalga oshirishdan oldin yashash joyidagi soliq inspeksiyasiga ijaraga beruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, pasporti ko'rsatkichlari hamda ijara haqining summasi va muddati haqida ma'lumot berishi lozim.

Shu bilan birga, sotish maqsadida tovarlarni import qiluvchi jismoniy shaxslar eksport-import qilish, ulgurji va chakana savdo qilish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxsni tashkil etmasdan, xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tishi shart.

Import qilingan tovarlarni sotuvchi jismoniy shaxslar sotish paytida import tovarlarni bojxona chegarasidan o'tish hujjatlarini ko'rsatishi lozim va agar bu hujjatlar bo'lmasa, import qilingan tovarlar belgilangan tartibda olib qo'yiladi.

Qat'iy belgilangan soliq to'lovchilarga soliq solishning boshqa tartibini tanlash huquqi tatbiq etilmaydi va u yollanma ishchi ishlatishga haqqi yo'q. Ammo er-xotinning umumiy mulkiga asoslangan oilaviy tadbirkorlik shaklida, oddiy o'rtoqlik shartnomasi sifatida faoliyat yuritishlari mumkin. Masalan, ikki yoki undan ko'proq shaxsiy tadbirkor oddiy o'rtoqlik shartnomasi asosida yuridik shaxsni tashkil etmasdan, faoliyat yuritishlari mumkin.

Soliqqa tortish obyekt. Mol-mulk subyektlarining qonun bilan man etilmagan, o'z mulkiy javobgarligi asosida tavakkalchilik bilan amalga oshiriladigan har qanday iqtisodiy faoliyatdan oladigan daromadidan to'laydigan soliqqa tortish obyekti bo'lib quyidagilar xizmat qiladi:

- kustar-hunarmandchilik va xalq amaliy san'at sohasi, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy-madaniy va boshqa sohalarda qonun bilan man etilmagan, mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdan olingan daromadlar;

- fuqarolarning qishloq xo'jaligi mahsulotiga kirmaydigan yovvoyi holda o'suvchi mevalar, dorivor o'tlar, zamburug'lar, qushlar va qafasda saqlanadigan hayvonlar mahsulotlari va boshqalarni sotishdan olingan daromadlar;

- fuqarolarning shaxsiy yordamchi qishloq xo'jaligidan olgan nooziq-ovqat mahsulotlarini sotishdan olingan daromadlar;

- inshootlarni, xonadonlarni, xonalarni, garajlarni, avtomashinalarni, radio va teleapparaturalarni, videokassetalarni, musiqa asboblarini, to'y liboslarini, mebellarni va boshqa ko'chmas mulkni qarzga, ijaraga berishdan olingan daromadlar;

- alohida shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlikdan olingan daromadlar;

- bir guruh fuqarolar birgalikda amalga oshiradigan jamoaviy tadbirkorlikdan olingan daromadlar.

Hujjatli tasdiqlanadigan xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- moddiy xarajatlar;

- asosiy ishlab chiqarish vositalarini to'la tiklashga ajratiladigan amortizatsiya to'lovlari;

- ijara to'lovlari;

- davlat ijtimoiy sug'urtasiga to'lovlar;

- banklarning qisqa muddatli kreditlari uchun to'lanadigan foizlar;

- asosiy ishlab chiqarish vositalarini barcha turdagi ta'mirlash uchun qilingan xarajatlar.

Agar fuqarolar qilingan xarajatlar miqdori va tarkibini hujjatlar bilan tasdiqlab berolmasa, soliq organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish hujjatlarida keltirilgan xarajatlar asosida hisobga olinadi yoki xuddi shu faoliyat bilan shug'ullanuvchi boshqa fuqarolar ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Billiardxonalar, bolalar o'yin avtomatlari uchun soliqqa tortish obyekti bo'lib jihozlangan o'rinlar soni xizmat qiladi.

Soliq stavkalari va soliqdan imtiyozlar. Yuridik shaxsni tashkil etmasdan xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar qat'iy belgilangan stavkalar asosida soliq to'laydilar.

Qat'iy belgilangan soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori bilan tasdiqlanadi va Qoraqalpog'iston

Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari tomonidan mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olib, qat'iy belgilangan soliq stavkalari oshirilishi mumkin.

19-jadval

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadlariga qat'iy belgilangan soliq stavkalari¹

(eng kam oylik ish haqiga nisbatan karralarda)

T/r	Faoliyat turi	Toshkent shahri	Viloyat shaharlari	Tumanlar, qishloqlar
1.	Chakana savdo			
	Oziq-ovqat mahsulotlari bilan	9,0	6,0	3,0
	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan dehqon bozoridagi savdo rastalarida	5,0	4,0	2,0
	Nooziq-ovqat mahsulotlari bilan	10,0	6,5	3,0
	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari bilan	10,0	6,5	3,0
2.	Maishiy xizmatlar (3-banddagidan tashqari)	3,5	1,5	0,5
3.	Sartaroshxona, manikur, pedikur, kosmetika va boshqa xizmatlar	4,0	2,0	1,0
4.	O'z mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish	2,0	1,5	1,0
5.	Boshqa turdagi faoliyat (mulkni ijaraga berishdan tashqari)	5,0	3,0	2,0
6.	Avtotransport vositalarida xizmat ko'rsatish va ijaraga berish:			
	3 tonnagacha yuk ko'taruvchi yuk mashinalari		2,0	
	8 tonnagacha yuk ko'taruvchi yuk mashinalari		3,0	
	8 tonnadan ortiq yuk ko'taruvchi yuk mashinalari		4,0	

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2013-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi 1887-sonli Qarori.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadlariga qat'iy belgilangan soliq stavkalari bir oylik eng kam ish haqiga nisbatan karralarda belgilangan bo'lib, joylashgan joylariga qarab va chakana savdo, xizmat ko'rsatish, o'z mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish, avtotransport vositalarida xizmat ko'rsatish va ularni ijaraga berish hamda tadbirkorlikning boshqa turlari uchun soliq stavkalari belgilangan

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, bir xil faoliyat yurituvchi tadbirkorlar to'laydigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari joylashgan joyiga qarab bir-biridan farq qilar ekan. Masalan, Toshkentda joylashgan sartarosh har oyda 4 minimal oylikka teng soliq to'lasa, qishloqda joylashgan sartarosh har oyda 1 minimal oylikka teng soliq to'laydi.

Tadbirkorlik faoliyatini o'zi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joydan boshqa joyda amalga oshirayotgan jismoniy shaxs soliqni stavkalardagi musbat farqni hisobga olib to'laydi. Bunda tadbirkorlik faoliyatida musbat farq jismoniy shaxs ro'yxatdan o'tkazilgan joyda undiriladi.

Xususiy tadbirkorlar uy xo'jaligida yetishtirilgan uy hayvonlarini tirik va so'yilgan holda sotish, chorvadorlik, asalarichilik, o'simlikshunoslik, dekorativ bog'dorchilik mahsulotlarini natura va qayta ishlangan holda sotish uchun tegishli barcha zaruriy hujjatlar bo'lganda qat'iy belgilangan soliqni to'lashdan ozod etiladi.

Jismoniy shaxslarning mulkni ijaraga berishdan olgan daromadidan jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq olinadi.

Soliqlarni hisoblash va budjetga to'lash tartibi. Xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun ularning tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortishning aniq tartibi va topshirish muddatlari belgilab berilgan. Masalan, tayinli ish joyi bo'lmagan tadbirkorlik faoliyatidan yoki boshqa yo'llar bilan daromad oluvchi jismoniy shaxslar soliq organlari tomonidan shaxslar ularning amalda olgan yillik daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya, soliq organlari tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar hujjatlari va tekshiruvlar natijalari asosida soliqqa tortiladilar.

Xususiyl tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun deklaratsiya tuzishning va soliq organlariga topshirishning quyidagi tartibi belgilangan:

- fuqarolar o'tgan oydagl amalda olgan daromadlari va yilning qolgan davrida olishni mo'ljallayotgan daromadlari to'g'risida deklaratsiyani o'zlari yashab turgan joydagl soliq inspeksiyasiga daromad olgan oyidan keyingi oyning 5-sanasidan kechiktirmay topshiradilar. Agar yil oxirigacha daromad manbayi yo'qolib qolsa, tadbirkor daromad manbayi yo'qolgandan boshlab 5 kun ichida deklaratsiya topshiradi. Agar yil oxirigacha daromad manbayi yo'qolmasa, tadbirkor yil davomida amalda olgan daromadi to'g'risida deklaratsiyani kelasi yilning 15-yanvarigacha topshiradi.

Xususiyl tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq to'lashning quyidagi tartibi va sanalari belgilangan:

- qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turiga va faoliyat amalga oshiriladigan joyiga qarab belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi;

- bir necha faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi tadbirkor har bir faoliyat turi uchun belgilangan stavka bo'yicha alohida qat'iy belgilangan soliq to'laydi. Qat'iy belgilangan soliqni hisoblash qat'iy belgilangan soliqchi hisobga olingan joydagl soliq inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Qat'iy belgilangan soliqni tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan har oyda tadbirkor ro'yxatdan o'tgan joydagl soliq inspeksiyasiga oyning 25-sanasidan kechiktirmay to'lanadi.

Agar tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan joydagl qat'iy belgilangan soliq stavkasi tadbirkor ro'yxatdan o'tgan joydagl soliq stavkasidan farq qilsa, soliq tadbirkor ro'yxatdan o'tgan joydagl soliq inspeksiyasiga baland bo'lgan joydagl stavka bo'yicha to'lanadi. Masalan, tadbirkor Samarqand shahrida ro'yxatdan o'tgan, tadbirkorlik faoliyati bilan Toshkent shahrida shug'ullanadi. Samarqand shahrida oylik qat'iy belgilangan soliq stavkasi 4 eng kam ish haqiga, Toshkent shahrida esa 5 eng kam ish haqiga teng. Agar shu oyda u 1000000 so'm daromad

qilgan bo'lsa, u Samarqand shahri stavkasi bo'yicha $(1000000 \cdot 4) : 100 = 40000$ so'm, Toshkent shahri stavkasi bo'yicha $(1000000 \cdot 5) : 100 = 50000$ so'm to'lashi lozim.

Shunday qilib, tadbirkor Samarqand shahri soliq inspeksiya-siyasiga 50000 so'm qat'iy belgilangan soliq to'lashi lozim. O'z faoliyatini endi boshlayotgan tadbirkor qat'iy belgilangan soliq hisobini soliq inspeksiya-siyasiga faoliyatini boshlashdan oldin topshiradi, shuningdek, soliqni ham o'z faoliyatini boshlashdan oldin to'laydi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Mikrofirmalar va kichik korxonalarining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rnini qanday?
2. Respublikamizda soddalashtirilgan soliq tizimini qo'llashdan asosiy maqsad nimalardan iborat?
3. Yagona soliq to'lovi kimlarga qo'llaniladi va uning mohiyati nimadan iborat?
4. Mikrofirmalar va kichik korxonalarini aniqlashning mezonini qanday?
5. Yagona soliq to'lovining stavkalari qanday miqdorda o'rnatilgan?
6. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalariga soliq solish qanday tartibda amalga oshiriladi?
7. Yagona soliq to'lovining obyekti qanday aniqlanadi?
8. Mikrofirmalar va kichik korxonalar umumbelgilangan tartibda soliq to'lashi mumkinmi?
9. Yagona soliq to'lovi qanday muddatlarda to'lanadi?
10. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun moliyaviy hisobotlarni topshirish tartibi qanday?

IV bo'lim

**JISMONIY SHAXSLARNI
SOLIQQA TORTISH**

15-bob. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLAR VA ULARNING AHAMIYATI

15.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning shakllanishi va ularning ahamiyati

Soliq kodeksining 16-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar jismoniy shaxslar deb e‘tirof etiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda mustaqil ravishda, xodimlarni yollash huquqsiz, o‘ziga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir.

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi, soliq subyektlari nuqtayi nazaridan uch asosiy turkumga ajratiladi:

1. Jismoniy shaxslarni (rezident) soliqqa tortish tizimi.
2. Yakka tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi.
3. Norezident jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar, asosan, bevosita soliqlardir. Shuningdek, renta xususiyatiga ega bo‘lgan, real soliqlarning ham ayrim turlarini to‘laydilar.

Jismoniy shaxslar olgan daromadlari, mulklaridan va iste‘molda soliq to‘laydilar. Ular tomonidan to‘langan soliqlarning davlat budjetini shakllantirishdagi ulushi yuqoridir. Ayniqsa, jismoniy shaxslar daromadlaridan to‘lanadigan soliqning davlat budjetidagi ulushi yuqoridir. Shuningdek, jismoniy shaxslardan undirilgan soliqlar mahalliy budjetlarning daromadlarida sezilarli ulushga egadir.

15.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va yig'ımlar

Umumdavlat soliqlari:

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.
2. Yuridik shaxs tashkil etmasdan, yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.
3. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Mahalliy soliqlar va yig'ımlar:

1. Mol-mulk solig'i.
2. Yer solig'i.
3. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.
4. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

15.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining iqtisodiy mohiyati va davlat budjeti daromadlarida tutgan o'rni

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mohiyati bo'yicha to'g'ri soliq hisoblanadi. Ushbu soliq budjetga kelib tushishi bo'yicha umumdavlat solig'i hisoblanib, tartibga soluvchi soliq sifatida foydalaniladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini joriy qilishda aholining ijtimoiy qatlamlari va ijtimoiy adolat tamoyillari hisobga olingan, ya'ni ushbu soliq bo'yicha soliqqa tortish tizimi daromadlarning hajmiga qarab, bosqichma-bosqich undiriladi. Shuning uchun ham ushbu soliq bo'yicha belgilangan stavkalar progressiv stavka hisoblanib, hozirgi uch bosqichli soliqqa tortish tizimi amal qiladi.

Amaldagi Soliq kodeksiga muvofiq, soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilaridir.

Jismoniy shaxslarning — O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlariga Soliq kodeksining 182-moddasida nazarda

tutilgan o'ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda va stavkalar bo'yicha soliq solinadi.

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari soliq solish obyektidir:

- O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari;

- O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan, ushbu kodeksning 58-bobiga muvofiq, qat'iy belgilangan soliq solinadigan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish obyekti bo'lmaydi.

Soliq solinadigan baza jami daromaddan kelib chiqib, Soliq kodeksining 179 va 180-moddalariga muvofiq, soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi.

Jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagilar kiradi:

- 1) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- 2) mulkiy daromadlar;
- 3) moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- 4) boshqa daromadlar.

Yuridik shaxslar amalga oshiradigan quyidagi xarajatlar jismoniy shaxslarning daromadi sifatida qaralmaydi:

- 1) mehnat sharoitlari noqulay bo'lgan ishlarda band bo'lgan xodimlarni mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho'r suv, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta'minlash xarajatlari;

- 2) kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar, shu jumladan, a'zolik badallari hisobidan kasaba uyushmasi a'zolariga beriladigan moddiy yordam, bundan kasaba uyushmasi qo'mitasining xodimlariga mehnat vazifalarini bajarganlik uchun beriladigan pul mukofotlari va boshqa to'lovlar mustasno;

- 3) xodimlarni ish joyiga olib kelish va qaytarib olib ketish xarajatlari;

- 4) diniy rasm-rusumlar va marosimlarni, bayram tantanalarini o'tkazish, vakillik xarajatlari, shahar yo'lovchilar transpor-

tida xodimlarning xizmat qatnovlari uchun foydalaniladigan yo‘l kartochkalarini olish, shuningdek, yuridik shaxsning xodimlar mehnat va dam olish sharoitlarini ta‘minlash bilan bog‘liq hamda muayyan jismoniy shaxslarning daromadi hisoblanmaydigan boshqa xarajatlar;

5) xodimga xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formal kiyim-bosh berish xarajatlari yoki ularni pasaytirilgan baholarda sotish munosabati bilan qilingan xarajatlar, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ayrim toifadagi xodimlarni o‘z xizmat vazifalarini bajarishi chog‘ida oziq-ovqat bilan ta‘minlash xarajatlari;

6) xodim boshqa joyga ishga o‘tkazilganda yoxud ko‘chib borganda ko‘chish, mol-mulkini ko‘chirib borish, joy ijarasi (yo‘l xarajatlari uchun beriladigan pul) bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash yoki bu xarajatlarning o‘rnini qoplash xarajatlari;

7) xizmat safarlaridagi quyidagi kompensatsiya to‘lovlari:

- tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safari joyiga borish va u yerdan qaytib kelish uchun, shu jumladan, joy band qilish uchun haq to‘lashni qo‘shgan holda haqiqatda amalga oshirilgan to‘lovlar. Yo‘l hujjatlari bo‘lmagan taqdirda, temiryo‘l transportidagi (agar temiryo‘l qatnovi bo‘lmasa, shaharlararo avtobusdagi) yo‘l haqi qiymati miqdorida, biroq aviachipta qiymatining 30 % idan oshmaydigan miqdorda;

- uy-joyni ijaraga olish bo‘yicha haqiqatda amalga oshirilgan to‘lovlar. Yashaganligini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lmagan taqdirda — qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida;

- tasdiqlovchi hujjatlar asosida uy-joyni band qilish uchun to‘lovlar;

- qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida xizmat safarida bo‘lingan vaqt uchun to‘lanadigan kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

- qonun hujjatlarida belgilangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa to‘lovlar;

8) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalar doirasida xodimga to‘lanadigan kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar):

- doimiy ishi yo‘lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo‘lgan, shuningdek, vaxta usulida ishlarni bajarishda xodimga kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar);

- xizmat ishlari uchun shaxsiy avtomobildan foydalanganlik uchun kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar), bundan xizmat safarlari mustasno;

- dala ta'minoti;

9) mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast yetganlik bilan bog'liq zararining o'rnini qoplash bo'yicha quyidagi miqdordagi to'lovlar:

- jabrlanuvchi mehnatda mayib bo'lguniga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidagi, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to'lovlar (voyaga yetmagan shaxs mehnatda mayib bo'lib qolgan taqdirda, zararining o'rnini uning ish haqi (daromadi) miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining besh baravaridan kam bo'lmagan miqdorda qoplanadi);

- maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qo'shimcha xarajatlar uchun oyiga eng kam ish haqining ikki baravari miqdoridagi to'lovlar;

- jabrlanuvchining maishiy parvarishi uchun qo'shimcha xarajatlar tariqasida har oyda eng kam ish haqining ellik foizi miqdoridagi to'lovlar;

- xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasida jabrlanuvchining yillik o'rtacha ish haqi miqdoridagi to'lovlar;

10) boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan quyidagi miqdordagi to'lovlar:

- marhum o'rtacha ish haqining vafot etgan boquvchi qaromog'ida bo'lgan va uning vafoti munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to'g'ri keladigan ulushi miqdoridagi to'lovlar;

- boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan shaxslarga bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasida marhumning o'rtacha yillik ish haqining olti baravari miqdoridagi to'lovlar;

11) talabalarning ta'lim olishi uchun, O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurti bilan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha pulli-kontrakt asosida o'tkaziladigan to'lovlar;

12) mol-mulknı sug'urta qilish va (yoki) hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarga to'lanadigan sug'urta mukofotlari. Mol-mulknı sug'urtalash va (yoki) hayotni uzoq muddatli sug'urtalash shartnomasi muddatidan ilgari bekor qilinganda va sug'urtalovchi sug'urta qilinuvchiga sug'urta mukofotining bir qismini yoki to'liq qaytarsa, qaytarilgan sug'urta mukofoti miqdori jismoniy shaxsning soliq solinadigan jami daromadi tarkibiga kiritiladi;

13) yosh oilalar a'zolarining uy-joy olish uchun yuridik shaxsdan — ish beruvchidan olgan mablag'lari. Uy-joy olingan (mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) sanadan e'tiboran, besh yil ichida sotilsa, ushbu daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinadi;

14) xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xarajatlari.

15.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari va ushbu soliqdan belgilangan soliq imtiyozlari

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar uch guruhga bo'linadi:

1. Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari.

2. Soliq solishdan to'liq ozod etiladigan jismoniy shaxslar.

3. Qisman, ya'ni daromad olingan har bir oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha soliq solishdan ozod qilinadigan jismoniy shaxslar.

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

1) moddiy yordam summolari:

- favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summolari — to'laligicha;

- vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summolari — eng kam ish haqining yigirma baravarigacha miqdorda;

- boshqa hollarda — soliq davri uchun eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda;

2) yo‘llanmalar qiymatini yuridik shaxslar tomonidan to‘liq yoki qisman qoplash summalari, turistik yo‘llanmalar bundan mustasno;

3) o‘z xodimlariga va ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko‘rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to‘langan summalar, shuningdek, yuridik shaxsning davolash va tibbiy xizmat ko‘rsatganlik, nogironlik profilaktikasi va nogironlarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olish uchun qilingan xarajatlari.

Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko‘rsatganlik uchun yuridik shaxslar tomonidan sog‘liqni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to‘langan taqdirda, shuningdek, sog‘liqni saqlash tashkilotlari tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo‘ljallangan naqd pul mablag‘lari bevosita xodimga, xodim yo‘qligida uning oila a‘zolariga, otalariga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun mo‘ljallangan mablag‘lar xodimning bankdagi hisobvarag‘iga kiritilgan taqdirda, ushbu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

4) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan budjet tashkilotlaridan chet el valutasida olingan ish haqi summalari va boshqa summalar, qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida;

5) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yo‘llash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta‘minlash markazlari ko‘magida amalga oshirilayotgan bo‘lsa;

6) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘laganidan keyin xususiy korxonalar mulkdori, fermer xo‘jaligi boshlig‘i ixtiyorida qoladigan foyda summasi;

7) O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo‘lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo‘la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg‘alarining qiymati, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo‘la beriladigan pul mukofoti;

8) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o‘rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo‘la beriladigan pul mukofoti;

9) sanoat mulki obyektlariga va seleksiya yutug‘i patentiga patent (litsenziya) egasi bo‘lgan jismoniy shaxsning patent (litsenziya)ni ularning amal qilish muddati doirasida, lekin foydalanish boshlangan kundan e‘tiboran, quyida ko‘rsatilgan davrdan ko‘p bo‘lmagan muddatda sotishdan olgan daromadi summasi:

- ixtirolar va seleksiya yutug‘idan — besh yil davomida;
- sanoat namunasidan — uch yil davomida;
- foydali modeldan — ikki yil davomida;

10) donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek, qon yiq-qanlik uchun tibbiyot muassasalari xodimlari oladigan summalar;

11) jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan qimmatli qog‘ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlari (paylari)ni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, shuningdek, amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati doirasida olingan mol-mulkni sotishdan tushadigan daromadlar mustasno;

12) uy xo‘jaligida, shu jumladan, dehqon xo‘jaligida yetishtirilgan hayvonlarni (qoramol, parranda, mo‘ynali va boshqa hayvonlar, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so‘yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda sanoatda qayta ishlashdan tashqari, tabiiy va qayta ishlangan chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog‘dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno.

Mazkur daromadlar soliq to‘lovchi tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi, bog‘dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining boshqaruvlari tomonidan berilgan, realizatsiya qilingan mahsulot soliq to‘lovchi tomonidan unga yoki uning oila a‘zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etgan taqdirda, soliq solishdan ozod qilinadi;

13) xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

14) yuridik shaxsdan soliq davri mobaynida eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha bo‘lgan qiymatdagi:

- xodimlar natura shaklida olgan sovg‘alar;
- ilgari mazkur yuridik shaxsning xodimlari bo‘lgan ishlamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo‘qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a‘zolari tomonidan olingan sovg‘alar va boshqa turlardagi yordam;

15) jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek, tekin olingan pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan fan, adabiyot va san‘at asarlarining, adabiyot va san‘at asarlari ijrochilarining, shuningdek, kashfiyotlar, ixtirolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo‘rlari (huquqiy vorislari)ga to‘lanadigan pul mukofotlari mustasno;

16) davlat zayomining obligatsiyalari bo‘yicha yutuqlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha foizlar, lotereya bo‘yicha yutuqlar;

17) depozit sertifikatlari, davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek, banklar va kredit uyushmalaridagi omonatlar bo‘yicha foizlar hamda yutuqlar;

18) xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek, ilmiy-texnika hamkorligi sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida bevosita jismoniy shaxs grant beruvchidan yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakil qilingan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo‘yicha organning xulosasi bo‘lgan taqdirda, yuridik shaxsdan — grant oluvchidan olgan grant summasi;

19) fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining davlat korxonalari mol-mulkini sotib olish, xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalarini olish uchun yo‘naltiriladigan summalari, shuningdek, dividendlar tarzida olingan va dividend to‘lagan yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo‘naltirilgan daromadlar.

Ushbu bandeda nazarda tutilgan imtiyoz qo‘llanilganidan so‘ng bir yil ichida muassis (ishtirokchi)lar tarkibidan chiqilganda (chiqib ketilganda), mazkur mol-mulk sotilganda yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirok-

chilari) o'rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solishdan ozod qilingan daromadlarga umumiy asoslarda soliq solinishi kerak;

20) mehnat shartnomasi bekor qilinganida eng kam ish haqining o'n ikki baravari miqdori doirasida to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi, qonun hujjatlarida belgilangan boshqa nafaqalar, bundan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari (shu jumladan, oilaning bemor a'zosini parvarishlash nafaqasi) mustasno, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg'armalaridan jismoniy shaxslarga beriladigan yordam tusidagi to'lovlar;

21) olingan alimentlar;

22) fuqarolarning sug'urta to'voni sifatida oladigan summalari;

23) qonun hujjatlarida davlat stipendiyalari uchun belgilangan miqdorlarda ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan to'lanadigan stipendiyalar;

24) uy-joy-kommunal xizmatlariga haq to'lash bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq, har oylik kompensatsiya pul to'lovlari;

25) davlat pensiyalari;

26) jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha foiz daromadlari, shuningdek, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari;

27) fuqarolarning soliq solinadigan va O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarga mol-mulkni sug'urta qilish hamda hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlari to'lovi uchun yo'naltiriladigan ish haqi va boshqa daromadlarining summalari;

28) yuridik shaxslar muassislari (ishtirokchilari)ning ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektiga — yuridik shaxsga uning majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltiriladigan daromadlari summalari. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi va soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi;

29) quyidagi jismoniy shaxslarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlari summolari:

- yosh oila a'zolari tomonidan yakka tartibda uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun yoki ko'p xonadonli uydagi xonadonni rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilganda;

- «Qishloq qurilish bank» aksiyadorlik tijorat bankinging kreditlari hisobiga qishloq joylarida namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy quruvchi shaxslar tomonidan olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilganda;

30) fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining:

- O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan summolari;

- O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summolari.

Soliq solishdan quyidagi jismoniy shaxslar to'liq ozod qilinadi:

1) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari, barcha daromadlari bo'yicha;

2) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

3) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa

yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, o‘z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo‘yicha;

4) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, o‘z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo‘yicha;

5) xalqaro nohukumat tashkilotlarning mansabdor shaxslari — agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo‘yicha;

6) O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari hamda bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga kiruvchi shaxslar, shuningdek, o‘quv yoki sinov yig‘inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar — xizmatni o‘tash (xizmat vazifalarini bajarish) munosabati bilan olgan pul ta‘minoti, pul mukofotlari va boshqa to‘lovlar summalari bo‘yicha;

7) prokuratura organlarining daraja unvonlariga ega bo‘lgan xodimlari — ularning xizmat vazifalarini bajarish munosabati bilan olgan daromadlari bo‘yicha;

Konstitutsiyaviy sud, umumiy yurisdiksiya sudlari va xo‘jalik sudlarining sudyalari xizmat vazifalarini bajarishlari munosabati bilan oladigan daromadlari;

8) gastrol-konsert faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo‘lgan shaxslar — ushbu faoliyatdan olingan daromadlari bo‘yicha.

Quyidagi jismoniy shaxslar soliq solishdan qisman (daromad olingan har bir oy uchun eng kam ish haqining to‘rt baravari miqdorida) daromadlar bo‘yicha) ozod qilinadi:

1) «O‘zbekiston Qahramoni», urush nogironlari yoxud 1941—1945-yillardagi urush davrida yoki harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarishda yaralanganligi, kontuziya bo‘lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli nogiron bo‘lib qolgan harbiy xizmatchilar jumlasidan bo‘lgan boshqa nogironlar, sobiq partizanlar jumlasidan bo‘lgan nogironlar, shuningdek, pensiya ta‘minoti bo‘yicha mazkur toifadagi harbiy xizmatchilarga tenglashtirilgan boshqa nogironlar;

2) xizmatni harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda oʻtagan harbiy xizmatchilar, sobiq partizanlar jumlasidan boʻlib, 1941—1945-yillardagi urush, sobiq Ittifoqni himoya qilish boʻyicha boshqa jangovar operatsiyalarning qatnashchilari, 1941—1945-yillardagi urush davri mehnat frontining faxriylari va konsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqinlari;

3) Leningrad shahrida 1941-yil 8-sentabrdan 1944-yil 27-yanvargacha qamal davrida ishlagan fuqarolar;

4) ichki ishlar organlarining boshliqlari va oddiy xizmatchilari jumlasidan boʻlib, xizmat vazifalarini bajarishda yaralanganligi, kontuziya boʻlganligi yoki shikastlanganligi oqibatida nogiron boʻlib qolganlar;

5) bolalikdan nogiron boʻlib qolganlar, shuningdek, I va II guruh nogironlari;

6) oʻn va undan ortiq bolasi bor ayollar;

7) sobiq Ittifoqni himoya qilish yoxud harbiy xizmatning boshqa vazifalarini bajarish paytida yaralanganligi, kontuziya boʻlganligi yoxud shikastlanganligi oqibatida yoki frontda boʻlish bilan bogʻliq kasallik tufayli halok boʻlgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari va rafiqalari;

8) xizmatni Afgʻoniston Respublikasida va jangovar harakatlari olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha boʻlgan qoʻshinlarning cheklangan kontingenti tarkibida oʻtagan harbiy xizmatchilar hamda oʻquv va sinov yigʻinlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar;

9) Chernobil AESdagi avariya oqibatida jabrlanganlar;

10) ikki va undan ortiq oʻn olti yoshga toʻlmagan bolalari bor yolgʻiz onalar;

11) ikki va undan ortiq oʻn olti yoshga toʻlmagan bolalari bor va boquvchisini yoʻqotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va yolgʻiz erkaklar;

12) bolaligidan nogiron boʻlgan, doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onadan biri.

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga belgilangan eng kam stavka boʻyicha soliq solinadi:

• baland togʻli, choʻl va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan

belgilangan koeffitsiyentlar bo'yicha qo'shimcha to'lovlar tariqasida olingan daromadlarga. Bunda cho'l va suvsiz joylarda, baland tog'li va tabiiy-iqlim sharoiti noqulay hududlarda ishlaganlik uchun yuridik shaxslar xodimlarining ish haqiga koeffitsiyentlar hisoblashning eng yuqori summasi hisoblash paytidagi holatga ko'ra, belgilangan eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida belgilanadi;

- korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan vaqtinchalik qishloq xo'jaligi ishlariga yuborilgan jismoniy shaxslarning shu ishlarni bajarishdan olingan daromadlariga.

Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band bo'lgan ayollarning daromadlaridan olish darajasi 20 % dan oshmasligi lozim. Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabrda PQ 1887-sonli Qaroriga muvofiq, 2013-yilda jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq stavkalari quyidagi miqdordalarda belgilangan:

20-jadval

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari

Soliq solinadigan daromad	Soliq stavkasi
Eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda	Daromad summasining 8 % i
Eng kam ish haqining besh baravaridan (+1 so'm) o'n baravarigacha miqdorda	Besh baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining besh baravaridan oshadigan summadan 16 %
Eng kam ish haqining o'n baravari (+1 so'm) va undan yuqori miqdorda	O'n baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining o'n baravaridan oshadigan summadan 22 %

Jismoniy shaxsning — O'zbekiston Respublikasi norezidentining O'zbekiston Respublikasidagi daromadlar manbayidan olingan daromadlariga manbada chegirmalarsiz quyidagi stavkalar bo'yicha soliq solinadi:

- dividendlar va foizlarga — 10 %;
- Soliq kodeksining 155-moddasi uchinchi qismining 9-bandiga muvofiq belgilanadigan xalqaro tashishlarda transport

xizmatlari ko'rsatishdan olinadigan daromadlarga (fraxtdan olinadigan daromadlarga) — 6 %;

- intellektual mulk obyektlariga bo'lgan mulkiy huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazganlik uchun mukofot, ijara bo'yicha daromadlarga hamda ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan, mehnat shartnoma (kontrakt)lari va fuqarolik-huquqiy tusga ega shartnomalar bo'yicha olingan boshqa daromadlarga — 20 %.

To'lov manbayida soliq solish to'lov O'zbekiston Respublikasi hududida yoki uning hududidan tashqarida sodir etilganligidan qat'i nazar amalga oshiriladi.

15.5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq stavkasini qo'llash maqsadida eng kam ish haqi miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqlarining summasi) hisobga olinadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish va ushlab qolish ushbu bo'limda belgilangan soliq solinadigan baza hamda stavkalardan kelib chiqqan holda daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha har oyda jismoniy shaxsning asosiy ish joyi bo'yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

O'z xodimlariga moddiy yordam ko'rsatgan va sovg'alar bergan soliq agentlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini soliq davrining oxirida amalda bo'lgan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda qayta hisob-kitob qiladi.

Jismoniy shaxsning asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan sovg'a, moddiy yordam va boshqa turlardagi

yordam olgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini summasini qayta hisob-kitob qilish jismoniy shaxs daromadlari to'g'risida deklaratsiya topshirgan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq davrining oxirida amalda bo'lgan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi o'zgargan taqdirda, jismoniy shaxs joriy yilda o'ziga to'langan daromadlar va ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini summalari to'g'risidagi ma'lumotnomani yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi hisoblanguniga qadar taqdim etishi shart. Ilgarigi ish (xizmat, o'qish) joyidan ma'lumotnoma taqdim etilmagan yoki soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini belgilangan eng yuqori stavka bo'yicha ushlab qolinadi.

Ma'lumotnoma yoki identifikatsiya raqami keyinchalik taqdim etilgan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini summasi ilgarigi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida olingan daromadlar inobatga olingan holda qayta hisob-kitob qilinadi.

Yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish kalendar yil boshidan buyon ilgarigi va yangi ish (xizmat, o'qish) joylaridan olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq agentlari:

1) soliq davri tugaganidan so'ng o'ttiz kun ichida davlat soliq xizmati organlariga daromadlar olgan jismoniy shaxslar to'g'risida, asosiy ish joyi bo'yicha daromadlar olgan jismoniy shaxslar bundan mustasno, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan shaklda ma'lumotnoma taqdim etishi shart, unda quyidagilar aks ettiriladi:

- soliq to'lovchining — jismoniy shaxsning identifikatsiya raqami;
- soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy yashash joyi manzili;
- o'tgan soliq davri yakunlari bo'yicha daromadlarning umumiy summasi va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingan umumiy summasi;

- soliq agentining identifikatsiya raqami;
- soliq agentining nomi, joylashgan yeri (aloqa bo‘limi manzili);

2) yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliya hisobotini taqdim etish muddatida davlat soliq xizmati organlariga hisoblangan va amalda to‘langan daromadlar summalari hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolingani summalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shaklda taqdim etishi shart.

To‘lov manbayida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining hisoblab chiqarilgan summasi budjetga soliq agenti tomonidan quyidagi muddatlarda to‘lanadi:

- pul mablag‘larini olish uchun xizmat ko‘rsatuvchi bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda. Ish haqi bo‘yicha oyning birinchi yarmi uchun bo‘nak (avans) olish uchun hujjatlar taqdim etilganda soliqni to‘lash amalga oshirilmaydi;

- to‘lov natura holda amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida, agar bunday to‘lovga qonun hujjatlarida ruxsat berilgan bo‘lsa.

Agar yuridik shaxsning bank hisobvarag‘ida ish haqini to‘lash va bir vaqtning o‘zida xodimlarning ish haqidan ushlab qolingani soliqlarni budjetga o‘tkazish uchun mablag‘lar yetarli bo‘lmasa, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bank hisobvarag‘idagi qoldiq mablag‘larga mutanosib summada budjetga o‘tkaziladi.

Daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq solish

Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining quyidagi daromadlari kiradi:

- mulkiy daromad, fan, adabiyot va san‘at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar, agar bu daromadlarga to‘lov manbayida soliq solinmagan bo‘lsa;

- agar ushbu moddaning ikkinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ikki yoki undan ko'p manbadan olingan daromadlar;

- O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar.

Agar soliq to'lovchining asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i belgilangan eng yuqori stavka qo'llanilgan holda uning arizasiga ko'ra, ushlab qolingani bo'lsa, daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlarga soliq solish

Fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik va ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida daromadlar oluvchi jismoniy shaxslar bunday faoliyatni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tmagan holda amalga oshirish huquqiga ega.

Bunda daromadlariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadigan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini davlat soliq xizmati organining yozma xabarnomasi asosida to'laydi.

Fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik va ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi olayotgan jismoniy shaxs daromadlar olish bilan bog'liq daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishi shart hamda u ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq, haqiqatda qilingan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni daromaddan chegirish huquqiga ega, biroq chegirma olingan jami daromad summasing 30 % idan ko'p bo'lmasligi kerak.

Ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish hamda ulardan foydalanish uchun zarur materiallar olishga doir xarajatlar;

- faqat fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish, nashr qilish, ijro etish yoki ulardan boshqacha tarzda foydalanish maqsadida foydalaniladigan bino va mol-mulk ijarasiga doir xarajatlar.

*Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi
to'g'risidagi deklaratsiya*

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya soliq to'lovchining olingan yillik daromadi to'g'risidagi yozma arizasidan iborat bo'ladi.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi hamda unda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak:

- soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, jinsi, fuqaroligi, doimiy yashash joyi manzili;

- soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;

- soliq solinishi lozim bo'lgan daromadlar turlarga ajratib ko'rsatilgan holda olingan jami yillik daromad (bir martalik operatsiyalardan hamda mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlarni deklaratsiya qilish uchun faqat ushbu operatsiyalarning o'zidan olish mo'ljallanayotgan daromad aks ettiriladi);

- daromadlarning manbalari;

- daromad olish bilan bog'liq xarajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajratmalarning summalari;

- jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar;

- hisoblab chiqarilgan soliq summasi;

- haqiqatda to'langan soliq summasi.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini deklaratsiya qilish bilan bog'liq boshqa ma'lumotlar ham ko'rsatilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya aloqa bo'limi orqali buyurtma xat shaklida, shuningdek, elektron shakldagi axborot tarzida taqdim etilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya blanklari soliq to'lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan bepul beriladi.

Jismoniy shaxs taqdim etgan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada to'lanishi lozim bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasining kamayishiga olib keluvchi xatolar aniqlangan taqdirda, jismoniy shaxs deklaratsiyaga zarur o'zgarishlar kiritishi shart.

Agar jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyani o'zgartirish haqidagi ariza jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash muddati tugaganiga qadar berilsa, soliq to'lovchi Soliq kodeksida belgilangan javobgarlikdan ozod qilinadi.

Agar jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyani o'zgartirish haqidagi ariza jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash muddati tugaganidan keyin, biroq xatolar davlat soliq xizmati organi tomonidan aniqlanganiga qadar berilsa, soliq to'lovchi soliqning yetishmayotgan summasini hamda unga tegishli penani to'lagan taqdirda, javobgarlikdan ozod etiladi.

Jismoniy shaxs davlat soliq xizmati organining taqdim etilgan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada aniqlangan xatolik to'g'risidagi bildirishnomasini olgan kun davlat soliq xizmati organi tomonidan xatolik aniqlangan kun deb hisoblanadi.

Daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish tartibi

Soliq to'lovchilar Soliq kodeksining 189-moddasida ko'rsatilgan daromadlar bo'yicha jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1-apreldan kechiktirmay taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan chet ellik jismoniy shaxs o'tgan soliq davri uchun daromadlar to'g'risida joriy yilning 1-aprelegacha deklaratsiya taqdim etadi.

Chet ellik jismoniy shaxs — O‘zbekiston Respublikasining rezidenti soliq solinishi lozim bo‘lgan daromad keltirayotgan faoliyatini kalendar yili ichida tugatgan va O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketayotgan bo‘lsa, uning O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan vaqtda joriy soliq davrida haqiqatda olgan daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiya mazkur jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketishidan bir oy avval taqdim etilishi lozim.

Agar chet ellik jismoniy shaxs — O‘zbekiston Respublikasining rezidenti joriy yilning 1-fevraliga qadar doimiy yashash uchun xorijga chiqib ketayotgan bo‘lsa, joriy yil uchun daromadlar bo‘yicha deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Taqdim etish tartibi daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiya bo‘yicha hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni to‘lash deklaratsiya topshirilgan paytdan e‘tiboran, o‘n besh kun ichida amalga oshiriladi.

Grant olgan jismoniy shaxs daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani topshirayotganda grant bo‘yicha olingan daromad summasini, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i miqdorini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo‘yicha organing tegishli xulosasini ko‘rsatadi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxs belgilangan tartibda daromadlar to‘g‘risidagi quyidagi deklaratsiyalarni taqdim etadi:

- dastlabki deklaratsiyani — shunday daromadlar yuzaga kelgan kundan e‘tiboran, bir oy o‘tgach, besh kunlik muddatda, agar bu daromadlarga jismoniy shaxslar daromadlariga to‘lov manbayida solinadigan soliq solinmagan bo‘lsa;

- yakuniy deklaratsiyani — o‘tgan soliq davridan keyingi yilning 15-yanvariga qadar.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar olish tugagan taqdirda jismoniy shaxs doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organini bu haqda yozma shaklda xabardor qiladi.

Deklaratsiya bo'yicha soliq to'lash tartibi

Jismoniy shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyaning ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1-iyunidan kechiktirmay to'laydilar.

Jismoniy shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblab chiqarilgan daromad solig'ini xorijiy davlatda joylashgan bank hisobvarag'idan chet el valutasida to'lashi mumkin. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan, milliy valutada ifodalangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'langan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha chet el valutasida qayta hisoblab chiqiladi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar oladigan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya asosida har oyda daromad olingan oydan keyingi oyning beshinchi kunigacha to'laydilar. Yil tugagach, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning yillik summasi haqiqatda olingan daromad bo'yicha hisoblab chiqariladi. Bu summa bilan yil mobaynida to'langan summalar o'rtasidagi farq kelgusi yilning 15-martigacha soliq to'lovchidan undirilishi yoki unga qaytarilishi kerak.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq to'langan sana quyidagilardir:

- yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslar tomonidan bankdagi hisobvarag'idan to'langani taqdirda — ularning bankdagi hisobvarag'idan mablag'lar hisobdan chiqarilgan kun;
- jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul mablag'lari kiritilgan taqdirda — bank kassasiga mablag'lar to'langan sana.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash to'lov xabarnomasida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Jismoniy shaxslar qanday soliqni to‘laydilar?
2. Daromad solig‘ining iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?
3. Jismoniy shaxslarning daromadiga nimalar kiradi?
4. Daromad solig‘i stavkalarini bayon eting.
5. Daromad solig‘i bo‘yicha qanday imtiyozlar belgilangan?
6. Kimlar daromad solig‘idan ozod qilingan?
7. Daromad solig‘i qanday hisoblab chiqiladi?
8. Deklaratsiyani taqdim etish tartibini bayon eting.

**16-bob. TADBIRKORLIK FAOLIYATI BILAN
SHUG‘ULLANUVCHI JISMONIY SHAXSLAR
UCHUN QAT’IY BELGILANGAN SOLIQ**

**16.1. Qat’iy belgilangan soliqni to‘lovchilar tarkibi, soliqqa
tortish obyekti va soliq solinadigan baza**

Qat’iy belgilangan soliqni to‘lovchilar quyidagilardir:

- faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko‘rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar.

**16.2. Faoliyatning ayrim turlarini amalga
oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi
tadbirkorlar tomonidan qat’iy belgilangan soliqni
qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari**

Qat’iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlarining ro‘yxati, shuningdek, faoliyatning mazkur turlarini tavsiflovchi fizik ko‘rsatkichlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko‘rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi soliq to‘lovchilar faoliyatning qat’iy belgilangan soliq to‘lash tatbiq etiladigan qismiga doir soliq solishning boshqa tartibini tanlash huquqiga ega emas.

Qat’iy belgilangan soliq to‘lash tatbiq etiladigan faoliyat bilan bir qatorda faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faoliyatning mazkur turlari bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritishlari va umumbelgilangan soliqlarni to‘lashlari shart.

Asosiy faoliyat turi bo‘yicha qat’iy belgilangan soliqni to‘lovchilar bo‘lgan yuridik shaxslar uchun Soliq kodeksida nazarda tutilgan boshqa daromadlarga soliq solinmaydi, dividendlar va foizlar, birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar, shuningdek, ijaradan olingan daromadlar bundan mustasno.

Mol-mulknı ijaraga berishdan olingan daromadlarga Solıq kodeksida nazarda tutilgan tartıbdı umumbelgilangan solıqlar yoki yagona solıq to‘lovi joriy etiladi.

Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartıbdagi tadbirkorlar tomonidan qat‘iy belgilangan solıqni hisoblab chıqarish hamda to‘lash tartıbi

Qat‘iy belgilangan solıq belgilangan faoliyat turini tavsıflovchi fizik ko‘rsatkich solıq solınadigan obyektıdır. Solıq solınadigan baza fizik ko‘rsatkichlarning sonidan kelib chıqqan holda belgilanadi.

Qat‘iy belgilangan solıq summasi solıq to‘lovchining kalendar oyıda ishlagan kunlari sonidan qat‘i nazar, solıq solınadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chıqqan holda aniqlanadi.

Solıq davri — bir oy.

Qat‘iy belgilangan solıq hisob-kitobi solıq bo‘yicha hisobga olish joyıdagi davlat solıq xızmati organlariga:

- yangi tashkil qilinayotgan (boshlovchi) solıq to‘lovchilar tomonidan — davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e‘tiboran, o‘n kundan kechiktirmay;

- faoliyat yuritayotgan solıq to‘lovchilar tomonidan — hisobot yilining 15-yanvarigacha taqdim etiladi.

Solıq solish obyektı va ish haqining eng kam miqdori o‘zgaragan taqdirda, solıq to‘lovchilar aniqlik kiritilgan hisob-kitobni navbatdagi to‘lovni to‘lash muddatidan kechiktirmay taqdim etishlari shart.

Qat‘iy belgilangan solıqni to‘lash:

- yuridik shaxslar tomonidan — har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

16.3. Yakka tartıbdagi tadbirkorlar tomonidan qat‘iy belgilangan solıqni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari

Yakka tartıbdagi tadbirkorlar yakka tartıbdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida qat‘iy belgilangan solıq to‘lash bilan bir qatorda quyidagilarnı to‘laydilar:

- 1) bojxona to'lovlari;
- 2) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq — suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda;
- 4) aksiz solig'i — aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda;
- 5) budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta baddallari;
- 6) davlat boji;
- 7) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Agar yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq solinadigan mol-mulkka va (yoki) yer uchastkasiga ega bo'lsalar, Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va (yoki) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi.

Agar yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini muayyan muddatga to'xtatsa, u o'z faoliyatini to'xtatguniga qadar tadbirkorlik subyektini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga faoliyatni vaqtinchalik to'xtatish to'g'risida ariza berish bilan bir vaqtda davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomani topshiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtincha to'xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to'g'risidagi arizani olgan tadbirkorlik subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organ kelgusi ish kuni tugaguniga qadar, soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtincha to'xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda axborot taqdim etadi.

Tadbirkorlik subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risida taqdim qilingan va davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan axborot yakka tartib-

dagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun qat'iy belgilangan soliqni hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi.

21-jadval

Yuridik va jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo'yicha olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari

T/r	Faoliyat turi	To'lovchilar	Mazkur faoliyat turini xarakterlovchi fizik ko'rsatkichlar	Fizik ko'rsatkich qat'iy belgilangan soliq stavkasi (eng kam ish haqiga birlik uchun karrali miqdorlarda)		
				Toshkent shahri	Viloyatlardagi shaharlar	Tumanlar, shu jumladan, qishloq joylari
1.	Avtotransport vositalarini qisqa muddat saqlash joylari	Yuridik shaxslar	Egallagan maydon (1 m ²)	0,1	0,06	0,04
2.	Bolalar o'yin avtomatlari	Yuridik va jismoniy shaxslar	Jihozlangan o'rinlar soni (birlikda)	3,0	2,0	1,0

Qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oying 25-kunidan kechiktirmay har oyda, soliq to'lovchi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat'iy belgilangan soliq eng yuqori stavka bo'yicha to'lanadi.

16.4. Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrilarida daromadlar hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini yuritishlari shart.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari quyidagilardir:

- chakana savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorning daromadlar va tovar operatsiyalarini hisobga olish daftari;

- tovar cheklari daftari.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarining shakli O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorni soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi asosida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Daromadlar va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari oxirgi yozuv kiritilgan paytdan e‘tiboran, besh yil mobaynida yakka tartibdagi tadbirkorda saqlanadi va ular raqamlangan, ip o‘tkazib bog‘langan hamda tegishli davlat soliq xizmati organining muhri bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkor faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlar soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

- savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, bundan tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlar olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno — yilning har bir choragi yakunlari bo‘yicha hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay;

- tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlarni olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — har oyning yakunlari bo‘yicha hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Soliq to‘lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat’i nazar, qat’iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to‘lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab, belgilangan stavkalar bo‘yicha to‘lanadi.

Faoliyatning bir necha turi bilan shug‘ullanuvchi soliq to‘lovchilar qat’iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdagi faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar bo‘yicha alohida-alohida to‘laydilar.

Qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar qanday soliq to'lashadi?
2. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Savdo bilan shug'ullanuvchi yakka tadbirkorlar qanday soliqqa tortiladi?
4. Yuridik shaxs hisoblanmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarga belgilangan soliq stavkalari.
5. Soliq davri xususida nimalarni bilasiz?

**17-bob. TRANSPORT VOSITALARIGA BENZIN,
DIZEL YOQILG‘ISI VA GAZ ISHLATGANLIK
UCHUN OLINADIGAN SOLIQ**

**17.1. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz
ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to‘lovchilar,
soliqqa tortish obykti, bazasi**

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni chakana realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to‘lovchilardir.

Soliq solish obykti va bazasi quyidagilardan iborat:

- transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni chakana realizatsiya qilish soliq solish obyektidir;
- transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gazning natura holdagi realizatsiya qilingan hajmi soliq solinadigan bazadir.

Ushbu soliq bo‘yicha soliq davri quyidagilardir:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar uchun — bir oy.

**17.2. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va
gaz ishlatganlik uchun olinadigan
soliq stavkasi**

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning 2013-yilgi chegaralangan stavkalari quyidagicha belgilangan:

**Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun
chegaralangan soliq stavkalari**

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	Soliq stavkasi
Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi	1 litr uchun 240 so'm
Transport vositalari uchun suyultirilgan gaz	1 litr uchun 165 so'm
Transport vositalari uchun siqilgan gaz	1 m ³ uchun 200 so'm

*Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini
taqdim etish va soliq to'lash tartibi*

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Soliq summasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$N = V \cdot St,$$

bu yerda,

N — hisoblab yozilgan soliq;

V — jismoniy shaxslarga sotilayotgan benzin, dizel yoqilg'isi yoki gazning natural ifodadagi hajmi;

St — soliq stavkasi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasi chakana narxga qo'shimcha ravishda belgilanadi, sotib oluvchiga beriladigan chekda alohida qatorda ko'rsatiladi hamda realizatsiya qilinayotgan benzin, dizel yoqilg'isi va gaz uchun mablag'larni olish bilan bir vaqtda undiriladi.

17.3. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq hisobini yuritish tartibi va uni to‘lash muddatlari

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasi transport vositalari uchun yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilinadigan benzin, dizel yoqilg‘isi va gazning narxida hisobga olinadi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning hisob-kitobi joriy o‘n kunlik to‘lovlar hisobga olingan holda yoqilg‘i quyish shoxobchalari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga har chorakda, soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to‘lash transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilingan oyning o‘n kunligi tugaganidan keyingi uchinchi kundan kechiktirmay, yoqilg‘i quyish shoxobchalari joylashgan yerda har o‘n kunda amalga oshiriladi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning qanday huquqiy asoslari mavjud?
2. Jismoniy shaxslardan mol-mulk solig‘i qanday tartibda undiriladi?
3. Jismoniy shaxslardan daromad solig‘ini kimlar undiradi?
4. Jismoniy shaxslarning yer solig‘ini hisoblash tartibi qanday?
5. Qat‘iy belgilangan soliqni joriy etishdan maqsad nima?
6. Jismoniy shaxslardan olinadigan qat‘iy belgilangan soliqning stavkalarini kim belgilaydi?
7. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga nimalar kiradi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., «O‘zbekiston», 1992.

2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T., «Adolat», 2010.

3. *I.A. Karimov*. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. T., «O‘zbekiston», 1995.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2012-yilning asosiy yakunlari va 2013-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «Bosh maqsadimiz — keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish» mavzusidagi ma‘ruzasi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2013-yil, 19-yanvar.

5. *I.A. Karimov*. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O‘zbekiston», 1997.

6. *I.A. Karimov*. Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2005-yil 29-yanvar.

7. *I.A. Karimov*. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2006-yil 11-fevral.

8. *I.A. Karimov*. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezoni bo‘lishi darkor. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2006-yil 25-fevral.

9. *I.A. Karimov*. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo‘lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish — asosiy vazifamizdir. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2007-yil 13-fevral.

10. *I.A. Karimov*. O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li. T., «O‘zbekiston» NMIU, 2007.

11. *I.A. Karimov*. Inson manfaatlari ustuvorligini ta‘minlash — barcha islohot va o‘zgarishlarimizning bosh maqsadidir. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2008-yil 9-fevral.

12. *I.A. Karimov*. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish — davr talabi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2009-yil 14-fevral.

13. *I.A. Karimov*. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T., «O‘zbekiston» NMIU, 2009.

14. *I.A. Karimov*. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruza). «Xalq so‘zi» gazetasi, 2010-yil 12-noyabr.

15. *I.A. Karimov*. Asosiy vazifamiz — Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T., «O‘zbekiston» NMIU, 2010.

16. *I.A. Karimov*. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish — taraqqiyotimizning muhim omilidir. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2010-yil 8-dekabr.

17. *I.A. Karimov*. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2011-yil 22-yanvar.

18. *I.A. Karimov*. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish — mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T., «O‘zbekiston» NMIU, 2011.

19. *I.A. Karimov*. 2012-yil — Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T., «O'zbekiston» NMIU, 2012.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2013-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ 1887-sonli Qarori. www.lex.uz.

21. Soliqqa oid qonun hujjatlaridagi yangiliklar. T., «NORMA», 2012.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «2012-yil — Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi» mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. T., «O'qituvchi» NMIU, 2012.

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi» mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T., «Iqtisodiyot», 2011.

24. *A. Vahobov, A. Jo'rayev*. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T., «Sharq», 2009.

25. *A. Vahobov, Z. Sirojiddinova*. O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti. T., TMI, 2002.

26. *M.I. Alimardonov, Q.N. To'xsanov*. Soliq nazariyasi. T., O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.

27. *Q.A. Yahyoyev*. Soliq. T., «Mehnat», 1997.

28. *Q.A. Yahyoyev*. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T., «Fan va texnologiyalar», 2003.

29. *T. Malikov*. Soliqqa tortishning dolzarb masalalari. T., 2000.

30. *X.P. Sabirov, A.A. Fattaxov, O.N. Iminov*. Налогообложение малого и среднего бизнеса в Республике Узбекистан. T., «Moliya», 2000.

31. *Налоги и налогообложение. Учебник. Под ред. И.А. Майбурова*. M., «ЮНИТИ-ДАНА», 2008.

32. *И.В. Никулкина*. Общая теория налогообложения. Учеб. пособ. M., «ЭКСМО», 2010.

33. *Д. Рикардо*. Т. I. Сочинения. Начало политической экономики и налогообложения. Пер. с англ. M., «Госполитиздат», 1990.

34. *С.Г. Пенеляев*. Основа налогового права. M., 1995.

35. *Д.Г. Черник*. Налоги в рыночной экономике. M., «Финанс», 1992.

36. *И.А. Дрожжина, Б.Г. Маслов*. Налоговые системы зарубежных стран. M., «Дело и сервис», 2008.

37. *В. Болдрев*. Финанс капитализма. M., «Финанс», 1987.

38. *И.Г. Русакова и др.* Налоги и налогообложение. M., «ЮНИТА», 1998.

39. *L.V. Xvan*. Soliq huquqi. T., «Konsaudit inform», 2001.

40. *Sh. Gataullin*. Soliqlar va soliqqa tortish. T., 1996.

41. *И. Малмигиан*. Налоги как элемент финанса. Перевод с англ. M., 1997.

42. *В.У. Hodiyev, A.Sh. Bekturodov, B.K. To'xliyev*. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. T., «Iqtisodiyot», 2009.

43. *T. Malikov, N. Haydarov*. Budjet (tizimi, tuzilmasi, jarayoni). O'quv qo'llanma. T., «Iqtisod-moliya», 2008.

44. *B.K. To'xliyev, O.A. Yusupov, A.T. Ag'zamov, Q.N. To'xsanov*. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. T., 2007.

45. *E.C. Митюкова*. Налоговое планирование: анализ реальных схем. М., «ЭКСМО», 2011.
46. *C.C. Молчанов*. Налоги: расчет и оптимизация. М., «ЭКСМО», 2010.
47. Налоги и налогообложение. Учебник. Под ред. *И.А. Майбурова*. 2-е изд., перер. и доп. М., «ЮНИТИ-ДАНА», 2010.
48. *B. Toshmuradova*. Soliq munosabatlarini optimallashtirish. O'quv qo'llanma. T., TMI, 2005.
49. *T. Malikov*. Soliqqa tortishning dolzarb masalalari. T., 2000.
50. Temur tuzuklari. T., 1993.
51. «O'zbekiston iqtisodiyoti» statistik ma'lumotlar to'plami. T., O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, 2011.
52. www.lex.uz <<http://www.lex.uz>> — O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti.
53. www.mf.uz <<http://www.mf.uz>> — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
54. www.soliq.uz <<http://www.soliq.uz>> — O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti.
55. www.stat.uz <<http://www.stat.uz>> — O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

I bo'lim. SOLIQLARNING UMUMIY NAZARIYASI VA UNING ASOSLARI

1-bob. Fanning maqsadi va vazifalari. Soliq tushunchasi. Soliqning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

1.1. «Soliq tizimi» fanining maqsadi va vazifalari	6
1.2. Soliqlarning umumiy belgilari va boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqi	8
1.3. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati, obyektiv zarurligi va xususiyatlari	10

2-bob. Soliq siyosati, uning strategiyasi va taktikasi. Soliq tizimi tuzilishi, tarkibi, soliqlarning tasnifi. Soliq funksiyalari

2.1. Soliq siyosatining huquqiy asoslari, strategiyasi va taktikasi	17
2.2. Soliq tizimining tuzilishi, tarkibi va soliqlarning tasniflanishi	23
2.3. Soliqlarning funksiyalari va vazifalari	31

3-bob. Soliq mexanizmi tushunchasi

3.1. Soliq mexanizmining huquqiy asoslari	38
3.2. Soliqlarni undirish usullari	43
3.3. Soliq elementlarining tarkibi	45
3.4. Soliq imtiyozlari, ularning mohiyati va turlari	51

4-bob. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimi

4.1. Rivojlangan mamlakatlar soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari	58
4.2. Fransiya soliq tizimi asoslari	68
4.3. Buyuk Britaniya soliq tizimining asoslari	73
4.4. Belgiya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari	77
4.5. Italiyada soliqlarning vujudga kelishi va rivojlanishi	78
4.6. Federativ va konfederativ davlatlarning soliq tizimi xususiyatlari	82
4.7. Amerika Qo'shma Shtatlari soliq tizimining asoslari	84

II bo'lim. YURIDIK SHAXSLARNING SOLIQLARI VA SOLIQQA TORTISH

5-bob. Yuridik shaxs tushunchasi. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar

5.1. Yuridik shaxs tushunchasi	94
5.2. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar	97

6-bob. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i

6.1. Foyda solig'i to'lovchi yuridik shaxslar	101
6.2. Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar	104

7-bob. Foyda solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibi

7.1. Foyda solig'i stavkasi	133
7.2. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar	134

8-bob. O'zbekiston Respublikasi norezidentlari daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

8.1. Norezidentlarning daromadlaridan olinadigan soliq stavkasi	140
8.2. Norezidentlarning to'lov manbayida soliq solinadigan daromadlari	142

9-bob. Qo‘shilgan qiymat solig‘i, uni hisoblash tartiblari

9.1. Qo‘shilgan qiymat solig‘i tushunchasi	149
9.2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari	150
9.3. Soliq solish obyekti	151
9.4. Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish	156
9.5. Qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan va solinmaydigan oborotlar	158
9.6. Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkalari	166
9.7. Qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etiladigan oborotlar	167
9.8. Qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar	169
9.9. Qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadigan importlar	172

10-bob. Aksiz solig‘ini hisoblash va budjetga to‘lash tartibi

10.1. Aksiz solig‘i to‘lovchilari	176
10.2. Aksiz solig‘i obyekti	176
10.3. Soliq davri	181

11-bob. Yer qa‘ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar

11.1 Yer qa‘ridan foydalanuvchilar uchun soliq to‘lovlari	183
11.2. Soliq solish obyekti	184
11.3. Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi	185

12-bob. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

12.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar	194
12.2. Soliq solish obyekti	194
12.3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq imtiyozlari	196

**13-bob. Mahalliy soliqlar, yig'implarni hisoblash
va to'lash tartibi**

13.1. Mahalliy soliqlar, yig'implarning mohiyati va tarkibi	201
13.2. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibi	203
13.3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga yagona yer solig'i	207
13.4. Respublikamizda jismoniy shaxslar yer solig'i	212
13.5. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	216
13.6. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i	220
13.7. Mahalliy yig'implarni budjetga to'lash tartibi	223

**III bo'lim. SOLIQ SOLISHNING SODDALASHTIRILGAN
TARTIBI**

14-bob. Soddalashtirilgan soliq solish tartibi

14.1. O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi, unda kichik biznes va tadbirkorlikning roli	230
14.2. Kichik biznesning mohiyati va afzalliklari	231
14.3. Kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi	237
14.4. Tadbirkorlikning mohiyati va uni soliqqa tortish	250

**IV bo'lim. JISMONIY SHAXSLARNI
SOLIQQA TORTISH**

**15-bob. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar
va ularning ahamiyati**

15.1 Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning shakllanishi va ularning ahamiyati	260
15.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va yig'implar	261
15.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining iqtisodiy mohiyati va davlat budjeti daromadlarida tutgan o'rni	261
15.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari va ushbu soliqdan belgilangan soliq imtiyozlari	265
15.5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi	274

16-bob. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq

- 16.1. Qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar tarkibi, soliqqa tortish obyekti va soliq solinadigan baza 283
- 16.2. Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari 283
- 16.3. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari 284
- 16.4. Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari 286

17-bob. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq

- 17.1. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lovchilar, soliqqa tortish obyekti, bazasi 289
- 17.2. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq stavkasi 289
- 17.3. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq hisobini yuritish tartibi va uni to'lash muddatlari 291
- Foydalanilgan adabiyotlar 292

SADRIDDIN KARIMOVICH XUDOYQULOV

SOLIQ TIZIMI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

2-nashri

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2013

Muharrir *I. Usmonov*
Badiiy muharrir *Sh. Odilov*
Texnik muharrir *F. Samadov*
Musahhah *T. Mirzayev*

X-87 XUDOYQULOV S.K. SOLIQ TIZIMI.
Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma
(2-nashri). T.: «ILM ZIYO», 2013. — 304 b.

UO'K: 336.22 (075)
KBK 65.261.4

ISBN 978-9943-16-108-5